



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

**2023/aprel**

**TA'LIM VA  
INNOVATION  
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND  
INNOVATIVE  
RESEARCH**

**TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR**  
**ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ**  
**EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH**



№ 2023  
aprel

<p><b>Muassis:</b> Buxoro davlat universiteti Fan va ta'lim MChJ</p> <p><b>Bosh muharrir:</b> Ma'murov Bahodir Baxshullayevich</p> <p><b>Jamoatchilik kengashi raisi:</b> Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori</p> <p><b>Tahririyat kengashi raisi:</b> Maxmudov Mels Hasanovich</p> <p><b>Mas'ul kotib:</b> Akramova Gulbahor Renatovna</p> <p><b>Texnik muxarrir:</b> Davronov Ismoil Ergashevich</p> <p><b>Tahririyat manzili:</b> Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy</p> <p>Telefon: +998(90)744-00-22</p> <p>E-mail: eirjurnal2020@gmail.com</p> <p>Jurnalning elektron sayti: www.interscience.uz</p> <p>Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrdagi 306/6-son Qarori bilan PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan</p> <p>Bosishga ruxsat etildi: 28.04.2023 y. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5. Buyurtma raqami 1.23 «FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar</p> <p>Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan</p> <p>Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi</p> <p>«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatining roziligi bilan amalga oshiriladi</p> <p>Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir</p>	<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
	Saidova R. Tariqat sifatida malomatiylikning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	7
	Эргашева Х. Ю. Мактабгача таълимда иккинчи тили ўргатишнинг концепция ва тамойиллари.	19
	Narzilloeva M. Sh. Jondor toponimlarining leksik xususiyatlari	27
	<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
	Yuldasheva M. M. Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda tolerantlik tafakkuri va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirish texnologiyasi	38
	Mametjumayeva G. R. Boshlang'ich sinf darsliklarida keltirilgan frazeologik birliklarning o'quvchilar nutqidagi ahamiyati.	43
	Sobirov U. G'. XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Buxoroda maorif islohotlari va an'anaviy ta'limga kiritilgan o'zgarishlar	56
	Saparova Sh. R. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Elbekning yaratgan darsliklari	68
	Holiqova M. K. 4-sinf o'qish kitobi adabiy parchalari vositasida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni estetik tarbiyalash	77
Mamurov B. B Bolalarni tarbiyasi va rivojlanishida o'yinlardan foydalanish muammosi	88	
Атамуродова Р Қ, Абдулла Ориповнинг «Соҳибқирон» достони - таълим жараёнида миллий ғурур ва ифтихор туйғусини шакллантирувчи восита сифатида	98	
Камолова Ш. У. Талабалар илмий дунёқарашини юксалтиришда ахборот технологиялардан фойдаланиш имкониятлари	104	
Давронов Ш. И. Бошланғич синф ўқувчиларини соғломлаштиришни ташкиллаштириш методикаси	114	
Shokirova M. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim sharoitida oila va maktab o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni modellashtirish	122	
Ergasheva T. Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari	127	
Норова К. Ю. Олий таълим муассасаларидатаълим хизматлари сифатини бошқаришда замонавий ёндашувлар ва педагогик технологиялардан фойдаланиш тизими	132	

Tilavova M. M., Tursunova N. 2-sinf texnologiya darslarini milliy o'quv dasturi asosida tashkil etish metodikasi	142
Cho'liyeva M. S. Boshlang'ich ta'lim jahon ta'lim makonida boshlovchi maydon hisoblanadi	148
Fayzullaeva M. Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirishda badiiy adabiyotning roli	158
Fayzullaeva M. A. Forms of work with computer training programs in english lessons	163
Rajabov E. E. Ingliz tili darslarida o'quvchida nutqiy va til kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar	172
Hasanova B. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'quv jarayonlarini tashkil etish va innovatsion texnologiyalarning amaliy ahamiyati	176
Davronov N.I. Qadriyatli yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik sharoitlari	179
Suyarov K. T. "Tabiiy fanlar"ni o'qitish jarayonida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish	185
Mamajonov O'. T. Oliy ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchining ma'naviy kompetentlik darajasini belgilovchi omillar	190
<b>19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI</b>	
Nabiyev M. B. Tush ko'rish jarayonining ijtimoiy-psixologik, fiziologik va diniy yondashuv asosida tahlili	196
Maxmudova D. I. Oiladagi farzandlarning tug'ilish ketma-ketligining o'ziga xos xususiyatlari	208
Akromov A. Sh. Inson salomatligini qo'llab-quvvatlashning psixologik mexanizmlari va determinantlari	220
Axmedova M. L. Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan psixologik faoliyat mazmuni	232
Қаршибоева Г. А. Суицидал хулқ-атвор тизимидаги шахс ривожланиш омиллари	240
Ochilov Ch. Q. Anomal bolalarni sog'lom tengdoshlari orasida inklyuziv ta'lim berishning psixologik jihatlari	251
Majidov Jasur Baxtiyarovich Professional futbol jamoalarida murabbiy va sporchi munosabatlarining o'ziga xosligi	259
Abdusamatov J. Q. Zamonaviy ta'lim tizimidagi dolzarb masalalar	272
Kodirova N.A. "Socio-psychological determinants of the development of ideas about tourism among young people"	279



<b>08.00.00 - IQTISODIYOT</b>	
Rahmatov Sh. A. Jahonda zamonaviy oliy ta'lim muassasalar shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy shart-sharoitlar va omillar	285
Hamidov R. E. Yangi O'zbekiston sharoitida inson kapitalini 261rivojlantirishning ahamiyati.	290



## Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar

### JAMOATCHILIK KENGASHI A'ZOLARI

- Djurayev Risboy Haydarovich*, pedagogika fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi  
*Shamsutdinov Rustambek Temirovich*, Andijon davlat universiteti professori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi, tarix fanlari doktori  
*Majidov Inom Urushevich*, texnika fanlari doktori, professor. O'zbekiston milliy universiteti.  
*Olimov Qahramon Tanzilovich*, pedagogika fanlari doktori, professor. A.I.Gersanov nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Toshkent filiali  
*Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich*, texnika fanlari doktori, professor  
*Musurmonova Oyniso*, pedagogika fanlari doktori, professor  
*Safarova Rohat G'aybulloevna*, pedagogika fanlari doktori, professor, T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti.  
*Ibragimov Xolboy Ibragimovich*, pedagogika fanlari doktori, professor. O'zbekiston jaxon tillari universiteti

### TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

#### XORIJ OLIMLARI

- Artamonova Yekaterina Iosifovna*, pedagogika fanlari doktori, professor, Moskva davlat pedagogika universiteti, Xalqaro pedagogika fanlari akademiyasining prezidenti  
*Yemlyanova Irina Yevgenyevna*, pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy-pedagogika universiteti, Rossiya  
*Kuzmenko Galina Anatolevna*, pedagogika fanlari doktori, professor. Moskva davlat pedagogika universiteti, Jismoniy tarbiya, sport va salomatlik instituti  
*Safaraliyev Bozor Safaraliyevich*, pedagogika fanlari doktori, professor. Chelyabinsk davlat akademiyasi  
*Kulishov Vladimir Vasilevich*, pedagogika fanlari doktori, professor. Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina  
*Lazarenko Irina Rudolfovna*, pedagogika fanlari doktori, professor. Altay davlat pedagogika universiteti rektori, Rossiya  
*Filippova Oksana Gennadevna*, pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy-pedagogika universiteti, Rossiya  
*Xristo Kyuchukov*, pedagogika fanlari doktori. Umumiy tilshunoslik va psixolingvistika professori. Berlin Erkin universiteti, Turkologiya instituti. Xalqaro psixolingvistika va Sotsiolingvistika jurnali asoschisi va muharriri, Germaniya  
*Kumskov Mixail Ivanovich*, fizika-matematika fanlari doktori, professor. M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti  
*Maksimenco Sergey Dmitriyevich*, akademik, psixologiya fanlari doktori, professor. Ukraina Milliy pedagogika fanlari akademiyasining akademigi  
*Padalka Oleg Semenovich*, pedagogika fanlari doktori, professor. M.P. Dragomanova nomidagi pedagogika milliy universiteti, Ukraina  
*Hazretali Tursun*, tarix fanlari doktori, professor. Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universiteti professori  
*Mamedova Irada*, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, Ozarbayjon Milliy akademiyasi Tarix instituti bo'lim boshlig'i  
*Timur Xo'jao'g'li*, tilshunos va adabiyotshunos olim. Michigan universiteti professori (AQSh)  
*Nurettin Hatunoglu* Doç. Dr. Zonguldak Bülent Ecevit Üniversitesi Fen-Edebiyat Fakültesi Tarih Bölümü (Turkiya)  
*Mullodjanov Sayfullo Kuchakovich*, tarix fanlari doktori, professor. Tojikiston milliy universiteti  
*Gushko Sergey Vladimirovich*, iqtisodiyot fanlari doktori, professor. Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina

### O'ZBEKISTON OLIMLARI

#### TARIX FANLARI

- Inoyatov Sulaymon Inoyatovich*, tarix fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti  
*Rajabov Qahramon Kenjayevich*, tarix fanlari doktori, professor. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi  
*Rashidov Oybek Rasulovich*, tarix fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti

#### FILOLOGIYA FANLARI

- Madjidova Ra'no Urishevna*, filologiya fanlari doktori, professor. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
*Sharipova Laylo Frunzeyevna*, filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti  
*Nigmatova Lolaxon Xamidovna*, filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti  
*Yusupova Hilola O'ktamovna*, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti  
*Ro'ziyeva Mohichehra Yoqubovna*, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doyrtori (PhD), dotsent. Buxoro davlat universiteti

#### PEDAGOGIKA FANLARI

- Tolipov O'tkir Qarshiyevich*, pedagogika fanlari doktori, professor. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.  
*Olimov Shirinboy Sharofovich*, pedagogika fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti  
*Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich*, pedagogika fanlari doktori, dotsent. Buxoro davlat universiteti  
*Tilavova Matlab Muxammadovna*, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat universiteti  
*Sohibov Akram Rustamovich*, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Qarshi davlat universiteti  
*Umarov Baxshullo Jo'rayevich*, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat universiteti  
*Hasanova Gulnoz Qosimovna*, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat universiteti  
*Inoyatov Abdullo Shodiyevich*, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat universiteti

#### PSIXOLOGIYA FANLARI

- Umarov Baxriddin Mingbayevich*, psixologiya fanlari doktori, professor. Toshkent davlat pedagogika universiteti  
*Bafayev Muxiddin Muxammadovich*, psixologiya fanlari buyicha falsafa doktori (PhD). Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

#### IQTISODIYOT FANLARI

- Kurolov Kobuljon Kulmanovich*, iqtisodiyot fanlari doktori, professor. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori  
*Mamanazarov Abdulkakim Bozorovich*, iqtisodiyot fanlari fan nomzodi, dotsent. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Toshkent filiali

#### FALSAFA FANLARI

- Namozov Bobir Bahriyevich*, falsafa fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti

#### SIYOSIY FANLAR

- Jumayev Rustam G'aniyevich*, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Buxoro davlat universiteti

#### BIOLOGIYA FANLARI

- Artikova Hafiza To'yumurovna*, biologiya fanlari doktori, dotsent. Buxoro davlat universiteti



## ЧЛЕНЫ ОБЩЕСТВЕННОГО СОВЕТА

- Джураев Рисбой Хайдарович*, доктор педагогических наук, академик АНРУз  
*Шамсутдинов Рустамбек Темирович*, профессор Андижанского государственного университета, заслуженный работник культуры Узбекистана, доктор исторических наук  
*Мажидов Ином Урушев*, доктор технических наук, профессор, Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека  
*Олимов Кахрамон Танзилевич*, доктор педагогических наук, профессор, Ташкентский филиал Российского государственного педагогического университета имени А.И. Герцена  
*Таджиходжаев Зокирхужа Абдусатторович*, доктор технических наук, профессор  
*Мусурмонова Ойнисо*, доктор педагогических наук, профессор  
*Сафарова Рохат Гайбуллоевна*, доктор педагогических наук, профессор, Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук имени Т. Н. Кори-Ниязи  
*Ибрагимов Холбой Ибрагимович*, доктор педагогических наук, профессор, Узбекский государственный университет мировых языков

РЕДАКЦИОННО-ИЗДАТЕЛЬСКИЙ СОВЕТ  
ЗАРУБЕЖНЫЕ УЧЕНЫЕ

- Артамонова Екатерина Иосифовна*, доктор педагогических наук, профессор, Московского государственного педагогического университета. Президент Международной академии педагогических наук  
*Емельянова Ирина Евгеньевна*, доктор педагогических наук, профессор, Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет. Россия  
*Кузьменко Галина Анатольевна*, доктор педагогических наук, профессор, Московский государственный педагогический университет, Институт физической культуры, спорта и здоровья  
*Сафаралиев Бозор Сафаралиевич*, доктор педагогических наук, профессор кафедры социально-культурной деятельности Челябинской государственной академии  
*Кулишов Владимир Васильевич*, доктор педагогических наук, профессор, Государственный университет экономики и технологий, Кривой Рог, Украина  
*Лазаренко Ирина Рудольфовна*, доктор педагогических наук, профессор, Ректор Алтайского государственного педагогического университета, Россия  
*Филиппова Оксана Геннадьевна*, доктор педагогических наук, профессор, Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет. Россия  
*Христо Кючук*, доктор педагогических наук. Профессор общего языкознания и психолингвистики. Свободный университет Берлина, Институт тюркологии. Редактор Международного журнала психолингвистики и социолингвистики, Германия  
*Кумсков Михаил Иванович*, доктор физико-математических наук, профессор Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова  
*Максименко Сергей Дмитриевич*, академик, доктор психологических наук, профессор. Академик Национальной академии педагогических наук Украины  
*Падалка Олег Семенович*, доктор педагогических наук, профессор, Национального педагогического университета имени М.П. Драгоманова, Украина  
*Хазретали Турсун*, доктор исторических наук, профессор Международного казахско-турецкого университета имени Ходжи Ахмада Яссави  
*Мамедова Ирада*, PhD по историческим наукам, доцент, заведующий институтом истории Национальной Академии Азербайджана  
*Тимур Хужаугли*, лингвист и литературовед. Профессор Мичиганского университета (США)  
*Nigetin Natipoglu*, Assoc. доктор, университет Зонгулдак Бюлент Эджевит, факультет искусств и наук, исторический факультет (Турция)  
*Муллоджанов Сайфулло Кучакович*, доктор исторических наук, профессор, Национальный университет Таджикистана  
*Гушко Сергей Владимирович*, доктор экономических наук, профессор, проректор Государственного экономико-технологического университета, Кривой Рог, Украина

## УЧЕНЫЕ УЗБЕКИСТАНА

- История**  
*Иноятов Сулаймон Иноятович*, доктор исторических наук, профессор, Бухарский государственный университет  
*Раджабов Кахрамон Кенжаевич*, доктор исторических наук, профессор, ведущий научный сотрудник Института истории Академии наук Узбекистана  
*Ойбек Расулович Рашидов*, доктор исторических наук, Бухарский государственный университет
- Филология**  
*Маджидова Рано Уришевна*, доктор филологических наук, профессор, Узбекский государственный университет мировых языков  
*Шарипова Лайло Фрунзеевна*, доктор филологических наук, Бухарский государственный университет  
*Нигматова Лолахан Хамидовна*, доктор филологических наук, Бухарский государственный университет  
*Юсупова Хилола Уктамовна*, кандидат филологических наук, доцент, Бухарский инженерно-технологический институт  
*Рузиева Мохичехра Якубовна*, доктор философских наук, доцент, Бухарский государственный университет
- Педагогика**  
*Толипов Уткир Каршиевич*, доктор педагогических наук, профессор, Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами.  
*Олимов Ширинбой Шарофович*, доктор педагогических наук, профессор, Бухарский государственный университет  
*Джураев Хусниддин Олтинбаевич*, доктор педагогических наук, доцент, Бухарский государственный университет  
*Тилавова Матлаб Мухаммадовна*, кандидат педагогических наук, доцент, Бухарский государственный университет  
*Дилова Наргиза Гайбуллаевна*, PhD по педагогическим наукам, доцент, Бухарский государственный университет  
*Сохибов Акрам Рустамович*, кандидат педагогических наук, доцент, Каршинский государственный университет  
*Умаров Бахшулло Джураевич*, кандидат педагогических наук, доцент, Бухарский государственный университет  
*Хасанова Гулноз Касимовна*, кандидат педагогических наук, доцент, Бухарский государственный университет  
*Иноятов Абдулло Шодиевич*, доктор философских наук (PhD) в области педагогических наук, доцент, Бухарский государственный университет
- Психология**  
*Умаров Бахриддин Мингбаевич*, доктор психологических наук, профессор, Ташкентский государственный педагогический университет  
*Бафеев Мухиддин Мухаммадович*, PhD по психологическим наукам, Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами
- Экономика**  
*Куролов Кобулжон Кулманович*, доктор экономических наук, профессор, Директор сетевого центра переподготовки и повышения квалификации педагогов Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова  
*Маманазаров Абдухаким Бозорович*, кандидат экономических наук, доцент, Ташкентский филиал Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова
- Философия**  
*Намозов Бобир Багриевич*, доктор философских наук, Бухарский государственный университет
- Политика**  
*Джумаев Рустам Ганиевич*, доктор философии (PhD) по политическим наукам, доцент, Бухарский государственный университет
- Биология**  
*Артикова Хафиза Тоймуродовна*, доктор биологических наук, доцент, Бухарский государственный университет

**EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH****MEMBERS OF THE PUBLIC COUNCIL**

- Djuraev Risboy Haydarovich**, Doctor of Pedagogical Sciences, Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan  
**Shamsutdinov Rustambek Temirovich**, Professor of Andijan State University, Honored Worker of Culture of Uzbekistan, Doctor of Historical Sciences  
**Majidov Inom Urushevich**, Doctor of Technical Sciences, Professor. National University of Uzbekistan.  
**Olimov Kahramon Tanzilovich**, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Tashkent branch of the Russian State Pedagogical University named after AI Gertsen  
**Tadjikhodjaev Zokirkhoja Abdusattorovich**, Doctor of Technical Sciences, Professor  
**Musurmonova Oyniso**, doctor of pedagogical sciences, professor  
**Safarova Rohat Gaybulloevna**, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Uzbek Scientific Research Institute of Pedagogical Sciences named after TN Qori-Niyazi.  
**Ibragimov Kholboy Ibragimovich**, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Uzbekistan University of World Languages

**MEMBERS OF EDITORIAL COUNCIL**

- Artamonova Ekaterina Iosifovna**, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, President of the Moscow State Pedagogical University, International Academy of Pedagogical Sciences  
**Emelyanova Irina Evgeneevna**, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, South Ural State Humanitarian Pedagogical University. Russia  
**Kuzmenko Galina Anatolevna**, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Moscow State Pedagogical University, Institute of Physical Culture, Sports and Health  
**Safaraliev Bozor Safaralievich**, doctor of pedagogical sciences, professor. Chelyabinsk State Academy  
**Kulishov Vladimir Vasilevich**, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukraine  
**Lazarenko Irina Rudolfovna**, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Rector of Altai State Pedagogical University, Russia  
**Filippova Oksana Gennadevna**, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. South Ural State Humanitarian Pedagogical University. Russia  
**Christo Kyuchukov**, Doctor of Pedagogical Sciences. Professor of General Linguistics Psycholinguistics. Free University of Berlin, Institute of Turkology. Founder and editor of the International Journal of Psycholinguistics and Sociolinguistics, Germany  
**Kumskov Mikhail Ivanovich**, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor. M.V. Lomonosov Moscow State University  
**Maksimenko Sergey Dmitriyevich**, academician, doctor of psychological sciences, professor. Academician of the National Academy of Pedagogical Sciences of Ukraine  
**Padalka Oleg Semenovich**, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, National Pedagogical University named after M.P. Dragomanova, Ukraine  
**Hazretili Tursun**, Doctor of Historical Sciences, Professor of the International Kazakh-Turkish University named after Khoja Ahmad Yassavi  
**Timur Khuzhaugli**, linguist and literary critic. Professor at the University of Michigan (USA)  
**Nurettin Hatunoğlu Assoc. Dr., Zonguldak Bulent Ecevit University, Faculty of Arts and Sciences, Department of History (Turkey)**  
**Mullojanov Sayfullo Kuchakovich**, Doctor of Historical Sciences, Professor. National University of Tajikistan  
**Gushko Sergey Vladimirovich**, Doctor of Economics, Professor, Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukraine

**SCIENTISTS OF UZBEKISTAN****History**

- Inoyatov Sulaimon Inoyatovich**, Doctor of Historical Sciences, Professor. Bukhara State University  
**Rajabov Kakhramon Kenjayevich**, Doctor of Historical Sciences, Professor, Leading Researcher of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Rashidov Oybek Rasulovich**, Doctor of Historical Sciences. Bukhara State University

**Philology**

- Majidova Rano Urishevna**, Doctor of Philology, Professor, Uzbek State University of World Languages  
**Sharipova Laylo Frunzeyevna**, Professor, Doctor of Philology. Bukhara State University  
**Nigmatova Lolaxon Xamidovna**, Doctor of Philology. Bukhara State University  
**Yusupova Khillola Oktamovna**, candidate of philological sciences, associate professor. Bukhara Engineering and Technology Institute  
**Ruziyeva Mohichehra Yakubovna**, Doctor of Philosophy, Associate Professor. Bukhara State University

**Pedagogy**

- Tolipov Utkir Karshiyevich**, Doctor of Pedagogy, Professor. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.  
**Olimov Shirinboy Sharofovich**, doctor of pedagogical sciences, professor. Bukhara State University  
**Jurayev Khusniddin Oltinbayevich**, Doctor of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University  
**Tilavova Matlab Muhammadovna**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University  
**Dilova Nargiza Gaybullayevna**, PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University  
**Sohibov Akram Rustamovich**, candidate of pedagogical sciences, associate professor. Karshi State University  
**Umarov Bakhshullo Djurayevich**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University  
**Khasanova Gulnoz Kasimovna**, candidate of pedagogical sciences, associate professor. Bukhara State University  
**Inoyatov Abdullo Shodievich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University

**Psychology**

- Umarov Bakhridin Mingbayevich**, Doctor of Psychology, Professor. Tashkent State Pedagogical University  
**Bafayev Muhiddin Mukhamadovich**, PhD in Psychological Sciences. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

**Economy**

- Kurolov Kobuljon Kulmanovich**, Doctor of Economics, Professor. Director of the network center for retraining and advanced training of teachers of the Tashkent State Technical University named after Islam Karimov  
**Mamanazarov Abdulkhakim Bozorovich**, candidate of economic sciences, associate professor. Tashkent branch of Moscow State University. M.V. Lomonosov

**Philosophy**

- Namozov Bobir Baxriyevich**, Doctor of Philosophy. Bukhara State University

**Politics**

- Djumayev Rustam Ganiyevich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Political Sciences, Associate Professor. Bukhara State University

**Biology**

- Artikova Khafiza Tuymurodovna**, Doctor of Biological Sciences, Associate Professor. Bukhara State University

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

### TARIQAT SIFATIDA MALOMATIYLIKNING YUZAGA KELISHI VA SHAKLLANISH TARIXI

Saidova Rayhon,

PhD, dotsent “Maktabgacha ta’lim va sport” kafedrası mudiri  
ZARMED UNIVERSITY

*Annotatsiya: Tasavvuf manbalari hamda soʻfiyona adabiyotda malomat tushunchasining mazmun mohiyati va malomatiylik tariqatining dunyoga kelish tarixi ushbu maqolada ilmiy-nazariy asoslandi. Maslak paydo boʻlgan hududlar haqida toʻxtalindi. Tariqat taʼlimida malomat hol-maqomining tutgan oʻrni haqidagi fikr-qarashlar bildirildi. Malomatiylik tariqatining asoschisi Hamdun Qassor hayoti, maʼnaviy hol va darajasi, shuningdek, pir va muridlari haqida ham soʻz yuritildi. Hijriy II asrdan boshlab malomat ahli tarixi yoritilgan manbalarga murojaat qilindi. Malomatiylik maslagi hamda malomat holining irfoniy-badiiy adabiyotdagi talqinlari Qurʼoniy oyat va hadisi sharif kabi manbalarga tayangan holda tadqiq etildi. Malomatiylarga turli nomlar ila ishora etilishi haqiqatlari ham yoritib berildi.*

*Kalit soʻzlar: tasavvuf, maslak tariqat, valiy, xonaqoh malomat, malomatiylik, maqom, hol, ishq, irfon, solik, soʻfiy, mutasavvif, islom, paygʻambar, nubuvvat, badiiy.*

*Annotation: Sufism sources and the essence of the concept of blame in Sufi literature and the history of the birth of the religion of blame were scientifically and theoretically based in this article. It was mentioned about the areas where Maslak appeared. Opinions were expressed about the role of blame in Tariqat education. The life, spiritual condition and level of the founder of the Malomatia sect, Hamdun Qassar, as well as his pirs and murids were discussed. Starting from the 2nd century of Hijri, the sources that covered the history of malamamat people were referred to. The fact that malomatis are referred to by different names was also explained.*

*Key words: Sufism, maslak tariqat, wali, khanaqah malamamat, malamatiye, status, condition, love, gnosis, tax, Sufi, mysticism, Islam, prophet, prophecy, artistic.*

*Аннотация: В данной статье научно и теоретически обоснованы истоки суфизма и сущность понятия вины в суфийской литературе и история зарождения религии вины. Упоминалось о*



местах, где появился Маслак. Высказывались мнения о роли вины в тарикатном обучении. Обсуждались жизнь, духовное состояние и уровень основателя секты Маломатия Хамдуна Кассара, а также его пиров и мюридов. Начиная со 2 века хиджры стали обращаться к источникам, освещающим историю народа маламат. Также был объяснен тот факт, что маломатисы называют разными именами.

*Ключевые слова:* суфизм, маслак тарикат, вали, ханака маламат, маломатия, статус, состояние, любовь, гнозис, налог, суфий, мистицизм, ислам, пророк, пророчество, художественный.

Malomatiylik maslagi va uning shakllanish jarayoni haqidagi fikr-qarashlar hijriy II asrda paydo bo'lgan tasavvuf ta'limoti haqidagi tasavvur bilan chambarchas bog'liq. Axloqiy-ma'naviy tarbiya maktabi hisoblanmish tasavvufning dunyoga kelishi ma'lum ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy omillarga bog'liq. Bu ta'limotning insonlar qalbida chuqur o'rnashishi va hayotiy bir mezonga aylanishi esa ma'naviy-ruhiy bir ehtiyoj tufayli edi. Ushbu irfoniy maktab ta'siri juda katta bo'lib, musulmon olamida tez va keng tarqalishi ham alohida hodisa. Odamlarning islomga muhabbati hamda jamiyatning unga munosabati ham shunday bir ruhiy tarbiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Biroq bu ta'limotda jo'g'rofiy, milliy bir o'ziga xosliklarning ta'siri ham sezildi. Unda ba'zi o'zgarishlar, sayqallanishlar, yuksalishlar ham aniq ko'rindi. Mana shu zaylda o'ziga xos jihatlariga ega turli tariqatlar paydo bo'la boshladi. Shu ma'noda malomatiylik maslagining ham shakllanish sabablari va asoschilari mavjud. Iroq, Kufa, Bag'dodda keng tarqalib Xuroson va Nishopur o'lkalariga ham yetib kelgan bunday ma'naviy bir jarayonga ko'plab tasavvufshunoslar ilmiy-nazariy baho berishgan. Jumladan, turk tasavvufshunosi Usmon Turar: "Xurosonda yashagan ahli tasavvufning ko'pchiligi Iroqda hokim bo'lgan tasavvuf qarashlarini "shakliy" deb topib tasavvufni zohirga oshkor etmay, uning faqatgina qalbdagi yashamog'i lozimligini va insonning asl vazifasi – nafsini isloh etmoq, riyo amallaridan saqlanmoq, qalbini faqatgina Allohga bog'lamoq ekanini ta'kidlaganlar. Bu mutasavviflar xonaqohlar qurdirib, maxsus qiyofalarga kirib, oshkor zikr majlislari uyushtirib, jamiyatdan ajralib, o'zgacha bir guruhga aylanishni riyokorlik, deb bilganlar. Ushbu fikr-qarashlar asosida Hamdun Qassor tomonidan "malomatiya" deb atalgan yangi tasavvuf maktabi paydo bo'ldi. Shu sababli, ayniqsa, Xurosonda paydo bo'lgan tariqatlarda "malomat" tushunchasi keng tarqalgan (9: 32)", – degan edi. Asoschisi Hamdun Qassor bo'lganligi bois tasavvuf tarixida nufuzli mavqega ega bo'lgan

malomatiya qassoriya nomi bilan ham mashhur bo'lgan. Hamdun Qassor Nishopurda yashagan. U o'z davrining ulug' valiyisi Abu Turobning muridi edi. Husayn Borusiy, Abu Turob Naxshabiy va Ali Nasrobodiy kabi ulug' shayxlar bilan nafaqat zamondosh, balki munosib suhbatdosh ham bo'lgan. Shayx hijriy 271 (mil: 884) yilda vafot etadi, qabri Hirotdadir. Bunday bir tariqatning dunyoga kelishida "... yagonai qiyomat va nishonai alomat, piri arbobi zavq va shayxi ashobi shavq, ulug' valilardan, taqvoda maqtalgan, mujohid va mushohadasi bag'oyat kuchli, so'zlari juda ta'sirli (2:331)" shayx Ahmad Qassordagi fiqhiy bilim, ilmu ma'rifat yetarli bo'lgan va nafs tarbiyasida o'ziga xos usul yaratgan. Bu maslakning qalblarda joy olishida u yashagan ijtimoiy davr va muhitning ham, albatta, ta'siri katta edi. Hamdun Qassor asos solgan mazkur tariqat "malomiya" deb yuritilib, ularga xos ulug' fazilatlar tufayli malomiylar "umano (aminlar)", "ahfiya", "xuroson erlari" kabi ismlar bilan ham atalgan. Ma'lumki, Rasulullohning go'zal laqablaridan biri Amin edi. Ishonchli odamlarga nisbatan umano, ya'ni "aminlar" deyishgan. Ishonib berilgan ilohiy sir va botiniy haqiqatni o'z ahlidan bo'lmaganlarga oshkor etmaganlaridan malomat ahliga umano nomi berilgan. Ular o'z hollarini, aniqrog'i, barcha ezgu niyat va amallarini xalqdan pinhon tutishgan. Bu Allohga maqbul ixlos fazilatidan "ahfiya" nomini ham olishgan. Mazkur ism xafiy so'zidan olingan bo'lib, yashirin, maxfiy ma'nosini beradi. Zero, malomatiylarda o'zlarini xalqdan ayiruvchi hech qanday bir maxsus belgi va nishon bo'lmagan. Yaratganninggina rizosiga erishmoq, Undangina marhamat kutmoq orzusi ularga ahfiya nomi berilishining bosh sabablaridandir. Malomatiylik maslagi Xurosonda shakllangani bois ularni "xuroson erlari" deb ham atashgan. Tasavvufshunoslar nazdida, Xuroson erlari iborasi malomatiylik maslagidagi ahli dillarni bildirgan.

Alisher Navoiy ham "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida malomatiylarga alohida e'tibor qaratib, Hamdun Qassor haqida: "Kuniyati Abu Solih. Malomatiyaning shayx va imomidur. Nishoburda malomat tariqin ul nashr qildi. Avval mas'alaki, andin Iroqqa eltilar. Sahl bin Abdulloh Tustariy va Junayd dedilar—kim, agar ravo bo'lsa erdiki, Ahmad Mursal (s.a.v.)din so'ngra payg'ambare bo'lg'ay erdi, ul bo'lg'ay erdi. Ul olim va faqih erdi", – degan edi. Bu tariqatning ta'siri shu darajada ahamiyatli bo'lganki, Hamdun Qassor va u asos solgan malomatiylik maslagi xususida tasavvuf haqida asos manba bo'la oladigan "Tabaqot us-so'fiya", "Risolai Qushayriy", "Ihyoi ulumiddin", "Kashf ul-mahjub", "Futuhoti Makkiya", «Avorif ul-maorif», "Mirsod ul-ibod", "Nafohat ul-uns" kitoblarida batafsil to'xtalingan. Hamda uning tasavvuf ta'limotining rivojlanish tarixidagi muhim jihatlari

yoritib berilgan.

Ma'lumki, tasavvufda har bir maqom va hol biror Qur'oniy oyat yoki hadis bilan asoslangan. So'fiylar ham hayot yo'llarini, shubhasiz, Kalomullohdagi amr va ko'rsatmalar asosida belgilagan edilar. Zero, ma'naviy hayotning buyuk tamsilchisi Rasululloh (s.a.v.) ekan, u zot to'g'risida Oisha (r.a.)ning shunday e'tiroflari bor: "U kishining hayot yo'llari Qur'on edi". Tariqat ahli uchun Allohga ishq nubuvvatga muhabbatdan boshlangan. Ahli dillar payg'ambar (s.a.v.) sunnatlariga amal qilib, sahobalarga munosib izdosh bo'lishgan. Zero, oyati karimada ham: "Ayting (ey Muhammad) "Agar Allohni sevsangiz, menga ergashinglar. Shunda Alloh sizlarni sevadi... (Oli Imron: 3/31)", – deya marhamat qilingan edi. Ibn Arabiyga ko'ra, malomat Rasululloh (s.a.v.) va Abu Bakr siddiq (r.a.)larning maqomidir. Shayxlardan Hamdun Qassor, Abu Said Xarroz, Boyazid Bistomiy, Abdulqodir Giloniylar bu martabaga yuksalganlar. Darhaqiqat, malomat qilunuvchilar safining boshida ham Rasululloh (s.a.v.) turadilar. U zotga qilingan ta'nayu dashnomlarning cheki chegarasi yo'q edi. U malomatlarning yukini ham insoniyatdan biror biri kishi ko'tarmagan edi. Malomat yo'lini tutgan sodiq ummatlar buning mohiyatini yaxshi bilishgan. Sunnatga bo'lgan muhabbatlari bu aziyatlarni ko'tarishda yengillik hosil qilgan. Malomatiylar haqidagi bu xususiyatlar barcha asarlarda e'tirof etilgan. Jumladan, taniqli tasavvufshunos S.Uludog': "Rasululloh (s.a.v.) vahiy kelmasdan oldin hamma uchun yaxshi bir ism sohibi, buyuk shaxsiyat edi. Boshiga do'stlik toji kiydirilishi bilan xalq uni malomat qilishga boshladi. Ba'zilar kohin, ba'zilar shoir, ba'zilar telba, ba'zilar yolg'onchi, ba'zilar sehrigar va hk., deyish bilan uni malomat qildilar (10: 382)". Chunki insonning Allohga qanchalar unsiyati bo'lsa, g'animlarning fitna va adovati ham shunchalar buyuklashadi. Biroq ularning malomati nafsni yanayam tazkiya etilishiga sabab bo'lishi bani bashar tarixidan ma'lumdur. Barcha payg'ambarlar o'z ummatlari tomonidan malomat qilinganlar. Ularga ergashgan ummatlar ham bu ta'nalardan omon qolmagan. Lekin bu azobu uqubatlar ularda zarra qadar iymon zaiflashuviga, e'tiqodu maslakdan chekinishiga sabab bo'lmagan. Aksincha, yanayam sodiqlik va sobitlik jasoratini dunyoga keltirgan. Shu o'rinda malomat tarixiga yanayam chuqurroq nazar solaylik. Malomat ham tasavvuf manbalarida boshqa maqom va hollar kabi ilmiy-nazariy asoslangan. Va bu hol va maqomlar kashfi biror payg'ambar hayoti bilan bog'liq holda sharhlangan. "Baqara" surasi 30-oyatidan ma'lumki, Alloh taolo farishtalariga "Men yerda Odamni xalifa qilmoqchiman" deganida "U yerda buzg'unchilik qiladigan, qonlar to'kadigan kimsani xalifa qilasanmi?", dedilar. Ushbu Odam ato

yaratilish tarixi va mohiyatidan bahs yuritgan kubraviya tariqatining buyuk vakili Najmiddin Doya shunday degan edi: “Dunyodagi ilk malomatchi Odam edi. Haqiqatni istasang, ilk malomatiy Alloh azza va jalla edi. Ya’ni: “Yerda buzg‘unchilik qiladigan birini yaratasanmi?” – deya birinchi e’tiroz unga bo‘ldi. Bu malomat binosini qurganlar uchun ajoyib bir ishoratdir:

Malomat ila yaralgan oshiq yanayam go‘zaldir,  
Salomat bilan bo‘lgan faqatgina zuhddir.

Odamning ruhi (joni) hol tili bilan Hazrati Kibriyoga shunday der edi: “Biz omonat yukini malomat ipi bilan yelkamizga bog‘ladik. Salomatni sotdik, malomatni oldik. Bunday ta’nalardan bizning qo‘rquvimiz yo‘qdir. Nima desalar desinlar, bizda g‘am yo‘q (8: 107)”. Demak, malomat insoniyat uchun otameros, tanish tuyg‘ulardandir. Bu azal olamida Odam atoning yaratilishi bilan bog‘liq edi. U yeru ko‘klar qabul qilmagan xalifalik omonatini qiyomatgacha dushman sanalgan iblisi lainning malomati bilan qabul qilgan. Keyinchalik solih bandalar, mo‘min ummatlar bu malomat haqiqatlarini tushundilar hamda xalifalik sirriga yetishga jiddu jahd ayladilar. Ahli dil orasida Hamdun Qassorning: “Malomat salomatni tark etmoqdir” degan gapi mashhurdir. Bu izhori hol go‘yo barcha tariqat ahlining shioriga aylangan. Azimxo‘ja Eshon hazratlari ham bir to‘rtliklarida malomatiylarning ishq ahli ekanligidan xabar berib, ularga xos yuksak fazilatlaridan so‘z ochadi:

Nafsim yo‘lg‘a kirsun desang, ayo tolib,  
Rasvolikka o‘zung solg‘il, solmay bo‘lmas,  
Salomati ishq ahlidur malomatda,  
Boshqa olg‘il malomatlar, olmay bo‘lmas.

Insonning dunyoga kelishi nafs va ruh, vujud va qalb, yanayam aniqrog‘i, Odam va iblisi lainning qarama-qarshiligini yuzaga keltirdi. Va Odam ato avlodlari nafsini tazkiya etish bosh vazifa ekanligini teran angladilar. Nafsni poklash bilan vujudning hoyu havaslarini imkon qadar jilovladilar, shaytonning izmidan bir qadar ozod bo‘ldilar. Natijada qalb xotirjamligiga, ruh hurriyatiga erishdilar. Bu yuksalishda nafaqat o‘zgalarning, balki o‘zlarining nafslariga malomatlari muhim o‘rin tutadi. Ular bu masalada shariatga, islomga tayandilar. Nafsni tarbiyalashni bosh maqsad qilgan tariqat vakillari, avvalo, Qur’onda kelgan nafs haqidagi ta’riflar orqali uning mazmun-mohiyatini anglashga, uni yaxshiroq tanishga harakat qilishgan. Nafs kalimasi Kalomullohda uch xil sifat bilan keladi: ilk, ammora nafs (“Hech shubhasiz, nafs – Robbim rahm aylamasa, faqat yomonlikka qistovchi (Yusuf: 12/53)”), ikkinchi malomatgo‘y nafs (“Malomatchi nafsga qasamyod etamanki, (qayta tirilib hisob-kitob qilinursizlar (Qiyomat:

/2)!”) va soʻnggi xotirjam, sokin nafs (“Ey xotirjam, sokin jon (Fajr: 89/27)!”) )dir. Demak, sayri sulukdan maqsad yomonliklarga undovchi nafsni yengib, malomat ila uni tarbiyalab, “Ato etilgan neʼmatlardan rozi boʻlgan va Alloh taolo tomonidan rozi boʻlingan holingda Robbingga qaytgin (Fajr: 89/28)” oyati karimasida marhamat qilingan nafs roziyaga koʻtarilish, valiylik maqomiga erishish boʻlgan. Nafs haqidagi turli ilmiy-nazariy fikr-qarashlarni oʻrgangan holda shunday xulosa qilish mumkin: malomatiylar nafs ammoradan yuksalgan nafs lavvoma maqomida riyozat chekib, nafs komila tomon mujodala etayotgan Haq yoʻlchilaridir. Tasavvufiy istilohlar ham oyat va hadislar zahirida paydo boʻlgan ekan, malomat “qoralash, tahqirlash, taʼna qilish” kabi manolarni anglatuvchi arabcha “lavm” lafzidan olingandir. Bu, shubhasiz, Allohning kalomida taʼkidlangan Lavvoma nafs birikmasidagi lavm soʻziga ishoratdir.

Malomatiylik tariqat yoki tasavvufdagi bir holmi, degan savol ham tasavvufshunoslar tomonidan oʻrtaga tashlanib, turli munozaralar boʻlgan. Va aksar tasavvuf manbalarida u tariqat sifatida izohlangan. Sulamiy, Hujviriy, Ibn Arabiy kabi ulugʻ shayxlarning fikrlariga tayangan turk olimi Mustafo Qora tasavvufni oʻlkalar miqyosida shunday tasniflaydi: birinchisi, Bogʻdod tasavvuf maktabi (Misr-Shom), ikkinchisi Xuroson malomat maktabi (Nishopur-Eron), uchinchisi ea Basra zuhd maktablaridir (7: 584). Koʻrinib turibdiki, malomatiylik keng miqyosda tarqalgan tariqat maktabidir. Qushayriy risolasida rizo maqomi haqida toʻxtalar ekan, iroqlik soʻfilar va xurosonlik malomatiylar rizo maqom yoxud holmi mavzusida ixtilof qilganlarini aytib, oʻz xulosalarini aytadi: “Xurosonliklar dedilarki: “Rizo maqom, u tavakkulning nihoyasidir. Buning maʼnosi rizo qulning harakati natijasida erishgan maqomlaridan biridir. Iroqliklar esa Rizo hollardandir. Qul bu holni mashaqqat ila qoʻlga kiritmaydi, balki u boshqa hollar kabi bir fayz oʻlaroq Allohdan inib, qulning qalbida oʻrnashadi. Bu ikki qarashni shunday izohlash mumkin: rizo avval solikning harakati bilan qoʻlga kiritiladi. Bu nuqtai nazarga koʻra maqom sanaladi. Soʻnggiga koʻra esa holdir, erishiladigan bir martaba emas (6: 336)”. Demak, malomatiylar tasavvuf ilmida oʻziga xos nuqtai nazarga ega boʻlib, maʼlum dasturlari, nafs tarbiyasida usulu arkonlariga ega bir tariqatdir. Bu tariqat vakillari qanchalar oʻz hollarini yashirishga harakat qilmasin, ularning taʼsir doirasi kengayib borgan. Malomat ruhiy tarbiyada sinalgan foydali amallar, bosqichma-bosqich bajariladigan vazifalariga sohib bir Haq yoʻlchiligi ekanligi tan olingan. Malomatiylarga xos samarali usullar, albatta, deyarli, barcha tariqatlarga oʻzining jiddiy taʼsirini oʻtkazgan. Boshqa tariqat vakillari uchun ham bu bir muhim amaliy jarayon sifatida qabul qilingan. Shuningdek,

tasavvuf qo‘llanmalarida nafs tasfiyasida muhim o‘rin egallagan usullar qatorida atroflicha sharhlangan. Najmiddin Doya muridning shayx suhbatiga loyiq bo‘lishi, komil bir yo‘lchilik etishi uchun yigirma sifatga ega bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Bular: tavba, zuhd, tajrid, aqida (e’tiqod), taqvo, sabr mujohada, jasorat, fidoyilik, futuvvat, to‘g‘rilik, ilm, niyoz, adab, go‘zal axloq, taslim, tafviz, deya sanab, har biriga alohida izohlar beradi. Jumladan, shulardan o‘n beshinchisi deya e’tirof etilgan malomat haqida shunday deydi: “Malomat malomatsifat, qalandarsurat bo‘lmaslikdir. Shariatga muxolif bo‘lib, o‘zini malomatiy sanashdan Xudo asrasin! Bu shaytonning yo‘li va uning ko‘rsatmasidir. Malomatiy bo‘lish shu ma’nodadirki, shuhrat va aybdorlik, maqtov va ta’na, odamlarning qabuli va raddi uning nazdida bir bo‘lishidir. Bu qarama-qarshiliklarni farq etmaslik – malomatiylikdir (8: 234)”.

Ta’kidlash joizki, ko‘pgina nufuzli tariqatlarning paydo bo‘lishida malomatiylarning ta’siri kuchli bo‘lgan. Irfoniy-badiiy asarlarda ham malomatiylik bosh g‘oyaga aylangan. Manbalarning guvohlik berishicha, naqshbandiya muridlari besh vaqt namozdan so‘ng Bahovaddin Naqshbandning ruboiylarini o‘qishgan. Masalan, Shom namozidan so‘ng o‘qiladigan ruboiyga e’tibor qilsak, unda o‘zini malomat qilayotgan nafsni yaqqol ko‘ramiz:

YO Rab! Chi kunam ba hech dar bozam nest,  
Dar sharmi gunah, zabon guftoram nest.  
Sar to sari ofoq bahecham naxarand,  
YO Rab! Chi mato’am, ki xaridoram nest !

Qalbida Alloh ismini naqshlagan valiy zot gunohlarining ko‘pligidan, sharmisorlikdan o‘zini malomat qilmoqda. Bahovaddin Naqshbandning Parvardigoriga qurbati, ulviy bir robitasi tazkirayu manoqiblarda kashfu karomatlari qatorida takror-takror aytilgan. Biroq tariqat shohi o‘zining bir chaqalik qadr-qimmatini, hech bir xaridori yo‘qligidan Robbiga yolvormoqda. Nafsini tahqirlashda xalifalariga ibrat bo‘lmoqda.

Insoniyatdan qochib, ulardan uzoq yurishga harakat qilishgani malomatiylarning o‘zi xos xususiyatlaridan biri. Zero, ular odamlarning hurmat va maqtovlarni bir imtihon sifaida qabul qilishgan, bu munosabatlardan nafs huzurlanib, o‘ziga ortiqcha ishonch, kibr paydo qilishiga sabab bo‘lib qolishidan juda-juda qo‘rqishgan. Shu bois ularda hamisha botiniy bir yolg‘izlik, ichki bir (qalb) uzlati bo‘lgan. Tariqat ahllari kabi ibodatlarini ochiqdan-ochiq emas, yashirincha amalga oshirar, chunki bu oshkoralikni ham malomiylar riyoga tenglashtirishar edi. Mutafakkir va mutasavvif Alisher Navoiy ham bir qit’asida:

Valoyat ahliga jam’i malomatig‘a boq,  
Ki, xalq ko‘zidin aylar namozini yashirun.

Bu turfaroqki, namozida mu'jibi nodon,  
Tutar imomat uchun xayl qiblasida o'run (1: 86).

Malomatiylarga xos bu xususiyat tariqatda ixlos maqomida qabul qilingan. "Avorif ul-maorif" muallifi ixlosni shunday sharhlaydi: "... YO Rasululoh, Ixlos nima? – deya so'radim. Ul zot: "Men ham ixlos haqida Jabroildan so'raganimda aytdi: "Men Janobi Haqdan so'ragan edim, U shunday javob berdi: Ixlos mening sirrimdir. Uni sevgan qullarimning qalblarida omonat o'laroq asrayman". Malomatiylarning ixlosga qovushmoq masalasida o'ziga xos va boshqa bir xususiyatlari bordir. Ular hol va amallarini yashirish bilan qanoatlanadilar va bundan huzur qiladilar (12: 90)". Malomatiylar samimiyat-la ixlosni eng mukammal tarzda hayotlariga tarjih etdilar. Natijada xalqning yaxshi yoki yomon munosabati ularda hech qanday o'zgarish paydo qilmaydigan bo'ldi. Umanolar ixloslarini tom mukammal holga keltiradilarki, Yaratgan bilan unsiyatdan boshqa biror orzu ularni o'zgartirolmaydi. Malomat ahli ulviy bir robita orqali har on, har qayerda Alloh bilan birga bo'ladilar. Odamlarning hech bir ta'nayu malomati ularni harakatdan to'xtata olmaydi. Aksincha malomatlariga hech qanday e'tiroz bildirmay, ulardan chetlashadilar. Bu hol Parvardigor bilan yanada yaqinlik, qurbat hosil qilishiga ishonadilar. Ularning odamlar bilan uzoqlashishida ma'naviy bir butunlik bor. Malomatiylar har narsani o'zidan izlovchi ma'rifat sohibi, yetuk shaxsiyatlardir. Ular birovlarining malomatidan cho'chimaydilar, bu ta'nayu dashnomlar ularni o'zgartira olmaydi, bil'aks ulviy olamdan yaralgan ruhlarining sufliy olamdan yaralgan vujudga bo'lgan malomati vositasida poklanadilar. Nafs o'z-o'zini malomat qilar ekan, sekin-asta o'zini taniy boshlaydi va Ruhlar olamida Alast bazmida "Sen bizning Robbimizsan", deya bergan va'dasini yodga oladi. Natijada ko'ngil ko'zi ochiladi. Bu toifaning musohibi nafslaridir. Ular har lahza o'z nafsini bilan hisob-kitob qilishgan. Hamdun Qassorning: "Bir kimsa nafsining Fir'avn nafsidan ko'ra xayrli ekanini xayol qilsa, kibr va g'ururga berilganidir" malomati fikrimizning to'laqonli isbotidir. Zalolat va jaholat tarixida Fir'avnga teng keladigan nafs bandasini topish mushkul. Uning nafsini ammoradan-da past ko'rilgan hayvoniy bir nafs ekanligi ma'lumdur. Biroq malomatiylar o'zlarini undan-da past ko'rganlar. Tasavvufshunos olim Ibrohim Haqqul ham: "Malomatiylar uchun eng muhim, eng ahamiyatli narsa – bu, qalb va vaqt. O'zlaridan bir talablari, "insonlarning qusur va kamchiliklarini ko'rish mashg'uliyatiga barham berib, nafsning illat va qabohatlarini yo'qotish bilan shug'ullanish". Shuningdek, "hech kimdan yordam tilamaslik va yordam uchun birovga bosh egmaslik", – degan edi. Mana shu

beqiyos jihatlarini inobatga olgan holda bu tariqatning paydo bo‘lishini tasavvufga qarshi bir maslak o‘laroq qabul qilganlar ham bo‘lishgan. Turk tasavvufshunosi Gulpinorli ham: “Malomatiylar atalmish jamoa tasavvuf ichidan tasavvufchilarga qarshi chiqqan bir zumradir. Tangri visoliga yetishmoq uchun ular zikrga emas, balki fikrga ahamiyat berishgan. Ahli malomatga ko‘ra, Alloh dargohiga faqat ishq va jazba orqali borish mumkindir, zikr esa insonni xayollarga cho‘mdirib, dalli-devona aylashi ham ehtimoldan yiroq emas (4: 162)”, – degan edi. Biroq bu Gulpinorlining nuqtai nazarini qabul qilish uchun tariqatlar haqidagi haqiqatlarni chuqur anglamoq lozim. Zero, haqiqiy tariqatlarning hech biri malomatiylik maslagidan yiroq bo‘lmagan. Hech bir valiyga malomat hissi begona emas edi. Keyinchalik din bid‘atlar bilan qorishib ketganidek, tariqatlar ham zalolatga yuz tutdi. Natijada Qur‘on va hadis aqidalaridan uzoqlashgan turli tuman botil tariqatlar paydo bo‘ldi. Riyo, tama’ avj olib, botinbinlikni zohirparastlikka, ma’noni da’voga almashtirdilar, biroq tariqat libosini kiyib bu xudparastliklarini yashirdilar. Zotan, ustoz adabiyotshunos I.Haqqul ta’kidlaganlaridek: “... tasavvufdan malomiylikka, malomiylikdan tasavvufga o‘tgan yoki har ikki oqimga mansub shaxslar ham oz emasdi (3: 6)”. Xuroson erlari mana shunday ahli sunnatdan yiroq botil tariqatchilarga qarshi ixlos samimiyati, imon jasoratidan o‘z yo‘llari sifatida malomatiylikni tanladilar va targ‘ibu tashviq qildilar.

Malomatiylar haqida ma’lumot beruvchi ilk manbalardan biri “Risalat ul-malomatiya”da Sulamiy qol va hol ahli haqida so‘z yuritarkan, hol ahlini: zohid, so‘fiy va malomatiylar, deya uch guruhga ajratadi. Boshqa manbalar ham malomatiylar hol ahli orasida o‘z o‘rniga ega baland martaba sohiblari, ilohiy kashf egalari ekanligidan xabar beradi. “Futuhoti Makkiya”da ham ayni tasnifga duch kelinadi va unda malomatiylar eng yuqori rutba egalari, Allohning muqarrab qullari sifatida ta’riflanadilar.

Malomatiylar haqida juda ko‘plab asarlar yaratilgani ma’lum. Ularda malomatiylarga xos fazilatlar alohida e’tirof etilishi barobarida so‘fiylar bilan ham muqoyasa qilingan. Natijada yanada malomatiylarning o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘lgan. Avvalo, so‘fiylarda zohir va botin uyg‘unlik ko‘riladi. Ya’ni ularning holu maqomlarini ko‘rsatib turuvchi xirqa, kuloh, aso kabi zohiriy belgilari hamda takya va xonoqohlari mavjud bo‘lgan. Biroq malomatiylar hech qachon o‘zlarining suvratlariga ayricha bir ahamiyat berishmagan. Ayniqsa, xalqdan ajratib turuvchi har qanday belgiga ular keskin qarshi turishgan. O‘z siyratini yashirgan haqiqiy ma’no ahli bo‘lishgan. Ular so‘fiylar kabi ibodatlarini, ruhiy tarbiyada vazifa etib tayinlagan kundalik amallarini ham oshkora



ado etishmagan. Ularning zikru samolari, qalbida kechayotgan zavqu shavqi, ruhidagi vajdu jazba bari-bari yashirin bo'lgan. Ularning nafs evrilishida paydo bo'ladigan huzunu huzurning bari pinhondir. Jumladan, S. Uludog' ularning har qanday oshkora amallardan qochishini ta'kidlab: "So'fiylarning ma'lum bir tariqat odobi, arkoni va avrodi, qisqasi tariqat marosimlari bor. Malomatiylar esa har turli marosimlardan qochadilar va faqat suhbatga qiymat beradilar. Ular malomat etila-etila, ta'nayu dashnom qilina-qilina nafs ozorlanib tarbiyalanishiga ishonadilar (10: 357)", – degan edi. Malomatiylar o'zlarining xayrli ishlarini qanchalar yashirsalar, yomonliklarini shunchalar oshkor etib, o'zlarini xalq tomonidan malomat etilishidan huzurlanadilar. "Malomiy udirki, na xayrni oshkor etar, na sharr (yomonlik)ni yashirar".

Malomatiylik – bu mo'minlikdir. Zero, Alloh taolo mo'minlarning sifatidan bahs etarkan, shunday marhamat qilgan edi: "Ey, imon keltirganlar! Sizlardan kimki dinidan qaytsa, Alloh shunday bir qavmni keltirurki, ularni Alloh sevadigan va ular ham Uni sevadigan, mo'minlarga (nisbatan) kamtar, kofirlardan esa (o'zlarini) yuqori yo'lida jiddu jahd qiluvchi, malomatchining malomatidan qo'rqmaydigan bo'lurlar (Moida: 5/54)". Allohni sevadigan, mujohada orqali nafsini taftish etadigan, "malomatchining malomatidan qo'rqmaydigan" kimsalar Moida surasidan ta'sirlanganlari va shunga ko'ra maslagu maqsadlarini belgilaganlariga shubha yo'q. Bu malomatlarning bariga Allohga bo'lgan muhabbatlari tufayli taslim bo'lishgan, sabr-toqat qilishgan. Niso surasida aytilgan: "Sizga qanday yaxshilik yetsa, u Alloh dandir. Sizga qanday noxushlik yetsa, u o'zingizdandir (Niso: 4/79)" oyatini hamisha xotirlarida tutishgan. Va nafslarini malomat qilishib, hayotlaridagi yaxshiliklarni Yaratgannning lutfi marhamatidan, yomonliklarni esa o'z nafslaridan deb bilishgan. Tasavvuf ahli malomatni Haq do'stlarining sayri sulukdagi bir buyuk holi sifatida ta'rifu tavsif etganlar. Ular: "Xalq nazdida zindiq bo'lgan, Haq nazdida siddiq bo'la olar", deyishgan. Malomatiylar xalqning emas, Xoliqning nazaridan tushib qolishdan qo'rqqan chinakam Haq oshiqlaridir.

Albatta, malomatiylar ahli sunnat val jamoa bo'lganlar. Ular har bir amalida shariati muhammadiyahaga tayangan. Bu toifaning yorqin namoyandalaridan biri Ibn Munozil: "Bir kimsa farzlardan bir farzni ado etmasa, buyuk Alloh unga sunnatlarini zoye etishni balo o'laroq berar. Sunnatlarning bajarilmasligiga bee'tibor kimsalar, bid'at balosiga tushaveradilar", – deya shariati muhammadiyahada sobit turish kerakligini aytgan edi. Haqiqiy malomatchilarda shariatga xilof bir amal yo'q edi. Biroq keyinchalik shariatdan yuz burdilar va bu axloqsizliklarini xalqning malomatiga duchor bo'lish uchun qilganliklarini da'vo qildilar.

Albatta, ko'pgina tariqatlar kabi malomatiylar ham adashishlar, riyo va tamagirlikka yuz burdi. Uning tarmog'i sifatida paydo bo'lgan tariqatlarning aksariyati botil tariqatlar sifatida qoralandi. Jumladan, Abul Abbos Dinovariy: "Taqlidchi so'fiylar, tasavvufning asoslarini buzdilar, yo'lni adashtirdilar. To'qib chiqargan bir qism ismlar bilan tasavvufning ma'nosini o'zgartirdilar. Masalan, tamaga ziyoda, adabsizlikka ixlos, Haqdan chiqish va uzoqlashishga shatahot, yomon narsalardan zavq olishga tayyiba (zavq), dunyoga berilish vasl, axloqsizligiga savlat, tilanchilikka amal, tarbiyasizlarcha muomalasiga malomat nomini berdilar. Oldingi so'fiylarning yo'li bu emas edi (6: 172)", – degan edi. Malomat tariqati ham ko'pgina maslaklarda bo'lganidek, keyinchalik zalolatga yuz tutgan. Allohning amriga bo'ysunmasdan, o'zini malomatiy sanaydigan jaholat ahli paydo bo'ldi. Shu tariqa sekin-asta malomatiylik tariqati ham o'z maslak-maqсадidan yiroqlasha bordi. Malomatiylikdagi bu buzilishlar, albatta, bu maslak haqida yomon taassurotlarga olib kelgan va ko'plab tasavvuf manbalarida ular qoralangan. Biroq ilk malomatchilar va ularga munosib izdosh bo'lganlar hamisha bo'lgan. Zero, hech bir tariqat malomat holisiz bosib o'tilmaydi. Inson o'z nafsini malomat qila olmas ekan, uni tasfiya etolmaydi. Bu haqiqatlar irfoniy-badiiy adabiyotda, ayniqsa so'fiyona she'riyatda go'zal bir shaklda o'z ifodasini topgan.

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

Алишер Навоий. Махбуб ул-кулуб. МАТ. 14-том. – Тошкент: Фан, 1998.

Фаридуддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. – Тошкент: Гафур Гулом НМИУ, 2012.

Хаққул И. "Маломатийлик ва Навоий". // Ўзбек тили ва адабиёти. 2016, № 1

Г у л п и н о р л и А. Тасаввуф. Истанбул: 2004.

İbn Arabi. Fütühatul-Mekkiye. – İstanbul: İnsan yayınlari, 1988.

Kuşeyri A. Kuşeyri Risolasi. – İstanbul: Dergah yayinlari, 1991.

Mustafa Kara. Melamatiye. İstanbul: İstanbul Üniversitesi, 1987.

Najmiddin-i Daye. Sufilerin seyri. – İstanbul: İlk harf, 2013.

Türer O. Tasavvuf tarixi. – İstanbul: Seha, 1995.

Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – İstanbul: Marifet yayınlari, 1995.

Sülemı. Rısaletul – melametiye. İstanbul: 1995.

Suhravardiy Sh. Avoriful-Mearif. Semerkand yayinlari. İstanbul, 1999.

13. Саидова Р. Маломатийлик ва унинг шаклланиши // ИЛМ

сарчашмалари. – Урганч, 2021. 9-сон. – Б. 71-74 (10.00.00. №3).

14. Саидова Р. —Лисон ут-тайрл достонида маломатийлик мотивлари // Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги – ЎЗА Илм-фан бўлими (электрон журнал). 2020, август. – Б. 105-113 (10.00.00. №33).

15. Саидова Р. Аҳмад Яссавий ижодида маломатийлик маслаги ва талқинлари // Наманган давлат университети ахборотномаси. – Наманган, 2021. 9-сон. – Б. 367-371(10.00.00. №26).

16. Saidova R. The slanders and interpretations of Ahmad Yassavi in his works // Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). Impact Factor: SJIF 2021 = 7.699 <https://www.tarj.in> Vol 10, Issue 6, June, 2021. - S. 333-341.

17. Саидова Р. Маломат маслаги ва маломат ҳоли // Ўзбекистон Миллий Ахборот агентлиги – ЎЗА Илм-фан бўлими (электрон журнал). 2021, декабрь. – Б. 285-294. (10.00.00. №33).

18. Saidova R. Malomatiylik tariqi va Alisher Navoiy ijodiyoti / —Boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirish: strategiya, innovatsiya va ilg'or tajribalarl mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 2021. – В. 267-271.

19. Саидова Р. —Насойим ул-муҳаббатлда маломат ва маломатийлик / —Башарият маънавий юксалиши ва ёшлар тарбиясида Алишер Навоий меросининг аҳамиятиl мавзуидаги республика онлайн илмий-амалий конференция материаллари. - Бухоро, 2021. – Б. 153-157.

20. Saidova R. Yassaviya tariqati va malomatiylik maslagi / —Istiqlol davri o'zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligi va folklorshunosligining dolzarb masalalaril mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. - Toshkent, 2021. – Б. 494-503.

21. Saidova R. Navoiyning —Nasoyim ul-muhabbatl tazkirasida malomat va malomatiylik / —Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodi turkiy dunyo she'riyatining faxri, jahon adabiyotining choqqisil mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari. – Toshkent, 2021. – Б. 280-285

## МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА ИККИНЧИ ТИЛНИ ЎРГАТИШНИНГ КОНЦЕПЦИЯ ВА ТАМОЙИЛЛАРИ

*Эргашева Хилола Юнусхановна*  
*Turan International University ўқитувчиси*  
<https://orcid.org/0009-0003-0957-5556>

*Аннотация:* Ушбу мақолада мактабгача таълим ташкилотларида иккинчи тилни ўргатишнинг концепция ва тамойилларининг билим олиш жараёнига қанчалик аҳамиятли ва самарали эканлиги, ҳамда иккинчи тил таълимида мулоқот кемтенцияларини шакллантиришнинг назарий асослари ёритилган. Ҳозирги глобллашув жараёнида мактабгача ёшдаги болаларни коммуникатив компетенцияларини ривожлантиришда иккинчи тилни ўргатиш ва тили ўрганилаётган мамлакатлар тарихи, маданияти, урф-одати оид маълумотлардан, шунингдек, жаҳон адабиёти намоёндаларининг дурдона асарларидан, турли дидактик ва коммуникатив ўйинлардан самарали фойдаланишни тақозо этади. Баъзилар бола хорижий тилни эгаллашдан олдин ўз она тилида нутқи ривожланган бўлиши керак, десалар, бошқалар кўп тилни эгаллаган болалар она тилидаги сўзларни иккинчи ўрганган тилдаги сўзларидан фарқлай олмайдилар, деб таъкидлашади. Маълумки, боланинг нутқи тил қонуниятларига тўғри амал қилиш, катталар нутқини идрок этиш ва ўзининг ижодий фаоллиги натижасида ривожланади. Шундай қилиб, тил ва нутқ, мактабгача ёшдаги боланинг психологик ривожланиши дамда даставвал хотираси, фикрлаши, идрок этиши, ҳиссиёти ва эҳтиросини таъминлайдиган иккита муҳим воситадир.

*Калит сўзлар:* коммуникатив компетенция, нутқ фаолияти, узлуксиз таълим, сўз бойлиги, нутқ хатти-ҳаракатлари, интеллектуал, маънавий-ахлоқий, этик, эстетик ва жисмоний жиҳатдан ривожлантириш.

## CONCEPTS AND PRINCIPLES OF SECOND LANGUAGE TEACHING IN SCHOOL EDUCATION

*Ergasheva Khilola Yunuskhanovna*  
*Teacher of Turan International University*

*Abstract:* This article describes how important and effective the concepts and principles of second language teaching in preschool educational institutions are for the learning process, as well as the theoretical basis for the formation of communication skills in second

language education. In the current process of globalization, the development of the communicative competence of preschool children requires the effective use of information about the history, culture, and customs of the countries where the language is being studied, as well as the masterpieces of world literature, and various didactic and communicative games. Some say that a child must have developed speech in his mother tongue before he can learn a foreign language, while others argue that multilingual children cannot distinguish words in their mother tongue from words in the second language they have learned. It is known that a child's speech develops as a result of following the rules of language, perceiving the speech of adults and his own creative activity. Thus, language and speech are two important tools that ensure the psychological development of a preschool child's memory, thinking, perception, emotion and passion.

*Key words: communicative competence, speech activity, continuous education, vocabulary, speech act, intellectual, spiritual-moral, ethical, aesthetic and physical development.*

## **ПОНЯТИЯ И ПРИНЦИПЫ ОБУЧЕНИЯ ВТОРОМУ ЯЗЫКУ В ШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

*Эргашева Хилола Юнусхановна*

*Преподаватель Международного Университета Туран*

*Аннотация: В данной статье рассказывается, насколько важны и эффективны для процесса обучения концепции и принципы обучения второму языку в дошкольных образовательных учреждениях, а также теоретические основы формирования коммуникативных навыков в условиях второго языка. В современных условиях глобализации развитие коммуникативной компетенции дошкольников требует эффективного использования сведений об истории, культуре и обычаях стран, изучаемых языком, а также шедевров мировой литературы, различные дидактические и коммуникативные игры. Некоторые говорят, что ребенок должен развить речь на своем родном языке, прежде чем он сможет выучить иностранный язык, в то время как другие утверждают, что многоязычные дети не могут отличить слова на своем родном языке от слов на втором языке, который они выучили. Известно, что речь ребенка развивается в результате соблюдения правил языка, восприятия речи взрослых и собственной творческой деятельности. Таким образом, язык и речь являются двумя важными средствами, обеспечивающими психологическое*

*развитие памяти, мышления, восприятия, эмоций и страстей дошкольника.*

*Ключевые слова: коммуникативная компетентность, речевая деятельность, непрерывное образование, словарный запас, речевой акт, интеллектуальное, духовно-нравственное, этическое, эстетическое и физическое развитие.*

Кириш. Бугунги кунда мамлакатимизда мактабгача таълим тизимини янги босқичга кўтариш, тизимга замонавий ёндашган ҳолда жаҳон талаблари асосида ривожлантириш долзарб масалалардан бири бўлиб ҳисобланади. Ўзбекистон республикасининг “Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида” ги қонунида [1] мактабгача таълим ва тарбияга - болаларга таълим ва тарбия беришга, уларни интеллектуал, маънавий-ахлоқий, этик, эстетик ва жисмоний жиҳатдан ривожлантиришга, шунингдек болаларни умумий ўрта таълимга тайёрлашга қаратилган узлуксиз таълим тури сифатида таъриф берилиши ушбу соҳага бўлган эътибор давлат аҳамияти даражасида эканлигидан далолат беради.

Давлатимиз ва ҳукуматимиз томонидан ушбу тизим олдида мактабгача таълим соҳасида ягона давлат сиёсатини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, мактабгача таълим муассасалари давлат ва нодавлат тармоғини кенгайтириш ҳамда моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, уларни малакали педагог кадрлар билан таъминлаш, мактабгача таълим муассасаларига болаларни қамраб олишни кескин ошириш, таълим-тарбия жараёнларига замонавий таълим дастурлари ва технологияларини татбиқ этиш орқали болаларни ҳар томонлама интеллектуал, маънавий-эстетик, жисмоний ривожлантириш, уларни мактабга тайёрлаш сифатини тубдан яхшилаш вазифалари кўйилди.

Тадқиқот методлари. Мактабгача ёшдан бошлаб болаларни интеллектуал қобилиятларини ривожлантириш, уларга ҳорижий тилларни ўргатиш, белгиланган вазифаларни амалга ошириш имкониятларини юзага келтиради.

Ҳозирги глобаллашув жараёнида мактабгача ёшдаги болаларни коммуникатив компетенцияларини ривожлантиришда иккинчи тилни ўргатиш ва тили ўрганилаётган мамлакатлар тарихи, маданияти, урф-одати оид маълумотлардан, шунингдек, жаҳон адабиёти намоёндаларининг дурдона асарларидан, турли дидактик ва коммуникатив ўйинлардан самарали фойдаланишни тақозо этади.

Коммуникатив компетенция асосини қуйидагилар ташкил

қилади:

— мулоқотни ташкил қилиш — шахслараро мулоқот кўникмаси;  
— мулоқотни, контактни сақлаш, тескари алоқани ўрнатиш;  
мулоқот натижаларини анализ қилиш [2].

Психологик ва педагогик адабиётларда компетенциянинг турли таърифлари келтирилган: Коммуникатив компетенция — бу ички ресурслар учун зарур бўлган тизим самарали коммуникатив қурилиш шахслараро ўзаро муносабатларнинг муайян доирасидаги ҳаракатлар.

Коммуникатив компетенция — бу шахслараро тажрибани шакллантиришнинг даражаси, яъни таълим билан ўзаро мулоқот қилиш шахс талаб қиладиган бошқалар, ўз қобилиятлари ва ижтимоий мавқеи доирасида ушбу жамиятда муваффақиятли ишлаш учун.

Коммуникатив компетенция — бу муайян нарсаларни қўйиш ва ҳал қилиш қобилияти алоқа вазифалари турлари: мақсадларни аниқлаш алоқа, вазиятни баҳолаш, ҳисобга олиш ҳамкорнинг ниятлари ва алоқа усуллари (ҳамкорлар), етарли стратегияларни танлаш, алоқа муваффақиятини баҳолаш, ўз нутқ хатти-ҳаракатларини ўзгартиришга тайёр бўлиш[3].

Нутқ фаолиятининг асосий тил материали ўз ичига фонетик, грамматик, лексик материалларни олади. Тил материалларнинг хусусиятини, уларни фаоллаштириладиган нутқ фаолиятининг турли хусусиятлари ҳисобга олиниб, улар махсус тамойиллар асосида танланади. Ҳар бир тил материаллари ўзининг танлаш тамойилларига эга.

Мактабгача ёшдаги бола иккинчи тил материалини ўрганаётганда мазкур тилларнинг хусусиятлари унга таъсир қилади. Бунга аҳамият берилиши ва ҳисобга олиш зарур. Ҳар бир тил материали ўзини ўргатиш хусусиятларига, метод, йўл, усулларига, танлаш тамойилларига, интерференциясига эгадир.

Коммуникатив компетенцияга эга бўлиш фаолият йўналиши унинг таркибий қисмларини аниқлаш имкониятини белгилайди: — мотивацион ва қиймат компоненти; — когнитив компонент; — ҳиссий компонент; — хулқ-атвор компоненти.



1- Расм. Коммуникатив компетенцияга эга бўлиш фаолият йўналиши унинг таркибий қисмларини аниқлаш имкониятини белгиланиши

Мактабгача таълим ташкилотларида ўқув жараёни шундай ташкил этилиши керакки, нафақат мактабгача ёшдаги болаларда иккинчи тилга оид билим, кўникма ва малакаларни ривожлантириш, балки уларни амалиётда қўллай олишлари муҳим саналади. Бу эса психолингвистик нуқтаи назардан коммуникатив ёндашув асосида тил таълимшунослигини янада ривожлантириш имконини беради.

Баъзилар бола хорижий тилни эгаллашдан олдин ўз она тилида нутқи ривожланган бўлиши керак, десалар, бошқалар кўп тилни эгаллаган болалар она тилидаги сўзларни иккинчи ўрганган тилдаги сўзларидан фарқлай олмайдилар, деб таъкидлашади.

Бироқ, олимларнинг аниқлашларича, мактабгача, яъни 3 ёшдан чет тилини ўрганишни бошлаган болалар ижобий натижалар кўрсатганлар ва тил ўрганмаган тенгдошларига қараганда икки тилда ҳам эркин мулоқотга кириша оладилар.

Шунингдек, она тили ва хорижий тилни параллел равишда ўзлаштирган болаларда идрок этиш, таҳлил (анализ ва синтез) қилиш, тушуниш, қиёслаш каби кўникма-малакалар ҳосил бўлади.

Бундан ташқари, бу ёшда боланинг мантикий тафаккур қила олиш салоҳияти, ақлий ривожланиши, дунёқараши коммуникатив саводхонлиги ва ўз-ўзини англаш қобилиятларини ривожлантиришга дастлаб-ки пойдевор қўйилади. Бола бу ёшда моддий борлик гўзалликларини ҳис этиш, гўзаллик ҳамда нафосатдан завқлана олиш, миллий урф-одатларни ўзига сингдириш, ардоқлаш ҳамда риоя қилиш кўникмаларини ҳам шакллантира бошлайди.



Бу ёшдаги болалар катталарга тақлид қиладилар. Соғлом бола 7–9 ойлигиданоқ айрим тушунчалар моҳиятини англай бошлайди. 1 ёшга кирган бола 100 га яқин сўзни тушунади ва айта олади. 2 ёшга етганда эса сўзлар миқдори 300 га етади. 3 ёшга тўлганда сўзлар миқдори 1200–1300 тани ташкил этади.



2-расм. Соғлом болаларнинг коммуникатив тақлиди

Энди у грамматик қоидаларсиз, ўзи мустақил равишда сўзлар, гаплар ясай бошлайди, сўзларни мантиқан алоқага киритиб фикрини баён қилади. Бола бутун болалик даврида нутқни жадал равишда эгаллаб бориб, нутқни ўзлаштириши маълум бир фаолиятга айлана боради. Мазкур ёшдаги болалар ўз идрокларининг аниқлиги, равонлиги, ўткирлиги би-лан бошқа ёш даврдаги инсонлардан кескин фарқ қилади.

Улар ҳар бир нарсага берилиб, ўта синч-ковлик билан қарашлари сабабли идрокнинг муҳим хусусиятларини ўзлаштириш имкониятига эга бўладилар.

Психологлар бола 3 ёшдан бошлаб жисмоний ва психологик жиҳатдан фаол ривожланганлиги сабабли, бу ёшда тил ўрганиш осон кечади, деган ғояни илгари сурадилар.

Ваҳоланки, бу ёшда бола етарли сўз бойлигига эга бўлиб, унга иккинчи тилни ўрганишга имконият яратади. Бола предметларнинг ранги, шакли ва катталигини, уларнинг маконда жойлашишини билиш билан бирга, уларни таққослай олади. Бу ёшда нормал ривожланаётган бола расм ва суратлар реал ҳаётни акс эттираётганлигини яхши тушунади. Шунинг учун ҳам сурат ва расмларда нималар акс этганини реал ҳаётга таққослаган ҳолда билишга ҳаракат қилади. Бола расмларда атроф-ҳаётдаги нарсаларни кичиклаштириб тасвирланганлигини англай билади. Бу тасвирлар болаларда эстетик ва бадий дидни ривожлантиради. Чунки бола шу расмлар орқали олам гўзаллигини, унинг турфа ранглардан иборат эканлигини англайди, ажратади ва ўз муносабатини

билдира олади. Бола-нинг диққати, хотира ва тасавури мустақил тус ола бошлайди. Лекин одатдаги ҳолат ва вазиятларда болага ўз психик функцияларини юқори даражада ташкил этиш ҳали бир-мунча мураккаблик туғдиради.

Маълумки, боланинг нутқи тил қонуниятларига тўғри амал қилиш, катталар нутқини идрок этиш ва ўзининг ижодий фаоллиги натижасида ривожланади. Шундай қилиб, тил ва нутқ, мактабгача ёшдаги боланинг психологик ривожланиши дамда даставвал хотираси, фикрлаши, идрок этиши, ҳиссиёти ва эҳтиросини таъминлайдиган иккита муҳим воситадир.

Болалар иккинчи тилни ўргатиш самарадорлигига эришиш учун уларнинг билим даражаси, қизиқиши ва шахсий қобилияти хусусиятларини ҳисобга олиш муҳимдир. Шу нарса аниқланганки, мактабгача катта ёшдаги болаларнинг барча ҳаракат ва хулқни бошқаришда бош мия фаолиятининг роли ортиб боради. Яъни болалар бошқаларнинг хатти-ҳаракатларини, атрофда кечаётган воқеа-ҳодисаларни билишга ва баҳолашга интиладилар. Шунга кўра мактабгача ёшдаги болалар бажарадиган фаолият турлари хам хилма-хил ва мазмунли бўлиб боради. Демак, болалар фаолиятининг сермахсул турлари кўпбўлиб болалар нутқини ўстиришда катта роль уйнайди. Болалар ўртасидаги ўзаро муносабатлар тизими биргаликда уюштириладиган уйинларда юқори даражада шаклланади.

Хулоса ва тавсиялар. Ижтимоий фойдали меҳнат ва ўқиш каби фаолият турлари тобора кўпроқ, роль уйнай бошлайди. Шу билан бирга, тенгдошларига нима биландир кўмак бериш, улар учун бирон-бир фойда етказиш мақсадида намоён буладиган меҳнатнинг ижтимоий мотивлари янада аҳамиятлироқ яъни сезиларли булиб қолади.

Мактабгача катта ёшдаги болалар ўз хулқларини янада асослироқ, бошқара бошлайдилар. Болалар тарбиячиси томонидан улар олдига қўйилган вазифалар маъносини аниқ биладилар, топшириқларни мустақил ва нуқсонсиз бажариш учун астойдил интиладилар. Буларнинг барчаси нутқни ривожлантиришнинг муҳим шарт-шароитлари бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

Закон Республики Узбекистан № ОРК-595 от 16.12.2019 г.

Закинов Э. Ю. Коммуникативность как базис человеческого общения // Педагогическое образование и наука. — № 6. — Москва, 2014. — 82 б.

Дондокова Р.П. Сущностная характеристика и структура

коммуникативной компетентности // Вестник Бурятского Государственного университета. 1.1. 2012. — С

4. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентининг “Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-1875-сон Қарори. Халқ сўзи.–№240 (5660). –Тошкент: –2012.

5. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-4947–сон Фармони. –2017. – 7 февраль.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси. ПФ-5712-сон. –2019. – 29 апрель.

7. Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-5117- сонли қарори, 2021. –19 май.

8. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. ПФ-4947-сон. 2017. –7 февраль.

9. Мирзиёев Ш.М. Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. <http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020>

## **JONDOR TOPONIMLARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI**

*Narzilloeva Manzura Shuxrat qizi  
Zarmed Universitetining boshlang'ich ta'lim, pedagogika va  
psixologiya kafedrasida o'qituvchisi*

---

## **ЛЕКСИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТОПОНИМОВ ДЖОНДОР**

*Нарзиллоева Манзура Шухратовна  
Преподавательница кафедры начального образования,  
педагогике и психологии Университета Зармед*

---

## **LEXICAL CHARACTERISTICS OF TOPONYMS JONDOR**

*Narzilloeva Manzura Shuxratovna  
Teacher of Zarmed University in primary education, pedagogy and  
psychology department*

---

*Annotatsiya: Mazkur maqolada toponimikaning umumiy tomonlari, shuningdek, Buxoro viloyati Jondor tumani hududi, uning tarkibiga kiruvchi kichik mikrotoponimlarning mavzuviy xususiyatlarini yoritishga keng ahamiyat berilgan. Hududdagi har bir joy nomining kelib chiqish tarixi, uning geografik tuzilishi tarixan va hozirgi davr uchun qanday umumiylik va xususiyliklarni namoyon qilayotganligi qiyosan o'rganilgan va misollar asosida ko'rsatib berishga harakat qilingan.*

*Kalit so'zlar: Toponimika, mikrotoponim, etimologiya, lison, nutq, grammatika, leksik-semantik xususiyat, oykonim, gidronim, etnotoponim, oronim, antroponim.*

*Аннотация: В данной статье большое значение придается общим аспектам топонимии, а также тематическим особенностям Жондорского района Бухарской области, и тематическим особенностям малых микротопонимов, входящих в его состав. Сравнительно изучена и постаралась показать на примерах история происхождения названия каждого места региона, общие черты и особенности его географической структуры исторически и для настоящего времени.*

*Ключевые слова: Топонимия, микротопоним, этимология, язык, речь, грамматика, лексико-семантический признак, ойконим, гидроним, этнотопоним, ороним, антропоним.*

*Annotation: This article describes the general sides of toponymy, as*

well as the territory of the Jondor District of the Bukhara region, were given wide importance to highlight the thematic features of the small microtoponyms that are part of it. The history of the origin of the name of each place in the territory, the history of its geographical structure and what commonalities and privates it shows for the present time have been studied in comparison and tried to show on the basis of examples.

*Keywords: Toponymy, microtoponym, etymology, language, speech, grammar, lexical-semantic feature, oikonym, hydronym, ethnotoponym, oronym, anthropotoponym.*

Kirish. Tilshunoslik tildagi umumiy xususiyatlarni o'rganar ekan, har bir til sathidagi tomonlar qaysi jihatdan yondashilayotganligiga qarab tahlil qilinadi. Biz o'rganayotgan Jondor toponimikasida ham dastlab joy nomlarining mohiyatini anglash muhim sanaladi. Bizga ma'lumki, joy nomlari o'zida ham geografik, ham tarixiy xususiyatlarni umumlashtiradi. Toponimika (yunoncha topos- joy, onima - nom) - toponimlarni, geografik nomlarni o'rganadigan fan sifatida tildagi geo-grafik nomlarni to'plash, ularning rivojlanish, o'zgarish tendensiyalarini, areallarini aniqlash, nomlarning muhim leksik- semantik, grammatik xususiyatlarini yoritish, toponimik lug'atlar tuzish, joy nomlari transkripsiyasi singari muammolar bilan shug'ullanadi.

Asosiy qism. Toponimlar til lug'at tarkibining bir qismi bo'lib, til qonuniyatlariga bo'ysunadi; shunga ko'ra toponimika tilshunoslik fanlari qatoriga kiradi. Biroq joy nomlari boshqa so'zlardan farq qiladi va muayyan hududda tarkib topadi, binobarin, geografik qonuniyatlar, tushunchalar va atamalarni (relyef shakllari, o'simlik va hayvon nomlarini, qazilma boyliklarni) aks ettiradi; shu jihatdan toponimika geografiyaning ham ajralmas qismidir. Toponimlar uzoq yashaydi, ularda har xil tarixiy voqealar, tarixiy shaxslarning nomlari, xalq, elat, qabila, urug' nomlari aks etgan bo'ladi; shu nuqtai nazardan toponimika tarix fanlari bilan ham bog'liq. Joy nomlari majmui toponimiya deb ataladi. Toponimiya til tarixi (tarixiy leksikologiya, dialektologiya, etimologiya va b.) uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ba'zi toponimlar uzoq davrlardagi xalqlarning tili, tarixiy o'tmishi, yashagan hududini aniqlashga, foydali qazilmalarni qidirib topishga xizmat qiladi.

Joy nomlari, ya'ni toponimiya bir necha turga bo'linadi. Bular: gidronimiya (yunoncha gidro — suv), ya'ni daryolar, ko'llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo'ltiqlar, bo'g'ozlar, sharsharalar nomlari; oronimiya (yunoncha oros — tog', ya'ni yer yuzasining relef shakllari — tog'lar, cho'qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari; oykonimiya (yunoncha

oykos — uy), polinimiya (yunoncha polis — shahar) yoki urbanonomiya (lotincha urbos — shahar), ya'ni qishloq hamda shaharlarning nomlari, mikrotoponimiya (yunoncha mikros - kichik), ya'ni kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o'tloqlar daraxtzorlar, jarliklar, yo'llar, ko'priklar va hatto atoqli otga ega bo'lgan ayrim daraxtlar nomlari. Bundan tashqari, turli xalq, urug'-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar etnotoponimlar (yunoncha etnos - xalq) deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa antropotoponimlar (yunoncha antropos — odam) deb atash mumkin.

Toponimikani qaysi fanlar qatoriga kiritish kerak, degan munozara uzoq davom etdi. Toponimika shaharlar, qishloqlar, daryolar, ko'llar, tog'lar kabi geografik nomlarni, ularning kelib chiqishini, tarixini o'rganar ekan, bu fan tilshunoslarga ham, tarixchilarga ham boy ilmiy material beradi. Geografik nomlar, ya'ni toponimlar til lug'at tarkibining bir qismi bo'lib, til qonuniyatlariga bo'ysunadi. Albatta, so'zni tilshunoslik — lingvistika fani o'rganishi kerak. Demak, toponimika atoqli otlarni o'rganadigan onomastika fanining bir qismi bo'lib, tilshunoslik fanlari qatoriga kiradi. Ikkinchi tomondan, geografik nomlar xaritaning eng muhim elementi sifatida biron mamlakat yoki o'lka tabiatining xususiyatlarini aks ettiradi. Ana shu nuqtai nazardan toponimikani geografik fanlar jumlasiga kiritish mumkin. Shu bilan birgalikda, joy nomlari jamiyat tarixi bilan chambarchas bog'liq. Joylarga qanday nom berish avvalo, jamiyatning muayyan bosqichdagi ehtiyojlari bilan belgilanadi. Joy nomlari tarixini bilmasdan turib toponimika bilan shug'ullanish kutilgan natijani bermaydi. Ana shuning uchun ham toponimika tarix fanlari qatoridan o'rin oladi. Demak, toponimika uchta katta soha: tilshunoslik, geografiya, tarix oralig'idagi fandır. Shu bois toponimikaning talaygina faktlari xarakter jihatdan xilma-xil bo'lgan lingvistik, tarixiy va geografik material jalb qilingandagina to'g'ri izohlab berilishi mumkin. Joy nomlari shu qadar ko'pki, hamma toponimlarning ham ma'nosiga yetib bo'lmaydi. Nom qancha ko'hna bo'lsa, uning etimologiyasini bilish shuncha qiyin bo'ladi. Hamma nomlardan ma'no qidirib, mazmuni anglashilmagan nomlari o'zgartirib, boshqacha atash minglab yillarning mahsuli bo'lgan ma'naviy yodgorlik ildiziga bolta urish demakdir. Ma'nosidan qat'iy nazar, barcha nomlar manzil vazifasini bajaradi. Shunday qilib, toponimlarning kishilik jamiyati uchun eng muhim va zaruriy funksiyasi manzil bo'lib xizmat qilishdir. Geografik nomlar manzilgina emas, balki ko'pdan-ko'p axborot — tarixiy, geografik, lingvistik ma'lumot tashiydi. Har qanday geografik nom muayyan mazmunga ega, ma'nosiz nom bo'lmaydi. Lekin ko'pgina joy nomlarining ma'nosi

yo'qolgan, aniqrog'i hozirgi kishilar uchun tushunarsiz bo'lib qolgan. Toponimlar turli asrlar mevasi bo'lib, uzoq davrlar yashaydi. Qadimiy tillarda qo'yilgan nom keyingi xalqlar uchun oddiy toponimdan boshqa narsa emas, uning qanday ma'noni anglatishi haqida har doim ham o'ylab o'tirishmaydi. Geografik nomlar turli davrlar guvohi. Turli soha olimlari — tilshunoslar, geograflar, tarixchilar, arxeologlar, geologlar, etnograflar toponimikaga murojaat qiladilar. Geografik nomlarga qarab o'tmishda qanday xalqlar yashaganini, turli millat xalqlarining o'zaro aloqalarini, ularning bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishini bilib olish mumkin. Turli davrlarda yashagan va turli tillarda gaplashgan xalqlar O'rta Osiyo, jumladan o'zbek xalqining etnogenezida muayyan darajada ishtirok etgan va o'lkani tarixiy toponimiyasida iz qoldirgan. Buni O'rta Osiyoning o'tmishda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lgan aholisining hozirgacha saqlanib qolgan urug'-qabila nomlarida ham ko'rish mumkin. Sarmat, Sirak (Siroq), To'xar, Alan, Mitan kabi toponimlar o'lkada turli davrlarda yashagan qadimiy urug'-qabila nomlari bunga misoldir. Biz tahlil qilmoqchi bo'lgan Jondor hududi va uning toponimik xususiyatlarini tarixiy-etimologik, geografik tomonlar bilan bog'lashni lozim topdik.

Jondor (رادناج) (atamasi "tirik, tirik mavjudod" ma'nosini bildiradi). Tuman hududining qadimda turli jonzotlar makon qurishi uchun qulayligi ushbu toponimning vujudga kelishiga asos bo'lgan. Tuman hududi qadimgi va o'rta asrlar tarixiga boy maskan. Dovud alayhisalomning ramziy qadamjosi shu tumanda joylashgan va hanuzgacha muqaddas ziyoratgoh sifatida e'zozlab kelinadi. Islomdan oldingi davr yodgorligi sanalmish Varaxsha qo'rg'oni qadimgi madaniyat izlaridan bahs yuritadi. Varaxsha nomi asosan islomdan keyingi davr yozma manbalarida tilga olinadi. Jumladan, Narshaxiy, Ibn Havkal buxorudotlarning saroyi bo'lmish Varaxsha to'g'risida asosiy ma'lumotlarni qoldirishgan. Musulmon manbalarida aynan shu nom ostida tilga olinishi uning X asrdayoq mustaqil toponim bo'lib shakllanganini ko'rsatadi. Varaxsha va uning nomi to'g'risida boshqa o'rta asr mualliflaridan farqli o'laroq Narshaxiy muhim ma'lumotlarni qoldirgan. Bu borada Ibn Havkal xizmatlari ham e'tiborga sazovor. U o'zining "Surat ul-arz" (Yer surati) kitobida Varaxsha toponimi xususida so'z yuritib, uni bir joyda "Baraxsha"<sup>2</sup> (هش خرب) (deb qayd etsa, boshqa erda "Faraxsha"<sup>3</sup> (هش خرف) (shaklida beradi. Narshaxiy esa toponimni bir xil, ya'ni Varaxsha shaklida qayd etadi. Varaxsha toponimi ikki komponentli - var "qo'rg'on, qal'a" va axsha yoki axshi qabilasi nomidan tarkib topgan, degan fikrlar mavjud. Jondor tumanidagi tarixiy voqealardan guvohlik beruvchi qal'alardan biri bu Tarob qal'asi bo'lib,

1238-yilda mo'g'ullarga qarshi bo'lib o'tgan xalq harakatining rahbari Mahmud Tarobiy shu yerdan. Tarob qal'asi ushbu harakatning markazi edi. Diqqatga sazovor yodgorliklardan yana biri Qizbibi me'moriy majmuasi hisoblanadi. Qizbibi ismli avliyo ayol qabri atrofida XVIII asrda barpo etilgan masjid-xonaqoh, maqbara, chillaxona, hujralar, keyinchalik ochilgan hovuz Mustaqillik yillarida ta'mirlanib, go'zal, fayzli ziyoratgohga aylantirildi. Ushbu maskan toponimga aylanib, Qizbibi nomi ostida xalq ongi va tilida mustahkam o'rnashib oldi. "Daxmai shohon" nomli asar muallifi, o'rta asr shoiri, tazkiranavis Mirzo Sodiq munshiyning ijodiy iste'dodi o'z yurti Jondorda shakllandi va kamol topdi. Jondor tumani hududi amirlik davrida Xayrobod va qisman Somjin deb atalgan. Tuman janubiy-g'arb tarafdin Qorako'l, shimolda Rometan, sharqda Buxoro tumanlari bilan chegaradosh.

Shevaxususiyatlari. Jondor toponimlarining dialektik xususiyatlarida sheva so'zlaridagi xalq tarixi, ma'naviyati o'z aksini topadi. Sheva so'zlari xalqning turmush tarzi, an'analarini o'zida aks ettirgan ko'hna bitik hisoblanadi. Urf-odat, qadriyatlarda ham leksik xususiyatlar namoyon bo'ladi. Etnografizmlar xalqning o'tmishi, milliy madaniyati, turmush tarzi haqida muhim xulosalar chiqarish vositalaridan bo'lib, ular muayyan xalq etnomadaniyatini o'rganishning muhim omilidir. Aytish mumkinki, dialektizm va etnografizm uzviy bog'liq hodisalardir. Biz quyida ayrim etnografizmlar asosida Buxoro viloyati Jondor tumaniga xos sheva materillarini tahlil etamiz.

Gavorabandon – tug'ilgan chaqaloqni beshikka belash, unga turli sovg'asalomlar olib kelish bilan bog'liq marosim. Bu marosim yurtimizning ko'plab hududlarida "Beshik to'yi" nomi bilan yuritiladi. Gavorabandon so'zi etimologiyasiga qaraydigan bo'lsak, fors-tojikchada gavora – beshik, bandon – bog'lash degani, ya'ni beshikka belash.

Beshkecha – chaqaloq tug'ilganligi munosabati bilan beriladigan ziyofat. Bu marosim faqat toq kunlarda o'tkaziladi. Uning nomiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, besh va kecha kabi ikki o'zbekcha so'zdan iborat.

Chillagurezozon – fors-tojik tilida chilla (chihil) – qirq kun, gurezozon – qochirmoq, ketkizmoq. Chaqaloq qirq kunlik bo'lganida chilla gurezozon qilib, ya'ni chillani qochirib (o'tkazib), uni ko'chaga, aniqrog'i ona buvisining uyiga olib chiqish marosimi. Chillagurezozonning varianti sifatida Chilyakro'zon (qirq bir kunlik) nomi ham ba'zi joylarda ishlatiladi.

Joyg'undoron – joy – ko'rpa-to'shak ma'nosida; g'undoron – fors-tojikchada yig'moq so'zlaridan olingan bo'lib, nikoh to'yidan keyin



o'tkaziladigan marosim.

Challadi – aslida chorladi. Ushbu marosim nomi Charlar (Toshkent), Challadi (Buxoro), Chaqirdi (Surxondaryo) shakllarida uchraydi. To'ydan keyin o'tkaziladigan marosim bo'lib, kelin chaqirdi, kuyovchaqirdi, qizchaqirdi, qudachaqirdi kabi bir qancha ko'rinishlari bor. Kelinchaqirdida yangi tushgan kelinchakning chillasi chiqqach, o'zining va kuyovning yaqin qarindoshlari uylariga chaqiradi. Bundan ko'zlangan maqsad kelin-kuyovga hurmat ko'rsatish bilan birga, kuyov taraf uchun kelin bilan yaqindan tanishishdir. Kelin chaqirilgan xonadonga kiringuncha uy egalariga, uyning ostonasiga ta'zim qilib kiradi. Kelin-kuyovga sovg'alar in'om etiladi. Kuyovchaqirdi odatda kelinning ota-onasi, yaqin qarindoshlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sarshuyon – fors-tojik tilida sar – bosh, shuyon – yuvmoq so'zlaridan olingan. Nikoh to'yidan yetti yoki o'n kun o'tib kuyovning uyida bo'lib o'tuvchi marosim. Raxzanon – atama rax va zanon qismlaridan iborat bo'lib har ikkalasi ham fors tiliga mansub. Rax (raxt) – ko'rpa-ko'rpachalarning ustma-ust terilgani; zanon – urmoq, termoq. To'yda ko'rpa-ko'rpachalarning ustma-ust terilishi bilan bo'liq marosim.

Oshbiyon – aslida bu atama osh va bibiyon (bibilar) kabi ikki qismdan tashkil topgan. Oshbiyon ba'zan Bibi Seshanba deb ham ataladi. Bibi Seshanba, Seshanba ona – o'zbeklar va tojiklarning afsonalarida oilaviy baxt, shuningdek ip yigirish va tikuvchilik kabi hunarlarning homiysi, piri. Bibi seshanba sharafiga ayollar seshanba kunlari to'planib, yig'in, marosim o'tkazish, uni keksa, olijanob kampir siymosida tasavvur etib, Bibi Seshanbadan oilaviy turmushda o'zlari uchun saodat, kasblari uchun rivoj berishini tilab, u to'g'ridagi rivoyatlarni yodga olish, o'qish odati bor [en] kabi ma'lumotdan anglash mumkinki, ayollar ishtirokidagi ushbu marosim nomi ham sheva ta'sirida o'zgargan.

Padaroshi – atama ikki qismdan tuzilgan: padar+osh. Padar – fors-tojikchada ota ma'nosini anglatadi; osh esa asosan palov ma'nosida qo'llanadi. Padaroshi nikoh to'yida kuyovning uyida erta saharda osh berish marosimini anglatadi.

Jomapo'shon – joma va po'shon asoslaridan tuzilgan ushbu so'z sarmo kiyitmoq – kuyovga chopon kiydirish marosimini anglatadi. Jomapo'shon padaroshi marosimida amalga oshiriladi. Sallabandon – salla – bosh kiyimi, bandon (forscha) bog'lamoq bo'lib, voyaga yetgan qizlar, ayollarga ota-onasining zimmasidagi vazifa sifatida salla o'rash bilan bog'liq marosimini ifodalaydi.

Ko'rdi – sof o'zbekcha so'z bo'lib, ko'rdining ma'nosi to'ydan bir necha kun o'tib, yangi tushgan kelinni ko'rib, unga sovg'a-salom berishdir.

Buxoro shevasidagi taom nomlari ham e'tiborga sazovor. Quyida ularning ba'zilar bilan bog'liq qarashlarni bayon etamiz.

Sho'rbo – adabiy tildagi sho'rva. Uning etimologiyasiga qaraydigan bo'lsak, fors-tojikcha “sho'r oba”, ya'ni tuzli, sho'r suv va undan tayyorlanadigan suyuq taom (5:86).

Piyoba (piyova) – piyoz hamda ob, ya'ni suvdan tayyorlanadigan suyuq taom bo'lib, ilgari piyoz oba deb atalib, so'ng fonetik hodisaga uchrab, piyoba shakliga kelib qolgan.

Moshoba – mosh va ob (suv) so'zlaridan kelib chiqqan taom.

Qurutoba – qurut, suv, go'sht va sabzavotlardan tayyorlanadigan yaxna taom. Birinjoba – birinj – guruch va suvdan tayyorlanadigan suyuq taom.

Obiro'g'an – ob – suv, ro'g'an (rovg'an) – yog' deganidir. Obiro'g'an palovning guruch solingungacha bo'lgan jarayoni, ya'ni yog', g'o'sht, piyoz, sabzi solingan qismi, adabiy tildagi zirvak so'zining aynan o'zidir.

Ko'rinib turibdiki, yuqorida ob so'zi yordamida tarkib topgan taom nomlari anchaginani tashkil etadi. Ovqat nomidan tashqari ba'zi suyuqlik nomlari ham ob so'zi bilan yasalgan. Masalan: objo'sh – jo'sh (forsa) qaynamoq degani bo'lib, obi jo'sh so'zidan kelib chiqib, qaynagan suv deganidir; g'o'lingob – g'o'ling – o'rikning quritilgani, turshak bo'lib, turshak va suv qo'shib tayyorlanadigan ichimlik nomi (6: 101). Shuningdek, Jondor shevasida shirbirinj, sho'rtoppa, maydaosh kabi taom nomlari ham uchraydiki, ular boshqa hududlarda qo'llanmaydi. Shirbirinj – tojikcha shir – sut, birinj – guruch so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, sut va guruchdan tayyorlaniluvchi quyuq taomni ifodalaydi. Sho'rtoppa – lag'monga o'xshash xamirli taom bo'lib, tuzli suvda qaynatilib, to'p-to'p qilib laganga solingani uchun «sho'rto'ppa» nomini olgan. Maydaosh – Jondor shevasida chuchvara shu nom bilan ataladi. Mayda-mayda tugilgani bois mayda osh nomini olgan.

Jondor shevasida oziq-ovqat, meva, sabsavot, o'simliklarning o'ziga xos nomlari mavjudki, ular boshqa hududlarda uchratish mumkul yoki boshqa fonetik shaklda qo'llanishi bilan farqlanadi.

Zardoli – tojikcha “zard” – sariq, oli – danakli ho'l meva, ya'ni sariq oli degani bo'lib, aynan o'rik mevasidir.

G'o'ling – o'rikning qoqisi, adabiy tildagi turshak.

Qaroli – qora+oli bo'lgan va vaqt o'tib fonetik nuqtayi nazardan soddalashib, bir urg'u bilan talaffuz etilish holatiga kelgan hamda qaroli shaklida muqimlashgan.

Javpazak – javzo – yulduzlar burjidagi oy nomi, pazak – fors-tojikchada pishmoq. Javzo oyida pishadigan olma navi. Avvalboshda

“javzopazak” shaklida bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan javpazak ko‘rinishiga kelgan.

Hazorispan – aslida: hazorispan. Manbalarda sipand shakli ham uchraydi. Yovvoyi shifobaxsh o‘simlik bo‘lib shamollashda keng qo‘llanadi. Jondor shevasida hazorispan, hazorispan, hazorispan kabi shakllarda qo‘llanishi ham kuzatiladi.

Sidona – aynan siyohdona bo‘lib, “siyoh” – qora va dona so‘zidan kelib chiqqan, qora dona demakdir.

Tabiati. Jondor tumani Buxoro vohasida Zarafshon daryosi quyi oqimining shimoli g‘arbida, cho‘l zonasida joylashgan. Relyefi, asosan, tekislik, qisman botqoq va sho‘rxoklar ham bor. Hududining qolgan qismi cho‘l (Urgancho‘l va O‘rtacho‘l) yaylovlaridan iborat. Tekisliklar bag‘rida alohida do‘ngliklar (Uchbosh, Sho‘rquduq) uchraydi. Iqlimi keskin kontinental, cho‘l iqlimi. Ba‘zan, Urgancho‘ldan garmisel esib turadi. Vegetatsiya davri 218 kun. Bahor sernam, yoz uzoq davom etadi, serquyosh, quruq, jazirama issiq, kuz qisqa va qishi iliq, ba‘zan ayozli. Yanv. ning o‘rtacha t-rasi 0—0, G, iyulniki 28—30. Yillik o‘rtacha t-ra 15—16°. Minimal harorat—27°, maksimal harorat 45°. Yillik yog‘in qariyb 125—130 mm, aksariyat qismi fevral-mart oylariga to‘g‘ri keladi. Tuman hududidagi obikor yerlar dastlab Zarafshon daryosidan sug‘orilgan. Amu-Buxoro mashina kanalining, ayniqsa Jondor tarmog‘ining ishga tushirilishi tufayli hozirgi kunda Amudaryo suvi bilan ta‘minlanadi. Vohadagi obikor yerlarning tuprog‘i madaniy o‘tloqi, bo‘z tuproqlar (ba‘zi joylarda bu tuproqlar sho‘rlangan). Cho‘l qismini qumli, gipsli, gilli, qumli cho‘l, qo‘ng‘ir tusli sur, taqir, taqirli na sho‘rxok tuproqlar egallagan. Yovvoyi o‘simliklardan daryo terrasa va qayirlarida qamish, ro‘vak, bug‘doyiq, sho‘rajriq, kampirsoch, itgunafsha, yulg‘un, sho‘rxok yerlarda pashmaksho‘ra, oqsho‘ra, qumli cho‘llarda oq saksovlul, boyalich, quyonsuyak, selin, astragal va b. o‘sadi. Aholisi, asosan, o‘zbeklar (95,6%); shuningdek, rus, tojik, qozoq, turkman va b. millat vakillari ham yashaydi. Tokzor va mevazorlar bor. Oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tuman markazida joylashgan. Plastmassa, vino, konserva z-dlari, non, SuT k-tlari, Navoiy jamoa xo‘jaligi hududida Buxoro paxta tozalash z-dining filiali, «Xadan» (O‘zbekiston — Xitoy) qo‘shma korxonasi mavjud. Tumanda jamoa, shirkat, ijara, dehqon, fermer xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatmokda. Sug‘oriladigan yer maydoni 28,2 ming ga. Shu jumladan donli ekinlar 7,5 ming ga, texnika ekinlari 17,5 ming ga, kartoshka, poliz, sabzavot 1,3 ming ga, yem-xashak 1,9 ming ga yer maydonini egallaydi (1999). Chorvachilik go‘sht-sut va jun-teri yetishtirishga ixtisoslashgan. Jondor tumani xo‘jaliklarida 45,4

ming qoramol, 105,3 ming qo‘y va echki, 35,8 ming parranda boqiladi. O‘rmon xo‘jaligi 66,4 ming ga maydonda joylashgan. Bu yerda ko‘chat yetishtirish yo‘lga qo‘yilgan. Qumli joylarida, asosan, saksovul, qandim, cherkez o‘sadi.

Keyingi to‘rt yilda tuman ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tub ijobiy o‘zgarishlar, jumladan, maktab binolarining ta‘mirlanishi, qishloq xo‘jaligida klaster tizimining joriy qilinishi, ko‘plab issiqxona va sanoat korxonalarining ishga tushirilishi aholi turmush darajasining o‘shishiga xizmat qilmoqda.

Buxoro viloyatining qadimiy maskanlaridan biri bo‘lib, uning tarixiy-geografik jihatdan shakllanishi va rivojlanib borishi Zarafshon daryosi bilan bogliqdir. Bu daryo bir necha ming yillar davomida otib, o‘zining quyi qismini obi-xayot bilan ta‘minlashi barobarida o‘tkazib kelgan Buxoro voxasini xam shakllantirgan, bu yerda ilk dexqonchilik madaniya tining paydo bo‘lishiga asos yaratgan. Misr Nil daryosining farzandi bo‘lgani singari Bu orol voxasi Zarafshonning farzandi, uning xosilasidir. Zarafshon vohasida aholining ko‘payishi va urbanizatsiya jarayoni shu o‘lka tabiiy sharoitiga bog‘liq sur‘atda davom etgan. Arxeolog olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, bu jarayon Zarafshon daryosining tomonida, uning sertarmoq irmoq va o‘zanlari atrofida ancha erta boshlangan.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Buxoro viloyatining Jondor shevasi o‘ziga xos leksik xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu hudud shevasi fors-tojik tili hamda o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi ta‘siri ostida shakllangan. Hudud shevasida fors-tojik tilining ta‘siri turli nomlar, xususan, meva, o‘simlik, uy-ro‘zg‘or va boshqa guruh so‘zlar misolida namoyon bo‘ladi. Jondor shevasiga xos jihatlarni aniqlash orqali o‘zbek tilining tarixiy shakllanish jarayoni hamda bu tilning qanday tillar bilan aloqada bo‘lganligi, ularning o‘zaro ta‘siri haqida xulosalar chiqarish imkoni yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. -Т.: Фан, 1963.

Мирзаев М.М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари: филология фанлари доктори дисс. – Тошкент, 1965 – 461-б.

Рахмонов Н.С. Ўзбек тили Навоий вилояти шевалари морфологик хусусиятларининг лингвоареал тадқиқи: филол. фанл...фалсафа докт. диссер. –Самарқанд, 2018. – 164 б.

Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1978.

Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.

Шоабдурахмонов Ш. Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ

шевалари. -Т.: Фан, 1962.

Kilichev, B. E. (2021). BUKHARA REGION'S TYPICAL TOPONYMS TRANSFORMED BY MEANS THE NAMES OF NATIONS. *Theoretical & Applied Science*, (2), 43-46.

Kilichev Bayramali, Khojaoglu Timur, Adizova Nodira Classification of Oykons (On the Example of Bukhara Region) *International Journal of Culture and Modernity* ISSN 2697-2131, 2022, Volume

Bobirovich, N. M. . (2022). ILK O'SPIRINLIK DAVRIDA SHAXS SHAKLLANISHINING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSLARI VA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMYIY JURNALI*, 2(12), 68–71. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5047>

Muhrodbek Bobirovich Nabiyev (2021). ILK O'SPIRINLIK DAVRIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI. *Scientific progress*, 2 (6), 1146-1149.

Nigmatovna, N. G., & Erkinovna, U. V. (2020). Pharaoh of the weavers of bahauddin naqshband. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 922-926.

Наврўзова, Г. (2005). Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. Тошкент:“Фан, 233.

Наврўзова, Г., & Зоиров, Э. (2018). Бухорои Шарифнинг етти пири. Тошкент: Мухаррир, 80.

Negmatovna, N. G. (2021). Khojagon education and the specifics of this way. *Academicia: An international multidisciplinary research journal*, 11(1), 1331-1337.

Navruzova, G. (2020). Bahauddin Naqshband-the seventh pir of Bukharai Sharif (Noble Bukhara). *Islamic thinking. Scientific-educational, religious-cultural, information publication magazine. Tashkent. Special issue*, 5-8.

Nematovna, N. G. (2021, February). The essence of Abu Ali Ali Sina's treatise on birds and the influence of mystical ideas on its development. In *Archive of Conferences* (Vol. 16, No. 1, pp. 19-23).

Muzafarovna, Y. M. (2022). TIBBIY PEDAGOGIK YO 'NALISH TALABALARIDA MILLIY AN'ANALAR ASOSIDA BAG 'RIKENGLIKNI RIVOJLANTIRISHGA OID TARIXIY TAJRIBALAR. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMYIY JURNALI*, 2(12), 80-84.

Yuldasheva, M. M. (2022). Development of Tolerance in Students of Medical Pedagogical Direction on the Basis of National Traditions.

Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT ISSN, 2792-1883.

Inoyatovna, M. D. . (2022). THE MAIN PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF EDUCATION AND DEVELOPMENT OF GIFTED STUDENTS. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 64–67. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5046>

Холикова, М. К. К. (2021). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ШКОЛЬНИКОВ В ДУХЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ. European research, (1 (38)), 73-75.

Holikova, M. K. IMPORTANT ASPECTS OF AESTHETIC EDUCATION OF SCHOOLCHILDREN IN THE SPIRIT OF NATIONAL VALUES.

Sodiqova A.H., «Didactic opportunities for development of special competencies in students of technological education» // Finland, Helsinki international scientific online conference «SUSTAINABILITY OF EDUCATION SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY» October 7 th 2022. Finland, Helsinki -P. 175-180.

1) Akramov, A. (2021). Psychological mechanisms and determinants of maintaining human health. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).

2) Akramov, A. (2021). ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЕ С НАСЕЛЕНИЕМ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).

3) Akramov, A. (2021). SHARQ ALLOMALARINING MILLIY SPORT O‘YINLARI TO‘G‘RISIDAGI ILMIY FIKR VA QARASHLARI. EDAGOGIK AHORAT, 250.

4) Shavkatovich, A. A. (2020, December). MORAL EDUCATION IN THE MIND OF THE YOUNG GENERATION PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF FORMATION. In Конференции.

Madina, X. (2023). RANGLARNING INSON RUHIYATIGA TA‘SIRI VA ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI. TA‘LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(1), 296-299.

ХОЛИКОВА, М. ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ШКОЛЬНИКОВ В ДУХЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ. EUROPEAN RESEARCH Учредители: Олимп, (1), 73-75.

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

### **QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA TOLERANTLIK TAFAKKURI VA FUQAROLIK POZITSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI**

*Yuldasheva Mashxura Muzafarovna,  
dostent, (PhD) ZARMED University*

*Annotatsiya; Maqolada yangi O'zbekistonni taraqqiy ettirishda yoshlarga bo'layotgane'tibor alohida ahamiyat kasb etilishi, yoshlarning faol fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirish va oshirish kuchli fuqarolik jamiyatining asosiy shartlaridan biri ekanligi yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: fuqarolik pozitsiyasi, farovonlik, tarbiya, oila, insoniy qadriyatlar, ijtimoiy muhit.*

### **ТЕХНОЛОГИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТОЛЕРАНТНОГО МЫШЛЕНИЯ И ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ЦЕННОСТНОГО ПОДХОДА**

*Юлдашева Маишхура Музафаровна,  
Университет ЗАРМЕД, доцент (PhD)*

*Аннотация: В статье поясняется, что внимание, уделяемое молодежи, имеет особое значение в развитии нового Узбекистана, что совершенствование и повышение активной гражданской позиции молодежи является одним из главных условий сильного гражданского общества.*

*Ключевые слова: среднее положение, благополучие, воспитание, семья, общечеловеческие ценности, социальная среда.*

### **TECHNOLOGY FOR IMPROVING TOLERANCE THINKING AND CIVIL POSITION IN STUDENTS BASED ON VALUES APPROACH**

*Yuldasheva Mashkhura Muzafarovna,  
TURON ZARMED University, dostent (PhD)*

*Abstract. In the article, it is explained that the attention paid to young people is of special importance in the development of the new Uzbekistan, that improving and increasing the active citizenship position of young people is one of the main conditions of a strong civil society.*

*Keywords: Fuqmiddle position, well-being, education, family,*

*human values, social environment.*

The locomotive, driving force and future of any country is the attention given to the youth of that country.

The majority of the people of Uzbekistan are young people. The future, development and well-being of our country depends on the education and maturity of the youth.

Improving the active citizenship position of young people is not only the task of the head of state and/or civil servants, but also the task of all citizens in society who are responsible for the education of young people.

Of course, attention to young people is becoming the main task of the family, and also of the whole society. Young people who are maturing in the spirit of national and universal human values can be entrusted with any responsible task. Today, there are many young people in our country who are serving as an example to their peers and who are contributing to the promotion of Uzbekistan to the world.

There are also those among us who waste their precious time in fruitless activities or straying into wrong ways. An important and important aspect of the matter is that, first of all, it is necessary to guide the youth who are spending their free time unproductively, to the right path, to instill confidence in their abilities and capabilities, to give them independent thinking, It is important to have a civic position, to develop the skills to demonstrate an active civic position. There are a number of factors for the implementation of such a task, which include:

First of all, the social environment in the family. A parent's influence on their child is a well-directed education. In this, first of all, parents themselves play an important role as a personal example and role model. From a young age, the child is encouraged to think freely, to books, to a certain subject and or kaFirst of all, parents are responsible for arousing interest in sb-crafts, realizing their child's talent early and directing it correctly. This situation has a great impact on increasing the child's self-confidence.

Secondly , it depends on the correct implementation of the educational and educational work carried out by educators and teachers with children in preschool and school educational institutions. Organization of education, taking into account the mentality, abilities and individual characteristics of the child, requires great skill from any trainer, pedagogue. If the teachers-coaches realize the abilities, talents and interests of the child in time and influence their development, such young people will grow up to be well-rounded people in the future.



Activities on various spiritual, educational, political topics organized in educational institutions serve to increase the activity of young people;

Thirdly the other hand, various forms of activities conducted by neighborhood activists with young people. In particular, events such as «Young Reader», «Young Sportsman», «Young Nature Lover», «Obod Mahalla» held in the neighborhoods, contests and competitions among families, «My child is proud», «Champion child» «, «Craftsman child» and other similar topics, the organization of conversations, spiritual and educational events increases the interest of young people to find their place in society;

Fourthly, the activities of public organizations, non-governmental and non-profit organizations, and political parties with young people are also an important factor in improving the active citizenship position of young people. Today, a number of organizations that pay great attention to expanding their ranks with young people have their own social networks, through which they call young people to be active. It can be said that the Youth Parliament and the Youth Agency are setting an example in this regard.

Fifthly, it is necessary to further improve programs and broadcasts that encourage youth to be active through mass media. Today, the mass media are lagging behind in this matter. However, the mass media play a big role in improving the active citizenship position of young people. However, this opportunity is not being used enough. There is an increasing number of very shallow, domestic, hospitality and cooking shows. This, in turn, bores young people and increases their dependence on the Internet. We cannot say that all young people using the Internet are on the right path. Of course, there are many of our young people who use it effectively. However, young people who lose their way through the Internet and fall under the influence of foreign ideas,

In other words, in improving the active citizenship position of young people, family, neighborhood, educational institutions, public formations, political institutions, youth organizations, mass media and their cooperative activities are important factors.

Improving the active citizenship position in young people - every child should know and appreciate the history, spiritual values, opportunities and prospects of our country, be proud of it, feel a concern for the peace of the country, the development of the country and the well-being of the people, together with their right it means to know one's duties and responsibilities and to fully implement them, to cultivate the qualities of being able to protect national interests in any case. Uzbeks have long been distinguished from other peoples by their honesty and

humanity standing Honoring parents, the elderly, the sick and the needy, so to speak concepts such as showing respect and kindness, taking care of running water, the environment, high-level trade culture, and the combination of religious and secular knowledge are evidence of a high level of culture. «Honesty is sold - dead,» wrote J. Sand.

The concept of loyalty is an integral part of human culture.

Alisher Navoi's «Sher and Durroj» We all read the poem about him in elementary school. It seems a pity that today so many of our countrymen are like that liar. Contrary to our national values and interests, it has become common to lie even to parents. The life of a lie is short, our people say. It is not surprising that today lying has increased a lot in mutual conversations, especially in family relationships, and we should be worried that the value of words has decreased.

When we do not carry out activities that answer the question, «Isn't it time to promote giving up as soon as possible the defect of lying, which is contrary to our national traditions and is a source of our national pride, our national pride and cultural- we cannot say that we preserve our national values.

In other words, in cooperation with the State Television and Radio Company of Uzbekistan, the Center for Spirituality and Enlightenment of the Republic and other public organizations, «the value of the word», «the word of mouth», «the unity of words and work», «the word of mouth - The organization of roundtable discussions, live dialogues, impressive shows and broadcasts on topics such as «symbol of courage» is of great importance in educating the young generation with an active civic position. After all, as President Shavkat Mirziyoyev noted: «We need to pay more attention to the vital problems of our youth, to increase the number of modern jobs suitable for them, to support their noble aspirations and initiatives, and innovative ideas. , the improvement of the social and household conditions of our young generation will continue to be the most important of all levels of government agencies,

#### References

1. Muzafarovna, Y. M. (2022). Tibbiy pedagogik yo 'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag 'rikenglikni rivojlantirishga oid tarixiy tajribalar. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 2(12), 80-84.

2. Yuldasheva, M. M. (2022). Development of Tolerance in Students of Medical Pedagogical Direction on the Basis of National Traditions. Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT ISSN, 2792-1883.

3. Muzafarovna, Y. M. (2020). Development of tolerance in the history of eastern culture. Chief Editor, 5(10), 7.

4. Yuldasheva, M. M. (2022). Development of Tolerance in Students of Medical Pedagogical Direction on the Basis of National Traditions. *Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT ISSN*, 2792-1883.

5. Yuldasheva, M. (2021). Ways to develop tolerance in medical pedagogical students on the basis of national traditions. *Scientific progress*, 2(6), 1097-1102.

6. Юлдашева, М. М. (2022). ТИББИЙ ПЕДАГОГИК ЙЎНАЛИШ ТАЛАБАЛАРИДА МИЛЛИЙ АНЪАНАЛАР АСОСИДА БАҒРИКЕНГЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. *BARQARORLIK VA YETAKSHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(4), 333-336.

7. Юлдашева, М. (2020). Розвиток толерантності в історії східної культури. *Науковий вісник Ізмаїльського державного гуманітарного університету*, (46), С-158.

8. Makhmudova, D. I., Isabayeva, D. K., & Holikova, M. K. AESTHETIC EDUCATION OF TALENTED STUDENTS IN THE SPIRIT OF NATIONAL PRIDE.

9. Inoyatovna, M. D. . (2022). THE MAIN PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF EDUCATION AND DEVELOPMENT OF GIFTED STUDENTS. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(12), 64–67. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5046>

10. Sobirov Ulug‘bek G‘ofurovich. (2022). PROBLEMS OF EDUCATIONAL POLICY IN BUKHARA IN THE LATE XIX-EARLY XX CENTURY AND THEIR SOLUTIONS. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 9(12), 251–254. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/8NTQW>

11. Muhrodbek Bobirovich Nabiyev (2021). ILK O‘SPIRINLIK DAVRIDA SHASXLARARO MUNOSABATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI. *Scientific progress*, 2 (6), 1146-1149.

12. Madina, X. (2023). RANGLARNING INSON RUHIYATIGA TA‘SIRI VA ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI. *TA‘LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 3(1), 296-299.

## **BOSHLANG`ICH SINIF DARSLIKLARIDA KELTIRILGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O`QUVCHILAR NUTQIDAGI AHAMIYATI**

*Mametjumayeva Gulasal Ro`zimurodovna*

*Turon Zarmed Universitetining boshlang`ich ta`lim, pedagogika va  
psixologiya kafedrası o`qituvchisi*

---

*Annotatsiya: Quyidagi maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarining nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan jarayonlarda iboralarning o`rni, ularning ta`lim jarayonida foydalanish darajasi va ahamiyatligining tahliliy ko`rinishlariga diqqat qaratilgan. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining nutqini boyitishga qaratilgan mashqlarning doirasini iboralardan foydalangan holda jadvallarini tuzish va uning o`quvchilar turmush hayotidagi ahamiyati ko`rsatilgan va iboralarning mazmuniy tahliliga diqqat qaratilgan. Har bir iboralarning o`quvchilarga tushuntirish va ulardan turmush hayotiga foydalanishga o`rgatishda foydalaniladigan jumalalar ya`ni iboralarning o`quvchilar tiliga mos ravishda tahlili aytib o`tilgan.*

*Kalit so`zlar: Iboralar, tahlil, boshlang`ich sinf, darslik, ma`no, nutq, ifodali o`qish, frazeologiya, maqollar, hodisa, frazeologik sinonimiya, frazeologik omonimiya, frazeologik antonimiya.*

## **ЗНАЧЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В РЕЧИ УЧАЩИХСЯ В УЧЕБНИКАХ ДЛЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ**

*Маметжумаева Гуласал Розимородовна*

*Преподаватель кафедры начального образования, педагогики  
и психологии Университета Турон Зarmed*

---

*Аннотация: Данная статья посвящена анализу роли выражений, уровня их употребления и значения в учебном процессе в процессах, направленных на устранение недостатков в речи учащихся начальной школы. Объем упражнений, направленных на обогащение речи учащихся начальных классов, заключается в составлении таблицы упражнений с использованием словосочетаний и показано ее значение в жизни учащихся и обращено внимание на содержательный анализ словосочетаний. Упоминается анализ предложений, т.е. словосочетаний, используемых при объяснении каждой фразы учащимся и обучении их использованию в жизни в соответствии с языком учащихся.*

*Ключевые слова: Фразы, анализ, начальный класс, учебник,*

смысл, речь, выразительное чтение, фразеология, пословицы, событие, фразеологическая синонимия, фразеологическая омонимия, фразеологическая антонимия.

## THE IMPORTANCE OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE SPEECH OF STUDENTS IN ELEMENTARY SCHOOL TEXTBOOKS

*Mametjumayeva Gulasal Rozimorodovna*

*Teacher of the Department of Elementary Education, Pedagogy and Psychology of Turon Zarmed University*

*Abstract: The following article focuses on the analysis of the role of expressions, their level of use and importance in the educational process in the processes aimed at eliminating the shortcomings in the speech of elementary school students. The scope of the exercises aimed at enriching the speech of elementary school students is to make a table of exercises using phrases and its importance in the life of students is shown and attention is paid to the meaningful analysis of phrases. The analysis of sentences, i.e. phrases used in explaining each phrase to the students and teaching them to use them in life, according to the language of the students, has been mentioned.*

*Key words: Phrases, analysis, primary class, textbook, meaning, speech, expressive reading, phraseology, proverbs, event, phraseological synonymy, phraseological homonymy, phraseological antonymy*

Kirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish, nutqida mavjud bo'lgan kamchiliklarini bartaraf etish boshlang'ich sinf o'qituvchisining oldida turgan murakkab jarayondir. Bu jarayonda iboralarning, ya'ni nutq jarayonida tayyor birliklardan foydalanish nutqning ravonligini ta'minlaydi. Bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobilyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demakdir (A.A.Leont'ev).

Asosiy qism. Frazeologik birlikma yoki frazema, ibora kelib chiqish jihatidan juda qadimiy bo'lsa-da, frazeologiya (iborashunoslik) fani tarixi bir necha yuz yilni o'z ichiga oladi. Til - har bir xalqning eng muxim milliy ma'naviy boyligidir. Xalqlar, avvalo, tiliga qarab millatlarga ajratiladi. Bugun jahon jadal rivojlanib borayotgan bir davrda, biror bir chet tilini o'rganish xayotimizda muxim rol o'ynaydi. Ayniqsa o'rganilayotgan tilimizni qanday vujudga kelgani va uning grammatik tuzilishi qanday ekanligini bilish va uni taxmin qilish juda ahamiyatlidir. Barcha tillarda leksik xamda frazeologik qatlamlar mavjud bo'lib, bir

biriga o'xshash bo'lmagan tillardagi frazeologik qatlamlarni taqqoslash frazeologizmlarning ma'nosini tushinishga yordam beradi. Bu esa, frazeologiya doirasida erishilgan ilmiy izlanishlar xamda natijalarga tayangan xolda, ushbu yo'nalishdagi tushunchalar mazmuniga aniqlik kiritish, ilmiy asoslangan tariflarni bir biriga taqqoslash, ularning tarixini o'rganish, ma'nolarini aniq yoritishni taqozo etadi. Frazeologiyaning tarixiy shakllanishni o'rganish (L.E.Royzenzon, M.M.Kopilenko, V.L.Arhangelskiy, E.X.Rot) soxasida qator ishlar amalga oshirildi.

1. Frazeologizmlarning asosiy morfologik belgilari:

a) ot frazeologizmlar; b) atoqli otlar ishtirok etgan frazeologizmlar; d) kishi a'zolarining nomlari (somatizmlar) ishtirokida tuzilgan frazeologizmlar; e) fe'l frazeologizmlar; f) boshqa so'z turkumlari ishtirok etgan frazeologizmlar.

2. Fe'l frazeologizmlarda o'timli-o'timsizlik, mayl, nisbat va zamon kategoriyalari.

3. Frazeologizmlarning asosiy sintaktik belgilari: a) so'zga teng frazeologizmlar; b) so'z birikmasiga teng frazeologizmlar;

d) gapga teng frazeologizmlar.

4. Frazeologizmlarning sintaktik vazifalari

Frazeologik birlik yoki frazema, ibora kelib chiqish jihatidan juda qadimiy bo'lsa-da, frazeologiya (iborashunoslik) fani tarixi bir necha yuz yilni o'z ichiga oladi. Rus tilshunosligida Frazeologik birlik lar bilan tadqiqotchilar XVIII asrdan boshlab shug'ullanib kelishmoqda. Jumladan, M.V.Lomonosov rus adabiy tili lug'ati rejasini tuzar ekan, bunda so'zlar bilan bir qatorda "xalq (Rossiya) maqollari", "frazeslar" va "idiomatizmlar" o'z ifodasini topishi lozimligini alohida ta'kidlagan edi. XX asrning 60-80-yillariga kelib frazeologiya chet el tilshunosligida bo'lganidek, o'zbek tilshunosligida ham tez sur'atlar bilan o'sdi.

Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: [tepa sochi tikka bo'ldi], [sirkasi suv ko'tarmaydi], [o'takasi yorildi], [do'ppisi yarimta], [ikki gapning birida], [boshga ko'tarmoq] va boshqa.

So'z birikmasi ko'rinishidagi frazeologizm: [ko'ngli bo'sh], [enkantinkasini chiqarmoq], [jig'iga tegmoq], [bel bog'lamoq], [kir izlamoq], [terisiga sig'may ketmoq] va h. Gap tipidagi frazeologizm «gap kengaytiruvchisi+kesim» qolipi mahsuli: [istarasi issiq], [ichi qora], [labi-labiga tegmaydi], [ko'ngli ochiq], [tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq], [kapalagi uchib ketdi], [po'konidan el o'tmagan], [tepa sochi tikka bo'lmoq] va h.

Frazeologizm, asosan, belgi va harakat ifodalaydi. Demak, ular grammatik jihatdan belgi yoki harakat bildiruvchi soʻz turkumiga mansub.

Feʼl turkumiga mansub frazeologizmlar: [meʼdasiga tegmoq], [yaxshi koʻrmoq], [holdan toymoq], [sabr kosasi toʻlmoq], [tepa sochi tikka boʻlmoq], [ogʻziga talqon solmoq], [podadan oldin chang chiqarmoq].

Sifat turkumiga mansub frazeologizm: [koʻngli boʻsh], [rangli sovuq],

[yuragi toza], [avzoyi bejo], [dili siyoh], [kayfi buzuq].

Ravish turkumiga mansub frazeologizm: [ipidan-ignasigacha], [ikki dunyoda ham], [miridan-sirigacha], [ha-hu deguncha].

Soʻz - gaplarga mansub frazeologizm: [turgan gap], [shunga qaramay], [katta gap].

Odatda, frazeologizmning maʼnosi bir leksema maʼnosiga teng deyiladi. Biroq hech qachon ular teng emas. Chunki frazeologizm va leksema maʼnosi teng boʻlsa edi, unda frazeologizm ortiqcha boʻlib qolar edi.

Misol sifatida [yoqasini ushlamoq] frazeologizmi bilan [hayron boʻlmoq] leksemasining maʼnolarini qiyoslab koʻraylik. Mazkur frazeologizm «kutilmagan, tushunib boʻlmaydigan narsa yoki hodisadan oʻta darajada taʼsirlanib, taajjublamoq» boʻlsa, [hayron boʻlmoq] leksemasi «kutilmagan, tushunib boʻlmaydigan narsa yoki hodisadan taʼsirlanmoq» sememasiga ega.

Frazeologik birliklarning variantlilikiga koʻra tasnifi:

Leksik variant deganda ibora tarkibidagi mustaqil soʻz turkumiga oid soʻzi oʻzgartilishi nazarda tutiladi. Masalan: oʻyga choʻmmoq – oʻyga botmoq, ogʻziga talqon solmoq – ogʻziga soʻk solmoq va b.

Grammatik variant deganda ibora tarkibidagi biror Grammatik qismning almashtirilishi nazarda tutiladi. Masalan: oʻtirgani joy topolmaslik – oʻtirishga joy topolmaslik, holdan toymoq – holdan toydirmoq.

Nutq – kishi faoliyatining turi, til vositasi (soʻz, soʻz birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq oʻzaro aloqa va xabar, oʻz fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga taʼsir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Oʻquvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli taʼlim olish qurolidir.

Boshlangʻich 2-sinf uchun moʻljallangan “Ona tili va oʻqish savodxonligi” darsligidan oʻrin olgan iboralarni tahlil qiladigan boʻlsak barchasida nutqning taʼsirchanligini oshirishga qaratilgan maqsad

qo'yilgan. "Bir yoqadan bosh chiqarmoq" iborasining qo'llanilishiga diqqat qaratadigan bo'lsak birdamlik, inoqlik, hamjihatlik kabi tushunchalarni izohlash maqsadida foydalanilsa ta'sirlilik darajasi, tinglovchi va so'zlovchiga to'g'ri tushunarli bo'ladi. Yuqorida keltirilgan iboraning mazmunini o'rgatish jarayonida o'qituvchi yoqa va bosh so'zlariga diqqatni qaratib izohlanganidan so'ng, bular birgalikda, bir butun jumla ekanligini tushuntirishga o'tishi va ibora izohlayotgan tushuncha bir so'zga teng ekanligi tushuntiriladi. So'zlarga mosligi taqqoslanadi, so'z va iboralar o'rtasida sinonimlik, antonimlik kabi mosliklar keltirilib tushuntirilsa o'quvchilarga tushunarli bo'lib o'rganilayotgan tushuncha maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Misol: (sinonimlik) bir yoqadan bosh chiqarmoq-hamjihatlilik, bel bog'lamoq-otlanmoq, boshida yong'oq chaqmoq-azoblamoq, (antonimlik) bir yoqadan bosh chiqarmoq-parokandalik kabi misollar bilan ko'rishimiz mumkin.

Darslikda keltirilgan iboraga diqqat qaratilishini alohida takidlash maqsadida mavzudan keyin savollarda alohida to'xtalgan: "Bir yoqadan bosh chiqarib" iborasini izohlang.

Keyingi sahifada keltirilgan iboralar alohida bir mavzuni o'z ichiga qamrab olgan.

Qiyналganlarga yordam qo'lini cho'zishni o'z burchlari deb biladilar. Qiyналganlarga yordam berishni o'z burchlari deb biladilar. Ko'rinadiki yordam qo'lini cho'zish iborasi keltirilgan gap tasirliroq va mukammaliroq.

Mahalladoshlar bilan bir oila a'zolaridek qo'lni qo'lga berib mehnat qilamiz. Mahalladoshlar bilan bir oila a'zolaridek birgalikda mehnat qilamiz. Do'stlik, inoqlikni madh qiluvchi iboralarning darslar tarkibida o'rgatilib borishi o'quvchilarda bir vaqtning o'zida ham ta'limiy ham tarbiyaviy bilimlarini rivojlantiradi.

Aravani quruq olib qochmoq iborasini o'quvchilarga tushuntirish jarayonida, iboradagi har bir so'zni alohida lug'aviy ma'nolarini izohlash o'quvchilarning tushunishlarini ancha osonlashtiradi. Arava so'zining yuk olib yurish uchun mo'ljallangan asbob deb tushuntiradigan bo'lsak, quruq ya'ni biror bir buyumsiz ekanligi va olib qochmoq bu ma'lum joydan boshqa joyga uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtanmoq;

Besh barmog'ini o'g'ziga tiqmoq – hovliqib, lozim bo'lganidan ko'ra ortiqroq narsani ro'yobga chiqarish uchun intilmoq, nafsga berilmoq. Ya'ni barmoq, og'iz, so'zlariga diqqat qaratadigan bo'lsak, qo'ldagi beshta barmoqning hajmi bir hil emasligi, ularning hajmi har xil ekanligi insonning yashash tarzi ham har xil ekanligiga ishora qilinadi



odatda. Bu iboramizda barcha ishlarni bir vaqtning o'zida qilishga harakat qilish yki bo'lmasa barcha narsa buyumlarning hammasi bir xil kerak deb o'ylaydigan jarayonga nisatan aytiladi. Ya'ni bir qo'limizda beshta barmoq bor ularning barchasi birdaniga og'izga sig'maydi lekin ularni sig'dirishga harakat qilish bir so'z bilan aytganda ochofatlikni ifodalovchi ibora.

U qulog'idan kirib, bu qulog'idan chiqib ketdi – e'tibor bermay, xotirasida tutib qololmadi. Bu iborani tahlil qiladigan bo'lsak eng avval quloq tusunchasiga va uning inson hayotidagivazifasiga diqqatni qaratishimiz kerak. Inson uchun quloq tinglash vazifasini bajaradi, aytilayotgan gaplarni tinglashi va ularga amal qilishi lozim bo'lgan fikrlarni tinglagan ammo amal qilmagan shaxsning faoliyatiga nisbatan aytilgan iboradir.

Yuragiga qil sig'maydi – juda qattiq tajang bo'lib, ruhan ezilib, hech narsabilan mashg'ul bo'lolmaydi. Yurakhaqidagapirganimizda insonning eng sa'sirli qismini tushunamiz. Qil esa eng nozik va ingichkaligi bilan adabiyotlardan o'rin olgan. Yurakga hatto qildek ingichka narsa ham sig'maydigan darajada ruhan tushkunlik mavjudligini ifodalab kelgan ibora o'quvchilarga o'rgatilayotgan jarayonda insonning g'amgin va tushkun holatlarini izohlashda ishlatiladi.

Iboralar o'rganilish jarayonda misol qilib ko'rsatiladigan voqea hodisalarning barchasi kundalik hayotda qo'llaniladigan, mavhum bo'lmagan tushunchalar bilan oydinlashtirilsa o'quvchilar tushunish jarayoni va iboralarni nutqida erkin qo'llay olish imkonini beradi.

Frazeologizm leksik birlik kabi qo'llanish darajasi nuqtai nazaridan ham tasnif qilinadi. Bunga ko'ra umumiste'mol frazeologizmi ([holdan toymoq], [shunga qaramay], [ro'yobga chiqmoq]) va qo'llanilishi chegaralangan frazeologizm farqlanadi.

Qo'llanilishi chegaralangan frazeologizm qo'llanilish davri (eskirgan va zamondosh) va doirasi (dialektal, ilmiy, badiiy so'zlashuv) bilan ham ma'lum bir tafovutlarga ega.

Misol sifatida [yoqasini ushlamoq] frazeologizmi bilan [hayron bo'lmoq] leksemasining ma'nolarini qiyoslab ko'raylik. Mazkur frazeologizm «kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan o'ta darajada ta'sirlanib, taajjublanmoq» bo'lsa, [hayron bo'lmoq] leksemasi «kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan ta'sirlanmoq» sememasiga ega.

Frazeologik sinonimiya: Ma'nodoshlik hodisasi frazeologizmlarda ham mavjud. Frazeologizmning ma'nodoshlik paradigmasida birliklar ifoda semalari darajasiga ko'ra farqlanadi: [yaxshi ko'rmoq] – [ko'ngil bermoq], [er bilan yakson qilmoq] – [kulini ko'kka sovurmoq], [ipidan

ignasigacha] – [miridan sirigacha], [qilidan quyruq‘igacha] va h. Ma’nodosh frazeologizmlarning atash semasi bir xil bo‘ladi.

Frazeologik antonimiya: Zid ma’noli antonimlar bir-biriga teskari tushun-chani ifodalaydi. Misollar: [ko‘ngli joyiga tushdi] – [yuragiga g‘ulg‘ula tushdi], [qoni qaynadi] – [og‘zi qulog‘iga etdi].

Frazeologik omonimiya: Frazeologizmlar omonimik munosabatda ham bo‘lishi mumkin. Misollar: [so‘z bermoq I] (“va’da bermoq”), [so‘z bermoq II] (“gapirishga ruxsat bermoq”), [boshga ko‘tarmoq I] (“ardoqlamoq”), [boshga ko‘tarmoq II] (“to‘polon qilmoq”), [qo‘l ko‘tarmoq I] (“ovoz bermoq”), [qo‘l ko‘tarmoq II] (“urmoq”).

Frazeologik iboralar o‘z ma’nodoshlari bo‘lmish so‘zlarga nisbatan, ma’noni kuchli darajada ifodalaydi hamda ularda obrazlilikni yorqin aks ettiradi. Frazeologik iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga guvoh bo‘lish, kishilarning xilma-xil harakat-holatlariga baho berish, tajri-balarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir.

Iboralarga misollar:

adabini berdi - qilmishiga yarasha jazoladi;

avzoyi buzilmoq – vajohati yomonlashmoq, achchiqlanmoq;

aravani quruq olib qochmoq – uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtanmoq;

bag‘ri qon – g‘am-a‘lamli, g‘am a‘lamda;

Odatda, frazeologizmning ma’nosi bir leksema ma’nosiga teng deyiladi. Biroq hech qachon ular teng emas. Chunki frazeologizm va leksema ma’nosi teng bo‘lsa edi, unda frazeologizm ortiqcha bo‘lib qolar edi.

Ilmiy frazeologizm: [nazar tashlamoq], [ko‘zga tashlanmoq], [chambarchas bog‘lanmoq], [to‘g‘ri kelmoq], [imkoniyatlar doirasi], [qulay qurshov];

Badiiy frazeologizm: [sabr-kosasi to‘lmoq], [og‘zining tanobi qochmoq], [og‘zidan bodi kirib, shodi chiqmoq], [qildan qiyiq axtarmoq], [six ham kuymasin, kabob ham], [boshida yong‘oq chaqmoq];

So‘zlashuv nutqi frazeologizmi: [arpasini xom o‘rmoq], [erga urmoq], [yuragi qon], [ko‘zi tor], [ko‘zi och], [boshi ochiq].

Metodlar. Iboralarni o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonida bir qancha metodlardan foydalanamiz. Bularga misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

Gaplarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ibora bilan almash-tirib o‘qing.

Iboraning ma’nosi so‘z ma’nosidan nimasi bilan farq qiladi?

Quyidagi jadvalda keltirilgan gaplardagi so‘zlarni mos iboralar

bilan moslashtiring.

1	Ish juda oson bitdi	l	ko'z ochib yumguncha
2	Zamira opa ovqat qilishda har qanday osh-pazdan o'zadi	m	anqoning urug'i
3	Umr degan narsa tez o'tib ketar ekan	a	mijja qoq-maslik
4	Hozir oq tur-nalar kamyob bo'lib ketgan	b	amri mahol
5	Quadrat unga gap uqtirish qiyin ekanini sezdi	d	ammamning buzog'i
6	Peshonam sho'r bo'lmasa, shu landovurga tegamanmi?	e	oralaridan qil o'tmaydigan
7	Bu eski mashinangiz bilan shaharga yuk olib borib bo'lmaydi	f	almisoqdan qolgan
8	Choyxonaning egasi Nodirning juda yaqin qadrdon ulfati	g	tesha tegmagan
9	Ma'ruzachi fikrini shunday chiroyli, yangi jumlar bilan sodda qilib tushuntirardiki, kishining sira esidan chiqmasdi	h	xamirdan qil sug'urganday
10	Havoning birdan sovib ketishi dehqonchilik ishlariga xalal berdi	i	bir cho'qishda qochiradi
11	Tuni bilan hech kim uxlamadi	j	anqoning urug'i
12	Bir talaba kutilmaganda mavzuga aloqasi bo'lmagan savol berib qoldi	k	xamirdan qil sug'urganday

Berilgan gaplardagi iborani topib, ma'nosini izohlang.

1. Sen chuchvarani xom sanab yuribsan, uka. Do'st bilan dushmanni ajratmaysan. (I. Rahim)

2. Peshonam sho'r bo'lmay o'lsin, peshonam sho'r bo'lmasa, shu ammamning buzog'iga tegamanmi? ("Yoshlik" jurnalidan)

3. Qani bittasi g'ing deb ko'rsinchi, gazetaga yozaman, – dedi u achchiqlanib. (X. To'xtaboyev) 4. Bobom payvand qilar ekanlar: – Ko'zing pishisin, o'rganganing foyda, bolam! – deb qo'yar edilar. (G'ayratiy)

5. Kenja har yoqqa alanglab, boshpana ko'zlashga tushdi. Dashtda bunday boshpana anqonong urug'i. (H. Nazir)

6. Mol-dunyo hirs va otalik muhabbati chol bechorani yo'ldan urib, u o'g'lining gapiga kiribdi. ("Hiylagarning jazosi" ertagidan)

7. Shogird endi uning hunarini batafsil egallab olishga astoydil bel bog'labdi. (Q. Hikmat)

8. Men yo'lda karaxt bo'lib qolgan ekanman, haliyam o'zimga kelolmayapman, – deb qo'ydi uchinchisi. (X. To'xtaboyev)

9. Nimaga bu ishingni mendan yashirib yurganding, qizim? – deb so'radi Habiba opa Shoiradan. Shoira o'zini gunohkor sezib, churq etolmadi. (H. Nazir)

10. Bahrom pastga qaradi-yu, yuragi orqasiga tortib ketdi. (S. Anorboyev)

11. Zulayho xola Mukarramani yer-ko'kka ishonmaydi. (G'.

G‘ulom)

12. Bu yil saksonga to‘ladi, umr oqar daryo, ko‘z ochib yumguncha shu yoshga yetib keldi. (T. Hayit)

13. Ozod bilan Nosir hamqishloq emasmi, darhol til biriktirib sayrga chiqib ketishdi. (M. Xidir) 14. Qo‘ling el aro uzun bo‘lsa, sen o‘z fe‘l-atvoringni ezgu tut. (Yusuf Xos Hojib)

15. Kitob ko‘ngillarga ezgulik urug‘ini sepib, yashashdan saboq beradi. (H. Nazir)

15. Yodgoringning ham tili chiqib qoldi: “dada-dada”ni og‘zidan qo‘ymaydi. (G‘. G‘ulom).

Frazeologik iboralar til lug‘atini boyitibgina qolmay ushbu tilni bezashga, nutqdagi ifodalilik darajasi oshirishga ham xizmat qiladi. Frazeologizmlarda oddiy erkin leksemalarga nisbatan ifodalilikni, emotsional bo‘yog‘ hamda milliy koloritni ko‘rish mumkin. Bunday iboralarni har bir tilda kuzatish mumkin.

Bayon qilish metodi ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida qo‘llangan asosiy metodlardan biri bo‘lgan. Bunda o‘qituvchi bayon qilishdan oldin o‘quvchilarning o‘rganilayotgan iboralari yuzasidan bilimlarini aniqlab olgan. Bu o‘quvchilarni o‘qituvchi bayonini kuzatib, tinglab borishga, faol bo‘lishga undagan. O‘qituvchining bayoni, ya‘ni bayon qilish metodida iboralar mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, o‘qituvchi ma‘lumotlarni o‘z so‘zlari bilan bayon qilib bergan. Bunda o‘qituvchi zimmasiga o‘rganilayotgan iboralar mavzuning muhim o‘rinlarini aniq, lo‘nda, misollar tahlili bilan izchil bayon qilib berish vazifasi yuklangan.

Suhbat metodi boshlang‘ich sinflarda ona tilini va o‘qish savodxonligini o‘qitishda keng qo‘llaniladigan va shu bosqich o‘quvchilari tabiatiga mos metod sanaladi. Suhbat metodi o‘qituvchidan mavzuning xususiyatini o‘zida aks ettirgan o‘quv materialini topishni, grammatik mavzuning muhim belgilarini aniqlash, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini ajratish, o‘xshash va farqli jihatlariga qarab guruhlash, umumlashtirishga, xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan savollar tuzishni, ularni o‘quvchilarga izchil berib borishni talab etadi.

Ulug‘ donishmandlardan biri «...kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o‘qit», degan ekan. Yurtimizda ta‘lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma‘noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma‘noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o‘zgarish bo‘ldi, desak xato bo‘lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg‘urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko‘ra kuchli, bilimli va albatta baxtli

bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi.

Navbatdagi iborada "Ko'nglimiz tog'dek ko'tarildi. Juda xursand bo'lamiz" insonning xursandchiligini tarannum etuvchi va oddiygina xursand so'zinigina ishlatmasdan tog'dek ko'tarildi jumlasining ishlatilishi o'quvchilarning qiziqishini orttiradi. Tog'ning yuksakligi, uning haybatiga insonning qalbini tenglashtirilishi keng ma'noda tog'ning toshlardan iborat, mustahkam, ulkan hodisa ekanligi inson qalbining beqiyos, ulkan vazifa bajarishini takidlamochi. Iboralarning ma'nolarini tahlil qilayotgan jarayonda ularning harbir so'zini alohida tahlil qilmaymiz, lekin mukammal tahlil jarayoning har bir so'zning anglatayotgan ma'nosiga alohida e'tibor berishimizni talab etadi, chunki so'zning asl anglatadigan ma'nosiga tayangan holda uning yordamchi ma'nolari foydalaniladi.

Xulosa va tavsiyalar. Bolalarni kitobga oshno qilish ularning juda kichik yoshlaridan amalga oshiriladi. Onalar, otalar, buvilar-u bobolar tomonidan kichik yoshdagi bolalarga aytib berilgan ertaklar yoki hayotiy voqealar bolalar qalbini go'zallashtirib, ularning ko'ngliga iliq ezgulik urug'larini ekilishiga, kelajakda esa o'zlari izlab, topib, qiziqib badiiy asarlar mutolaa qilishlariga dastlabki qadam vazifasini o'taydi. 1-sinfning o'quv va yozuv savodxonligini egallagan bolalar esa alifbo davridan so'ng o'zlari mustaqil ravishda kichik hajmli ertak va hikoyalarni o'qishga kirishadilar. Bu jarayonlarning barchasi o'quvchilarning matn tarkibida uchraydigan iboralar va ularning ma'nolarini chuqur tahlil qilinadi va to'g'ri tushuniladi.

Iboralarni tahlil qilish jarayonida so'roqlardan ikki maqsadda: ibora mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi. Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. Iboralarni o'qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Ibra o'qib bo'lingach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad ibora bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etganini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya sujeti, voqeaning yo'nalishini ochishga, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

**ADABIYOTLAR RO`YXATI**

Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018.

U.H.Umirov “Adabiyotshunoslik nazariyasi” Toshkent–2002.

Ahmedova N. Boshlang‘ich sinflarda nutq o‘stirish usullari. Ta‘lim jarayonida nutq madaniyatini takomillashtirish masalalari. «O‘zbek tili» doimiy anjumani beshinchi yig‘ilishi tezislar to‘plami (1999 yil 29-30 aprel’) – Toshkent.: «Sharq», 1999. – 76-77b.

Mametjumayeva Gulasal Ro‘zimurodovna 2022-“Scientific approach to the modern education system» “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan “ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida matnlar tarkibida keltirilgan o‘xshatishlar ustida ishlash usullari”

AD Bakhodirovna, MG Ruzimurodovna – 2021 Stages And Methods Of Analyzing The Texts Of A Book In Primary School

AD Bakhodirovna, MG Ruzimurodovna “Forming Writing Skills in Left-Handed Student stages and Methods of Analyzing the texts of a book in Primary School”

Makhmudova, D. I., Isabayeva, D. K., & Holikova, M. K. AESTHETIC EDUCATION OF TALENTED STUDENTS IN THE SPIRIT OF NATIONAL PRIDE.

Makhmudova Dilorom Inoyatovna. (2022). IMPORTANCE OF TEACHING GIFTED STUDENTS IN INCLUSION CLASSROOM. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 9(12), 237–240. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/R2VGH>

Inoyatovna, M. D. . (2022). THE MAIN PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF EDUCATION AND DEVELOPMENT OF GIFTED STUDENTS. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMYIY JURNALI, 2(12), 64–67. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5046>

Akramov, A. (2021). Psychological mechanisms and determinants of maintaining human health. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).

Akramov, A. (2021). ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЕ С НАСЕЛЕНИЕМ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).

Akramov, A. (2021). SHARQ ALLOMALARINING MILLIY SPORT O‘YINLARI TO‘G‘RISIDAGI ILMYIY FIKR VA QARASHLARI. EDAGOGIK AHORAT, 250.

Shavkatovich, A. A. (2020, December). MORAL EDUCATION IN

## THE MIND OF THE YOUNG GENERATION PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF FORMATION.

Ulug'bek, S. . (2022). MAHMUXO'JA BEHBUDIYNING PUBLISTISTIK HAYOT YO'LI. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 76–79. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5049>

Sobirov Ulug'bek G'ofurovich. (2022). PROBLEMS OF EDUCATIONAL POLICY IN BUKHARA IN THE LATE XIX-EARLY XX CENTURY AND THEIR SOLUTIONS. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 9(12), 251–254. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/8NTQW>

Ro'zimurodovna, M. G. (2022). METHODS FOR ANALYZING THE TEXT OF A WORK OF ART IN ELEMENTARY GRADES. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 60-63.

Bakhodirovna, A. D., & Ruzimurodovna, M. G. Forming Writing Skills in Left-Handed Student stages and Methods of Analyzing the texts of a book in Primary School

Lochinovna, A. M. . (2022). O'QUVCHILARDA O'ZBEK MUSIQA FOLKLOR HAQIDAGI TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHNING VOSITA VA USULLARI. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 51–54. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5042>

Bobirovich, N. M. . (2022). ILK O'SPIRINLIK DAVRIDA SHAXS SHAKLLANISHINING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSLARI VA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 68–71. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5047>

Muhrodbek Bobirovich Nabiyeu (2021). ILK O'SPIRINLIK DAVRIDA SHASXLARARO MUNOSABATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Scientific progress, 2 (6), 1146-1149.

Madina, X. (2023). RANGLARNING INSON RUHIYATIGA TA'SIRI VA ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(1), 296-299.

Madinabonu, S. (2021). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI ADABIY ERTAKLAR YORDAMIDA INSONIY FAZILATLAR RUHIDA TARBIYALASH. In Научно-практическая конференция.

Shokirova, M. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA



TILINI O'QITISHDA SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHALARDAN FOYDALANISH. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar, (2).

Jahonova Nargiza Yunusovna. (2023). ABOUT GROUPS OF ANALOGUE DOCTORAL MEANINGS APPLIED BY ALISHER NAVAI. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 9(12), 258–261.

Muzafarovna, Y. M. (2022). TIBBIY PEDAGOGIK YO 'NALISH TALABALARIDA MILLIY AN'ANALAR ASOSIDA BAG 'RIKENGLIKNI RIVOJLANTIRISHGA OID TARIXIY TAJRIBALAR. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 80-84.

Yuldasheva, M. M. (2022). Development of Tolerance in Students of Medical Pedagogical Direction on the Basis of National Traditions. *Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT* ISSN, 2792-1883.



## **XIX ASR OXIRI -XX ASR BOSHLARIDA BUXORODA MAORIF ISLOHOTLARI VA AN'ANAVIY TA'LIMGA KIRITILGAN O'ZGARISHLAR**

*Sobirov Ulug'bek G'ofurovich  
Turon Zarmed universiteti o'qituvchisi*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro zaminidagi jadidchilar harakati, Buxorodagi jadidchilikning Turkistondagi boshqa jadidchilik harakatlaridan farqli jihati, ularning jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy hayot, Ismoilbek Gasprinskiyning Buxoro amirligiga tashrifi, jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ochilgan yangi usul maktablari, kamsuqum aholi qatlamining hayotini yaxshilash borasidagi olib borgan kurashlari, islohotlari va jadidlarga qarshi harakat qilgan qadimchilar faoliyati, qadimchilarning jadidlarga qarshi kurashlari va tazyiqlar haqida fikr yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: Islohot, Buxorodagi jadidchilik, qadimchilar, ijtimoiy-siyosiy hayot, forsax puli, ulamo, mudarris, usuli jadid, yangi tuzum maktablari.*

## **ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ И ИЗМЕНЕНИЯ В ТРАДИЦИОННОМ ОБРАЗОВАНИИ БУХАРЫ В КОНЦЕ 19 - НАЧАЛЕ 20 ВВ.**

*Собиров Улугбек Гофурович  
Преподаватель Университета Турон Зармед*

*Аннотация: В данной статье джадидистское движение в Бухаре, отличия джадидизма в Бухаре от других джадидских течений в Туркестане, их политическая и общественная жизнь в обществе, визит Исмаилбека Гаспринского в Бухарский эмират, школы нового метода, открытые джадидами обсуждались просветители, их борьба и реформы по улучшению жизни бедного населения и деятельность древних, выступавших против современников, борьба древних против современников и угнетение.*

*Ключевые слова: Реформа, джадидизма в Бухаре, древние, общественно-политическая жизнь, форсахские деньги, улемы, мударрисы, усули джадиды, школы новой системы.*

## EDUCATIONAL REFORMS AND CHANGES IN THE TRADITIONAL EDUCATION OF BUKHARA IN THE LATE 19TH - EARLY 20TH CENTURIES

*Sobirov Ulugbek Gofurovich*

*Lecturer at the University of Turon Zarmed*

*Annotation: In this article, the Jadid movement in Bukhara, the differences between Jadidism in Bukhara and other Jadid movements in Turkestan, their political and social life in society, the visit of Ismailbek Gasprinsky to the Emirate of Bukhara, the schools of the new method discovered by the Jadids discussed enlighteners, their struggle and reforms to improve life the poor population and the activities of the ancients who opposed their contemporaries, the struggle of the ancients against contemporaries and oppression.*

*Key words: Reform, Jadidism in Bukhara, ancients, social and political life, Forsakh money, ulema, mudarris, usuli jadids, schools of the new system.*

Kirish. Islohot- bu yangilanish, o'zgartirish demakdir! Barcha davrlarda mamlakat markazi bo'lib kelgan Buxoroi sharifda islohot olib borish, yangilash nima uchun kerak degan savol tug'ulishi tabiiy. XX asrning boshlarida Buxoroning ijtimoiy-siyosiy hayotida islohotlar qilinishi kerak va jamiyat uchun zarur bo'lib qoldi. Bu vaqtda yevropa mamlakatlaridagi bo'layotgan ilg'or g'oyalar ta'siri ostida bizning o'lkamizda ham bir guruh kishilar yuzaga chiqa boshladilar. Bu kishilar qatoriga Ahmad Donish, Fayzulla Xo'jayev, Sadridin Ayniy, Mukammal Burxonov, Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'gli, Ahmadjon Hamidiy, Abduvohid Munzim, Qori Yo'ldosh Po'latov, Abdurauf Fitrat va yana bir qancha kishilarni kiritishimiz mumkin.

Asosiy qism. Dastlab Buxorodagi jadidchilik harakatiga mudarris va tarixchi olim Marjoniy (1818-1889) G'ijduvonlik domla Fozil, Mo'minxo'ja Vopkandli, mulla Xudoyberdi Baysuniylar rahbarlik qildilar. Ammo qadimiylar bu talab va istaklarga qarshi kurashib Marjoniyni mamlakatdan chetlashtirdilar. U Qozonga borib o'z faoliyatini davom ettirdi. Umuman Buxoroda jadidchilik harakati 1910 yildan boshlab tashkil jihatdan to'liq shakllanib, milliy demokratik tashkilot tusini oldi. Mazkur harakatning namoyondalari: madrasa talabasi Sadridin Ayniy, kichik amaldor Abduvohid Burhonov, savdogarning o'g'li Usmon Xo'jaevlar edilar. 1910 yilda Buxoroda jadidlarning "Tarbiya - atvol" degan yashirin tashkiloti tuzildi. Bu jamiyat yashirin ish olib borib o'zining 28 ta yangi tashkilotidan iborat

bo'lib ular asosan Termiz, Qarshi. Eski Buxoro Kogon va G'ijduvon shaharlarida tashkil topdi, shundan boshlab jadidlar o'zlarini "Yosh buxoroliklar" deb atashgan.

Buxoro amirligida XIX asr boshlaridayoq ta'lim tizimini isloh qilish uchun boshlangan harakatlar, XX asr boshlarida jamiyatlar ko'rinishini oldi. Tarixiy manbalarda taraqqiyparvarlar, ma'rifatparvarlar, Yosh buxoroliklar nomi bilan tilga olingan ulamolarning bu guruhi jamiyatning barcha sohalarining rivojlantirishning yagona yo'li ta'lim tizimi isloh qilish deb bildilar. Bu borada o'z g'oyaviy qarashlarini targ'ib qilish bilan birga amaliy harakatlar ham boshladilar. Islohotchilik harakatini olib borish va o'lkani yuksaltirish yo'lida jadidlar juda ko'p qiyinchilik va mashaqqatlarni boshlaridan kechirdilar. Shu asnoda XX asr boshlarida Rossiya, Eron, Turkiyada kechgan inqilobiy harakatlar ta'siri natijasida ko'hna zaminimizda jadidchilik harakatlari vujudga kela boshladi.

Buxorodagi jadidchilikning Turkistondagi boshqa jadidchilik harakatlaridan farqli jihati bor edi. F.Xo'jayev o'zining "Buxoro inqilobining tarixiga materiallar" nomli kitobida shunday deb yozadi: "Buxoroda jadidchilik harakati boshqa yo'l bilan bordi. Buxoro jadidchiligi dehqonlar va mayda savdogarlarga tushadigan soliq og'irliklarini yengil qilish, hamda soliq ishlarini umumiy tartibga solish to'g'risida ochilgan gapdan boshlab, tadrijiy sur'atda ko'p a'zolar, sho'balar va Buxoro xalqining xar xil tabaqalari orasidagi o'ziga xayrihoh omma bilan birga haqiqiy yashirin jamiyatga aylanib bordi". Bu fikrdan ko'rinib turibdiki Buxoroda jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga dehqonlar, mayda savdogarlar, kambag'al xalq to'laydigan soliqlar miqdori ko'pligi hamda soliq ishi betartibliigi turtki bo'lgan. Keyinchalik esa bu harakatga ayrim hukumat mansabdorlari, mahalliy boylar, savdogarlar, ulamolar, mudarris va talabalar ham qo'shilgan. Endilikda harakatning maqsadi kengayib maktab, madrasalarni isloh qilish, dunyoviy fanlarni o'qitishga e'tiborni kuchaytirish kabi ma'rifatparvarlik g'oyalari qo'shilabordi. Jadidchilik harakatining shakillanishi Buxoro amiri Amir Abdulahadxon davriga to'g'ri keladi. O'sha vaqtda Buxoro ulamolari ikki toifaga bo'lingan edilar. Birinchi toifasi Muhammad Ikrom ibn Abussalom Buxoriy (Ikrom Domla) boshchiligidagi taraqqiyparvar ulamolar, ikkinchisi esa har bir yangilikni bidat deb biladigan, jahon fan yutuqlarini o'lkaga kiritishga qarshi bo'lgan mufti Abdurazzoq boshchiligidagi qadimchilar edi.

Bu ikki guruh ulamolari amir tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va yangi usul maktablarini tuzish yuzasidan jiddiy ziddiyatga kelib qoldilar. Ikrom Domla boshchiligidagi ulamolar Buxoro

madrasalaridagi ta'lim dasturlarini yangilash, isloh qilish zarurligini ta'kidlab, jadid maktablarini qo'llab-quvvartlagan bo'lsa, mufti Abdurazzoq, uning o'limidan keyin mulla Qamariddin boshchiligida qadimchilar shariat me'yorlarini xalq turmushida qat'iy saqlash, ruslarning shovinistik siyosati va provaslav missionerlik harakatiga qarshi muhim to'siq deb ta'kidlaganlar. Ammo bularning qancha qarshiligi va urinishlariga qaramay allaqachon Buxoroda yangi usul maktablari ochilib bo'lgan edi.

1893 yil may oyida Ismoilbek Gaspirinskiy Buxoro amirligiga tashrif buyuradi. Ismoilbek ta'til bo'lishiga qaramay, ayrim maktab va madrasalarga borib, o'qitish usullari bilan tanishadi. Madrasalarda arabiy ilmlar va adabiyotdan boshqa fanlar o'qitilmasligidan afsuslanadi. Madrasalardagi ta'lim tizimi haqida: "Oliy madrasalarda diniy ilmlar yuksak saviyada o'qitiladi... O'tmish davrlarda e'tibor qozongan astronomiya, tib, handasa, kimyo va boshqa fanlar keyingi zamonlarda bu yerda unutilib yuborilgan. Umidvormizki, Tehronda, Istanbulda, Misrda, Bombeyda yangidan jonlangan bu tur ilmlar Buxoroyi sharifda ham tirilib qolar"- deb yozadi. Maktab va maorif masalasida Badriddin qozikalon bilan ham uchrashadi va unga —Xo'ja sibyon darsligini sovg'a qiladi. Qozikalon kitob bilan tanishib, amirlik maktablarining aksariyat qismida tahsil tili fors tilida ekanligini, agar darslik fors tiliga tarjima qilinsa, juda foydali ish bo'lishini ta'kidlaydi.

Ismoil Gaspirinskiyning Buxoroga tashrifidan xabar topgan Amir Abdulahadxon uni Shahrisabzga taklif qiladi va ular 1893 yilning 12 iyunida uchrashadilar. Suhbat davomida Ismoilbek jadid maktablarining ahamiyati va Rossiyadagi ta'lim tizimi haqida ma'lumot beradi. Amir Abdulahadxon uning maorif sohasidagi harakatlarini yuqori baholab, tashrifi uchun minnatdorchilik bildiradi. Ismoilbek Gaspirinskiyning Buxoroga tashrifi va Sharq mamlakatlarida maorif sohasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar ta'siri ostida Buxoroda jadid maktablari tashkil etila boshlaydi. 1897 yilda Badriddin qozikalonning ruxsati bilan Mulla Jo'raboy Ne'matulloh o'g'li Buxoro shahrida jadid maktabi ochadi. U Xo'jai sibyon darsligini fors tiliga tarjima qilib, 13 nafar bolani o'qitishni boshlaydi. Bu haqda xabar topgan Ismoil Gaspirinskiy ushbu maktabga 10 dona sarmashq va 1000 nusxa alifbo kitobini bosmaxonasidan hadya sifatida bosib berishini aytadi. 1900 yilda ushbu maktabda imtihon o'tkazilgan va uning so'ngida savdogar Mirxon Porso o'g'li maktab va madrasalarda tadriski isloh qilish zarurligi haqida nutq so'zlagan. Oradan biroz vaqt o'tib bu maktab faoliyati to'xtab qolgan. 1907 yilda Badriddin qozikalon ruxsati bilan Nizomiddin Sobitiy Buxoroda, o'z uyida tatar tilida yangi usul maktabini ochgan. Bu maktabda dastlab

10-12 nafar tatar bolalari o'qigan bo'lib, qozonlik Abdurahmon Sa'diy o'qituvchilik qilgan.

1908 yilning bahor faslida Ismoilbek Gaspinskiy amirlikka ikkinchi bor tashrif buyurib, Amir Abdulahadxon bilan Buxoro shahrida uchrashgan. Bu safargi uchrashuv chog'ida valiahd Sayyid Olimxon bilan ham yaqindan tanishib, uning o'qimishli, rus tilini yaxshi bilishi, dunyoviy ilm-fan va matbuotdan xabardor ekanligiga ishonch hosil qilgan. Shuningdek, jadid maktablarini tashkil etish bo'yicha tatar va buxorolik ma'rifatparvarlar bilan yig'ilish o'tkazgan. Unda mulla Nizom uyidagi maktab uchun hukumatdan alohida joy olish va unda buxorolik bolalar ham tahsil olishiga imkoniyat yaratish to'g'risida qaror qilingan va bu maktabga I. Gaspinskiyning taklifiga ko'ra, Amir Muzaffarxon sharafiga Muzaffariya nomini berishga kelishib olingan.

Ushbu masalalar yuzasidan Ismoilbek Gaspinskiy Amir Abdulahadxonga murojaat qilganda, unga ma'qul bo'lgan va jadid maktabi ochishni qo'llabquvvatlagan. Tez orada mulla Nizom uyidagi maktab Xolid Burnashev uyiga ko'chirilgan va bir necha buxorolik bolalargina ushbu maktabga o'qishga qabul qilingan. Nizom Sobitiy maktabida darslar tatar tilida olib borilganligi sababli unda buxorolik bolalarning tahsil olishi qiyinroq kechgan. Shuning uchun 1908 yilning oktabrida Buxoro taraqqiyparvarlaridan Sadridin Ayniy va Abdulvohid Munzimlar tomonidan aynan buxorolik bolalar uchun tojik tilida tahsil beruvchi jadid maktabi tashkil etilgan. Ushbu maktabda 20-30 Yoshli kishilar uchun kechki o'quv kurslari ham tashkil qilinib, katta Yoshli talabalarga har kuni 2 soatdan dars o'tilgan. Bir yildan so'ng bu maktab o'quvchilari tantanali imtihon topshiradilar. Bu kunni S.Ayniy asarlarida shunday eslaydi- "O'quvchilarning bilimidan ta'sirlangan kekxa ziyoli Bo'riboy afandi ko'ziga yosh olib, majlis ahliga bunday murojaat qildi: "Men Umidvormanki o'n yilgacha Buxoroda inqilob voqea bo'lur, vatan avlodi bu kuni razolat va safolatdan qutulur, esizki, men bu kinni ko'raolmayman, siz yoshlar ko'rasiz. Ming qatla shukurkim ishning boshlanishini ko'rdim". Bundan anglaniladiki jadidlarning yangi usul maktablari o'z maqsadiga asta-sekin erisha boshlagan, yoshlarni o'z atrofiga chorlay olgan edi Qisqa muddatda maktab xalq orasida shuhrat qozongan. Ammo bu xayrli ish ko'p uzoqqa bormadi. Mulla Qamariddin boshchiligida ulamolar bu holatdan norozi bo'lib, jadidlar maktabiga qarshi fitna qo'zg'atishga kirishganlar. Eskilk, qadimchilk tarafdorlari, ulamolar vakili sifatida qushbegidan maktabni yopishni qattiq talab qildilar Vaziyat murakkablashgach, 1909 yil 26 sentabrda Ostonaqul qo'shbegi, qozikalon Baqoxo'ja va Burhoniddin raislar mirzo Abduvohidga maktabning yopilganini rasman e'lon qilganlar. Bu

esa jadidlarning g'ayratini yanada

Maktab yopilgan bo'lsada jadidlarning shijoati zarracha so'ngani yo'q, 1909 yilda Tarbiyai atfoll jamiyatini tuzib, Termiz, Karki, Yangi Buxoro va G'ijduvonda jamiyatning 28 ta shaxobchasini ochganlar. Jamiyat o'z faoliyati davrida quyidagi ishlarni amalga oshirgan: ilmga chanqoq Yoshlarga iqtisodiy va ma'naviy yordam ko'rsatib, Rossiyaning Qozon, Ufa, Boqchasaroy hamda Turkiyaga o'quvchi yuborish masalasiga alohida e'tibor qaratgan;

-Buxoro amirligida gazeta va jurnallar nashr qilinmasa ham jamiyat Rossiyaning musulmon shaharlarida, Turkiya va Eronda nashr qilingan matbuot namunalari bilan buxoroliklarni muntazam tanishtirib borish uchun harakat qilishgan. Rossiya siyosiy agentligining ta'qib va to'siqlariga qaramay, jamiyat a'zolari tomonidan bunday nashrlar amirlikda keng tarqatilgan;

-jamiyat a'zolari o'rinsiz sarf-xarajatlarga, to'y va ma'rakalarda yo'l qo'yiladigan isrofgarchiliklarga qarshi chiqib, bu mablag'larni farzandlar tarbiyasiga, ularni chet ellarda o'qitish uchun sarf qilishga da'vat etganlar.

Bundan tashqari jamiyat homiyligida Mukammaliddin uyida xususiy va yashirin maktab faoliyat yuritib, unda o'ziga yaqin kishilarning bolalari o'qitilgan. Tarbiyai atfol jamiyati o'z matbuot organiga ega bo'lib, tojik tilida —Buxoroyi sharif hamda uning ilovasi sifatida o'zbek tilida —Turon gazetalarini chop etishga muvaffaq bo'lgan.

Amir Abdulahadxon undan keyin Amir Olimxonlarning o'zi ham jamiyat rivoji yo'lida bir qancha islohotlarni amalga oshirganlar. Amir Olimxon 1910-yilning 29-dekabrida ilk farmonini imzoladi. Unga ko'ra yer solig'ini o'ndan bir xissaga kamaytirish, harbiylar maoshini ko'tarish, forsax puli solig'ini tayinlash nazarda tutilgan edi.

Oradan bir yil o'tib amir Olimxon 1911-yil mart oyida ta'limni yanada yaxshilash maqsadida "Ta'lim tog'risida"gi farmonini imzoladi. Bu farmonga ko'ra madrasa talabalariga turli hoshiya darslari o'qitilmasligi, tavsir va hadis rasmiy dars sifatida o'tilishi, vaqfga yig'ilgan pullardan shaharning turli joylarida maktablar qurish va ularga muallimlar tayinlash, muallimlarga vaqfdan tashqari xazinadan yiliga 120so'm maosh tayinlash, tahsil uchun bolalardan pul olmaslik, maktabga bir nozir tayinlash va u har oyda amirga hisobot berib turishi ko'zda tutilgan edi. Buxoro amirligi ham barcha musulmon davlatlari qatorida islomiy davlat edi. Bu esa jamiyatda din peshvolari va ulamlarning mavqei yuqori bo'lishidan dalolat beradi. O'sha vaqtda ulamolar ikki toifaga bo'lingan edilar. Birinchi toifasi Muhammad Ikrom ibn Abussalom Buxoriy (Ikrom Domla) boshchiligidagi taraqqiyparvar

ulamolar, ikkinchisi esa har bir yangilikni bidat deb biladigan, jahon fan yutuqlarini o'lkaga kiritishga qarshi bo'lgan mufti Abdurazzoq boshchiligidagi qadimchilar edi.

Bu ikki guruh ulamolari amir tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va yangi usul maktablarini tuzish yuzasidan jiddiy ziddiyatga kelib qoldilar. Ikrom Domla boshchiligidagi ulamolar Buxoro madrasalaridagi ta'lim dasturlarini yangilash, isloh qilish zarurligini ta'kidlab, jadid maktablarini qo'llab-quvvartlagan bo'lsa, mufti Abdurazzoq, uning o'limidan keyin mulla Qamariddin boshchiligidagi qadimchilar shariat me'yorlarini xalq turmushida qat'iy saqlash, ruslarning shovinistik siyosati va provaslav missionerlik harakatiga qarshi muhim to'siq deb ta'kidlaganlar. Ammo bularning qancha qarshiligi va urinishlariga qaramay allaqachon Buxoroda yangi usul maktablari ochilib bo'lgan edi.

1912 yilda Mirzo Muhiddin bilan Mirzo Siroj Hakim Yangi Buxoro (Kogon)dagi matbuot organi rahbari, yahudiy millatiga mansub Q.L. Levin bilan uchrashib, uni gazeta chiqarishga ko'ndirganlar. Levin bu haqda rus elchixonasiga murojaat qilganda, elchixona xodimlari bilan yaqin aloqadabo'lgan Mirzo Muhiddin: "Buxoro xalqini rus idoralari bilan tanishdirmoq va paxta ekiniga rivoj bermak uchun bir gazeta lozimdir - deb, gazetani chop etishga ruxsat olgan. Gazetaning birinchi soni 1912 yil 11 martda nashr qilinadi. Oradan to'rt oy vaqt o'tib, Buxoro amirligi aholisining ko'pchiligi o'zbeklar bo'lgani uchun 1912 yil 11 iyuldan boshlab, Buxoroi sharifl gazetasi ilovasi Turonl gazetasi nashr qilina boshlaydi. Shunday qilib, haftada to'rt marta fors tilida Buxoroi sharifl, ikki marta o'zbek tilida Turonl gazetasi chiqib boshlaydi. Gazetalar faoliyati 1913 yil 3 yanvarga kelib to'xtab qoladi.

Jadidchilikning shiddat bilan rivojlanishi davlat siyosiy vakillarining va qadimchilik hamda din ulomalarining ishlariga to'sqinlik qila boshladi. Odamlarda yangi tuzum va yangilikka bo'lgan ishtiyoqning kuchayishi bu tabaqa vakillarining ishlarini ancha qiyinlashtirib odamlarni tizginlaridan chiqara boshladi, natijada qadimchilar bilan hukumat vakillari qattiq qarshilik qilishga o'tdilar.

Istanbul dorulfununida tahsil olayotgan Abdurauf Fitrat, Muqimiddin, Sodiq Ashurlar Turkiyada o'qiyotgan vatandosh o'quvchi-talabalarga ham iqtisodiy, ham ma'naviy yordam ko'rsatish, Buxoro va Turkistondan talabalar kelishini ko'paytirish hamda muntazamlashtirish maqsadida-Tarbiyai atfol jamiyatining Istanbuldagi shahobchasini ochib, uni Buxoro ta'mimi maorif jamiyati nomi bilan rasman ro'yxatdan o'tkazadi. Bu haqda Ahmad Zaki Validiy To'g'on quyidagilarni yozadi: "Bu jamiyat Istanbulda bir sho'ba ocharoq, unga 1911 yilda 15 nafar,

1912 yilda 30 nafar talaba yubordi. Bu sho‘ba “Buxoro ta’limi maorif jamiyati” nomi bilan rasmiy bir jamiyat shaklini oldi. 1910 yilda Eron yo‘li bilan Istanbulga kelgan Fitrat ila Muqimiddin va Rusiya yo‘li bilan kelgan Usmonxo‘ja, g‘uljalik Abdulaziz, Sodiq Ashur o‘g‘li bu jamiyatning quruvchilari edi”.

Ushbu jamiyat o‘z faoliyati davomida 60 ga yaqin buxorolik va turkistonlik talabalarga moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatgan.

Buxoro ta’limi maorif jamiyatining tarkibi doimiy va muxbir a’zolaridan iborat bo‘lgan. Jamiyatning bosh organi Kengash bo‘lib, uning 14 kishidan iborat tarkibi doimiy a’zolaridan saylangan. Ular orasidan esa jamiyat raisi tayinlangan. Jamiyatga a’zo bo‘luvchilar har oy 10 piastri miqdorida badal to‘lashi shart bo‘lgan.

Turkiyada tahsil olishni xohlovchi Buxoro va Turkistondagi kambag‘al oilalarning farzandlariga moddiy yordam ko‘rsatish maqsadida ochilgan bu jamiyat - 10 Yoshdan 15 Yoshgacha bo‘lgan sog‘lom bolalarni qabul qilishni shart qilib qo‘ygan.

Jamiyat faol a’zolaridan Hamidxo‘ja Mehriy nafaqat Buxoro va

Turkistonda, balki 1910 yilda Xiva xonligiga ham borib, u yerdagi Yoshlarni Turkiyaga borib tahsil olishga da’vat etgan. Fitrat tomonidan tayyorlangan jamiyat Nizomnomasi 1909 yilda Istanbulning Vazirxon ko‘chasida joylashgan Matin tipografiyasida nashr qilingan. Hujjat 4 bobdan iborat bo‘lib,

1-bob Buxoro ta’limi maorif xayriya jamiyatining asosiy qoidalari,

2-bob Favqulodda yig‘inlar, umumiy yig‘inlar, muntazam yig‘inlar,

3-bob Talabalarni jamiyatga qabul qilish

4-bob Buxoro ta’limi maorif jamiyati xayriyasining xatti-harakatlari deb nomlanadi.

Nizomnomada jamiyat hech qanday siyosiy maqsad ko‘zlamagani, uning asosiy vazifasi Buxoroda ilm tarqatish va maktablar ochish, moddiy imkoniyat doirasida har yili Buxoro va Turkistondan Istanbulga tahsil olish uchun talabalar yuborish ekanligi ta’kidlab o‘tilgan. Shu bilan birga Istanbulga tahsil olish uchun kelgan talabalar oldiga qo‘yilgan talablar qonuniy jihatdan asoslab qo‘yilgan.

Jumladan, talabalar jamiyat himoyasida bo‘lib, ularning axloqi va boshqa jihatlari nazorat qilinishi, Yevropa madaniyatini ko‘r-ko‘rona qabul qilmaslik, kelgusida o‘z yurtlariga yaxshi mutaxassis bo‘lib qaytishlari va uning istiqboli uchun fidoyi vatanparvar sifatida xizmat qilishlari, o‘qishni tugatgan talabalarning kelajakdagi ish o‘rni jamiyat tomonidan hal etilishi, talaba jamiyat tomonidan chiqarilgan qarorga xilof ish tutmasligi, aks holda unga sarflangan sarf-xarajatlarning undirib olinishi ta’kidlab o‘tilgan. Jadidlar faol amaliy harakat olib



borish bilan birga, g'oya va qarashlarini davriy matbuot nashrlarida va o'z asarlarida ham targ'ib qilib borganlar. Asl kasbi savdogar, tabib bo'lgan taraqqiyparvar Mirzo Sirojiddin Hakim (1877-1914) shular jumlasidandir. Mirzo Sirojiddin Buxoroning Yevropa va Osiyoning bir qator davlatlaridan orqada qolishiga birinchi sabab qilib ilmfanning oqsayotganini ko'rsatsa, ikkinchi sabab qilib iqtisodiy qaramlikni ko'rsatadi va uning salbiy oqibatlarini haqida: "... Butun yer yuzini ular (Ovro'po mustamlakachilari) o'z tasarruflariga olganlar. Biz ularning qo'l ostilariga qolganmiz. Biz iflos ko'cha va bozorlarda yashab kasb qilishimiz va quyosh issiqligida ziroat bilan shug'ullanishimiz kerak va qo'lga kiritilgan boyligimizni ularning sanoatlari evaziga berib, o'zimizni gadoy qilishimiz kerak... Bolalarimiz libosidan boshlab to o'liklarimizning kafanigacha Ovro'podan keladi... Endi biz muhtoj bo'lmay, kim bo'lsin. Ular biz – osiyoliklarning boyliklarini olib ketar ekanlar, boy bo'lmay, kim boy bo'lsin? Axir biz ham ularday odammiz. Biz ham yaxshi uylarda yashashni orzu qilamiz", - deb yozadi.

1915-yilga kelib Buxoroda jadidchilik harakati siyosiylasha boshladi. 1917-yil martda esa Yosh Buxoroliklar markaziy qo'mitasi tashkil qilindi. Abduvohid Burxonov rais, Abdurauf Fitrat kotib, Usmon Xo'jayev xazinachi, Fayzulla Xo'jayev, Ahmadjon Abdusamadov, Ota Xo'jayev, Musa Saidjonovlar qo'mita a'zolari qilib saylandilar. Ular Muvaqqat hukumat va Petrograddagi deputatlarni Rossiya ozodligi bilan tabriklab, Buxoroda islohotlar uchun amirga bosim o'tkazishni so'raydi, ammo bu harakatlar hech qanday natija bermaydi.

Qo'mita vakillaridan F.Xo'jayev, Usmon Xo'jayev hamda Abdurauf Fitrat Muvaqqat hukumatni Buxorodagi ahvoldan boxabar qilish uchun Petrogradga yo'l olishadi. Bu vaqtda elchilar orenburgga borgunlarigacha jadidlar va amirlik o'rtasidagi nizolarni hal qilish uchun Rossiyadan vakillar yuborilgan edi. Vakillar yuborilganini eshitib elchilar ortga qaytadilar. Nihoyat olib borilgan muzokaralar natijasida amir islohot o'tkazishga qaror qiladi, ammo, Nizmiddin Urganjiy bilan qozikalon Burxoniddinlar bu holatga qarshi chiqadilar.

1917-yil 7 aprel kuni qarshiliklar va noroziliklarga qaramay Amir Olimxon islohotlar xususidagi farmonini imzolaydi. Amirning manifest loyihasini esa Rossiyaning amirlikdagi vakili Shulga tayyorlagan edi. Imzolangan farmonga ko'ra: hiroj, zakot va boshqa soliqlarni adolat yuzasidan nazoratga olish, Rossiya bilan savdo-sotiq masalalariga alohida e'tibor berish, foydali ilmlarning taraqqiy etishi uchun shariatga muvofiq chora-tadbirlar ko'rish, majlis saylash, bosmaxona ochish, qamoqda saqlanayotganlarni ozod qilish, amirlik budjetini belgilash kabi masalalar o'rin olgan edi. Bu farmon esa jadidlar harakati,

ularning faoliyatini yaxshilash uchun katta ko'mak edi. Jadidlardan farqli o'laroq qadimchilar vakillari uchun bu islohotlar zarba bo'ldi va ularning harakatga kelishiga turtki bo'ldi. Qadimchi ulamolar o'zlarining juma ma'ruzalarida xalqni jadidlarga qarshi qayray boshladi, ularning qilayotgan ishlari shariat qoidalariga zid ekani, bu ishlar g'ayri diniy ko'rinishlarni keltirib chiqarishini ta'kidlab odamlarni jadidlarga dushman qilib qo'yishdi. Ayni choqda bu oqim vakillari amir huzurida ham jadidlarni tanqid qilib ularni yomon otliqqa chiqara boshladilar. Ularning bu kirdikorlari afsuski besamar ketmadi. Amir buyrug'i bilan jadidlar quvg'inga uhradilar va Yangi Buxoro (hozirgi Kogon) ga qochdilar. 1918-yilda ular ikkinchi marta qirg'in qilindi va amir tomonidan 1000 dan ortiq jadid o'dirilib qolganlari ta'qib qilindi. Ta'qib ostida qolgan jadidlar Samarqand va Toshkent tarafdarga borib jon saqladilar. Ammo doimiy quvg'in va ta'qiblar ostida bo'lsalarda islohotchilar, harakat vakillari o'z faoliyatini to'xtatganlari yo'q. Yurt ozodligi va kelajak avlodning istiqboli uchun bu kuchlar harakati keyinchalik ham davom qildi.

Xulosa. Hozirgi istiqbol yillaridagi bo'lgan ulkan islohotlar, yoshlarga oid davlat dasturlari va ta'lim-tarbiyaga qaratilgan yuksak e'tibor doimiy quvg'in va ta'qiblar ostida bo'lsalarda islohotchilar, harakat vakillari o'z faoliyatini to'xtatganlari yo'q. Yurt ozodligi va kelajak avlodning istiqboli uchun bu kuchlar harakati keyinchalik ham davom qildi. qatag'onga uchrab shahid ketgan bobolarimiz, jadidchilarimiz orzu istaklarining ro'yobi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ularning ilmiy me'rosini o'rganish, nomlarini oqlab, kelajak valodlarga yetkazish bizning vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Xo'jayev.F "Buxoro inqilobining tarixiga materiallar", Tosh; "Fan"1997, 63-bet

Ayniy.S Asarlar 8 tomlik; 1-tom; Tosh; "UzSSR davlat badiiy adabiy nashri" 1993. 210-bet

Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Б. 84

Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Б. 86-87

Rajabov.Q "So'nggi mang'it hukmdori" Buxoro mavjlari,2007 43-b

Buxoro ("Vaqt" gazetasidan olingan)// "Tarjimon", 1911y 18 mart.

Makhmudova, D. I., Isabayeva, D. K., & Holikova, M. K. AESTHETIC EDUCATION OF TALENTED STUDENTS IN THE SPIRIT OF NATIONAL PRIDE.

Makhmudova Dilorom Inoyatovna. (2022). IMPORTANCE OF

TEACHING GIFTED STUDENTS IN INCLUSION CLASSROOM. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 9(12), 237–240. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/R2VGH>

Inoyatovna, M. D. . (2022). THE MAIN PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF EDUCATION AND DEVELOPMENT OF GIFTED STUDENTS. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 64–67. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5046>

Akramov, A. (2021). Psychological mechanisms and determinants of maintaining human health. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).

Akramov, A. (2021). ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЕ С НАСЕЛЕНИЕМ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).

Akramov, A. (2021). SHARQ ALLOMALARINING MILLIY SPORT O‘YINLARI TO‘G‘RISIDAGI ILMIY FIKR VA QARASHLARI. EDAGOGIK AHORAT, 250.

Shavkatovich, A. A. (2020, December). MORAL EDUCATION IN THE MIND OF THE YOUNG GENERATION PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF FORMATION.

Ulug‘bek, S. . (2022). MAHMUXO‘JA BEHBUDIYNING PUBLISTISTIK HAYOT YO‘LI. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 76–79. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5049>

Sobirov Ulug‘bek G‘ofurovich. (2022). PROBLEMS OF EDUCATIONAL POLICY IN BUKHARA IN THE LATE XIX-EARLY XX CENTURY AND THEIR SOLUTIONS. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 9(12), 251–254. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/8NTQW>

Ro‘zimurodovna, M. G. (2022). METHODS FOR ANALYZING THE TEXT OF A WORK OF ART IN ELEMENTARY GRADES. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 60-63.

Bakhodirovna, A. D., & Ruzimurodovna, M. G. Forming Writing Skills in Left-Handed Student stages and Methods of Analyzing the texts of a book in Primary School

Lochinovna, A. M. . (2022). O‘QUVCHILARDA O‘ZBEK MUSIQA FOLKLOR HAQIDAGI TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHNING VOSITA VA USULLARI. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 51–

54. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5042>  
Bobirovich, N. M. . (2022). ILK O‘SPIRINLIK DAVRIDA SHAXS SHAKLLANISHINING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSLARI VA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 68–71. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5047>

Muhrodbek Bobirovich Nabiyev (2021). ILK O‘SPIRINLIK DAVRIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Scientific progress, 2 (6), 1146-1149.

Madina, X. (2023). RANGLARNING INSON RUHIYATIGA TA‘SIRI VA ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI. TA‘LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(1), 296-299.

Madinabonu, S. (2021). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINI ADABIY ERTAKLAR YORDAMIDA INSONIY FAZILATLAR RUHIDA TARBIYALASH. In Научно-практическая конференция

Shokirova, M. (2022). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILINI O‘QITISHDA SO‘Z YASOVCHI QO‘SHIMCHALARDAN FOYDALANISH. Boshlang‘ich ta‘limda innovatsiyalar, (2).

Jahonova Nargiza Yunusovna. (2023). ABOUT GROUPS OF ANALOGUE DOCTORAL MEANINGS APPLIED BY ALISHER NAVAI. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 9(12), 258–261.

Muzafarovna, Y. M. (2022). TIBBIY PEDAGOGIK YO‘NALISH TALABALARIDA MILLIY AN‘ANALAR ASOSIDA BAG‘RIKENGLIKNI RIVOJLANTIRISHGA OID TARIXIY TAJRIBALAR. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 80-84.

Yuldasheva, M. M. (2022). Development of Tolerance in Students of Medical Pedagogical Direction on the Basis of National Traditions. Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT ISSN, 2792-1883.

Kizi, A. A. R. (2022). Problems of Formation of Phonetic Competence of Students.

Shukhratovna, N. M. (2021). Linguodidactic competence as a modern type of teacher’s professional competence.

---

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI UCHUN ELBEKNING YARATGAN DARSLIKLARI**

*Saparova Shahlo Ramazonovna  
Buxoro Davlat universiteti Pedagogik ta'lim fakulteti  
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi tayanch doktoranti,  
TURON ZARMED Universiteti Pedagogik ta'lim va sport fakulteti  
, Maktabgacha ta'lim va sport kafedrasi o'qituvchisi*

---

## **ELBEK'S TEXTBOOKS FOR PRIMARY SCHOOL STUDENTS**

*Saparova Shahlo Ramazonovna  
Faculty of Pedagogical Education of Bukhara State University  
Basic doctoral student of the Department of Primary Education  
Methodology,  
TURON ZARMED University Faculty of Pedagogical Education  
and Sports  
Teacher of the department of preschool education and sports*

---

## **УЧЕБНИКИ ЭЛЬБЕКА ДЛЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ**

*Сапарова Шахло Рамазоновна  
Факультет педагогического образования Бухарского  
государственного университета базовый докторант кафедры  
методики начального образования,  
Университет ТУРОН ЗАРМЕД Факультет педагогического  
образования и спорта Преподаватель кафедры дошкольного  
воспитания и спорта*

---

*Annotatsiya: Bu maqolada jadid adabiyotimizning serqirra vakili Elbek (Mashriq Yunusov) va uning boshlang'ich sinf uchun yaratgan darsliklari yoritilgan. Shuningdek, ona tili va bolalar adabiyotining shakllanishida Elbek ijodini o'rgangan va asarlarini to'plab, tabdil qilib, nashr ettirgan olim, pedagog va tilshunoslarning nomlari keltirib o'tilgan.*

*Annotation: This article describes Elbek (Mashriq Yunusov), a prominent representative of our jadid literature, and his textbooks for the primary class. Also, the names of scientists, pedagogues and linguists who studied Elbek's works and collected, translated and published his works in the formation of mother tongue and children's literature are mentioned.*

*Аннотация:* В данной статье рассказывается об Эльбеке (Маширике Юнусове), ярком представителе в нашей литературы жадидов, и его учебниках для начальных классов. Также упоминаются имена ученых, педагогов и языковедов, изучавших творчество Эльбека и собиравших, переводивших и издававших его труды в деле формирования родной и детской литературы.

*Kalit soz'lar:* *jadidlar, tadqiqotchilar, folklorshunos Amonov Ulug'murod to'plamlari, akademik Ortiqboy Abdullayev nutqi, "Til"she'ri, "Go'zal yozg'ichlar" o'qish kitobi, "Hunarsiz kishi o'linga yaqin" ertagi.*

*Key words:* *legends, researchers, collections of folklorist Amonov Ulug'murod, academician Ortiqboy Abdullayev's speech, poem "Til", reading book "Go'zal yozg'ichlar", tale "Hunarsiz kishi o'linga yaqin".*

*Ключевые слова:* *легенды, исследователи, сборники фольклориста Амонова Улугмурада, речь академика Ортикбая Абдуллаева, поэма "Тил", хрестоматия "Гўзал ёзгичлар", сказка "Хунарсиз киши ўлимга якин".*

**Kirish.** XX asr boshlari o'zbek adabiyoti o'zining boy va sarmazmun sahifalariga ega. Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho'lpon singari iste'dodli shoir va yozuvchilar Yangi o'zbek adabiyotining tamal toshini qo'ydilar. Xalq og'zaki ijodi, jahon adabiyotining badiiy-estetik tajribalari asosida vujudga kelgan bu adabiyot paydo bo'lgan kundan boshlab xalqqa yetuk asarlar taqdim qila boshladi. Yuqorida nomlari zikr etilgan yozuvchi va shoirlar jahon adabiyotida mavjud roman, hikoya, qissa, drama, tragediya singari janrlarda o'zlarini sinab ko'rdilar. XX asrning 20-30-yillarida adabiyot maydoniga yangi-yangi ijodkorlar kirib keldilar. Oybek, Elbek, G'afur G'ulom kabilar shular jumlasidandir.

Fitratni o'ziga ustoz deb bilgan, Cho'lpon she'rlariga ergashib she'r yozgan shu davr ijodkorlaridan biri iste'dodli shoir va yozuvchi Elbek (Mashriq Yunusov)dir. U yangi o'zbek adabiyoti sahifalarini yoniq she'rlari, tarbiyaviy mazmun tashuvchi masallari, mahzun ruhdagi hikoyalari va bir necha dostonlari bilan boyitdi. Shuningdek, u til va adabiyoti o'qituvchisi, islohotchi pedagog sifatida ham alohida e'tirofga sazovor.

Adib ijodini Nurmuhammad Qobulov, Ahmad Aliyev, Tohir Qahhor, Ulug'bek Dolimov, Ulug'murod Amonov, taniqli adabiyotshunoslar Salohiddin Mamajonov, Sherali Turdiyev, Rahmatilla Inog'omov, Tohir

Qahhor kabilar va bir necha yosh tadqiqotchilar tomonidan u yoki bu darajada o'rganilgan. Bular ichida Tohir Qahhorning "Elbek ijodining chet ellarda o'rganilishi" nomli maqolasi kengqamrovligi bilan ajralib turadi.

Tarixshunos Haydarali Uzoqov Elbekning «Momaguldurak» to'plamini 1993-yilda, «Tanlangan asarlar»ni 1999-yilda chop ettirdi. Folklorshunos Ulug'murod Amonov ham «Armug'on yolqinlar» to'plamini 2017-yilda, «O'zbek folklorshunosligi xrestomatiyasi» to'plamini 2018-yilda nashr ettirdilar.

"Armug'on yolqinlar" to'plamida Elbekning 2 ta to'plami 1921-yildagi "Armug'on" va 1925-yilda nashr qilingan "Yolqinlar" to'plami arab yozuvidan amaldagi yozuvga tabdil qilinib tahlil qilingan.

Elbek Mashriq Yunusov 1898-yili Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanining go'zal Xumson qishlog'ida kambag'al dehqon oilasida dunyoga kelgan. Biz ilmiy ekspeditsiya safarida Elbek ijodini o'rgangan xumsonlik professor akademik Ortiqboy Abdullayev, tovoqsoylik shoir Hamidulla Murodovlar bilan uchrashib Elbek haqida yana qimmatli ma'lumotlarga ega bo'ldik. Ortiqboy Abdullayevning quyidagi so'zlari qimmatlidir:

"Elbek qatag'on qurbonlarining katta vakillaridan biri, begunoh, hech qanday aybsiz qurbon qilinib, hayoti fojiali tarzda tamom bo'lgan shoir, folklorchi, pedagog olim va tilshunos sifatida o'zbek adabiyotida juda katta hissalar qo'shgan. U Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriylarning qarddon do'sti, maslakdoshi sifatida bir vaqtda qamoqqa olinib, bir vaqtda tergov qiynoqlarini boshdan kechirgan. Bu jarayonda Abdulla Qodiriy otib tashlangan, Fitrat bilan Usmon Nosirni 12 yilga surgunga hukm qilinib, surgunda juda qiyinchiliklar bilan vafot etishgan. Lekin o'zbek adabiyotining rivojlanishida Elbekning munosib hissasi bor. Masalan Turkiyada Elbekni O'zbekistonning ikkinchi Cho'lponi sifatida ulug'lashadi. Katta shoir, mana shu Xumson qishlog'ida tug'ilib o'sgan, shu yerda ilgarigi ibtidoiy maktabda o'qigan va ta'lim olgan. Undan keyin qiyinchilik, muhtojliklar tufayli Toshkentga ketib, juda qiyinchiliklar bilan odamlar eshigida xizmatlar qilgan. Non topish og'ir bo'lgan zamonda Elbeklar Xumsondagi eng qashshoq odamlardan bo'lgan, yeri ham bo'lmagan, bog'i ham.

Shu va boshqa qiyinchiliklar bilan amallab jadidlar maktabiga kirib ta'lim olgan, bular haqida Naim Karimovning maqolasida batafsil yozilgan.

Keyinchalik, 1921-yillardan boshlab Elbek pedagogika bilim yurtlarida rahbar lavozimlardan biri sifatida ishlab O'zbekistonda maktab maoriflarining rivojlanishi uchun katta hissa qo'shgan. Uning

“Sovg’a” degan bolalar uchun, boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun tuzgan darsligi o’n yillab, o’n martalab qayta-qayta nashr qilingan. Mashhur yozuvchimiz Pirmqul Qodirov “men maktabga borganimda birinchi o’qigan kitobim Elbekning “Sovg’a” kitobi, u odam g’oyaviy ustozlarimdan biri”, -deb menga bir necha marta aytib, juda xursand bo’lib yurardi”.

Ortiqboy Abdullayev, “O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi”, Filologiya fanlari nomzodi hamda O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, Elbekning nomidagi maktab va bog’ uchun chin yurakdan kurashgan insondir.

Mashriq Yunusov Elbek bo’lib tanilishida Fitrat va u rahbarlik qilgan Chig’atoy gurungi tashkiloti muhim rol o’ynagan. Elbekning “Imlo masalasi”, “Yozuv yo’llari”, “Go’zal yozg’ichlar” kabi boshlang’ich sinflarning til va adabiyotni o’qitish metodikasiga oid darslik va o’quv qo’llanmalari hamda “Til” she’ri Chig’atoy gurungi dasturi asosida yozilgan edi.

Mungli qushim, sayrab-sayrab kel, anglat -  
Kimlar erur turk tilini sotg’uvchi?  
Bulbul kabi sayrab turg’on bu tilni  
Uyalmayin bu o’lkadan otg’uvchi?!

Mungli qushim, ularni qo’y, sen sayra,  
Turk tilining dong’in chiqar ko’klarga!  
Qo’y ularni, ular yo’ldan ozsinlar,  
El ichinda bo’sh-bo’g’ozlik sotsunlar.

Elbek mazkur she’ri bilan birgina o’zbek tilining qadriyatlarini emas, balki butun turkiy xalqlarning nufuzini qadrlamoqda ularning xususan ona tilimizning o’zga til, hokim tilning soyasida qolayotganidan ranjimoqda. Bu she’r Fitratning “Til” she’riga ergashib yozilgan va Elbek qatag’oniga sabab bo’lgan asarlaridan biri hisoblanadi.

Elbek boshlang’ich sinf zamonaviy ona tili va o’qish darsliklarining ilk muallifi bo’lib, 1920-yilda uning “Imlo masalasi” nomli asari bosmadan chiqdi. Boshlang’ich maktablar uchun yaratilgan bu qo’llanmada Elbek boshqa tillardan so’z olishda ona tilining o’ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olishni, so’z olishning chegarasi bo’lishi kerakligini ta’kidlaydi. Unda muallif tilshunos-pedagoglar e’tiborini quyidagi muhim masalalarga qaratadi: “Endi biz qo’rqmaylik. Mumkin bo’lganicha, turkiycha yozganimiz kabi, yot so’zlarni-da, chog’li o’laroq o’z negizimiz ostiga olib boraylik. Biz bu to’g’ridagi



siylamaslikni (hurmatsezlikni), boshqalarni qo'yay, arablarning o'zlaridan o'rgangandik. Ular o'z tillarida bo'lmagan harflarni o'z harflari bilan yozganlari kabi ("g" o'rnida "j", "ch" yerida "s", general – jeneral, chin – sin kabi). Bu yo'l allaqancha yot so'zlar arab kiyimi, arab qolibida yoziladurgan bo'lib, o'z o'g'itlarini (shakllarini) yo'qotdilar: "geografiya" yerida "jug'rofiya" yozilgani kabi".

Darhaqiqat, bu tilshunoslik ilmining juda muhim qonuniyati edi: har qanday millat "yot so'zlar" (boshqa tillardan kirgan so'zlar)ni olgan vaqtda o'z artikulyatsiyasi (talaffuz qoidasi)ga moslashtiradi. Sho'rolar davrida tilshunoslikning mazkur qonuniyati, ayniqsa, rus so'zlarini qabul qilishda qo'pol ravishda buzilgan edi: majburiy ravishda o'zbek talaffuziga xos bo'lmagan "ц", "б" kabi harf belgilari ham kiritilgan edi. Elbek shu ma'noda, boshqa tillardan so'z olishda ona tilining o'ziga xos xususiyatlarini hamda tilshunoslikning umumiy qonuniyatlarini e'tibordan soqit qilmaslik kerakligini alohida ta'kidlaydi: "Shubhasiz, biz boshqa tillardan so'z olamiz va bunga qarshi bo'lish tilning tarixidan xabarsizlik bo'lar edi. Ammo so'z olishning chegarasi bo'lishi kerak va shu bilan birga, o'z tilining xususiyatini, uning o'sishi, rivojlanish yo'llarini ham ko'zda qattiq tutish kerak".

E'tibor bering: bu talabi bilan Elbek rus shovinistlarining til sohasidagi siyosati (kirill imlosiga o'tishdan ancha oldin) ildiziga bolta urgan edi. Bu davr mutafakkirlari mustamlakachi siyosatdonlarning lotin yozuvini o'rganib ulgurmasdanoq xalqimizni kirill imlosiga o'tkazish rejasidan bexabar edilar.

Elbekning ushbu "Imlo masalasi" asari yangi imlo qoidalarini ishlab chiqishda va ona tilidan maktablar uchun darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishda o'z davrida nazariy asos vazifasini bajardi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, hozirda ham yangi yozuv tizimiga o'tishimizda, yangi imlo qoidalarini ishlab chiqishda bu asarning ahamiyati beqiyos. Elbek yangi imloning mukammal hamda xato va kamchiliklardan xoli bo'lishini istab, tanqidchilarni, tilshunoslarni munozarada faol ishtirok etishga da'vat etdi: "Belgilidurkim, dunyoda bo'lg'on har bir ishning yaxshigina negiz olib, bir yo'sin ostig'a kiruvi uchun ko'b tanqidchilar tomonidan tanqid etiluvi yoxud bir necha tuzatuvchilar tomonidan yaxshi tekshirilib, maydong'a otiluvi kerak bo'ladi. Busiz maydong'a otilg'an bir ishning, albatta, kamchilik yerlarining bo'lishi mumkindur. Shuning uchun boshqa kimsalarning tomonidan ko'riluvchi va tanqid etilib, uning buzuvchi yerlarini tuzatib beriluvi o'rinlidir. Yolg'izgina ko'rib, uning ishlovchisiga "barakalla" desa yoxud jimjitgina qolib ketmoq kelishmaydur. Bu choqda ishlovchining ishig'a ko'mak beruv emas, unga zararni istagangina bo'ladi".

Elbek 1923-yili “Boshlang‘ich maktabda ona tili” o‘quv-uslubiy qo‘llanmasini yaratdi. Aytish mumkinki, asar ona tili va adabiyot o‘qitish metodikasi bo‘yicha birinchi uslubiy qo‘llanmadir. Asarda muallif metodika ilmining amaliy masalalari bilan bir qatorda, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish masalasiga pedagogika va metodika ilmining birlamchi va o‘ta mas‘uliyatli vazifasi sifatida qaraganligining guvohi bo‘lamiz: “Ulug‘ bir vazifa – bolag‘a tuzuk tarbiya berish uchun uni go‘zal adabiyot bilan tanishtirish ham bolani tushunib, uqub o‘qishg‘a o‘rgatish kerakdur”, deb yozadi Elbek.

Asar muallifi Mashriq Yunusov maktablarda ona tili va adabiyotini o‘qitish masalasiga ustozlari kabi millatning hayot va mamoti masalasi sifatida qaradi: “Bir elning maktabin tirgizaturg‘on narsa u elning ona tilisidir. Tili bo‘lak el turi bo‘lak maktab izlaydur. Bir elning maktabi o‘sha elning negiziga qurulg‘on bo‘lmog‘i tegishdur. Chindan u shunday bo‘ladur. Biroq bir elning tarixida turli sabablar bilan el maktabi bir davrlarda onasidan ayrilib yetim bo‘lib qolishi mumkindur. Shunday davr biz – o‘zbeklar maktabi(ning) boshidan-da kechdi, to‘g‘risi, endi kechib turibdur”.

Ayniqsa, mustamlaka zanjirlari yanada tarang tortilayotgan, milliy til va milliy ma‘naviyatga, millatning buyuk mutafakkirlari asarlariga nigilistik, bepisandlik avjiga chiqqan 1920–1930-yillarda bunday so‘zlarni aytish katta jasorat edi. 1922-yilda Elbek Fotih Sayfiy bilan hamkorlikda boshlang‘ich maktablar uchun “O‘zbekcha o‘qish kitobi” darsligini yaratdi. Unda Elbekning o‘zbek mumtoz adabiyotining daho ijodkorlari haqida o‘quvchilarbop maqolalari qatorida “Navoiy” maqolasi ham berilgan. Unda muallif o‘tmish madaniy merosga bepisandlik ustuvor bo‘lib turgan bir paytda Alisher Navoiyning xalqimiz, jahon ma‘naviyati taraqqiyotiga qo‘shgan buyuk hissasini o‘quvchilarga to‘la yetib boradigan uslubda izohlab bergan.

1921-yilda ona tili grammatikasiga oid darslik “Yozuv yo‘llari. Birinchi bo‘lak. Boshlang‘ich maktablarning 2,3,4-bo‘lim o‘qug‘uvchilari uchun saboqlik” nomi bilan nashrdan chiqdi. Bu o‘zbek tili grammatikasi va o‘zbek tilidan darslik yaratishdagi dastlabki qadam edi. (Muhammadamin Faxriddinov. Turkcha qoida. 1913)

“Yozuv yo‘llari” darsligi bugungi kundagi savod o‘rgatishda qo‘llanadigan darsliklarimiz bilan mushtarak bo‘lib unda 11 saboq, 10ta qoida, 10ta topshiriq, misollar, so‘rog‘lar hamda 5ta eskartishlar keltirilgan.

Elbek «Go‘zal yozg‘ichlar» to‘plamini 1925-yilda nashr ettirib, uning muqovasiga “Boshlang‘ich maktablarning 4nchi bo‘limlari uchun tuzilgan o‘qish kitobidir” deb yozilgan. Unda o‘quvchining

yoshi, bilim darajasini, dunyoqarashini hisobga olgan. Cho'lponning "Oydin kechalarda" hikoyasi bu to'plamda ikkinchi bor nashr etilgan va Elbek tomonidan ba'zi so'zlarga o'zgartirishlar kiritilgan. Masalan "hamma" o'rnida "barcha", "qalbini" so'zlari o'rnida "yuragini" kabi.

"Go'zal yozg'ichlar" darsligining 1925-yil nashr qilingan arab yozuvidagi shakli Elbekning quyidagi so'zlari bilan boshlangan:

"Go'zal yozg'ichlar" otli bu asarning bosilib maydong'a chiqq'aniga hali ko'p vaqt o'tmadi yolg'iz ikki oy vaqt o'tdi. Ikkigina oy orasida, olti ming nusxa bosilg'on bir kitobning tarqab tugalishi, chindanda sevinarlik bir ish!

Biz bu kitobning ko'p tarqalishin ko'rar ekan, elimizning kitobga bergan ahamiyat va e'tiborlarini ko'z oldig'a keltirib sevinmasdan o'ta olmadiq. Chindanda sevinarlik bir ish.

Bu kungi, elimizda boshlang'on ilmga ko'ngil qo'yish va qiziqish kelgusida bir kitobning ikkinchi bosilishin emas, balki o'nlab va elliklab bosilishig'a yo'l ochadi.

Bu yog'dan biz juda quvong'an va tinchig'anmiz".

Elbek "Go'zal yozg'ichlar" o'qish kitobida Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Avloniy va boshqalarning sara asarlaridan namunalar keltirgan. Shuningdek, o'zining "Qo'zg'al", "Kuchsizlar dunyosi", "Alanga", "Ko'klam chog'ida yaproqlar", "Erk qizig'a", "Ot ila odam", "Mozor", hamda turmush o'rtog'i Muborak Yunusovanning "Tuyg'unoy" nomli asarlari berilgan.

Ayniqsa kitobdagi Abdulla Avloniyning "Hunarsiz kishi o'limga yaqin" hikoyasi oradan 1 asr o'tib 2020-yil nashr etilgan A.Shojalilov, S.Matchonov va boshqalar boshchiligidagi 4-sinf o'qish kitobida "Hunarsiz kishi o'limga yaqin" ertagi, 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida "Hunarning foydasi" rivoyati nomi bilan berilgan hamda «Hunarmand shahzoda» o'zbek multifilmi ishlangan.

Afsuski, keyinroq mazkur darslikka kiritilgan deyarli hamma ijodkorlar, shu jumladan, tuzuvchisi Elbek ham ma'shum qatag'on qurboni bo'ldilar.

Xulosa. Bolalar ruhiyatini nozik his qilgan shoir, pedagog Elbek o'zbek bolalar adabiyotining shakllanishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi, o'nlab bolalarbop she'rlar, masallar to'plamlari, xalq og'zaki ijodi yo'llarida dostonlar yaratdi. Yirik adabiyotshunos, tilshunos olim, yozuvchi va pedagog Ashurali Zohiriy juda to'g'ri ta'kidlanganidek: Shoir Elbek xalq mulki, og'zaki adabiyotini xalqdan olish va xalqqa qaytadan yetkazishda el tilining tushunarli ta'sirlaridan ko'p foydalangan, el bolalar adabiyotida masalchilikni yaratgan katta san'atkordur.

Atoqli pedagog, shoir, yozuvchi va folklorshunos olim Mashriq Yunusov-Elbek ijodining avj pallasiga ko'trarilayotgan bir davrda 1937-yilning 13-avgustida dahshatli qatag'on mashinasi uni ham o'z komiga tortdi. Elbek 1942-yilda sobiq sho'ro davlatining eng chekka va eng sovuq o'lkasi-Magadannning Kolimo jazo lagerlaridan birida o'pka shamollashi kasaliga uchrab hayot bilan vidolashdi.

Shoir o'zi yashagan talato'p zamonda bir narsani orzu qilgan edi:

Yozganim she'rlar kelajakdagi  
Haqiqiy she'rimga yo'l ochsa edi,  
She'rim quyosh kabi porlab yurtimga  
Kuchli nurlarini bir sochsa edi.

Bugun uning istaklari ro'yobga chiqmoqda. "She'r uchun kuygan", "yurak she'rini dili bilan tuygan" millatsevar, erksevar shoirning bolalar uchun yozgan she'rlari quyosh kabi yurtiga, vataniga nur sochmoqda.

Istiqlol, mustaqillik uning ruhi pokini, o'lmas asarlarini ona xalqiga qaytardi, u tug'ilib o'sgan Bo'stonliq tumanining markazi G'azalkentda "Elbek bog'i" majmuasi tashkil etildi, uning muhtasham haykali qad ko'tardi. Shoirning "Armug'on" masallar to'plami e'lon qilindi, eng sara asarlarini o'z ichiga olgan "Tanlangan asarlar"i ijodkorning 100 yilligi munosabati bilan 1999-yilda nashr etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.S.Amonov, Sh.R.Saparova. The mother tongue textbook of the primary school in Elbek's interpretation. ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.11, Issue 6, June 2021. Impact factor: SJIF 2021=7,492. p-403. <https://saarj.com>

2. Xudoyberdiyev J. "Tahrirchi Cho'lponmi yoki Elbek?" Milliy tiklanish. 1996.12-mart.

3. Amonov U.S. "Elbek. Armug'on yolqinlar". Toshkent. "Turon zamin ziyo" 2017. 55 bet.

4. Amonov Ulugmurod Sultonovich. "Noviye grani tvorcheskogo naslediya Elbeka". "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2020-yil. 4-son. 62-63-betlar.

5. H.Uzoqov. "Istiqlol yo'lida uzilgan navo". Kitobda : Elbek . Momaguldirak. Toshkent: "Cho'lpon", 1993-yil, 132-140-b. Yana: H.Uzoqov. Erk yo'lida erksiz ketgan fidoiy. Kitobda: Elbek Tanlangan asarlar. Toshkent: "Sharq", 1999 -yil, 2-20-betlar.

6. Shahlo SAPAROVA. "The classification of Elbek poems in 5 directions". "Pedagogik mahorat" jurnali. 2021-yil, dekabr. 175-177-betlar.ped\_mahorat@umail.uz

7. Sh.R.Saparova. “Ham ijodkor, ham murabbiy”. “Tafakkur va talqin” Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. Buxoro-2021. 1593-1597-betlar.

8. Amonov U. S. O‘qish darslarida maqol janridan foydalanish usullari va ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124 US

9. SAPAROVA SH.R. “Elbekning boshlang‘ich sinf darsliklarini yaratishdagi xizmatlari (ona tili va o‘qish darsliklariga oid materiallari asosida) BuxDU. 5A111701–Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi bo‘yicha magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya(Ilmiy rahbar:f.f.f.d.(PhD), dotsent, Amonov U.S.) Buxoro – 2022.

10. U.S.Amonov, Sh.R.Saparova. “FILOLOG OLIM, MUALLIM, BOLALAR SHOIRI ELBEK” Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini oshirish muammolari: innovatsiya, raqamli texnologiyalar va xalqaro tajribalar» xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2022-yil 13-14-may. 363-bet. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6568979>

**4-SINF O'QISH KITABI ADABIY PARCHALARI  
VOSITASIDA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI  
O'QUVCHILARNI ESTETIK TARBIYALASH**

*Holiqova Madina Komiljonovna*

*Turon Zarmed Universitetining boshlang'ich ta'lim, pedagogika va  
psixologiya kafedrası o'qituvchisi*

**AESTHETIC EDUCATION OF STUDENTS OF JUNIOR  
SCHOOL AGE BY MEANS OF LITERARY FRAGMENTS  
OF THE 4TH GRADE READING BOOK**

*Kholikova Madina Komiljonovna*

*Teacher of Turon Zarmed University in primary education,  
pedagogy and psychology department*

**ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ  
МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА СРЕДСТВАМИ  
ЛИТЕРАТУРНЫХ ФРАГМЕНТОВ ХРЕСТОМАТИИ 4  
КЛАССА**

*Холикова Мадина Комилжоновна*

*Преподаватель кафедры начального образования, педагогики  
и психологии Университета Турон Зармед*

*Annotatsiya. Maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni estetik tarbiyalash jarayonida badiiy adabiyotdan foydalanish tajribasi keltirilgan. Kichik maktab yoshdagi estetik tarbiya va uning xususiyatlari haqidagi zamonaviy g'oyalar tahlil qilinadi. Maqolada 4-sinf o'qish kitobi adabiy parchalaridan namunalar va ularning tahlili batafsil yoritilgan. Maqolada quyidagi savollarga javob ilgari suriladi: kichik maktab yosh davrining o'ziga xos xususiyatlari nimada, estetik tarbiyani shakllantirishga nimalar ta'sir ko'rsatadi, estetik tarbiyaning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat.*

*Tayanch so'zlar: estetik rivojlanish, estetik tarbiya, estetik element, estetik munosabat, go'zallik tuyg'usi, ehtiyoj, adabiy parcha, mehr-muhabbat, tasviriy faoliyat, badiiy adabiyot.*

*Annotation. The article presents the experience of using fiction in the process of aesthetic education of students of junior school age. Modern ideas about aesthetic education and its features are analyzed. In the article, examples of literary fragments of the 4th grade reading book and their analysis are covered in detail. The article offers answers to the following questions: what are the characteristics of the youth*

*period of junior high school, what influences the formation of aesthetic education, what are the specific aspects of aesthetic education.*

*Key words: aesthetic development, aesthetic education, aesthetic element, aesthetic attitude, sense of beauty, need, literary piece, love, pictorial activity, fiction.*

*Аннотация. В статье представлен опыт использования художественной литературы в процессе эстетического воспитания учащихся младшего школьного возраста. Анализируются современные представления об эстетическом воспитании и его особенностях. В статье подробно освещены примеры литературных фрагментов книги для чтения 4-го класса и их анализ. В статье предлагаются ответы на следующие вопросы: каковы особенности младшего школьного возраста, что влияет на формирование эстетического воспитания, каковы особенности эстетического воспитания.*

*Ключевые слова: эстетическое развитие, эстетическое воспитание, эстетическое начало, эстетическое отношение, чувство прекрасного, потребность, литературное произведение, любовь, изобразительная деятельность, художественная литература.*

Kichik maktab yoshi bolalikning cho'qqisi deb ataladi. Aqliy rivojlanishning zamonaviy davriylashuvida u 6-7 yoshdan 9-11 yoshgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Kichik maktab yoshidagi yetakchi faoliyat o'quv faoliyatidir. Uning xususiyatlari: samaradorlik, majburiyat, o'zboshimchalik.

O'quv faoliyatining asoslari o'qishning birinchi yillarida qo'yiladi. Ta'lim faoliyati, bir tomondan, bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda qurilishi kerak, ikkinchi tomondan, ularni keyingi rivojlanish uchun zarur bo'lgan bilimlar miqdori bilan ta'minlashi kerak.

O'quv faoliyatining tarkibiy qismlari (D.B. Elkonin bo'yicha):

Motivatsiya.

O'rganish vazifasi.

Trening operatsiyalari.

Nazorat va baholash.

Ta'lim motivlari:

kognitiv (bilimni, bilim olish usullarini, mustaqil ishlash usullarini, qo'shimcha bilimlarni o'zlashtirishga, o'z-o'zini takomillashtirish dasturlarini o'zlashtirishga qaratilgan);

ijtimoiy (mas'uliyat, ta'limotning ijtimoiy ahamiyatini tushunish, boshqalar bilan munosabatlarda muayyan pozitsiyani egallashga intilish, ularning roziligini olish);

Maktab ta'limi nafaqat bola faoliyatining alohida ijtimoiy ahamiyati, balki kattalar modellari va baholashlari bilan munosabatlarning vositachiligi, hamma uchun umumiy qoidalarga rioya qilish va ilmiy tushunchalarni o'zlashtirish bilan ham ajralib turadi.

Ta'lim faoliyati natijasida aqliy neoplazmalar paydo bo'ladi: aqliy jarayonlarning o'zboshimchaliklari, aks ettirish (shaxsiy, intellektual), ichki harakatlar rejasi (ongda rejalashtirish, tahlil qilish qobiliyati).

Bolalarning estetik tasavvurlari tug'ma emas, balki bola ijtimoiy muhitga kirgan paytdan boshlab rivojlanadi. Bolalarning maktab ta'lim muassasasiga kelishi bilan bola aniq pedagogik rahbarlik ostida ta'lim va tarbiya uyg'unligida rivojlanishni boshdan kechiradi. Bolalarning estetik rivojlanishi ularning estetik madaniyati, idroki, tushunchalari, qiziqishlari, mulohazalari, his-tuyg'ulari, didi shakllanishini o'z ichiga oladi.

“Estetika” inson hayotining ko'p jabhalari va jabhalarini qamrab oluvchi ancha keng kategoriyadir. Estetik tarbiya usullari juda xilma-xildir. Muvaffaqiyatli badiiy-estetik ta'lim bolaning muvaffaqiyatli va uyg'unrivojlanishiga, adabiyot, musiqa, rasm va boshqa san'at turlarining badiiy didini yaxshilashga imkon beradi; xulq-atvor madaniyati, tashqi ko'rinish va boshqalar. Estetika go'zallik tushunchasiga shakl va mazmun jihatdan birdek ta'sir ko'rsatganligi sababli, insonning ichki dunyosiga, uning ijtimoiy hayotiga estetik tarbiyaning vazifalari keng ko'lamli va serqirradir. Bola go'zallikni idrok etish, baholash (dastlabki bosqichlarda) ko'nikmalarini egallaydi va keyinchalik u yoki bu estetik qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni yaratishni o'rganadi. Estetik tarbiyaning asosiy tushunchalaridan biri go'zallik kategoriyasidir. Uning ma'nosini talaba-yoshlarga tushuntirish ham mazkur tarbiyaning hayotiylikini ta'minlashga katta yordam beradi. Shu sababli go'zallik tushunchasining mazmunmohiyatini ochib berishga quyidagicha yondashuvlar qilishni maqsadga muvofiq deb topdik: • go'zallik - bu kishining qalbi go'zalligi; • go'zallik - bu kishining istarasi issiqligi; • go'zallik - bu kishining go'zal xulq egasi bo'lishi; • go'zallik - bu bamisoli daraxt, yaprog'i - axloq, ildizi - ichki dunyo, mevasi-yaxshi fazilat. Xullas, odam bolasidagi go'zallik - tabiat ato qilgan husn-jamolidan tashqari, yana eng yaxshi xulq-atvorni, insondagi eng yaxshi fazilatlarini o'z ichiga olgan odamiylikdan iborat (Mirzakalon Ismoiliy).

Boshlang'ich maktab yoshida estetik xususiyatlarni



shakllantirishning yaqinlashib kelayotgan individualligi talabaning bilish jarayonlari sohasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan bog'liq – kompilyatsiya estetik standartlar ularning dunyoqarashining bir qismi sifatida. Boshlang'ich maktab yoshi uchun asosiy shakl estetik me'yor bilan tanishish bolalarcha fantastika, animatsion filmlar deb hisoblanadi.

Kitoblar, multfilmlar yoki kino qahramonlari, ular odamlar, hayvonlar yoki insoniy xususiyatga ega bo'lgan xayoliy mavjudotlar yaxshilik va yomonlik tashuvchisi hisoblanadi; rahm-shafqat va shafqatsizlik, vafo va yolg'on. O'zining eng yaxshi xabardorligi uchun, yosh talaba yaxshilik tarafdoriga aylanadi, qahramonlarga hamdard bo'ladi, yovuzlikka qarshi sadoqat uchun kurashadi.

Tabiatning go'zalligini his qilish, odamlar atrofida bo'lish, kichik o'smirda narsalarni qilish alohida emotsional va ruhiy holatlar, hayotga aniq e'tiborni uyg'otadi, qiziqish, fikrlash, xotirani keskinlashtiradi. Kuchli hissiy buzilishlar uzoq vaqt davomida saqlanadi.

xotiralar ko'pincha xatti-harakatlarning motivlari va rag'batlariga aylanadi, e'tiqodni rivojlantirish jarayonini soddalashtiradi;

N.I. Kiyashchenko tajribalari shu jihati bilan ahamiyatli, kichik maktab o'quvchisining hissiy olamini dunyoga tanitish - bu dunyoga kirishning eng muhim yo'llaridan biri bolalarning tushunchasi, uni kengaytirish, chuqurlashtirish, mustahkamlash, qurish, hissiy reaksiyalar va kichik o'quvchining holati estetik tarbiya samaradorligining aspekti hisoblanadi, insonning hissiy munosabatlari u yoki bu ko'rinish darajasi bilan ifodalanadi va his-tuyg'ular, didlar, qarashlar, e'tiqodlar va irodasini axloqiy jihatdan rivojlantiradi.

Estetik tarbiya kichik maktab yoshi shaxsining keyingi to'laqonli shakllanishi uchun asosdir. U badiiy didni rivojlantirish uchun mo'ljallangan, insonni bezaydi, insonni har tomonlama rivojlantiradi, uyg'unlashtiradi, tushunish qobiliyatini, to'g'ri baholash va hayotda va san'atda ajoyib narsalarni yaratish qobiliyatini shakllantiradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari musiqa, tasviriy san'at, tarbiya darslari jarayonida o'quvchilar estetik rivojlanishining barcha vositalari va usullaridan foydalanishadi. Biroq, bolalarning estetik rivojlanishida ta'lim imkoniyatlari cheksiz bo'lgan o'qish darslarini ajratib ko'rsatish kerak. Bolaning ichki dunyosi boy bo'lishi, tevarak-atrofdagi go'zallikni sezishi uchun uni badiiy adabiyot, kitobxonlik san'ati bilan tanishtirish zarur. Kitob ko'p asrlar davomida ma'naviy boyitish, hissiy va aqliy rivojlanishning birinchi manbai bo'lgan. Qolaversa, kitob yosh kitobxoniga ta'sir etuvchi estetik boyliklarga boy.

Badiiy adabiyot vositasida estetik tarbiyani rivojlantirish vazifalari quyidagilardan iborat:

1. badiiy-estetik idrok, ong, did, ehtiyojlarni shakllantirish;
2. hissiy badiiy va estetik tajribalarni, his-tuyg'ularni rivojlantirish; o'z kayfiyatingizni rangli tasvirlar bilan bog'lash qobiliyatini shakllantirish;
3. tasviriy faoliyatda namoyon bo'ladigan badiiy va estetik faollikni, mustaqillik, tashabbuskorlikni rivojlantirish; bolalarni rasmdagi tasvirga o'z munosabatini bildirishga undash;
4. tabiat haqida asarlar yaratgan rus shoirlari ijodi bilan tanishtirish;
5. bolalarni ko'rgan va eshitgan narsalar haqida shaxsiy fikrini bildirishga undash;
6. badiiy-estetik tarbiya doirasida predmetni rivojlantiruvchi muhitni boyitish.

Estetik tarbiya insoniyat ijodi orqali yaratilgan san'at va go'zallikka moyillikni shakllantirishni o'z ichiga oladi. K. D. Ushinskiy yozishicha, ta'lim siklining har bir fanida estetik element bo'lib, ustozning vazifasi - buni bolaga yetkazib berishdan iborat. Maktabning vazifasi hayotga nisbatan estetik munosabatni, go'zallik qonuniyatlari asosida faoliyatga ehtiyojni shakllantirishdan iborat.

Badiiy adabiyot kichik maktab yoshdagi bolaning nutqni rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadigan bolalarning aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasining kuchli ta'sirchan vositasidir. U his-tuyg'ularni boyitadi, tasavvurni kuchaytiradi, bolaga o'zbek adabiy tilining ajoyib namunalarini beradi. Badiiy adabiyot bolaga jamiyat va tabiat hayotini, odamlarning hissiyotlari va munosabatlar dunyosini ochadi va tushuntiradi. Bu bolaning tafakkuri va tasavvurini rivojlantiradi, his-tuyg'ularini boyitadi va o'zbek adabiy tilining ajoyib namunalarini beradi. Uning tarbiyaviy, kognitiv va estetik ahamiyati beqiyosdir, chunki bolaning atrofdagi dunyo haqidagi bilimlarini kengaytirish, ona tilining shakli va ritmini nozik his qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Badiiy adabiyot insonga hayotining birinchi yillaridanoq hamroh bo'ladi. Bolaning ongida adabiy asar mazmun va badiiy shakl birligida paydo bo'ladi. Bola bunga tayyorlangandagina adabiy asarni idrok etish to'liq bo'ladi. Va buning uchun bolalarning e'tiborini nafaqat mazmuniga, balki ertak, hikoya, she'r va boshqa badiiy asarlar tilining ifodali vositalariga ham jalb qilish kerak. Hikoyalarda bolalar so'zning ixchamligi va aniqligini o'rganadilar; xalq ertaklarida, tilning yengilligi va ta'sirchanligini, hazil bilan nutq boyligini, jonli va obrazli iboralar, taqqoslashlar bolalar oldida ochib beradilar. Badiiy adabiyot qahramonning shaxsiyati va ichki dunyosiga qiziqish uyg'otadi. Bolalarda insonparvarlik tuyg'ulari uyg'onadi - ishtirok etish, xushmuomalalik, adolatsizlikka qarshi norozilik qobiliyati. Asta-

sekin bolalar adabiy asarlarga ixtirochilik munosabatini rivojlantiradi va badiiy did shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan turli janrdagi adabiy asarlarni qabul qilish muammosi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, bola tasvirlangan voqealarda sodda ishtirok etishdan estetik idrokning ancha murakkab shakllariga qadar uzoq yo'lni bosib o'tadi. Yosh guruhlarda badiiy adabiyot bilan tanishish turli janrdagi adabiy asarlar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu yoshda bolalarni ertaklar, hikoyalar, she'rlar tinglashni, shuningdek, ertakdagi harakatlarning rivojlanishini kuzatishni, ijobiy qahramonlarga hamdard bo'lishni o'rgatish kerak. Ularning adabiy asarlarning mazmuni va badiiy shaklini anglashning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratdilar. Bu birinchi navbatda fikrlashning aniqligi, kichik hayotiy tajriba, haqiqat bilan bevosita bog'liqlikdir. Shu sababli, faqat rivojlanishning ma'lum bir bosqichida va faqat maqsadga muvofiq idrok etish natijasida estetik in'ikosni shakllantirish va shu asosda - bolalarning badiiy ijodini rivojlantirish mumkinligi ta'kidlanadi. Kichik maktab yoshdagi bolalar tilning g'oyasi, mazmuni va ifodali vositalarini tushunishga, so'zlar va iboralarning ajoyib ma'nosini anglashga qodir. Katta adabiy meros bilan keyingi barcha tanishishlar biz maktabgacha yoshdagi poydevorimizga asoslanadi. Katta guruhda bolalar adabiy asarlarning mazmunini idrok etishda ekspresiv vositalarni sezishga o'rgatishadi. Kattaroq bolalar adabiy asar mazmunini chuqurroq anglay oladilar va badiiy shaklning tarkibini ifoda etadigan ba'zi xususiyatlaridan xabardor bo'lishadi. Ular adabiy asarlarning janrlari va har bir janrning ba'zi o'ziga xos xususiyatlarini ajrata oladilar. Majoziy nutqni rivojlantirishni bir necha yo'nalishda ko'rib chiqish kerak: nutqning barcha jihatlari (fonetik, leksik, grammatik) bilan bolalarni o'zlashtirish, adabiy va folklor asarlarining turli janrlarini idrok etish va lingvistik dizaynni shakllantirish bo'yicha ish sifatida. mustaqil izchil bayonot. Badiiy va og'zaki folklor san'ati asarlari, shu jumladan kichik adabiy shakllar bolalar nutqining ekspresivligini rivojlantirish uchun eng muhim manbalardir. Bolalar nutqining ekspresivligini rivojlantirish uchun eng muhim manbalar badiiy asarlar va og'zaki folklor san'ati asarlari, shu jumladan kichik folklor shakllari (maqollar, matallar, topishmoqlar, bolalar bog'chalari, qofiyalar, frazeologik birliklar). Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarni, ayniqsa, aniq qofiya, ritm va musiqiylik bilan ajralib turadigan she'riy asarlar o'ziga jalb qiladi. Qayta o'qish bilan bolalar matnni yodlashni boshlaydilar, she'ning ma'nosini o'zlashtiradilar va qofiya va ritm ma'nosida tasdiqlaydilar. Bolaning nutqi u eslagan so'zlar va iboralar bilan boyitiladi. Dastlabki ish bolalarni tayyorlashni o'z ichiga oladi. Avvalo, badiiy matnni idrok

etishga, uning mazmuni va shaklini tushunishga tayyorgarlik. Shu maqsadda kuzatuvlar, ekskursiyalar, rasmlar, rasmlarni tomosha qilish orqali bolalarning shaxsiy tajribasini faollashtirish, ularning g'oyalari boyitish mumkin.

Badiiy tarbiyada o'qish ham muhim o'rin tutadi. Siz eng oddiy bolalar she'rlaridan, ertaklardan boshlashingiz mumkin. Muntazam ravishda ovoz chiqarib o'qish va shunga o'xshash boshqa usullar bolaning so'z boyligini boyitibgina qolmay, nutq madaniyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Lekin uni axloqiy jihatdan ham rivojlantiradi: qahramonlar harakatiga odob-axloq nuqtai nazaridan baho berishga, ijobiy qahramonlarni salbiydan farqlashga, u yoki bu qaror foydasiga tanlov qilishga o'rgatadi. Kitob o'qish bolani o'z his-tuyg'ulari va ehtiyojlarini ifodalash uchun nutqdan samarali foydalanishga o'rgatadi.

Quyida 4-sinf o'qish kitobidagi estetik elementlarga boy bo'lgan adabiy parchalar va ularning estetik tahliliga to'xtalib o'tadigan bo'lsak:

“...Tabiat oltinday tovlanadi; Katta bayramga yasanayotgandek, yelkasiga guldor libos tashlagan kelinchakdek ko'zga yaqin bo'lib qoladi; Qizaloqlar ham olis o'lkalarga yo'l olgan turnalarni xomush kuzatadilar; Qo'llarini duoga ochib, yurtga tinchlik-totuvlik, elga hurlik, to'kinlik, yoshlarimizga bekam baxt-u saodat, ilm-u ma'rifat so'raydi”. (4-sinf “O'qish kitobi” darsligi “Kuz hayajonlari” 19-20-betlar)

Adabiy parchadagi keltirilgan jumlar orqali 4-sinf o'quvchilarda tabiatning go'zalligini anglash, ular tabiatdagi eng mayda zarradan boshlab, quyoshdek buyuk tabiat ne'matining yer yuzini oltinrangga burkashini ko'rsatib berish orqali tabiat go'zalligini tarannum etmoqda. O'quvchilarda go'zallik tuyg'usini shakllantirish eng avval o'zida va atrofidagi go'zallikni anglay olish va uni o'zida shakllantirishga qaratilgan turli savol-javoblar va o'zlarining tasavvurlaridagi g'oyalarni eshitish va umulashtirish orqali shakllantiriladi. Oltinning inson hayotidagi qimmatini yuqoriligi va tabiatni oltinga burkovchi vositani o'quvchilarga tushunarli tilda yetkazib berish uchun ham tabiat go'zalligining sababchisini ko'rsatib berish maqsadida adabiy parchadagi jumla diqqatni qaratilishi kerak bo'lgan muhim qismidir.

Aynan shu parchada keltirilgan keyingi jumladagi so'zlar orqali go'zallik ramzi bo'lgan kelinchakning guldor libosi-yu, bayramga yasangandek ko'rinuvchi tashqi ko'rinishi orqali tabiatning bejirim qirralari tasvirlanib, o'quvchining qalbiga zavq va tabiatdagi shunday go'zallikni o'zi ham yaratishga harakat qilish ruhida estetik tarbiyani rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tabiatning go'zal ne'mati bo'lmish turnalarning mamlakatni

tark etish jarayonida qizaloqlarning xomush holatda kuzatishlari o'quvchilar tasavvurida gavdalanishi orqali qanotli do'stlarga nisbatan zavq va ularning ko'rinishining mukammal ne'mat ekanligi va bular bilan bir o'rinda kelgan qizchalar ulkan mehr va muhabbat tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan.

Har bir adabiy parcha oldiga qo'yilgan tarbiyaviy maqsad faqatgina bir yo'nalishga qaratilib qolmasdan balki bir nechta tarbiyaviy maqsadlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lganligini yorqin namunasi bu – “Qo'llarini duoga ochib, yurtga tinchlik-totuvlik, elga hurlik, to'kinlik, yoshlarimizga bekam baxt-u saodat, ilm-u ma'rifat so'raylik jumlasida ham vatanparvarlikka, ham mustaqilligimizga, ma'rifatparvarlikka intilish va o'quvchilarni shu ruhda tarbiyalashga qaratilgan.

“...Ayoz esa deraza oynalariga rangin naqshlar chizarkan; Bu ertakda bir necha ming yilda bir marta bo'ladigan bo'yoq bozori to'g'risida so'z boradi; U juda chiroyli qiz ekan: sochlarida kurtakva g'unchalar bo'rtib turganmish; ko'ylagining etaklariga binafshalar qadalgan; moychechaklar chambari kiydirilgan boshi uzra qaldirg'ochlar charx urib, yelkasiga qo'ngan sa'vayu qumrilar chah-chahlab kelayotir; Ayni o'riklar gullab turgan paytda, paxta chaman-chaman ochilib, bog'larda tilladay uzumlar ayni yetilgan kuz kunlarida Qish qahrini sochib qolarkan”. (4-sinf “O'qish kitobi” darsligi “Rangin qorlar” 57-59-betlar)

Navbatdagi adabiy parchada qish faslining tarovati va go'zal ko'rinishlarini tarannum etish orqali sovuq havoning qudrati, sovuq bo'lishi bilan bir qatorda derazalarda yaratadigan rangin naqshlar yarata olishni ko'rsatib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ruhiyatini jilvador tushunchalar bilan boyitishga yordam beradi.

Keyingi o'rinda uchraydigan fasllarning ranglar bilan mutanosibligini so'z bilan ifodalab berish orqali o'quvchilardagi estetik tarbiyaning yuqori ko'rinishlari tarannum etiladi. Oddiygina bo'yoq bozori har bir rangning o'z ramzi va insonning kayfiyatiga ta'sir doirasi tahlil qilinib, bu hol fasllarning ko'rinishi va xususiyatlari mos ravishda o'quvchilarga zavqli holat shakllantiradi.

Bu tushunchalar o'quvchilar hayoti, ularning yashash muhitidan zavq tuyishi va shu zavqli yashash muhitini o'z harakatlari bilan yaratishiga turtki bo'ladi.

Oddiygina bahor faslining ta'rifida foydalaniladigan so'zlar, etaklariga binafshalar qadalgan, moychechaklar chambari kiydirilgan boshi uzra qaldirg'ochlar charx urib degan jummalari mukammal go'zallik ramzidir. Bularni o'quvchilarga mukammal tahlil qilish orqaligina to'g'ri yo'naltirilgan hisoblanadi.

Badiiy-estetik idrok fasllar tarovatini to'g'ri tarannum etishga o'rgatibgina qolmay, bahor faslini o'rik gullashi, kuz faslini esa chaman-chaman ochilgan paxta, yoz faslini esa tilladay jilvalanuvchi uzumlar, qish faslini qahrli sovuqni tasavvur qilishlariga imkon yaratadi.

“...Sharqdan bahor nasimi esib keldi, olamni bezamoq uchun firdavs yo'lini ochdi; Uyquga kirgan daraxtlar yana yashil to'n kiydi, oq, sariq, ko'k, qizil rangli harir yopinchiqlar bilan bezandi; Kaklik xushovoz bilan sayrab, qah-qah urib kulmoqda, uning tumshug'i qon kabi qizil, qoshi esa qop-qora; Gulzorda bulbul ming ohangda navo qilmoqda, tun-kun tinmasdan yoqimli sayramoqda; Osmonni bulut qoplagan, yomg'ir yog'moqda, gular yuz ochib qah-qah urib kulmoqda”.

(4-sinf “O'qish kitobi” darsligi “Bahor ta'rifida”106-bet)

Quyidagi adabiy parchada bahor tasviri orqali, tabiat kayfiyati inson kayfiyati bilan o'xshatilgan bo'lib, rang-barang go'zallikdan qushlar ham, osmon ham, daraxtlar ham shod-hurram ekanligi go'zal tasvirlar orqali keltirilgan. Bahorning vazifasi tabiatni go'zallikka burkash ekanligini ta'kidlab, olamni bezamoq uchun firdavs yo'lini ochdi jumlasini esa, tabiatdagi bog'-rog'lar, yasangan daraxtlar, xushovoz qushlar firdavs-jannat bog'iga qiyoslangan. Ushbu ta'riflardan, o'quvchilarda barcha go'zal narsalar ezgulikka xizmat qilishni, go'zal narsalar ezgulikka xizmat qilishni, go'zallikni ko'z bilan idrok qilishdan tashqari, uni eshitib, his qilib ham idrok qilish mumkin ekanligini o'quvchilar ongiga singdiradi.

Xulosa qilib aytganda, sinf xonalarini predmetli-rivojlantiruvchi estetik atmosferani kitob burchagi, san'at asarlari namunalari, ertak qahramonlarining haykalchalari, rasmlari bilan boyitish; badiiy adabiyotlarni o'qishdan foydalangan holda mashg'ulotlar to'plamini ishlab chiqish va o'tkazish orqali kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda estetik tasavvur, estetik ideal, estetik didga bo'lgan munosabatni shakllantirish va ijobiy tomonga o'tkazish mumkin. Quyida biz adabiy parchalarni estetik jihatini qisqaroq tarzda tahlil qildik, ammo, badiiy adabiyotlar mazmuni shunday yaratilganki, unda yozuvchining o'z qarashlari, nuqtai nazari, motivlari, tafakkur mahsuli yashiringan bo'ladi. Kitobxon bir marotaba mutolaa qilib, muallif nazarda tutgan mazmun-mohiyatni, estetik zavqni his qila olmaydi va bundan tashqari insonning tafakkuri, qarashlari vaqt o'tgan sari o'zgarib boradi, shuning uchun biz badiiy adabiyot namunalari bir necha bor o'qishimiz lozim va har mutolaa jarayonida ilgari his qila olmagan estetik zavqni his qilishimiz va ma'naviy ozuqa olishimiz mumkin, chunki Vigotskiy (1999) ta'kidlaganidek, tushunchalar noyob va o'zgarmas bo'lmasligi kerak, lekin ular doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilishi kerak, chunki

ular eskirgan ishchi vositalardir. Atrofdagi go'zallikni ko'ra bilish, qadrlay bilish tug'ma fazilat emas, balki tartibli va tizimli mehnat natijasida shakllanadigan mahoratdir. Badiiy didning shakllanishi bolaning tug'ilishidanoq boshlanadi, agar u joylashgan muhit madaniy jihatdan boy bo'lsa va bolada turli xil ijodkorlik mavjud bo'lsa, befarq va osonlik bilan boshlanadi.

#### References

1. Makhmudova, D. I., Isabayeva, D. K., & Holikova, M. K. AESTHETIC EDUCATION OF TALENTED STUDENTS IN THE SPIRIT OF NATIONAL PRIDE.

2. Makhmudova Dilorom Inoyatovna. (2022). IMPORTANCE OF TEACHING GIFTED STUDENTS IN INCLUSION CLASSROOM. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 9(12), 237–240. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/R2VGH>

3. Inoyatovna, M. D. . (2022). THE MAIN PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF EDUCATION AND DEVELOPMENT OF GIFTED STUDENTS. *IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 64–67. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5046>

4. Akramov, A. (2021). Psychological mechanisms and determinants of maintaining human health. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).

5. Akramov, A. (2021). ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЕ С НАСЕЛЕНИЕМ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).

6. Akramov, A. (2021). SHARQ ALLOMALARINING MILLIY SPORT O'YINLARI TO'G'RISIDAGI ILMIY FIKR VA QARASHLARI. *EDAGOGIK AHORAT*, 250.

7. Shavkatovich, A. A. (2020, December). MORAL EDUCATION IN THE MIND OF THE YOUNG GENERATION PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF FORMATION.

8. Ulug'bek, S. . (2022). MAHMUXO'JA BEHBUDIYNING PUBLISTISTIK HAYOT YO'LI. *IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 76–79. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5049>

9. Sobirov Ulug'bek G'ofurovich. (2022). PROBLEMS OF EDUCATIONAL POLICY IN BUKHARA IN THE LATE XIX-EARLY XX CENTURY AND THEIR SOLUTIONS. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 9(12), 251–254. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/8NTQW>

10. Ro‘zimurodovna, M. G. (2022). METHODS FOR ANALYZING THE TEXT OF A WORK OF ART IN ELEMENTARY GRADES. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 60-63.

11. Bakhodirovna, A. D., & Ruzimurodovna, M. G. Forming Writing Skills in Left-Handed Student stages and Methods of Analyzing the texts of a book in Primary School

12. Lochinovna, A. M. . (2022). O‘QUVCHILARDA O‘ZBEK MUSIQA FOLKLOR HAQIDAGI TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHNING VOSITA VA USULLARI. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 51–54. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5042>

13. Bobirovich, N. M. . (2022). ILK O‘SPIRINLIK DAVRIDA SHAXS SHAKLLANISHINING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSLARI VA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 68–71. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5047>

14. Muhrodbek Bobirovich Nabiyev (2021). ILK O‘SPIRINLIK DAVRIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Scientific progress, 2 (6), 1146-1149.

15. Madina, X. (2023). RANGLARNING INSON RUHIYATIGA TA’SIRI VA ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI. TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(1), 296-299.

16. Madinabonu, S. (2021). BOSHLANG’ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINI ADABIY ERTAKLAR YORDAMIDA INSONIY FAZILATLAR RUHIDA TARBIYALASH. In Научно-практическая конференция.

17. Shokirova, M. (2022). BOSHLANG’ICH SINFLARDA ONA TILINI O‘QITISHDA SO‘Z YASOVCHI QO‘SHIMCHALARDAN FOYDALANISH. Boshlang’ich ta’limda innovatsiyalar, (2).

18. Jahonova Nargiza Yunusovna. (2023). ABOUT GROUPS OF ANALOGUE DOCTORAL MEANINGS APPLIED BY ALISHER NAVAI. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 9(12), 258–261.



## **BOLALARNI TARBIYASI VA RIVOJLANISHIDA O'YINLARDAN FOYDALANISH MUAMMOSI**

*Mamurov Baxrom Baxshulloyvich,  
Buxoro muhandislik-texnologiya institute o'qituvchisi*

*Annotatsiya: Sog'lomlashtirishni muhofaza qilish tadbirlariga eng avvalo jismoniy mashklar bilan muntazam shug'ullanish, ular bilan do'stlashish, mustaqillikni tarbiyalash, ommaviy jismoniy sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish va doimiy an'analarga aylantirish kiradi, Buning uchun shunday tarbiyani eng kichik yoshdan boshlash lozim.*

*Kalit so'zlar: iroda, mahorat, g'urur, axloq va odoblilik, faoliyaturofodat, bilim, ko'nikma, malaka*

*Аннотация: К оздоровительным мероприятиям, прежде всего, относятся регулярные занятия спортом, дружба с окружающими, воспитание самостоятельности, проведение массовых физкультурно-оздоровительных мероприятий. Необходимо начать эти мероприятия рано, чтобы вести здоровый и физический образ жизни.*

*Ключевые слова: воспитание самостоятельности, здоровье, физическое, национальное, начальное, дружба, постоянные традиции.*

*Annotation: To begin with, health care actions include regular exercise, making friends with them, increasing independence, holding mass physical health events, and establishing permanent traditions. It is essential to begin at a young age.*

*Key words: independence education, wellbeing, physical, national, primary, friendship, permanent traditions.*

**Кирриш.** Milliy va harakatli o'yinlarni bolalarni rivojlantirish vositalaridan biri sifatida chuqur o'rganish va uni pedagogik jihatdan baholash masalasini qo'yish vaqti allaqachon kelgan. Keyingi yillarda kichik yoshdagi bolalar mashg'ulotlari va sporti bilan bog'liq ravishda bu masalaning ahamiyati yanada ortdi, ayniksa, 2010 yil « Barkamol avlod yili » deb atalishi bilan. Bu masala yechimining dolzarbligi yana shu bilan bog'liqki, milliy va harakatli o'yinlarga bir qator holatlarda yetarlicha baho berilmaydi va har doim ham bolalarni tarbiyalashda munosib o'ringa ega bo'lmaydi masalan, arkon bilan sakrash. Maktabgacha jismoniy tarbiya tashkilotchilari oldida turgan turli xil

muammolar orasida 5-6 yoshli bolalarda harakat ko'nikmalarini tashkil etish masalasi alohida o'rinni egallaydi. Bu ular maktabga kelgach o'qish-o'rganishning yanada uyushgan darajasiga o'tishlari, jismoniy tarbiya darolarida yanada murakkab vazifalarni bajarishlari bilan bog'liq.

Tomsk shahridagi qator maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga boshlang'ich harakat texnikasini o'rgatish metodikasini qo'llash bo'yicha olib borilgan kuzatishlarning ko'rsatishicha, bunga ketadigan vaqtning bir qismi oqilona sarflanmaydi. Shu munosabat bilan Tomskdagi № 63, xamda № 21-sonli maktabgacha ta'lim muassasalari bazasida tadqiqot o'tkazildi. Unda olti yoshli bolalarni harakat texnikasiga o'rgatishda yuklamani oqilona taqsimlash bo'yicha 160 ta o'g'il va qiz bolalar ishtirok etdilar.

Tadqiqot natijasida olti yoshli bolalarga bitta mashg'ulotda beshta harakat ko'nikmasini o'rgatish harakatlarning o'xshash jihatlari bo'lgandagina mumkinligi aniqlandi. Olti yoshlilarning harakatlar texnikasini o'zlashtirishi mashg'ulotlar jarayonida ularni takrorlashga bog'liq. Harakatlanish tartibini 10 dan ortiq takrorlash orqali o'rganish bolalardan katta psixologik va amaliy kuch sarflashni talab qiladi. Bitta jismoniy tarbiya mashg'uloti jarayonida o'xshash tuzilishga ega bo'lgan 5 ta harakat ko'nikmasini o'rganish mumkin. Biroq kamida 4 marta takrorlash bilan 2-3 tadan ortiq bo'lmagan elementni o'rganish yetarli hisoblanadi.

I.P. Voloshinaning tajriba ishida umumiy ta'lim dasturi doirasini salomatlik darsi, musiqa mashg'uloti, ashulaga mos harakatlanish, ertalabki gigiyenik badantarbiya vaqtida va uyqudan keyingi ovozli harakatlanish va musiqaviy daqiqa bilan to'ldirib kengaytirdi. Olingan natijalar tajriba metodikasi ijobiy natija berdi, degan xulosaga kelish imkonini berdi: (tajriba guruhi) dagi 79,5% bolalar eng maqbul darajadagi harakat faolligiga ega.

Moskva shahrining janubi G'arbiy okrugidagi «Futbol o'quv-sog'lomlashtirish markazi» nodavlat ta'lim muassasasining № 1286, № 1141-sonli bolalar bog'chalari bazasida ertalabki badantarbiya, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, musiqa mashg'ulotlari, musiqa jo'rliqidagi ritmik harakatlar, harakatli o'yinlar bilan bog'liq sayrlar, psixolog bilan o'yin terapiyasi mashg'ulotlari, uyqudan uyg'otish gimnastikasi, barmoqlar bilan mashq qilish, mutaxassislarning ko'rsatmasi bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlarni o'z ichiga oluvchi maktabgacha tarbiya yoshidagi darajada yaxshilandi

Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasalari ish tajribasi tahlilining ko'rsatishicha, ko'plab o'yinlar, mashg'ulotlar, maishiy

tadbirlar kamharakatlilik xususiyatiga ega, buning oqibatida gipodinamika muammosi yuzaga keldi, u maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar sog'ligiga halokatli ta'sir qiladi A.I.Kravchuk harakatli o'yinlarni tashkil etish jarayonida harakatlanishni tarbiyalashda ularni tasnifladi: bular tirmashish, sakrash, yurish, koptokni ilish, yugurish, irg'itish bilan bog'liq o'yinlar.

Tadqiqotchi Y.A.Kirilova maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning harakat faolligini oshirish uchun tajriba guruhidagi bolalar bilan 2 marta-ertalab va kechqurun 25 daqiqa davomida qo'shimcha jismoniy ta'lim mashg'ulotlaridan foydalandi. Tekshirilayotgan davrda bolalarning nafaqat jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari, balki ularning salomatlik ko'rsatkichlari ham yaxshilandi. Biroq muallif bu mashg'ulotlar mazmunini keltirmaydi. Y.N.Chernishenko, V.A.Bolondin. ijtimoiy sport tadqiqotlar natijasida 6-10 yoshli bolalar uchun har xil sport turlarining muhimligini aniqladilar. 6 yoshli bolalarning eng ommaviy mashg'ulot turi sport yo'nalishidagi, harakatli o'yinlar ekanligi ma'lum bo'ldi. Ular bilan 44,6% o'g'il bolalar va 25,6% qiz bolalar shug'ullanadi. Yosh o'sib borishi bilan bolalarning sport o'yinlariga nisbatan qiziqishlari saqlanib qoladi va 10 yoshda ular bilan 40,3% o'g'il bolalar hamda 26,2% qiz bolalar shug'ullanadilar yoki shug'ullanishni xohlaydilar.

G.N. Golubeva kuzatuvlarga asoslanib, bolaning atrof muhit sharoitlariga moslashishining asosiy davrlarini shakllantirdi.

Bu davrlar orasida quyidagilar alohida ajralib turadi: kontenatal, yangi tug'ilgan davr, hayotining birinchi yili, maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnay boshlagan davr va maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim berish jarayoni. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, harakat faolligini kuchaytirishda tajriba guruhida quyidagilardan foydalanilganda ta'lim jarayonida ko'rsatkichlarning sezilarli yaxshilanishi yuz beradi:

a) dinamik holatlar tartibidan: mustaqil holatlar faoligining ortishi; mashg'ulotlarning alohida va umumiy nutqiy aniqligi; diqqat darajasining yaxshilanishi;

b) G.Domanning qo'l panjalari mosligini yaxshilash metodikasidan: asab tizimining muvofiqlashgan vazifasi, qo'llarning kuchi, bukiluvchanlikning ortishi;

v) 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni jismoniy tarbiya jarayonida ishlab chiqilgan konsepsiyani amalda ro'yobga chiqarish quyidagilarni taqozo qiladi:

- harakat faolligi darajasining o'ziga xosligi va harakatchanlik turini hisobga oluvchi individual tabaqalashtirilgan yondashuv;

- rivojlantiruvchi jismoniy tarbiya — sport muhitini faol harakat tartibining asosiy qo'zg'atuvchisi sifatida yaratish.

Muallif maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ta'lim berish davrlarida 5-6 yoshli bolalar bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya sport ishlarining samaradorligini oshirishda qanday vositalardan foydalanish kerakligini ko'rsatmaydi.

Tatariston Respublikasi maktabgacha ta'lim muassasalarining tayyorlov guruhlarida tarkibiga tatar tili, jismoniy tarbiya, rasm, nutq o'stirish, matematika, musiqa, yasash va qurish kabi mashg'ulotlar ham kiradigan umumiy ta'lim dasturidan foydalaniladi. V.A.Balondin bolalarni kuzatish jarayonida ta'limchilardan so'rov yo'li bilan kun davomida 3 turdagi harakat faolligini aniqladi, bular: shiddatli-davriy, nafis va zo'raki. M.A.Qurbonovning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh voleybolchilarni tanlash va mashq qildirishda xalq harakatli o'yinlaridan foydalanish maqsadida o'tkazgan tadqiqotlari natijasida harakatlarning tuzilishi jihatidan eng yaqin o'ziga xos faoliyat va voleybol bo'yicha 5 ta o'yin tanlab olindi. Y.CH.Daniyeva I-II bosqich talabalarining jismoniy tarbiya darsida xalq harakatli o'yinlarni qo'llash samaradarligini ochib bergan B.B. Kipchakov, B.U. Barakayevlarning adabiyotlar tahliliga asoslanib, tajribali murabbiylar bolalar va o'smirlarni tanlashda o'yin-testlarni mohirlik bilan qo'llab kelayotganliklarini ta'kidladilar.

Jismoniy tayyorgarlik salomatlikning va ishchanlikning asosiy belgisi bo'lib uni tarbiyalash yo'llari ko'p qirralidir. Shuning uchun bir guruh olimlar A. Arifboyev, A.K.Atayev, R.A. Belov, B.V.Serlayev, R.X.Kodirov ], bolalarning jismoniy tayyorgarligini, salomatligini, oila xayotining xolati, bolaga nisbatan oilada bo'lgan munosabat, bolalarning iqtisodiy muhit bilan bog'liqligini ko'rsatib o'tadilar.

Asosiy qism. T.S. Usmonxo'jayev K.M. Maxkamdjonov, F.Xo'jayevlar fikricha jismoniy tarbiya darsi maktabda o'quv-tarbiyaviy jarayonning va umumiy tartibning asosiy qismi bo'lib, kun tartibda, katta tanafusda, kuni uzaytirilgan guruhlarda harakatli o'yinlarning ahamiyati katta. Ular bolalar orasida do'stlikni mustaxkamlaydi, axlokiy tarbiyani shakllantiradi, bir-biri bilan bo'lgan munosabatni yaxshilaydi, ularning xarakter faolligini va qizikishini oshiradi.

Harakatli o'yinlarni tanlash va tashkil etishda jamoali do'stlik munosabatini shakllantiradigan o'yinlarni saralab olish lozim. Bu esa bolalarni jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini yaxshilaydi. T.Usmonxujayev Y.Oripov D.D.Sharipova o'tkazilgan ilmiy ishlari bo'yicha ham bolalarda xarakter faolligini oshirish uchun jismoniy sifatlarni kuch, tezkorlik, chakkonlik, chidamlilikni rivojlantirishga qaratilganidir. Xarakter sifatlarini tarbiyalada va rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar o'yin tarzda o'tkaziladi, bunda bolalarda

qiziqish, faollik, maqsadga intilish oshadi, ko'rsatilgan natijalar yuqori bo'ladi. Bu mashg'ulotlarni imkoni boricha tashkarida, ochiq havoda o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

M.M. Barkoshev o'tkazilgan ilmiy tadqiqot ishi Qirg'iz Respublikasining janubidagi maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash metodikasini uzgachaliklarini ochib bergan .

Keyingi yillarda ekologiyaning salbiy ta'siri natijasida kichik va katta yoshdagi xalk orasida kasallik kupayib uzok umr kurish kamayib bormokda.

Sog'lomlashtirishni muhofaza qilish tadbirlariga eng avvalo jismoniy mashklar bilan muntazam shug'ullanish, ular bilan do'stlashish, mustaqillikni tarbiyalash, ommaviy jismoniy sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish va doimiy an'analarga aylantirish kiradi, Buning uchun shunday tarbiyani eng kichik yoshdan boshlash lozim.

Adabiyotlar taxlili jismoniy tarbiyaning ko'p qirraliligini ko'rsatadi, uning samaradorligini oshirish xaqida fikrlar xam turli-tumandir.

Bir kator olimlar jismoniy tarbiyaning tibbiy- pedagogik muammolariga katta e'tibor bilan qarab ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Bu to'plagan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bolalar jismoniy rivojlanish xolatini iqlim sharoit, region, urf-odatlarini aniqlashga ko'maklashadi, ularni hisobga olgan holda jismoniy tarbiya tizimida xalq va milliy o'yinlarni musobaqa shaklga olib kelish, bolalar organizmining rivojlanishiga yordam beradi hamda bolalar oldiga yangi talablar qo'yish imkoniyatlar yaratadi.

Bulardan tashqari bolalarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi sathini aniqlashda nafaqat region va iqlim sharoit balki yil faslini xam hisobga olgan holda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiya masalalarini rejalashtirish lozim.

Jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik salomatlikning asosiy omillaridan bo'lib ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan. Masalan: X.A. Meliyev . O'zbekistonning hozirgi sharoitida maktabgacha va kuyi sinf yoshidagi bolalarning xarakat faoligini o'rganib borib, respublikaning tabiiy, iklimi va ijtimoyi xususiyatlarini fasllar almashinuvi, xarakatning keskin o'zgarishi kuyosh radiatsiyasining oshib ketishi, milliy urf-odatlar va xakozolar ko'rsatadiki, bularsiz o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash jarayonini rejalashtirish xamda amalga oshirish mumkin emas.

T.S. Usmonxo'jayev ko'rsatishicha, o'quvchilarga muntazam o'tkaziladigan jismoniy mashqlar , ularni xarakat faoligini darajasini oshiradi, u esa o'z navbatida bolalar organizmni rivojlanishi va o'sishini ta'minlaydi.

Ma'lumki bir yoshdagi bolalar jismoniy rivojlanish va harakat tayyorgarlik satxi bo'yicha bir-biridan farq qilishlari mumkin. Bunday individual farq qilishining omillariga salomatlik xolati, o'sish tezligi, jismoniy xolati, harakat faolligini tarkibi va boshqalar kiradi.

Ayrim olimlar A.G.Kolegov, YE.V.Antipova R.N. Belyakova YE.P. Suxaryov, T.S.Usmonxo'jayev o'quvchilar jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini atrof-muhitga bog'lik.

Boshqa olimlar N.N.Miklashevskaya, R.N.Doroxov L.V.Volkov X. Soliyevtana uzunligini o'sishi xaqida ilmiy ishlar olib borgan va ularning fikricha tananing o'sish jarayoni bir xil emas, balki yildan yilga kesgin o'zgarib boradi.

Jismoniy rivojlanish ko'prok tashki muhit ta'siri ostida bo'lib, rivojlanish jarayonini salbiy yoki ijobiy tomonga o'zgarilishi mumkin.

N.V.Meredith ma'lumotiga ko'ra bolalarning bir asrlik (1860-1960) o'zgarishi xar o'n yil ichida o'g'il bolalar 10 yoshda va qiz bolalar 8 yoshda 1,3 sm.ga qo'shildi. O'smirlik yoshida bu ko'rsatkich 14 yoshli bolalarda va 12 yoshli kiz bolalarda 1,3 sm.ni tashkil qildi. Shunday kilib 100 yil ichida o'smirlar gavda uzunligi 19 sm.ga uzaydi.

Uchinchi gurux olimlar A.A. Gujalovskiy, V.M. Zatsiorskiy V.P.Filin, N.A. Fomin V.A. Ashmarin A.G.Suxaryov E A. Seytxalilov o'tkazishgan tadqiqotlaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, yoshiga nisbatan jismoniy sifatlarni rivojlanishi notekisdir, ya'ni bir xil emas.

Harakatli o'yinlardan bolalar, o'smirlar va yoshlarni umumiy jismoniy rivojlantirishdagi kabi, ayrim sport turlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallash va takomillashtirishda ham foydalanish mumkin.

Harakatli o'yinlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi, aql-idroki, tasavvuri, fantaziyasi takomillashadi.

Ijodiy faoliyat sifatida harakatli o'yinlar nafaqat bolalarning harakatga bo'lgan tabiiy ehtiyojini amalga oshiradi, balki harakat masalasining to'g'ri yechimini topish malakasini tarbiyalaydi. O'yin yordamida bola nafaqat atrof olamni bilib oladi, balki uni kashf etadi.

L.N.Smirnova, R.S.Salomovlar harakatli o'yinlar mazmunini o'rganib, ularning bir nechta turga ajratdilar:

1. «Tuzoq» tipidagi o'yinlar jon-jahd bilan o'ynashga, yo'lga qo'yilgan harakatlanish tajribasiga, qoidalarga aniq rioya qilishga asoslangan bo'lib, o'yin harakatlarining samaradorligini ta'minlaydi, ruhiy-jismoniy sifatlarni rivojlantiradi.

2. Harakatni talab qiluvchi yoki o'yin mazmuniga ko'ra harakatlarni juda tez to'xtatishga asoslangan o'yinlar yakka va jamoa ijodini rivojlantirishga yordam beradi («Joyingda to'xta»), «Daryo

chayqalmoqda»)). Bunday o'yinlar bolaga o'z tanasini noodatiy va notabiiy holatlarda his qilish imkonini beradi, bunday turdagi o'yinlar iroda, diqqat, harakatlanish fikri va hissini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, ular momik va yirik muskullarini mashq qildiradi, bu esa, olimlarning isbotlashlaricha, endokrinlar (shodlik garmonlari) ajralib chiqishiga yordam beradi, ular esa o'z navbatida organizmning holati va faoliyatini yaxshilaydi.

3. Harakatlarning muvofiqligini rivojlantiruvchi koptok bilan o'ynaladigan o'yinlar, bosh miyaning rivojlanishiga yordam beruvchi qo'l panjalari. Bunday o'yinlarni o'ynayotganda bola turli-tuman harakatlarni bajaradi: mo'ljalga otadi, urib qaytaradi, irg'itadi, bu harakatlarni qarsak chalib, aylanib bajaradi.

4. Musobaqa elementlari bo'lgan o'yinlar va o'yin-estafetalar o'yin qatnashchilariga katta talablar qo'yadi. Bunda o'yin faoliyati hakamlar yordamida to'g'ri va haqqoniy baholanadi.

5. Analizator tizimlarni takomillashtirishga yordam beruvchi, sensor reaksiyalarni amalga oshiruvchi o'yinlar, masalan: «Ko'z bog'lash», «Ovozidan top», «Qayerda jiringlayapti».

D.B. Elkonin harakatli o'yinlarni 5 guruhga ajratadi:

1. O'xshatma-protsessual o'yinlar va buyumlar bilan o'ynaladigan o'yin-mashqlar.

2. Ma'lum syujet asosida dramalashtirilgan o'yinlar.

3. Murakkab bo'lmagan qoidali syujetli o'yinlar.

4. Syujetsiz qoidali o'yinlar.

5. Ma'lum yutuqqa qaratilgan sport o'yinlari va o'yin-mashqlar (1-jadval).

1.1-jadval

O'yin guruhlariga yosh bo'yicha taqsimlash

O'yin guruhi	Yoshi					
	3-4		5-6		7-8	
	Soni	%	Soni	%	Soni	%
Birinci	3	20	1	2	-	-
Ikkinchi	8	53	5	11	2	3
Uchinchi	3	20	18	39	22	29
To'rtinchi	1	7	22	48	42	55
Beshinchi	-	-	-	-	10	13
Hamma uchun uchun	15	100	46	100	76	100

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta ta'lim Vazirligi va Respublika metodika kabineti tomonidan tasdiqlangan, K.M.

Mahkamjonov, F.K. Nasriddinov, L.M.Semyonova, M.I.Islomova, SH.S.Mirzamahmudovlardan iborat mualliflar guruhi tomonidan tayyorlangan nashr etilgan Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya bo'yicha namunaviy dasturda 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan har bir yosh uchun jismoniy rivojlanish va harakat tayyorgarligi ko'rsatkichlari yetarlicha to'liq ko'rsatilgan hamda ularni 1 dan 10 gacha ball tizimidan foydalanib baholash tavsiya etilgan, bu esa yetarlicha yuqori baholashdir.

Shu bilan birga, dasturda mashq estafetalar ham berilgan, lekin harakatli va milliy o'yinlardan jismoniy tarbiya tizimida foydalanish haqida hech narsa deyilmagan. Zero, o'yin faoliyati ayniqsa 5-6 maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda harakat faolligining asosiy shakli hisoblanadi, 6 yoshli bolani maktab jismoniy tarbiya tizimiga tayyorlashda uning ahamiyati yanada ortadi.

O'zbekiston sharoitida yashayotgan bolalarning jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik ko'rsatkichlari boshqa mintakalardagi sobiq SSSR bo'yicha tengdoshlariga nisbatan pastdir. A.K.Atoyev, O.A.Rixsiyeva, O.M.Jegallo G.D.Arslonova, Y.Y.Aripov, K.M.Maxkamdjonov, T.S.Usmonxujayev, X A.Meliyev, X.N.Radjabov, SH.X.Xonkeldiyev, A.T.Sodiko, G'.M.Salimov, R Kodirov, F.N.Nasriddinov, L.N.Seytlina, N.Nazirov. Ko'plab olimlar ko'rsatishicha, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi 5-6 yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyadagi kamchiliklar hal qilinmagan masalalar majmua bilan izohlanadiki, bular: moddiy-texnika bazasining kuchsizligi, pedagog kadrlar kasbiy tayyorgarligining yetarli emasligi, jismoniy sog'lomlashtirish ishlarining mazmuni va shakli, metodik adabiyotlar ishlab chiqishning kuchsizligi kabilardir.

Bayon etilganlar asosida 5-6 yoshdagi bolalar o'rtasida olib boriladigan sport-sog'lomlashtirish ishida ularning salomatliklarini yaxshilashni tarbiyalovchi milliy va harakatli o'yinlardan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib borish kerak.

Shuni ta'kidlash muhimki, o'yinlarga qo'yiladigan asosiy talab ularning ma'lum darajasidagi murakkablikda bo'lishi. Vazifa juda oson bo'lmasligi kerak, u maktabgacha tarbiya yoshidagi bola uchun yetarlicha murakkab bo'lishi lozim. Faqat faol harakatlanish jarayonidagina, qiyinchiliklarni yengishda bolalar zarur jismoniy tayyorgarlikka ega bo'ladilar, bular sport yo'nalishidagi harakatli o'yinlar hisoblanadi.

Tatariston Respublikasining yoshlar, sport va turizm ishlari bo'yicha vaziri M.M. Bariyevning fikriga ko'ra [2009], bolalar va maktab o'quvchilarining maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishlari jismoniy tarbiya daqiqalari, harakatli



o'yinlar, qo'shimcha mashg'ulotlar kabi turli shakllarda kundalik va majburiy bo'lishi kerak.

Naberejniye Chelni shahridagi maktabgacha ta'lim muassasalarida 2006 yildan boshlab Pedagogika instituti talabalarini jalb qilgan holda bolalar bilan jismoniy tarbiya bo'yicha beshta mashg'ulot o'tkazilmoqda.

V.N. Zolotov, Z.M. Kuznetsovlardan iborat mualliflar guruhi tomonidan 5-6 yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya jarayonida sinxron suzish bo'yicha «Flamingo» innovatsion dasturi tatbiq etildi, u jismoniy va ruhiy rivojlanishning uyg'unlashuvini ta'minlash, mushaklarning va emotsional qoniqishdan iborat motivatsion lazzatlanishni hosil qilish, jismoniy va funksional imkoniyatlarni oshirish, bola salomatligi manbalarini ko'paytirishga imkon beradi.

Tadqiqotlar Naberejniye Chelni shahridagi № 19-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi va «Shatlik» nomli №1-sonli bolalar bog'chasi bazasida o'tkazildi

amaliy tavsiyalar maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash jarayonida harakatli o'yinlarga bo'lgan e'tiborni sport mashg'ulotlari foydasiga pasaytirish maqsadga muvofiq emas. Ularni tabaqalashtirib aniq yo'nalishga muvofiq: alohida jismoniy sifatlar va psixik jarayonlarni, shuningdek, ularni o'zaro aloqador ravishda qo'llagan ma'qul.

Bunda ulardan maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash amaliyotida foydalanishda quyidagi xususiyatlarni nazarda tutish kerak.

Xar bir jismoniy sifatni rivojlantirish besh hafta mobaynida amalga oshirilishi tavsiya etiladi. Bu vaqt orasida bolalar u yoki bu harakatli o'yinni kamida 12 marta qo'llab ko'rishlari shart. Bolalarning kun tartibiga harakatli o'yinlar ko'pi bilan 2-3 marta (ertalab va kechqurun yoki ertalab, kunduzi va kechqurun) kiritiladi. Bunda har bir o'yin 3 dan 5 martagacha ketma-ket kichkina tanaffus bilan bajariladi.

Jismoniy sifatlar rivojlanish darajasini baholash maqsadida nazorat testi o'tkaziladi. Keyin ilgari rejani takrorlash boshlanadi, lekin endi boshqa harakatli o'yinlar guruhlari bilan. Shunday qilib, barcha jismoniy sifatlarni qamrab oladigan jarayon nazorat sinovlarini ham inobatga olganda ko'pi bilan 6-8 oyni tashkil etadi.

Xulosa. Nazariy tahlil, pedagogik testlash asosida Buxoro shahri maktabgacha tarbiya muassasalarida jismoniy mashg'ulotlarning mavjud yo'nalishi hamda amaliyotiga bolalarning harakat potentsiallarini rivojlantirishga urg'u bergan holda o'zgarishlar kiritish zarurati mavjudligi aniqlandi. Shu maqsadda 3-6 yoshli bolalarning jismoniy sifatlarini maqsadli rivojlantirish texnologiyasi ishlab chiqildi.

-Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, barcha jismoniy sifatlar



o'zgarishlarining tabiiy yosh xususiyatlarini saqlab qolishgina emas, ayrim hollarda hatto bu jarayonni tezlashtirishga ham erishildi. Bu ko'proq darajada chaqqonlik va egiluvchanlikning rivojlanishiga, kamroq chidamlilik, kuch va tezkorlikning rivojlanishiga taalluqlidir.

- Maktabgacha tarbiya muassasalaridagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida tabaqalashtirilgan harakatli o'yinlarni qo'llash texnologiyasi 3-6 yoshli bolalarning harakat potentsiallarini, jismoniy tayyorgarligi potentsiallarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularni kichik maktab yoshi davriga o'tish uchun tayyorlash sifatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik A. Abdullaev tahriri ostida. 2001.

Qurbonov Sh., Qurbonov A. Jismoniy mashqlarning fiziologik asoslari. T., "OAJBNT" markazi. 2003.

Абдуллаев М.Ж., Олимов М.С., Тўхтабоев Н.Т. Енгил атлетика ва уни ўқитиш методикаси. Дарслик. "Баркамол файз медиа" нашриёти Тошкент-2017 й. 620 бет

Safojev H. A. *Academynauchno – metodicheskiy jurnal.* – Moskva. 2020g. Mart, –№ 3 (54). S.82-83

**АБДУЛЛА ОРИПОВНИНГ «СОҲИБҚИРОН» ДОСТОНИ  
- ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА МИЛЛИЙ ҒУРУР ВА ИФТИХОР  
ТУЙҒУСИНИ ШАКЛЛАНТИРУВЧИ ВОСИТА СИФАТИДА**

*Атамуродова Роҳила Қаришевна*

*Жиззах Давлат Педагогика университети доценти*

---

*Аннотация: Мазкур мақолада А.Ориповнинг “Соҳибқирон” достони таълимотида миллий ғурур туйғусини шакллантириши масаласи муҳокама қилинади.*

*Таянч сўзлар: Таълим, тарбия, миллий ғурур, ирода, мардлик, жасорат, ватанпарварлик, тафаккур, ақл-заковат, юксак инсоний туйғулар, ватанпарварлик, бунёдкорлик.*

**THE EPIC OF ABDULLA ARIPOV «SAKHIBKIRON» AS A  
MEANS OF FORMING A SENSE OF NATIONAL PRIDE IN  
THE EDUCATIONAL PROCESS**

*Atamurodova Rokhila Qarshievna*

*Associate professor of Jizzakh State Pedagogical University*

---

*Annotation: This article discusses the issue of forming a sense of national pride in the teachings of A. Aripov's epic «Sakhibkiron».*

*Key words: education, upbringing, national pride, will, courage, courage, patriotism, thinking, intellect, high human feelings, patriotism, creativity.*

**ЭПОС АБДУЛЛЫ АРИПОВА «САХИБКИРОН»  
- КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА  
НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ  
ПРОЦЕССЕ**

*Атамуродова Роҳила Қаришевна*

*доцент Джизакского государственного педагогического  
университета*

---

*Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос формирования чувства национальной гордости в учении эпоса А. Арипова «Сахибқирон».*

*Ключевые слова: образование, воспитание, национальная гордость, воля, мужество, отвага, патриотизм, мышление, интеллект, высокие человеческие чувства, патриотизм, творчество.*

Халқимиз қалбида миллий ғурур туйғуларини улғайтириш, ёшлар онги ва кўнглида ватанпарварлик ҳисларини кучайтириш мақсадида тарихий илмий асарлар билан бир қаторда Амир Темур тўғрисида яратилган адабий-бадий асарлар ҳам муҳим аҳамиятга эга. Булардан, Абдулла Ориповнинг беш пардали «Соҳибқирон» драматик достони ва атоқли адиб О.Ёқубовнинг «Фотиҳи музаффар ёхуд бир париваш қиссаси» пьесаси қиссаси алоҳида ажралиб туради. Чунки ушбу асарларда тарихий давр мураккабликлари ҳаққоний акс этирилган бўлиб, Амир Темур образи реал ҳаёт кишиси сифатида гавдалантирилган.

Хусусан, Шоир Абдулла Орипов «Соҳибқирон» драматик достонидан юз берган реал ҳодисаларни таянч манба сифатида танлаб, Амир Ҳусайн, Елдириш Боязид, Бибиҳоним, Улуғбек, Хонзодабегим, Улжой Туркон, ибн Арабшоҳ, Ҳофиз Шерозий, аҳмад Яссавий, Испания элчиси Клавихо сингари тарихий шахслар образларини ҳам киритганки, улар муайян воқеалар ичида Соҳибқирон қиёфасини очишга хизмат қилади. Драмада тарих ҳақиқатига мувофиқ баҳс-мунозаралар, мулоқотлар орқали Соҳибқироннинг адолатга садоқати, бекиёс инсонпарвар, юртпарвар зот бўлгани жонлантирилган. Ўтмиш ҳодисаларини мавжуд ҳақиқати билан бу тарзда бадий манзаралантириш эса таъсирчанликка эришишнинг энг самарали йўли саналади. Шу сасосда Амир Темур ўз хатти-ҳаракатини ҳамisha таҳлилу тафтиш этадиган, «Куч адолатда!» шиорига содиқ қолиб, ҳар ишда адолатга суяниб атрофдагилар билан маслаҳатлашадиган, донишманд сифтида гавдаланади.

«Бирор мушкул муаммони ҳал этар бўлсам,  
Кенгаш қилдик аҳли дину вазирлар билан,  
Кенгаш қилдик баҳодирлар, амирлар билан».

деган Амир Темурни Аҳмад Яссавий руҳи билан мулоқотга киргизиш орқали илму тафаккур қудрати ҳар қандай жисмоний кучдан устун эканлигини таъкидлашга хизмат қилган.

Натижада, Амир Темур дунё ишлари, чигалликлари, инсон қисмати мураккабликлари, одамларнинг турфа табиати ҳақида муттасил ўйлайдиган мутафаккир сифатида намоён этилган. Муаллиф драматик достонда қаҳрамон ички, коллезияларини кўрсатишга ҳаракат қилган. «Соҳибқирон» драматик достон бўлганлиги сабаби унда қаҳрамонлар қалбидаги ҳолатлар, ўз-ўзини инкор этиб азобланишлар жараёни айниқса таъсирчан чиққан. Драматик достон воқеалари Амир Темур билан Амир Ҳусайн тўқнашуви сахнасидан бошлаб авжланади. Амир

Хусайннинг қалбида Амир Темурга нисбатан чексиз адовт мавжуд. Уқувсиз Амир Хусайннинг фаросатсиз, калтабин, манфур қиёфаси китобхон қалбида нафрат уйғотса, соҳибқироннинг зийраклиги, мулоҳазакорлиги, вазиятга қараб иш тута олиши, адолатпарварлиги унга нисбатан хурмат эътиқод ҳисларини уйғотади. Воқеалар ривожда Амир Хусай пасткаш, очкўз, тубан шахс сифатида гавдаланиб боради. Ўлжой Туркон ва Соҳибқироннинг пок муҳаббат ришталари ёрқин бўёқда акс эттирилган.

Тарихан Амир Темур фаолиятининг жўғрофияси бениҳоя кенг. Уни банд қилган ва ечимига интилган муаммолар ҳам ҳисобсиз. Жаҳонгирнинг характер қирралари ҳам ранг-баранг. Абдулла Орипов бу кенгликлардан, муаммолардан, ранг-барангликлардан энг зарурларини, энг маънодорларини топган ва акс эттира олган. Асарни таҳлил қилишда ана шу муҳим нуқталар танлаб олиниши лозим.

Абдулла Орипов талқинида Темур ўз қилмишларини ўзи назорат қила оладиган бир шахс. Ўз иқрорига қараганда у онасидан шамшир билан туғилган эмас, ёшлигида йилқи боққан, қир ва адирларда шодон яйраган. Юлдузларга қараб байтлар битган. Бироқ бу шодонликлар узоқ давом этмаган. Йигитлик давридан бошлаб қисмат унинг қўлига қилич тутқазган. Аслида бу тарихий ҳақиқат эди. Асрлар давомида Туркистон чингизийлар зулми остида эзилди. Туроннинг мард ўғлонлари элини, юртини озод қилиш учун қўлга қурол олдилар, зулмга қарши курашда кўплари енгилди, қирилди. Зулм ва истибдод, босқинчилик Амир Темурни зарурат маҳсули сифатида шакллантирди. Шоир Соҳибқирон тилидан буни қуйидагича изоҳлайди:

«Мени мана кўриб турибсиз  
Боз устига фотих дея ном олган зотман.  
Одам қавми ўз қисматин саҳроларида  
Култум сувдек керак бўлдим шекилли унга.  
Чексиз чўлда инсоният карвони қақраб  
Бир-бирларин тепиб,  
Суриб, ғужгон бўлган пайт  
Мен уларни ипга тиздим  
Бир сарбон бўлиб», – дейди.

Абдулла Орипов талқинида, Амир Темурга қувват бериб турган куч бор. У ҳам бўлса Турон келажаги. У ҳар бир ватанпарвар инсон сингари ўз втанидан, она тупроғидан мадад олади. Шу маънода ҳаёти охирлаган чоғла дейди:

«Биз ким мулки турон  
Амири Туркистонмиз  
Биз ким – миллатларнинг  
Энг қадми ва энг улуғи  
Туркистоннинг бош бўғинимиз!».

Қанчадан-қанча ғурур, қанчадан-қанча қаноат, ифтихор бор бу сўзларда. Соҳибқироннинг ушбу сўзлари ўқувчилар кўнглига, қалбига миллий ғурур ва ифтихор туйғуларини юктириши аниқ.

Асарнинг, хусусан, драматик дostonнинг қиммати кўпроқ ечимга боғлиқ. Ечим қай даражада маънодор, қай даражада ҳаётий бўлса, асар шу даражада мукамаллик касб этади. Бир зум юқорида қайд қилинган Темур фаолиятга тегишли воқеаларни ҳаёдан ўтказайлик. Агар муаллиф тарихий воқеаларнигина тасвирлаганда асар ўқувчилар диққатини буткул жалб қилмаган бўларди. Бадиий баркамол асарлар, тарихий буюк шахслар образини ўрганиш орқали ўқувчилар улуғ инсонлар дунёсини, қалби, кураш-интилишлари мазмунини англаб, ҳаётий хулосалар чиқаришга ўрганадилар.

Абдулла Орипов Темурни ўз йўлининг тўғри-нотўғрилигини аниқлашга тинмай уринадиган, босган ҳар бир қадами хусусида фикр юритадиган, ўз хатосини муттасил сарҳисоб этадиган киши сифатида тасвирлаган. Шунинг учун ҳам Темурнинг: «Унутмагил музаффарман ҳақлигим учун», – деган сўзлари китобхонга қаҳрамон фикрлаш тарзининг мантикий ҳосиласидай таъсир қилади.

Дарҳақиқат, муаллиф асар бош қаҳрамонини ўйлар оғушида акс эттириш орқали унинг маънавий дунёсини, руҳиятини кенг кўламли тасвирлашга эришган. Темур хато қилиб, ноҳақ қон тўкилишдан, бировларнинг умрига зомин бўлишдангина қўрққан. Аммо ўзини буюк бир тарихий миссиянинг ижрочиси деб билади ва ҳар қандай иллатлар билан аёвсиз курашади.

«Нега кўпдир найрангбозу каззоб кимсалар?

Нега босган ер юзини бунча кўп иллат?

Мен заминни тозалашим керак улардан»

Жаҳонгир жанговар юришларида доим бирор халққа қарши эмас, балки ёвуз ҳукмдорга қарши қўшин тортади. Шу тариқа, муаллиф Соҳибқирон фаолиятининг ахлоқий асосларини ёритишга эришган. Амир Темурнинг Аҳмад Яссавий билан учрашуви асарнинг энг таъсирли ўринларидан биридир. Нима учун? Чунки бу эпизод орқали Амир Темурнинг ўз хатти-ҳаракатларига маънавий асос қидираётганлиги акс этади. Улуғ пирнинг «Айтчи Темур, сен бесабаб қон тўкканмисан?» – деган сўровига жавоб бериш

жаҳонгир учун осон кечмайди.

Дунёда банда томонидан куч билан адолат ўрнатилиши шубҳали эканлиги буюк сўфийнинг:

«Ният қанча жозибали бўлса ҳам Темур

Қилич билан мурод ҳосил бўлмоғи гумон», – деган сўзларида ифода э.

Темур Хитой томон лашкар тортиш арафасида. Тун. У ўзи қурдирган Яссавийнинг мақбараси олдида авлиёнинг руҳидан оқ фотиҳа олмоқчи. Шу ўринда пайдо бўлиб қолган Ҳазрати Ҳизр ва унинг қиёфасида алмашилиб намоён бўлган Яссавий тимсолини кўрган Темур ҳолати ўқувчи-китобхонни ҳаяжонга солади. Асарнинг юқоридаги қисмларидан маълумки, Амир Темур барча азиз авлиёлар ичида кўпроқ Яссавийни эътироф этган. Умр бўйи уни қийнаб келаётган муаммолар ечими шу ерда, яъни Яссавий ҳузурида ҳал бўлиши керак. Темур адолат учун жангу жадал отига минган. Шу йўлда у кўплаб шаҳарларни, эл-юртларни қўлга киритган жаҳонгир.

Бироқ умрини бағишлаган жангу жадалларни катта олов тарзида тасаввур қилайлик. Бу оловда хўлу-қуруқ баробар ёнган. Айрим ҳолларда бегуноҳ одамларнинг ҳам қони тўкилган. Буни Амир Темур яхши билади. Энди умри охирида Соҳибқирон ўз умрини сарҳисоб қилади. Демак, беқиёс ирода билан етук тафаккур кучи бирлашган.

«Тинсиз жангу жадал билан ўтди ҳаётим,

Балки қанча умрларга зомин бўлганман.

Охиратда этагимдан тутмасми улар?»

Икки улуғ сиймо, икки фалсафа. Бири адолат учун юриш қилади, қилич кўтаради. Бу йўлни бирдан-бир тўғри йўл деб тушунади.

Иккинчиси, инсониятни инсофга чақиради. Унинг қиличи ҳам, лашкари ҳам битта – сўз, панду насиҳат. Сўз билан у кўнгилларни забт этишга даъват қилади. Сон-саноксиз қўшинлар амалга ошира олмаган эзгу ишларни бошқармоқ учун инсофу адолат тантанаси; – нафсни енгиш, комилликка эришиш лозиктиради. Темур эса ўз ақидаларидан бир қадам ҳам силжимоқчи эмас. Агар у маҳв этмаса, уни маҳв этадилар. У Яссавийдан мадад сўраяпти, холос. Иккинчидан, улуғ пир ўз ақидаларига содиқ Темурни йўлдан қайтармоқчи. Адолат учун қон тўкиб, озгина бўлса ҳам адолатсизликка йўл қўйишга қаршилиқ қилмоқда. Шу тахлит Яссавий ҳазратлари Темурни охирги сафаридан қайтармоқчи. Бироқ Темур бамисоли арслон. У сўзидан ҳам, йўлидан ҳам

қайтмоқчи эмас.

is spoken. The term communication shouldn't be construed narrowly, purely on a pragmatic basis. «Communication-Bim is bringing personality to the spiritual values of other cultures through personal contact and through the reading. This approach, implemented in the Internet attracts learners by focusing on topics of interest to them and giving them a choice of texts and tasks to achieve the goals of the program. The communicative ability of the learners is increased through the Internet by involving them in a wide range of meaningful, realistic, meaningful and achievable targets, successful completion of which is gratifying and boosts their confidence.

The Internet can be used as effective applications for the development of the grammatical, lexical skills knowledge test. This includes all sorts of training lexical, grammatical, phonetic exercises, reading, grammar, tests, IQ tests, etc., Teachers or pupils themselves can find such sites.

The biggest advantage of using Internet resources is the development of intercultural competence, i.e., getting to know different cultures, identify ways they interact and overlap each other, the formation of cultural universal, necessary to achieve mutual understanding and fruitful cooperation with the direct communication.

The Internet has tremendous potential as a tool for teaching and learning foreign languages. Network-based technology can contribute significantly to:

1. **Experiential Learning.** The World Wide Web makes it possible for students to tackle a huge amount of human experience. In such a way, they can learn by doing things themselves. They become the creators not just the receivers of knowledge. Information is presented in a non-linear way and users develop more flexible thinking skills and choose what to explore.

2. **Motivation:** Computers are most popular among students as they are often associated with fun and games. Student motivation is therefore increased, especially whenever a variety of activities are offered. This in turn makes students feel more independent.

3. **Enhanced student achievement:** Network-based instruction can help pupils strengthen their linguistic skills by positively affecting their attitude towards learning and by helping them build self-instruction strategies and promote their self-confidence.

4. **Authentic materials for study:** All students can use various resources of authentic reading materials either at school or from their home. Those materials can be accessed 24 hours a day at a relatively low cost.

5. **Individualization.** Shy or inhibited students can be greatly benefited by individualized, student-centered collaborative learning. High fliers can also realize their full potential without preventing their peers from working at their own pace.

6. **Independence from a single source of information:** Although students can still use their books, they are presented with opportunities to escape from canned knowledge and discover thousands of information sources. As a result, their education fulfils the need for interdisciplinary learning in a multicultural world.

7. **Global Understanding:** A foreign language is studied in a cultural context. In a world where the use of the Internet becomes more and more widespread, an English Language teacher's duty is to facilitate students' access to the web and make them feel like citizens of a global classroom,

practicing communication on a global level.

8. Greater Interaction. Random access to Web pages breaks the linear flow of instruction. By sending E-mail and joining newsgroups, EFL students can communicate with people they have never met. They can also interact with their own classmates. Furthermore, some Internet activities give students positive and negative feedback by automatically correcting their on line exercises. [8]

As a professional teacher you can bring a lot of exercises on a situational basis, as well as on the Internet provide us with graphics (static or dynamic) and sound information. Here on these opportunities on the Internet and we will calculate the analysis of possible ways to use resources and network services in the foreign language lessons and in extra-curricular activities of students. The rest should solve technology training.

We list these features:

- if your computer has a sound card, then we can write (with certain specifications), audio information (speech of political and public figures, interesting presentations on various topics of native speakers on various issues), reducing it to the desired limits on your recorder;
- held in cooperation discussion groups for the discussing a problem with the information obtained from the Internet network resources, and then arrange a general discussion of the entire class;
- conduct linguistic analysis of certain oral or written statements of speakers containing idioms, realities, idioms, proverbs, sayings, neologisms that reflect the specifics of the functioning of the target language in the culture of the people;
- use at least fragmentary artistic works of authors studied the language of the country, resulting in the virtual library. This is especially beneficial material for all kinds of projects, discussions;
- use of electronic grammar reference materials offered in these exercises, and vocabulary guides, dictionaries, directories regional geographic nature, materials of distance learning courses available in the public domain to be included in the lesson.

Result and analysis. We, together with our fellow Kazakhs like Kayrat and Umida, made experiment among students of 9th grade of the gymnasium in our city to determine the features of Internet resources in the learning process of Foreign Languages and develop their all language learning skills. Our experiments lasted for about 5 months (II and III semester). Finally, we have such amazing results.

Table 1. Indicators of academic progress of the English language by marks taken from the tests (II semester):

Grade	9 <sup>A</sup> grade students	9 <sup>B</sup> grade students	9 <sup>C</sup> grade students
The number of students	13	13	13
«excellent» mark	1	1	4
«good» mark	8	9	8
«satisfied» mark	4	3	1
«unsatisfied» mark	0	0	0

Table 2. Indicators of academic progress of the English language by

marks taken from the tests (III semester):

Grade	9 <sup>A</sup> grade students	9 <sup>B</sup> grade students	9 <sup>C</sup> grade students
<b>The number of students</b>	13	13	13
«excellent» mark	1	1	4
«good» mark	8	9	8
«satisfied» mark	4	3	1
«unsatisfied» mark	0	0	0

This experiment was held during II and III academic semesters in 2021-2022. According to the 9th grade study plan most of all lessons were given by help of school materials. In comparison with the result of III semester we can mention great differences in their results. In III semester students used to work with Internet-resources and easily improved their language learning skills such as listening, reading, vocabulary, grammar and speaking. They could develop their critical thinking abilities and easily manage all difficulties that they faced to during III semester. We see from the diagram that in the III semester the number of excellent and good leveled students increased.

Perhaps one of the most essential achievement according to the experiment result is the study of language in a cultural context. In my opinion, language and culture are inextricable and interdependent from each other. Understanding the culture of the target language means understanding of the language. Our experiment showed the Internet is a valuable resource to both language teachers and learners. For example, the Internet could create natural environment in order to develop cultural and general knowledge of the English language. Our students could obtain geographical, historical, social, economic, and political information from the countries in which the target language is spoken. For instance, e-mail, Facebook and Skype on the Internet allowed students to communicate with native speakers. In this manner, the Internet facilitated the use of the specific language in an authentic setting. Moreover, students could read web versions of daily newspapers and same-day news reports from sources.

Conclusion. Finally, the Internet provided supplemental language activities, which include reading, listening and grammar tests, comprehension questions, grammar, vocabulary and pronunciation exercises. Students could search the Web for such sites that served as the best method for experiencing and presenting creative works. They could use different Internet sources as a platform for their own work such as essays, poetry, or stories.

To sum up, the Internet cannot replace the language classroom or the interaction between the language teacher and student, but it can offer a vast amount of information and lends itself to communication possibilities that can greatly enhance the language learning experience.

#### REFERENCES:

1. PF-60-сoH 28.01.2022. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida (lex.uz)
2. PQ-1875-сoH 10.12.2012. Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (lex.uz)
3. Shodikulova, A. Z. (2021). Methodology For Using Computer Training Programs In English Lessons. Turkish Journal of Computer and Mathematics



Education (TURCOMAT), 12(13), 3358-3367.

4. Mardievna, B. M., Mukhamadjanovna, J. S., Nematovich, N. O., & Azamovich, T. V. (2020). The importance of modern methods and technologies in learning English. *Journal of critical reviews*, 7(6), 143-148.

5. Matsko, G.R. English lesson and information culture/G.R. Matsko// *English at school*. -2009. -p 2.

6. Ware, P. D. (2003). From involvement to engagement in online communication: Promoting intercultural competence in foreign language education. University of California, Berkeley.

7. Varshauer Mark. P. Fon Uitteker Internet dlya obucheniya angliyskomu: Rekomendatsii dlya prepodavateley / Pod red Djeke K I Villi A Renendya // *Metodologiya prepodavaniya inostrannix yazikov: Antologiya Sumestvuyumey praktiki* Izd-vo Kcmbridjskogo universiteta. - 2007, p 119.

8. Lee - English Teachers' Barriers to the Use of Computer-assisted Language Learning (TESL/TEFL) (iteslj.org)

9. Uralova, C. (2021). The use of training computer programs in distance english lessons. *Scientific progress*, 2(1), 1536-1540.

10. Shodikulova, A. Z. (2021). Methodology For Using Computer Training Programs In English Lessons. *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT)*, 12(13), 3358-3367.

## INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHIDA NUTQIY VA TIL KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQLAR

Rajabov Eldor Erkinovich,  
G'ijduvon tumani 21- maktab o'qituvchisi

*Annotatsiya. maqolada chet til o'qitish metodikasining muhim jihatlari muhokama qilindi. Jumladan, unda chet til o'quv predmetini nutqiy va til kompetensiyalarini shakllantirish orqali o'qitish masalasi yoritilgan. Shuningdek, mazkur kompetensiyalarni shakllantirishda maqbul sanalgan samarali texnologiyalar taqdim qilingan.*

*Tayanch so'z va tushunchalar: chet til o'qitish, kompetensiyaviy yondashuv, nutqiy hamda til kompetensiyalari, samaradorlik, ta'lim bosqichlari, metodlar.*

Kirish. Globalashuv jarayoni dunyo miqyosida jamiyatning barcha sohalarini qamrab olayotgan sharoitda chet til ta'limi zimmasiga bir qancha muhim vazifalarni yukladi. Bugungi davr chet tildan amaliy foydalanish samaradorligini chet tili o'quv predmetining ham, ta'limning ham asosiy muammosiga aylantirdi. Chet til ta'limining asosiy vazifasi o'quvchilarga faqat bilim berish emas, balki bu bilimlar orqali ularning kommunikativ malakasini oshirishdir. Ayni damda chet til ta'limida ham tarkibiy bosqich amalga oshirildi: reproduktivlikdan kognitivlikka qadam qo'yildi. Bu degani reproduktiv ingliz tilini o'qitishda o'qituvchi kuzatuvchi, yo'naltiruvchi sifatida o'quvchi esa passiv emas, balki faol sub'ekt sifatida harakat qilmoqda. Asosiy qism. Ingliz tilini o'qitish umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili va rus tilidan keskin farq qiladi. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim A2 "Bo'sag'a oldi bosqichi" (Waystage level) da o'quvchilarga kompetensiyalar asosida ingliz tilini o'qitishning muayyan samarali texnologiyalarini hamda mashqlarni yaratish va uning amaliy jihatdan yaroqliligini isbotlash ushbu maqolada nazarda tutilgan. Bu esa, xozirgi paytda mavjud ingliz tilini o'rgatishga oid darsliklarning yangi avlodini yaratishga, chet til, xususan, ingliz tilini A2 darajada o'rganuvchilar bilan bog'liq muammolarni hal qilishga, ingliz tilini o'qitishning sifati va samaradorligini amaliy rivojlantirishga yordam beradi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarga tayanib, chet tili o'quv predmetini samarali egallashda nutqiy va til kompetensiyalari bilan bir qatorda bir qancha kompetensiyalar ham faol ishtirok etishi Davlat ta'lim standarti hamda hukumat hujjatlarida qayd etilgan. Chet tili bo'yicha A2 daraja uchun ta'lim mazmunida nutqiy kompetensiyani quyidagilar asosida shakllantirish qayd etilgan. Lingvistik kompetensiya tarkibidagi nutqiy kompetensiya – tinglab tushunish nutq faoliyati turi bo'yicha darsga oid ko'rsatmalar va o'qituvchi nutqi, hikoyalari, ob-havo ma'lumotlari, e'lonlar, TV va radio dasturlari, o'rganilayotgan til sohibining tasmaga yozilgan nutqi (qo'shiqlar, she'rlar, dialoglar va boshqalar). Rivojlantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar:

asosiy mazmunini tushunish uchun tinglash; to'liq batafsil tushunish uchun tinglash; muayyan masalalar yoki ma'lumotlar uchun tinglash. Gapirish nutq faoliyati turi bo'yicha dialogik va monologik nutqqa oid quyidagi malakalar o'zlashtiriladi. Dialogik nutq: rasmiy va norasmiy salomlashish, o'zini tanishtirish, rozi bo'lish va rad etish, gapni takrorlash va aniqlashtirishni iltimos qilish, ma'lumot olish va berish, tabriklash, taklif etish va taklifni qabul qilish/ rad etish. Monolog nutq: voqea yoki tajribani sodda bayon qilish, qisqa hikoyani gapirib berish, yoshiga mos mavzuda sodda va qisqa taqdimot qilish, o'rganilayotgan chet tili materialini asosida qisqa hisobot berish. O'qish nutq faoliyati turida, o'rganilgan va o'rganilayotgan til materialidan tashkil topgan qisqa matnlarni o'qish, tarkibida ma'nosini taxmin qila olish mumkin bo'lgan ba'zi yangi so'zlardan iborat badiiy va media matnlarni o'qish, qisqa xabarlardan iborat sodda xatlarni o'qish, darsdan bo'sh vaqtlarida sodda hikoyalar va she'rlarni o'qish kabilar o'rganiladi. Rivojlantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar: chet tilidagi materiallarning umumiy mazmunini tushunish, ayrim ma'lumotlarni olish, tafsilotlarni tushunish va yo'nalishni aniqlash uchun o'qish (belgilar, yorliqlar va hokazo)1. Yozuv bo'yicha shaxsiy xatlar (qisqa xabarlar, tabriklar, eslatmalar, xatlar va hokazolar)ni yozish, sodda anketalarni shaxsiy ma'lumot bilan to'ldirish kabilar xususida yozuv malakasi shakllantiriladi. Til kompetensiyasi – punktuatsiya va orfografiya qoidalarini o'rganish takomillashtiriladi. Leksik kompetensiya negizida mavzuga oid so'zlarni oddiy matnda to'g'ri ishlata olish, so'z tuzilishi (qo'shma so'zlar va affiksatsiya), boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar (baynalminal so'zlar) haqida ilk tushunchalarni shakllantirish amal lari bajariladi. Grammatik kompetensiya bo'yicha 5-7 sinf o'quvchilari bir nechta grammatik hodisalarni kompetensiyalar negizida bosqichma bosqich sinflar kesimida o'rganishadi. Fonetik kompetensiyaga oid tovushlarni gapda va yakka holda tinglaganda farqlay olish, kommunikativ vaziyatlarda gapning kommunikativ turlari (darak, so'roq, buyruq gap)ga mos ravishda ritm va intonatsiyadan to'g'ri foydalanish, til tovushlarini, gapirish ko'nikmasini rivojlantirish bilan birga nutqda ishlatishni mashq qilish bilimlar o'zlashtiriladi1. Mazkur muhokama qilinayotgan mavzu yuzasidan quyida 6-sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda nutqiy va til kompetensiyasini rivojlantirishga oid texnologiyalar va mashqlar maqola muallifi tomonidan ishlab chiqildi. Ushbu taqdim qilinayotgan usullar chet tili o'qituvchilariga darslik materiallariga qo'shimcha bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, ularni dars jarayonida qo'llash, o'quvchilarga chet tili o'quv predmetini yanada mustahkam va samarali egallashga asos bo'ladi. O'qituvchilar uchun barcha metodik ko'rsatmalar chet tili o'quv predmetiga oid2 ingliz tilida qayd etilganligi munosabati bilan, biz taklif qilgan mashqlar va texnologiyalar yo'riqnomalari ingliz tilida bayon qilinadi.

Nutqiy kompetensiyaga oid mustahkamlovchi mashqlar. Bunday

mashqlar bir vaqtning o'zida til kompetensiyasini ham mustahkamlashda qo'llanilishi mumkin. Mazkur mashqlarni kichik matnlarni o'qishda foydalanish tavsiya qilinadi.

Masalan, "Read the following Passage and select 2 correct answers from 5 options (A-E)", "Match the beginning of each sentence (A-E) with the correct endings (1-7)", "Select the word in each group that does not have the same meaning", "Before you read the text you should ask yourself or from your partner a few questions: 1. Does the title give me/you a clear idea of the content? 2. Do I/you know anything about this topic? 3. What kind information can I/you expect to find from the text? 4. Can I/you predict the structure of the text from the title?", "Short answer questions.

Read the passage on the following page and answer the questions (A-E) with the words from the text. Write NO MORE THAN TWO WORDS or A NUMBER". Bunday mashqni bajarishda o'quvchi matndan foydalanib, so'ralgan ma'lumot asosida kerakli miqdordagi so'zlarni to'ldirishi kerak. Bu mashqni bajarishda javoblar matnda ketma-ketlikda joylashganligi hamda kerakli raqam yoki so'zlarni to'ldirib javob berish lozimligi o'quvchilarga tushuntiriladi. Xulosa va takliflar. Yuqoridagi fikrlarga hamda metodik tavsiyalarga tayanib, o'quvchilarga ingliz tilini o'qitishda kompetensiyalarni rivojlantirish camarali mashqlar va texnologiyalardan hamda multimedial ta'lim dasturlaridan foydalanib tashkil qilinsa, amaldagi metodik ta'minotni takomillashtirish masalasi hal qilinadi, deb xisoblaymiz.

Chettilidarslaridagi dastlabki daqiqalardan, o'quvchilarga yuqoridagi berilgan mashqlar va texnologiyalardan foydalanilsa, o'quvchilarning xorijiy til o'rganishga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi va zerikishdan yiroqlashadilar. Natijada o'quvchilarning mustaqil, erkin, mantiqiy fikrlash imkoniyatlari kengayadi va kelajakda ularni madaniyatlararo muloqot dialogida ishtirok etish imkoniyati takomillashadi. O'quvchilar ingliz tilini o'rganish orqali belgilangan kompetensiyalarni samarali egallash masalasi quyidagi amaliy tavsiyalarga binoan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. O'quvchilar ma'lum intellektual, ijodiy va kommunikativ bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Bu degani, ular matn bilan ishlashni bilishlari kerak (asosiy fikrni belgilash va ajratish, chet tilidagi matndan kerakli va zarur ma'lumotlarni qidirib topa olishi), ma'lumotni tahlil qila olishlari, kerakli xulosalarni chiqarishni, diskussiya olib borishni bilishlari, suhbatdoshni tinglashni va tushunishni bilishlari kerak.

2. Uzluksiz ta'lim bosqichlarida har qanday chet tili (ingliz, nemis, fransuz) ni o'qitish va o'rganishda tili o'rganilayotgan mamlakatlar madaniyatini integratsiyalashgan holda tadbiiq qilish lozim. Bu o'rinda, chet tili o'rgatishdagi madaniyat, asosan, ma'lum bir millat, elat, xalqlar hamda milliy qadriyatlar sivilizatsiyasidagi faoliyatga asoslanadi. Ingliz tilini umumta'lim maktablarida o'qitish, asosan, chet tilini o'qitish maqsadi hamda belgilangan ta'lim mazmunidan kelib

chiqib amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'rganiladigan lingvistik, leksik, grammatik, talaffuzdagi birliklarda o'quvchining e'tiborini nutqiy jarayonga qaratish lozim.

3. O'quv materiallarini (mashqlar va texnologiyalar) saralashda uzviylik prinsiplariga rioya qilish kerak. Demak, nutqiy va til komtetensiyani rivojlantirishga oid leksik, grammatik xodisalarga ham qo'shimcha mashqlar va texnologiyalar kiritib boriladi.

Adabiyot ro'yxati:

1. O'z.Res. uzluksiz ta'lim tizimining DTS. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun chet tillari o'quv dasturi: ingliz tili. DTS. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun chet tillari o'quv dasturi: ingliz til. // "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnal. 4-son (may-iyun) 2013-yil.

2. Matt Purland. Big resource book. Intermediate/level 1. First published in the UK by English Banana.com. 2005 y. 128 pages.

3. [www.englishbanana.com](http://www.englishbanana.com) online materials.

4. Galskova N.D., Gez N.I. Teoriya obucheniya inostrannym yazыkam. Lingvodidaktika i metodika. – Moskva: 2006. –335st.

5. Yoqubov I. Amaliy ingliz tili metodikasi. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: 2004. – 223 b.

6. Jamolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: 1996. – 367 b.



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI O'QUV JARAYONLARINI TASHKIL ETISH VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AMALIY AHAMIYATI

*Hasanova Bo`rigul*

*Navoiy davlat pedagogika instituti Umumiy pedagogika va  
psixologiya kafedrasida o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv jarayonida bolalar faoliyatini faollik markazlari orqali tashkil etish masalalari hamda, ta'lim markazlari orqali bolalarda erkin faoliyatni taminlashda tarbiyachi bolalarni markazlarga to'g'ri yo'naltirish masalasi yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: Bog'cha, ta'lim, tarbiya, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi.*

Mamlakatimizda olib borilayotgan uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlaridagi yangilanish, modernizatsiya jarayoni uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari uchun, jumladan, barcha fanlar qatorida Maktabgacha ta'lim - tarbiyani tashkil etish fani bo'yicha ham zamon talabiga javob bera oladigan darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishni taqozo etmoqda. Shu boisdan Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish faniga oid zamonaviy bilimlar tizimini bo'lajak tarbiyachi pedagoglarga o'qitish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti uzluksiz ta'lim tizimining birinchi turi, ya'ni dastlabki bosqichidir. Bugungi kunda davlatimiz uzluksiz ta'lim tizimi oldiga ma'naviy yetuk erkin fikrlaydigan va intellektual, salohiyatli barkamol avlodni shakllantirishdek muhim vazifani qo'ymoqda. Bu muhim vazifani bajarishning dastlabki bosqichi maktabgacha ta'lim muassasalari (MTT)da amalga oshiriladi va unda ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy jihatdan boy shaxsni shakllantirishga qaratiladi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan maktabgacha ta'limga juda katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016 yil 29 dekabrda «2017–2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ- 2707-son qarori qabul qilindi va shu asosida dastur ishlab chiqildi. Mazkur qaror maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy dasturlar va texnologiyalarni tatbiq etish, farzandlarimizni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish kabi dolzarb masalalarni hal etishda muhim dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda. Binobarin, mazkur hujjatga muvofiq Maktabgacha talim vazirligi tomonidan 2018-yil 18-iyulda —Ilk qadam davlat dasturi qabul qilindi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yosh guruhlari uchun mo'ljallangan ta'limiy faoliyatning mavzuli rejasi guruh tarbiyachilariga yordam sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu dasturdan erkin ta'lim faoliyati olib boriladi. Tarbiyachi ta'lim faoliyatiga bolalarning yosh

xususiyatini inobatga olgan holda qo'shimcha kiritishi mumkin.

O'quv jarayonini mavzuli tarzda tuzish tamoyili hududiy, milliy, madaniy komponentlarni singdirish va bu jarayonda maktabgacha ta'lim muassasasi xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Bir mavzu doirasida kamida bir hafta ta'lim berilishi lozim. Mavzu guruh va rivojlanish markazlaridagi materiallarda o'z aksini topishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini takomillashtirish muammosining yechim yo'llaridan biri, eng avvalo, o'qitish va tarbiyalashning innovasion metodlarini amaliyotga joriy qilish – ta'lim jarayoniga tarbiyalanuvchi shaxsi va individualligiga yo'naltirilgan o'qitishning innovasion texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilishidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni interaktiv didaktik o'yinlar va materiallar asosida o'qitish – bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish imkonini beradi. Bunday o'quv mashg'ulotlari bolalarda katta qiziqish uyg'otib, o'yin davomida ortiqcha zo'riqishlarsiz mantiqiy hamda ijodiy fikrlash rivojlanadi, ijtimoiy faollik va axloq me'yorlariga rioya qilish ko'nikmalari tarbiyalanadi, tabiiy va ijtimoiy muhit to'g'risidagi tasavvurlari tartibga solinadi va tushunchalarni to'g'ri shakllanishi ta'minlanadi. Buning uchun tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda ularning o'zlari mustaqil ravishda emas, balki kattalar yordamida va rahbarligida nima qila olishlariga e'tibor qaratishi kerak bo'ladi.

Har qanday faoliyat turining rivojlanishi quyidagicha bo'ladi: avval kattalar bilan hamkorlikdagi, so'ng tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyat amalga oshiriladi va nihoyat bolaning mustaqil faoliyati amalga oshiriladi. Demak bolaning maktabgacha ta'lim muassasasida erkin faoliyati tashkil etilsa, bolalar tengdoshlari bilan erkin faoliyati shakllana boshlaydi va o'z-o'zidan bolaning mustaqil faoliyati amalga oshiriladi. Buning uchun tarbiyachi bolalar bilan suhbat, eksprement, ko'rgazmali metodlarni ko'proq qo'llashi kerak bo'ladi. Ta'lim markazlari orqali bolalarda erkin faoliyatni taminlashda tarbiyachi bolalarni markazlarga to'g'ri yo'naltirishi muhimdir. Agar bolani o'zi xohlagan markazga yo'naltirilmasa, bola bu ta'lim markazida erkin faoliyat olib borishni istamaydi, bolada norozilik kayfiyati paydo bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan o'quv jarayonida bolalarni erkin faoliyatini ta'minlashda bolalarning qiziqishi, xohishi, imkoniyati hisobga olinishi muhimdir.

#### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4312-son Qarori // <https://lex.uz/docs/4327235>

2. Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha ta'limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish: Avtoref. ... ped. fan..fals dok. (PhD) – T., 2019. – B. 22-23.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-son qarori 2016 yil 29 dekabr lex.uz
4. "Ilk kadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi.T.: 2018. mdo.uz
5. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari 2018 y. lex.uz
6. Хушназарова М.Н. Мактабгача таълим ташкилотлари тарбиячиларининг касбий компетенциясини такомиллаштириш: Педагогика ... фалсафа доктори (PhD) автореферати. –Тошкент, 2021. -52 б. (Б.22)
7. Цветков А.В. Нейропедагогика для учителей: как обучать по законам работы мозга. – М.: Издательство "Спорт и Культура, - 2000", 2017. –С.26-27.
8. Eric R. Kandel. In Search Of Memory The Emergence of a New Science of Mind Copyright, 2006. 9. Gulyamov Dj.R., Nurboyev Q.M., Khuzhakulov N.T. Teaching Children Of Preschool Age In Neurodidactic Conditions / Palarch's Journal Of Archaeology Of Egypt / Egyptology 17(6). -P.14485-14494

## **QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY- PEDAGOGIK SHAROITLARI**

*Davronov N.I.*

*BuxDU Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasida dotsenti*

*Annotatsiya: maqolada yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi jarayonida qadriyatlarning o'rni, mohiyati va mazmuni hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda qadriyatli yondashuvning vosita sifatidagi ahamiyati yoritilgan.*

*Аннотация: В статье рассматриваются роль, сущность и содержание ценностей в образовательном процессе подрастающего поколения и значение ценностного подхода как инструмента в развитии физических качеств у младших школьников.*

*Annotation: The article discusses the role, essence and content of values in the educational process of the younger generation and the importance of a valuable approach as a tool in the development of physical qualities in primary school students.*

*Kalit so'zlar: qadriyat, qadriyatli yondashuv, ta'lim, tarbiya, jarayon, jismoniy sifatlar, rivojlanish, barkamol shaxs.*

*Ключевые слова: ценность, ценностный подход, образование, воспитание, процесс, физические качества, развитие, целостная личность.*

*Keywords: value, value approach, education, upbringing, process, physical qualities, development, holistic personality.*

Jismoniy tarbiya bolaning umumiy rivojlanishining ajralmas qismidir, boshlang'ich maktab esa o'quvchi hayotining asosiy jismoniy fazilatlari shakllanadigan hal qiluvchi bosqichidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy fazilatlarni samarali tarbiyalash uchun qadriyatlarga asoslangan yondashuv muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv nafaqat jismoniy ko'nikmalarga, balki umr bo'yi jismoniy farovonlikka yordam beradigan qadriyatlarni singdirishga ham qaratilgan. Ushbu maqolada biz boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyat yondashuvi asosida jismoniy fazilatlarni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shartlarini o'rganamiz.

Milliy qadriyat deganda, eng avvalo, tarixiy sinovlarga bardosh bergan, xalqimizning milliy manfaatlarini o'zida to'liq mujassamlashtirgan, zamonaviy taraqqiyot talabiga butunlay javob bera oladigan, asrlar o'tgani sayin qadr-qimmatini ortib boradigan

g'oyalar tushuniladi. Hayot rivojlanib borarkan, qadriyat ham takomillashib, mukammallashaveradi.

Yuqoridagi qadriyatlar tizimi mohiyati va ularning inson hayoti va faoliyatidagi o'rni hamda ahamiyati nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy faoliyat va jarayonlarning jamiyat hamda ijtimoiy sub'ektlar uchun ahamiyati, hayotning turli qirralarini aks ettiradigan muammolar xamda ularning yechimini ifodalaydigan qarash, g'oya, ta'limot, talab va ehtiyojlarning real jarayon uchun qadr-qimmatini aniqlash qadriyatli yondashuv mazmunini tashkil etadi.

Yosh avlodning jismoniy sifatlarini har tomonlama rivojlantirish tarbiyaning ajralmas qismi bo'lgan jismoniy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiyaning maqsadi jamiyatning sog'lom, xushchaqchaq, har tomonlama jismoniy rivojlangan, mehnat va Vatan himoyasiga tayyor turgan yoshlarni tarbiyalashdan iborat uzoq muddatli, uyushtirilgan pedagogik jarayondir.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, optimal harakatlanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi va qobiliyatining oshishi uchun katta imkon beradi.

O'quvchilarda jismoniy sifatlarini har tomonlama rivojlantirish, ularning milliy qadriyatlarga e'tiborini oshirish, ma'naviy, axloqiy fazilatlarini tarkib toptirish uchun kichik maktab yoshi eng qulay davr hisoblanadi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shaxsning jismoniy shakllanishi va jismoniy tayyorgarlik dinamikasi o'quvchining mehnat qilish layoqati va izchil bajariladigan jismoniy mashqlarning xususiyatiga bog'liqdir.

Yuqoridagi qadriyatlar tizimi mohiyati va ularning inson hayoti va faoliyatidagi o'rni hamda ahamiyati nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy faoliyat va jarayonlarning jamiyat xamda ijtimoiy sub'ektlar uchun ahamiyati, hayotning turli qirralarini aks etgiradigan muammolar xamda ularning echimlarini ifodalaydigan qarashlar, g'oyalar, ta'limotlar, talab va ehtiyojlarning real jarayonlar uchun qadr-qimmatini aniqlash qadriyatli yondashuv mazmunini tashkil etadi.

Yoshlarni har tomonlama jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, o'quvchilar jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan bu muammoni umumta'lim maktab o'quvchilari jismoniy tarbiyasini tashkiliy va pedagogik jarayonlar bilan birga bir-biriga bog'lab kelgan uzviylikda ko'rib chiqish lozimligini keltirib chiqaradi, bunda qadriyatli yondashuvning ahamiyati katta.

Yosh avlodning jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish tarbiyaning ajralmas qismi bo'lgan jismoniy tarbiya

jarayonida amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiyaning maqsadi jamiyatning sogʻlom, xushchaqchaq, har tomonlama jismoniy rivojlangan, mehnat va Vatan himoyasiga tayyor turgan yoshlarni tarbiyalashdan iborat uzoq muddatli, uyushtirilgan pedagogik jarayondir.

Oʻquvchilarda jismoniy sifatlarni har tomonlama rivojlantirish, ularning milliy qadriyatlarga eʼtiborini oshirish, maʼnaviy, axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish uchun kichik maktab yoshi eng qulay davr hisoblanadi. Oʻtkazilgan tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, shaxsning jismoniy shakllanishi va jismoniy tayyorgarlik dinamikasi oʻquvchining mehnat qilish layoqati va izchil bajariladigan jismoniy mashqlarning xususiyatiga bogʻliqdir.

Jismoniy sifatlarga (kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, tezkorlik, chaqqonlik) tegishli.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari jismoniy tarbiyasi va ularda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda sogʻlomlashtirish, taʼlim berish va tarbiya berish vazifalarini amalga oshirish koʻzda tutiladi. Qadriyatli yondashuv asosida bu vazifalarni yaxlit holda bajarish imkoniyatlari kengayadi.

Mamlakatimizda aholi sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, yoshavlodni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shugʻullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratilmoqda. Sport musobaqalari va tadbirlari orqali yoshlarga milliy qadriyatlarni singdirish, oʻz irodasi, kuchi va imkoniyatlariga boʻlgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat kabi tuygʻulari singdirib boriladi. Mamlakatimizda aholi jismoniy madaniyatini oshirish borasida koʻplab amaliy ishlar qilinmoqda va bunga davlat masalasi sifatida qaraladi. Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyun PQ–3031-son «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarori alohida ahamiyatga ega boʻlib, qarorda asosan jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining yil davomida oʻtkaziladigan dasturi ishlab chiqildi. Dasturning 4-bandida umumiy oʻrta taʼlim maktab oʻquvchilari oʻrtasida oʻtkaziladigan jismoniy tarbiya va sport tadbirlar rejasi ham ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini jismoniy tarbiyalash va ularda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda sogʻlomlashtirish, taʼlim va tarbiya berish vazifalarini amalga oshirishni koʻzda tutadi. Qadriyatli yondashuv asosida bu vazifalarni yaxlit holda bajarish imkoniyatlari kengayadi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirish nafaqat jismoniy tarbiya oʻqituvchilari va sohaga masʼul

shaxslarning vazifasi bo'lishi kerak. Zero, farzandlarimizning aqliy, axloqiy, jismoniy kamolotida barchamiz birgalikda mas'ul bo'lishimizni taqozo etadi. Tadqiqotimiz jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik fenomenning dolzarb ahamiyat kasb etishini aniqladik.

Q

Tashkiliy shartlar

Kompleks o'quv dasturi:

Jismoniy tarbiya orqali qadriyatlarni singdirish uchun keng qamrovli o'quv dasturi muhim ahamiyatga ega. O'quv dasturida jismoniy faoliyatning keng doirasi, jumladan, jamoaviy sport turlari, individual sport turlari va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'z ichiga olishi kerak. Shuningdek, u jismoniy tayyorgarlik, ovqatlanish va shaxsiy farovonlikning ahamiyati haqidagi darslarni o'z ichiga olishi kerak.

Malakali va ishtiyoqli o'qituvchilar:

O'qituvchi va murabbiylar o'quvchilarning jismoniy faoliyatga munosabatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Jismoniy tarbiyaga ishtiyoqi baland malakali pedagoglar o'quvchilarni jismoniy sifat va qadriyatlarni qabul qilishga undashi mumkin. Ular jismoniy tarbiya bo'yicha eng so'nggi o'qitish usullari va tendentsiyalaridan xabardor bo'lish uchun doimiy treningdan o'tishlari kerak.

Tegishli jihozlar va jihozlar:

Maktab turli jismoniy faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun yaxshi ta'minlangan jihozlar va jihozlar bilan ta'minlanishi kerak. Bunga sport maydonchalari, gimnastika zallari va yoshga mos sport anjomlaridan foydalanish kiradi. Xavfsiz va qulay muhitni ta'minlash jismoniy fazilatlarini rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Inklyuzivlik va qulaylik:

Turli xil qobiliyat va qiziqishlarga ega bo'lgan talabalarga mos keladigan keng ko'lamli tadbirlarni taklif qilish orqali inklyuzivlikni targ'ib qiling. Har bir talaba ishtirok etishi va jismoniy sifatlarini rivojlantirishi uchun moslashtirilgan jismoniy tarbiya dasturlarini tashkil qiling.

Pedagogik sharoitlar

Qadriyatlarga asoslangan ta'lim:

Jismoniy tarbiyani o'qitishda qadriyatlarga asoslangan yondashuv xarakter tarbiyasi, hurmat, sport mahorati, jamoaviy ish va shaxsiy mas'uliyatni ta'kidlashni o'z ichiga oladi. O'qituvchilar sport va jismoniy faoliyatdan hayotiy ko'nikmalar va qadriyatlarni o'rgatish vositasi sifatida foydalanishlari kerak.

Maqsadni belgilash va o'z-o'zini aks ettirish:

Talabalarni shaxsiy jismoniy maqsadlarni belgilashga va ularning taraqqiyotini kuzatishga undash. Muntazam ravishda o'z-o'zini aks ettirish va maqsad qo'yish mashg'ulotlari o'quvchilarga muvaffaqiyatga erishishda qat'iyat va mehnatsevarlik muhimligini tushunishga yordam beradi.

**Differentsial ko'rsatma:**

Talabalarning turli xil ehtiyojlari va qobiliyatlari borligini tan oling. Har bir o'quvchining jismonan o'sishi va qadriyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlab, har bir talaba darajasiga qarab faoliyat va o'qitish usullarini tabaqalashtirilgan holda o'tkazish.

**Hamkorlik va jamoani shakllantirish:**

Talabalarga hamkorlik va jamoaviy ishning qiymatini o'rgatish uchun jamoaviy faoliyatni qo'shing. Sport va guruhdagi qiyinchiliklar orqali talabalar samarali muloqot qilishni, nizolarni hal qilishni va tengdoshlarini qo'llab-quvvatlashni o'rganishlari mumkin.

**Jismoniy faollikka umrbod muhabbatni rag'batlantirish:**

Jismoniy faollik nafaqat maktab uchun, balki hayot uchun ham zarur degan fikrni ilgari suring. Talabalarni sinfdan tashqari jismoniy mashg'ulotlardan zavqlanishga o'rgatish, ular o'sib ulg'aygan sari sog'lom va faol hayot tarzini davom ettirish imkoniyatini oshirish.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirish nafaqat jismoniy ko'nikmalarni shakllantirish; bu ularning hayoti davomida xizmat qiladigan qadriyatlarni tarbiyalash haqida. Jismoniy tarbiyaga qadriyatlarga asoslangan yondashuv xarakter, jamoaviy ish, qat'iyatlilik va umrbod salomatlikni ta'kidlaydi. To'g'ri tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar bilan qo'llab-quvvatlansa, boshlang'ich sinf o'quvchilari kelgusi yillar davomida ularga foyda keltiradigan jismoniy fazilatlar va qadriyatlarni rivojlantirishlari mumkin. Bu yaxlit yondashuv bo'lib, talabalarni nafaqat sportda muvaffaqiyat qozonishga tayyorlaydi, balki ularni yaxshi shaxs bo'lib yetishtirishga ham yordam beradi.

Milliy qadriyatlarning pedagogik, ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganish va shu asosda boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirish va yoshlarni tarbiyalash amaliyotiga joriy qilish o'z madaniyatimiz va ma'naviy boyliklarimizning yuksaklikka ko'tarilishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar:**

1. Achilov A.M. Akramov J.A. Goncharova O.V. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash. 2004 y. Toshkent.

2. Davronov N. I. DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES OF CHILDREN IN THE HERITAGE OF OUR



ANCESTORS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – Т. 8. – №. 3.

3. Davronov N. I. THE CONCEPT OF PHYSICAL EDUCATION AND PHYSICAL CULTURE //УЧЕНЬИ XXI БЕКА. – С. 91.

4. Давронов Н. И. «Авеста» как ценность и источник по физическому воспитанию молодежи //Педагогическое образование и наука. – 2020. – №. 1. – С. 87-91.

5. Давронов Н. И. ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ВРЕДНЫХ ПРИВЫЧЕК У ПОДРОСТКОВ НА ОСНОВЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА //EUROPEAN RESEARCH. – 2018. – С. 132-134.

**“TABIIY FANLAR”NI O‘QITISH JARAYONIDA  
O‘QUVCHILARDA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIKNI  
SHAKLLANTIRISH**

*Suyarov Kusharbay Tashbayevich,  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, fizika va astronomiya  
o‘qitish metodikasi kafedrasi dosenti, suyarov.k@cspi.uz*

*Annotatsiya. Maqolada “Tabiiy fanlar” fanining joriy etilishi hamda mazkur fanda “Yorug‘lik hoisalarini” mavzusini o‘qitish misolida o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish metodikasi muhokama qilingan.*

*Kalit so‘zlar. Tabiiy fanlar, yakuniy natijalari, yorug‘lik hodisalari, dars bosqichlari, tabiiy-ilmiy savodxonlik, kompetensiya.*

**МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ  
ЕСТЕСТВЕННОНАУЧНОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ  
ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ “ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ”**

*Суяров Кушарбай Ташибаевич,  
Чирчикский государственный педагогический университет,  
доцент кафедры “Методика преподавания физики и  
астрономии”.*

*Аннотация. В статье рассматривается методика формирования естественнонаучной грамотности учащихся на примере введения предмета “Естественные науки” и преподавании темы “Световые явления” по этому предмету.*

*Ключевые слова. Естественные науки, итоговые результаты, световые явления, этапы урока, естественнонаучная грамотность, компетенция.*

**METHODOLOGY OF FORMATION OF STUDENTS’  
NATURAL SCIENCE LITERACY IN TEACHING “NATURAL  
SCIENCES”**

*Suyarov Kusharbay Tashbayevich,  
Chirchik State Pedagogical University, Associate Professor of the  
Department “Methods of Teaching Physics and Astronomy”.*

*Annotation. The article deals with the methodology of formation of natural science literacy of students on the example of the introduction of the subject “Natural Sciences” and teaching the topic “Light phenomena” on this subject.*

*Keywords. Natural sciences, final results, light phenomena, lesson stages, science literacy, competence*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi «Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-*

fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4805-son qarorida, umumta'lim maktablarda (1÷6-sinflariga) tabiiy fan(Science)ni yagona fan sifati kiritish, hamda bu fanni tajriba-sinov tariqasida o'qitishni bosqichma-bosqich joriy etish vazifalar belgilangan [1]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2020 yil 31 martdagi «Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish to'g'risida»gi 67-son buyruqida Milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etish jarayonida bosqichma-bosqich tayyorlab borish masalasi uzluksiz ta'limda dolzarb muammo sifatida qo'yilgan [2].

Yuqorida zikr qilingan me'yoriy huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida mamlakatimizning pedagog olimlari, metodistlar va tajribali o'qituvchilari tomonidan "Tabiiy fanlar"ni o'quv dasturi yaratildi. "Tabiiy fanlar" dasturida kiritilgan mavzular quyidagi asosiy kontekstlarda ifodalangan: tizimlar (o'simlik, hayvon, odam organlari sistemasi, Quyosh sistemasiga oid bilimlar); materiya va energiya (issiqlik, yorug'lik, tovush); shakl, tartib va tuzilish (jonli va jonsiz tabiat, tirik organizmlar);masshtab va o'lchash (ob-havo temperaturasi, masofa, Yer va Koinot); barqarorlik va o'zgarish (tirik organizmlarning rivojlanishi, ob-havo, yil fasllari, yashash joyi); shakl va funksiya (tirik organizmlar, o'simlik va hayvonlarning xilma-xilligi, issiqlik, yorug'lik va tovush manbalari). Mazkur o'quv dasturida "Tabiiy fanlar"ning o'qitish orqali o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish hamda barqaror rivojlanish ta'limi maqsadlari ko'ra o'quvchilarning ekologik muammolarning mohiyatini anglashi, tabiatdan oqilona foydalanish yo'llari bilish, sog'lom turmush tarziga amal qilish, shuningdek, o'zlashtirilgan bilimlardan kundalik hayotda foydalanish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga vazifalari qo'yilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda pedagog olimlari Sh.M.Mirzaaxmedova, R.K.Matnazarova, M.I.Nuriddinovaning tadqiqot ishlarida umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Atrofimizdagi olam", "Tabiatshunoslik" fanlarini o'qitish muammolari, F.I.Ochilovning ilmiy tadqiqot ishida esa tabiiy fanlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish metodikasi [3], tadqiqotchi Z.B. Sangirova tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM ta'limidan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan [4].

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlari L.V.Sheptuxovskiy, I.G.Kroxina, L.P.Simonova o'quvchilarda tabiiy-ilmiy kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik muammo sifatida o'rganilgan hamda o'quvchilarda tabiiy-ilmiy kompetensiyalarni shakllantirishning mezonlari ishlab chiqilgan [5].

XXI asrda insoniyat oldida turgan muammolar ilmiy tafakkur va ilmiy kashfiyotlarga asoslangan innovatsion yechimlarni talab etishi shubhasiz. Aytish joizki, tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik muhim va dolzarb kompetensiya sanalib, tabiiy fanlarni o'qitishning asosiy maqsadidir. Tabiiy fanlarga asoslangan bilim hamda ko'nikmalar har bir

shaxsning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatida katta ahamiyatga ega, ilm-fan va unga asoslangan texnologiyalarni tushunish esa “yoshlarni hayotga tayyorlash”da markaziy o‘rinni egallaydi.







Tadqiqot natijalari. “Yorug‘lik” to‘g‘risidagi tabiiy-ilmiy tushunchalar “Tabiiy fanlar” darsliklarida sinflar kesimida davriylik qonuni ko‘ra izohlanilgan. “Tabiiy fanlar”ni o‘qitish bo‘yicha har bir sinf kesimida metodik qo‘llanmalar ishlab chilgan [6-7]. Mazkur metodik qo‘llanmalarda o‘quvchining dars davomida erishishi lozim bo‘lgan yakuniy natijalari kontekstiga ko‘ra dars jarayoni tashkil qilish bo‘yicha xarita tavsiya qilingan (1-jadval).

1-jadval

	<b>Darsning maqsadi:</b> yorug‘likning tirik organizmlarga ta‘sirini o‘rganish; yorug‘likning qaytishi o‘rganish; yorug‘likning sinishini o‘rganish.	<b>Ta‘lim resurslari:</b> darslik, tarqatma materiallar, tajribalar uchun kerakli jihozlar; o‘quvchining taqdimotlari, videorolik.	<b>Innovatsion metodlar:</b> Muammoli vaziyat, muammoli savol, kichik guruhlarda ishlash, amaliy mashg‘ulot, tadqiqot.
	<b>Yakuniy kichik natijalar</b> <b>Barcha o‘quvchilar...</b>	<b>Yakuniy kichik natijalar</b> <b>Aksariyat o‘quvchilar...</b>	<b>Yakuniy kichik natijalar</b> <b>Ba‘zi o‘quvchilar...</b>
A	Yorug‘likning tirik organizmlarga ta‘sirini biladi.	Yorug‘likning tirik organizmlarga ta‘sirini misollarda tushuntiradi.	Yorug‘likning tirik organizmlarga ta‘siriga misol keltiradi, ahamiyatini izohlaydi va xulosa qiladi.
B	Yorug‘likning qaytishini tajribada ko‘rsatishni biladi.	Yorug‘likning qaytishi tajriba orqali tushuntiradi.	Yorug‘likning qaytishi tajribalarda tushuntiradi, izohlaydi va xulosa qiladi.
C	Yorug‘likning sinishini tajribada ko‘rsatishni biladi.	Yorug‘likning sinishiga doir misollar keltiradi.	Yorug‘likning sinishiga misollar keltiradi va izohlaydi.

Dars jarayoni tashkil qilish xaritasi ko‘ra darsning bosqichlar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Darsning bosqichlari	Mazmuni
	<b>Bilimlarni faollashtirish va rag'batlantirish (motivatsiya)</b>
1-bosqich	<p>O'qituvchi quyidagi savollarni beradi.            Oq yorug'likning tarkibiy ranglarga bo'linishi nima deb nomlanadi? Oq yorug'lik tarkibida qanday ranglar bor?            Oy yorug'lik manbai hisoblanadimi?            O'quvchilar fikrlari tinglanadi.</p>
2-bosqich	<p style="text-align: center;"><b>Yangi bilimlarni kashf etamiz. Yakuniy kichik natijalar (A)</b></p> <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> <div style="text-align: center;"> <p>Nima uchun o'simliklar quyoshga qarab o'sadi?</p>  </div> <div style="text-align: center;">  </div> </div> <p><b>Eslab ko'ring!</b> O'simliklarning o'sishi uchun numalar zarur?            Yorug'lik sayyoramizdagi o'simlik va hayvonlar hayoti uchun asosiy energiya manbai hisoblanadi. O'simlik hujayralarida sodir bo'ladigan fotosintez jarayonida yorug'lik energiyasi o'simlik (glyukoza) moddasida kimyoviy energiyasiga aylanadi. Yorug'lik hayvonlar uchun issiqlik manbai hisoblanadi.            Insonlar yorug'lik tufayli atrof muhitni ko'ra oladi va kuzatadi. Nima uchun ko'zguga qaraganimizda o'z aksimizni ko'ramiz?  <b>Xulosalar.</b> Biz o'z aksimizni ko'zgu orqali ko'ramiz. Ko'zguda tasvimga hosil bo'lishi yorug'likning qaytish hodisasiga asoslangan. Yassi ko'zguda tasvir simmetrik bo'ladi.            Suv havzalarining tubi sayoz ko'rinishiga nima sabab?            Suv havzalari tubi sayoz ko'rinishi yorug'likning sinishi bilan bog'liq. Hovuzning sayoz ekanligini taxmin qilib, shung'iganingizdan so'ng, uning chuqur ekanligiga amin bo'lasiz. Shuning uchun suvning tasviriga aldanmaslik kerak!</p>
3-bosqich	<p style="text-align: center;"><b>Yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish. Yakuniy kichik natijalar (B)</b></p> <div style="display: flex;"> <div style="flex: 1;"> <p><b>Guruhlarda muhokama qiling.</b>            Stakanga suv quyung va unga qalamni soling. Nimani kuzatdingiz?</p> </div> <div style="flex: 1; text-align: center;">  </div> </div> <div style="display: flex; margin-top: 10px;"> <div style="flex: 1;"> <p>Ko'zguga qarab o'ng qo'lingizni ko'taring. Nega ko'zguda chap qo'lni ko'targandek ko'rinadi?</p> </div> <div style="flex: 1; text-align: center;">  </div> </div> <p>Darslikda keltirilgan tajribani bajaring va xulosa qiling. O'quvchilar fikrlari tinglanadi. Yorug'likning qaytishi va sinishini o'rganish orqali o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyasi shakllanadi.</p>
4-bosqich	<p style="text-align: center;"><b>Yangi bilim va ko'nikmalarni qo'llash. Yakuniy kichik natijalar (C)</b></p> <div style="display: flex;"> <div style="flex: 1;"> <p>Keltirilgan rasmlarda yorug'likning qanday hodisalarini kuzatish mumkin?            Jadval tuzing va unga mos izohlarni yozing.</p> </div> <div style="flex: 2; text-align: center;">  </div> </div>
5-bosqich	<p style="text-align: center;"><b>Refleksiya</b></p> <div style="display: flex;"> <div style="flex: 1;"> <p>Nima uchun avtomobilning chiroqlarini faqat tunda yoqiladi?            Ulardan kunduzi ham foydalanish mumkinmi?</p> </div> <div style="flex: 1; text-align: center;">  </div> </div>
6-bosqich	<p style="text-align: center;"><b>Uy vazifasi</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Ko'zgu qanday yasalgan?</li> <li>Ko'zgularda tasvirlar qanday hosil bo'ladi?</li> <li>Kundalik turmushda yorug'likning qaytishi va sinishini qayerlarda kuzatish mumkin?</li> </ol>

Mazkur usulda olib borilgan dars jarayoni samarali ekanligi tajriba-sinov jarayonida o'z tasdig'ini topdi.

Tabiiy fanlarni o'qitish orqali o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyasini, bilimlar va munosabatlar shakllantirish

masalalarining qo'yilishi o'quvchilarni halqaro baholash dasturlarga tayyorlashda muhim hisoblanadi. O'quvchi topshiriq kontekstida ifodalangan muammoli vaziyatni hal etishda tabiiy fanlar bo'yicha tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyalarini namoyish etishlari talab etiladi. O'quvchilarning munosabati (tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishi, tadqiq etilayotgan masalaga ilmiy yondashishi, atrof-muhit bilan bog'liq masalalardan xabardorligi) va bilimlari (fanning mazmuniga oid, nazariy, empirik bilimlar) ularning natijalari tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlikni belgilaydi.

Xulosa. Olib borilgan pedagogik tadqiqotlar natijasida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyalarni samarali shakllantirishning omillari aniqlanildi. Bular: o'quv material va tashkiliy pedagogik ta'sir. O'quv materialining berilishida o'qitishning didaktik tamoyillari (ilmiylik, tizimlilik, izchillik, tushunarlilik va berilayotgan bilimlarning kundalik hayotga bog'liqligi) ga tayanilishi nazarga olinsa, tashkiliy pedagogik ta'sir o'qitish (munozara, suhbat, o'yin kabi) uslublariga, o'quv muassasasining moddiy texnik va metodik ta'minotga hamda o'qituvchining pedagogik kompetentligi ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi «Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4805-son qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.08.2020 й., 07/20/4805/1174-сон.

2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2020 yil 31 martdagi «Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish to'g'risida»gi 67-son buyruqi. [https://t.me/Xalq\\_talimi\\_xodimlari](https://t.me/Xalq_talimi_xodimlari).

3. Ochilov F.I. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o'rgatish metodikasi. Ped. fan. bo'yicha falsafa dokt. dis. avtoreferati. Chirchiq.CHDPI, 2021. – 46 b.

4. Sangirova Z. B. Umumta'lim maktablarida STEAM yondashuv asosida o'quv-loyiha ishlarni tashkil etish metodikasi. Ped. fan. bo'yicha falsafa dokt. dis. avtoreferati. Chirchiq.CHDPI, 2022. – 44 b.

5. Крохина И.Г. Педагогическая технология формирования естественно-научных компетенций младших школьников. Автореф. дис. канд. пед. наук. □ Ижевск, 2006. – 20 с.

6. Suyarov va boshq. Tabiiy fanlar 1. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent: Respublika ta'lim markazi. 2021. – 96 b.

7. Suyarov va boshq. Tabiiy fanlar 6. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent: Respublika ta'lim markazi. 2022. – 166 b.

## **OLIV TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING MA'NAVIY KOMPETENTLILIK DARAJASINI BELGILOVCHI OMILLAR**

*Mamajonov O'zbek Tajiddinovich  
Andijon davlat universiteti*

*Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchining ma'naviy kompetentlik darajasiga qo'yilgan talablar, rivojlangan davlatlarda bo'lajak o'qituvchining ma'naviy kompetentliini oshirishga doir olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, ma'naviy kompetentlik darajasini baholovchi omillar, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi kabi ko'nikmalarni egallashini ta'minlovchi aksiologik va deontologik yondashuvlar; pedagog olimlarning bu boradagi qarashlari va tavsiyalari haqida so'z boradi.*

*Kalit so'zlar: ma'naviy kompetentlik, pedagogik deontologiya va aksiologiya, o'quv-tarbiya jarayoni, yuksak axloq, kasbiy kompetentlik, mas'uliyat, ijtimoiylashuv, qadriyat.*

*Аннотация. В статье рассматриваются требования к уровню духовной компетентности будущего учителя в процессе высшего образования, проводимые научные исследования по повышению духовной компетентности будущего учителя в развитых странах, факторы, оценивающие уровень духовной компетентности, аксиологические и деонтологические подходы, обеспечивающие приобретение выпускником высшего учебного заведения таких навыков, как вступление в личные, социальные, экономические и профессиональные отношения, закрепление своего места в обществе., педагогических ученых речь идет о его взглядах и рекомендациях по этому поводу.*

*Ключевые слова: духовная компетентность, педагогическая деонтология и аксиология, учебно-воспитательный процесс, высокая этика, профессиональная компетентность, ответственность, социализация, ценность.*

*Annotation. The article will talk about the requirements for the level of spiritual competence of the future teacher in the process of higher education, scientific research on increasing the spiritual competence of the future teacher in developed countries, factors assessing the level of spiritual competence, axiological and deontological approaches ensuring that a graduate of a higher educational institution enters into personal, social, economic and professional relations, acquires such*

*Keywords: spiritual competence, pedagogical deontology and Axiology, educational process, higher ethics, professional competence, responsibility, socialization, value.*

Murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimini yangicha ko'rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo'llash orqali ta'lim samaradorligiga erishish davr talabidir.

Ta'lim muassasasi bitiruvchisi o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishini ta'minlashda asosan, pedagog kadrlar salohiyati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Demak, jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg'unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy va ma'naviy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Globollashuv jarayonlarida dunyo oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilar faoliyatini rivojlantirish jarayonlarini ma'naviy-madaniy ta'lim-tarbiyani aksiologik hamda deontologik yondashuvlar uyg'unligida amalga oshirish, ularning shaxsiy va kasbiy kompetentlik darajasini xalqaro tajribalar integratsiyasi asosida tashkil muhimdir.

Oliy ta'lim jarayonlarida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-emotsional va ma'naviy-axloqiy malakalarni tarkib toptirish modellari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda media ta'lim vositasida talabalar ma'naviy kompetentligining rivojlanligini tashxis etishning interaktiv tizimini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buyuk Britaniya, Yaponiya, AQSH, Singapur, Fransiya, Turkiya, Xitoy kabi rivojlangan davlatlarda bo'lajak mutaxassislarda zamonaviy shaxsga xos fazilatlar majmuining ishlab chiqilganligini alohida e'tirof etish lozim. Shu munosabat bilan, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishning yaxlit tizimini yaratish, yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilishning tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqiy jihatlarini takomillashtirish, mazkur yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligini samarali yo'lga qo'yishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ularning ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hisini kuchaytirish, targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, mazkur sohaga doir ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish ustuvor vazifalar sifatida belgilab olingan. Bu esa, talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirishning umumkasbiy kompetensiyalar tizimidagi o'rni va rolini ochib berish

Bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantiruvchi va rag'batlantiruvchi o'ziga xos pedagogik va psixologik shart-sharoitlar



mavjud bo'lib, unda o'qituvchilarning shaxsiy xususiyatlari sanalgan, ma'naviy – axloqiy barkamollik, mas'uliyatlilik, hayotiy qadriyatlilik, ijtimoiy onglilik, o'zini o'zi nazorat qila olish, boshqaruv qobiliyati bilan bog'liq kompetentlilik kabi ijtimoiy-psixologik fenomenlar mujassamlashgan. Shuning uchun, mazkur tushunchalar mohiyatini tahlil etishdan oldin, bo'lajak o'qituvchilarning amaliy faoliyati uchun o'ta muhim sanalgan, kasbiy kompetentlik tushunchasining mazmun – mohiyatiga oydinlik kiritish muhimdir. Shu bilan birga, ushbu tushuncha bo'lajak o'qituvchining o'z sohasiga bo'lgan motivatsion harakatlari majmui bilan ham xarakterlanadi.

Bu borada oliy ta'limda o'qitiladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bo'lajak o'qituvchining shaxsiy va kasbiy kompetentligini rivojlantirishda hamda ma'naviy kompetentlik darajasini oshirib borishda fanning aksiologik imkoniyatlarini yoritib berish hamda muloqotning ijtimoiy-perseptiv uslubini faollashtirishga doir vaziyatlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bugungi kun o'qituvchisi nafaqat o'z fani bo'yicha kasbiy bilim va ko'nikmalarga yega bo'lishi, balki o'z o'quvchilarga qadriyatlarning tashuvchisi sifatida rasmiy pedagogik mavqega, ijodiy qobiliyatga yega, maktab o'quvchilarini izlash va umuminsoniy qadriyatlarga yo'naltira olish qobiliyatiga ham ega bo'lishlari kerak.

Oliy ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar belgilangan o'quv reja va dastur mazmuni asosida zarur kasbiy bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarni egallashi, shu qatorda ularning ma'naviy kompetentli yetuk shaxs sifatida kamol topishlari, maktabda o'quvchilarning ma'naviy shakllanib borishi ustida ishlashga tayyor bo'lishlari kerak bo'ladi.

Bilamizki, ta'limning barcha sohalarida gumanistik tendensiyaning kengayishi munosabati bilan pedagogik ta'limning mazmuni, kasbiy va qadriyat sifatleri masalasi o'qituvchi va uning ma'naviyati, o'qituvchining shaxsiyati va birinchi navbatda uning ma'naviy kompetentligi, kasbiy faoliyatda faqat inson mavjudligining ma'naviy boshlanishini, uning rivojlanishini tushunish jarayonida muhimligi o'z isbotini topdi. Olimlarning bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy adabiyotlarini pedagogik va psixologik jihatdan o'rganib chiqib, tahlil qilganimizda ularning bu mavzuga oid xulosalari o'ziga xos hamda umumiy jihatlariga egaligining guvohi bo'ldik. Jumladan,

Rus falsafashunos olimi M.S. Kagan o'zining asarida XXI asr nafaqat ma'naviyatni tahlil qilishni yaxshi biladigan o'qituvchini talab qiladi, balki «ma'naviyat-bu shaxsning xususiyati» ekanligini ta'kidlaydi .

Adabiyotlarni o'rganish jarayonida rus olimlaridan M. V. Boguslavskiy, YE. V. Bondarevskaya, B. Z. Vulfov, G. P. Vyjletsov, V. I. Dodonov, V. P. Zinchenko, B. T. Lixachev, N. D. Nikandrov, Z. I. Ravkinlar o'z ilmiy tadqiqot va ta'limotlarida bo'lajak o'qituvchining ma'naviy kompetentligini uning talabalik davridan boshlab

ma'naviyatini rivojlanishi intellektual va ijtimoiy yetuklikning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda olib borish zarurligini bunda pedagogik qadriyatlarni rivojlantirish, kasbiy faoliyati bo'yicha bo'lajak o'qituvchining ma'naviy salohiyatini ochib berish va rag'batlantirish jamiyat taraqqiyotining taqdiri kelajakka bog'liq oliy pedagogika maktabining dolzarb vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlashadi.

Taniqli rus olimi A.M.Novikov o'z izlanishlari asosida "...uzluksiz ta'lim jarayonida kasbiy ta'limning tizim tashkil qiluvchi mezoni sifatida bir butunlik, ya'ni elementlarning mexanik birlashuvi emas, balki barcha tizimni tashkil qiluvchilar va ta'lim jarayonlarining chuqur integratsiyasi asosida bo'lajak o'qituvchining ma'naviy kompetentlik darajasi yuzaga chiqadi...", deya bayon etgan.

A.V.Xutorskiy o'z ilmiy izlanishlarida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy yetuklik darajasini belgilovchi kompetensiyalarni quyidagicha tavsiflaydi:

1. Keng dunyoqarash asosida qadriyat va o'zini anglash kompetensiyasi - o'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlaridagi o'z-o'zini anglash mexanizmini ta'minlab, uning dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalarning mohiyatini ko'ra oladi va tushunadi bunga o'zini yo'naltiradi, pedagog sifatida o'z fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa olishi bilan belgilanadi;

2. Umummadaniy milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lish kompetensiyasi - bu mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish, oilasiga, urf-odatlariga hurmat, ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lish, ilm- fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta'sirini anglay olishi va o'quvchi ongiga singdira olish;

3. O'quv va bilish jarayonida o'qituvchining mustaqil bilish faoliyati kompetensiyasi – uning mantiqiy fikrlashi, o'quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko'nikmasini tahlil qila olishi;

4. Ma'lumotlarga ega bo'lish kompetensiyasi – uning pedagogik faoliyati, o'z faniga doir ma'lumotlarni uzviy va uzluksiz tarzda mukammal darajada egallash ko'nikmasi;

5. Muloqotchanlik kompetensiyasi – o'qituvchining til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo'lishi, jamoada o'ziga xos o'rinda turishi;

6. Ijtimoiy kompetensiyasi – o'qituvchining foydali mehnat, oilaviy munosabatlar va mas'uliyat, jamiyat rivojida ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lish;

7. O'z ustida ishlash kompetensiyasi – o'qituvchining jismoniy, ma'naviy, intellektual jihatdan o'z-o'zini rivojlantirish va o'z hissiyotlarini boshqara olishi kabilar.

Yuqoridagilar asosida shuni ta'kidlash joizki, ma'naviy rivojlangan o'qituvchi - bu yaratilgan dunyo qadriyatlarini tafakkuriga kiritib, o'ziga singdira olgan shaxs tarixiy jarayonda insoniyat ongi bilan rivojlanish, dunyoga shaxsan munosabatda bo'lgan muhim obyekt hisoblanadi. Aslida, ma'naviyatni rivojlantirish shaxsiyat va uning mentalitetini

qurishning eng yuqori qadriyatlaridan chiqish sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. O'qituvchi uchun uning ruhiy dunyosi uning ma'naviy shakllanishining asosi bo'lib xizmat qiladi. Ma'naviy dunyo insonning dunyoga, undagi o'rni haqidagi qarashlari tizimida aks etadi va uning his-tuyg'ulari va faoliyatida namoyon bo'lishi ijodiy xarakterga ega.

Ma'lumki, zamonaviy jamiyatda ta'lim bu barcha muammolarini aks yettiruvchi ijtimoiy institut bo'lib, oliy ta'lim o'quv dasturlari fanlari orqali ushbu ko'nikma egalik jarayonlarini faollashtirish, unda chuqur axloqiy va ma'naviy qadriyatlar o'z aksini topishi asosiy talablardan biri hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchining yuksak axloqiy, mas'uliyatli, ijodiy, tashabbuskor, vakolatli fuqaro sifatida shakllantirish va rivojlantirishni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali ma'naviy-axloqiy yo'nalishdagi tarbiyaviy chora-tadbirlar shaxsni axloqiy rivojlantirish ta'limning asosiy vazifasidir.

A.N.Novikovning aytishicha, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetentlik xususiyatlari asosida ularning ma'naviy kompetentligini rivojlantirib borishda quyidagilar o'ziga xos jihatlar bilan tavsiflanadi:

1. Boshqalar bilan erkin, samarali va natijali muloqot qila olish ko'nikmalari;
2. Zamonaviy axborot texnologiyalari va media ta'limdan samarali foydalana olish malakalari;
3. Kasbiy va ijtimoiy sohaga oid ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish;
4. Iqtisodiy va sohaga oid yangiliklardan xabardorlik;
5. Ta'limga oid me'yoriy - huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati va ahamiyatlik darajasidan xabardorlik;
6. Kommunikativ kompetensiyaga egalik va xorijiy tillardan kamida bittasini mukammal bilish;
7. Atrofidagilarga ijobiy ta'sir eta olish va ularni o'zgartirishga nisbatan psixologik tayyorlik;
8. Insoniy fazilatlarni o'zida rivojlantirib bora olish hamda shaxsiy namuna bo'la olish kabilar.

Bundan tashqari, kasbiy faoliyatda ma'naviy kompetentlik mezonlari ixtiyoriy faoliyatning ikki jihatini qamrab olishi ta'kidlanadi.

Bo'lajak o'qituvchining ma'naviy kompetentligi uning kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim, mahorat, ko'nikmaga egaligida, uning pedagogik obro'-e'tibori, funksional, ya'ni kasbiy bilim va mahoratini amalda ro'yobga chiqara olishi. Intellektual, ya'ni tahliliy fikr yuritish va o'z vazifalarini bajarish uchun kompleks yondoshish qobiliyati, turli vaziyatlarga moslasha olib harakat qilish qobiliyati, ijtimoiy, kommunikativ va integrativ qobiliyatlarga egaligi, har qanday jamoada til topa olish qobiliyati kabilar bila uyg'unlashadi. Bunda uning madaniyatli;

umuminsoniy qadriyatlarga egalik; milliy madaniyatga ega bo'lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilishi, jamiyat va insonlarga, tabiatga ijobiy emotsional munosabat da bo'lish tajribasi kabi ko'nikmalarga egaligi



samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Новиков В.В. Социальная психология и экономика: Избранные произведения в 11-ти томах: Т.П. Ярославль: Изд-во МАПН, ЯрГУ, 2005. – С.165.

2.Юсупов Ф.М. Педагог, ищущий новое: штрихи к портрету // Вопросы психологии. 1991. - № 1. - С. 36 - 42.

3.Мешков Н.И.Становление учебно-профессиональной мотивации студентов в процессе подготовки педагогических кадров в университете. Авто-реф. . дра психол. наук. СПб, 1993. – 31 с.

4.Борисов В.В.,Ягупец С.Ю.Проектно-технологическая компетентность как составляющая профессиональной компетентности будущего учителя технологий // Молодой ученый. — 2015. — №12. — С. 716-721.

5.Шарипова Ш. С. Профессиональная педагогическая компетентность учителя // Молодой ученый. — 2017. — №11. — С. 511-514.

---

## **19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI**

---

### **TUSH KO'RISH JARAYONINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK, FIZIOLOGIK VA DINIY YONDASHUV ASOSIDA TAHLILI**

*Nabiyev Muhrodbek Bobirovich*

*Turon Zarmed Universitetining boshlang'ich ta'lim, pedagogika va  
psixologiya kafedrasida o'qituvchisi*

---

### **АНАЛИЗ ПРОЦЕССА СНОВИДЕНИЯ НА ОСНОВЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО, ФИЗИОЛОГИЧЕСКОГО И РЕЛИГИОЗНОГО ПОДХОДА**

*Набиев Мухроdbек Бобирович*

*Преподаватель кафедры начального образования, педагогики и  
психологии Университета Турон Зармед*

---

### **ANALYSIS OF THE DREAMING PROCESS ON THE BASIS OF THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL, PHYSIOLOGICAL AND RELIGIOUS APPROACH**

*Nabiyev Muhrodbek Bobirovich*

*Teacher of Turon Zarmed University in primary education, pedagogy  
and psychology department*

---

*Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi kunda har bir shaxs uchun qiziqarli ham mulohazali bo'lgan tush ko'rish jarayoni haqida va uning shaxsga bevosita hamda bilvosita ta'siri haqida bayon etilgan bo'lib, hozirda tush ko'rish bilan bog'liq ba'zi bir muammoli holatlar va ularni tahlil qilishdagi asoslar, psixologik hamda diniy-falsafiy yondashuvlarning o'zaro tadqiqi bayon etilgan. Xususan tush ko'rish jarayonining fiziologik asosi, uning kechishi, va oqibatlari haqida hozirgi zamonning va o'tgan asrlarga tushlar haqidagi mulohazalar tushuntirib o'tilgan. Bundan tashqari tush ko'rishning fiziologik, psixologik va diniy-falsafiy qarashlarining nazariy tahlili bayon etilgan bo'lib, tush tabirlarning psixologik tomoni va zamonaviy psixologiyadagi tush tabiri hamda diniy-falsafiy tomondan tush tabirlarining nazariy tahlili, ularning shaxsga ta'sirining nechog'lik ahamiyati xususida, yaxshi va yomon tush ko'rishning inson salomatligiga ta'siri va uni bartaraf etish haqida tanqidiy tahlili ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birgalikda shaxslarda kuzatiladigan tushlarning holatlari, ulardagi qo'rquvlar, tush ko'rish holatidan chiqq olmaslik, tushlarni boshqarishga oid metod, tavsiya va ba'zi bir qilinishi kerak bo'lgan ko'rsatmalar bayon etilgan.*

*Kalit so'zlar: Tush ko'rish, fiziologiya, tush tabiri, shaxs qo'rquvlari, bashorat, psixoanaliz, shaxs, shaxsiy tajriba, tush masalalari, diniy-falsafiy*

---

qarash, psixologik yondashuv,

*Аннотация: В данной статье описывается процесс сновидения, который сегодня интересен и вдумчив для всех, и его прямое и косвенное влияние на личность, а также некоторые вещи, связанные со сновидением сегодня, проблемные ситуации и основания их анализа, взаимное исследование описаны психологические и религиозно-философские подходы. В частности, в комментариях о сновидениях настоящего времени и прошлых столетий объясняются физиологические основы процесса сновидения, его прохождения и последствий. Кроме того, описан теоретический анализ физиологических, психологических и религиозно-философских взглядов на сновидение, психологическая сторона толкования сновидений в современной психологии, теоретический анализ толкования сновидений с религиозно-философской точки зрения, значение их влияния на личность, в частности, показан критический анализ влияния хороших и плохих снов на здоровье человека и их устранение. При этом описываются состояния сновидений, наблюдаемые у отдельных лиц, их страхи, невозможность выхода из состояния сновидения, способ управления сновидениями, рекомендации и некоторые указания, которые следует выполнять.*

*Ключевые слова: Сновидение, физиология, толкование снов, личные страхи, пророчество, психоанализ, личность, личный опыт, проблематика сновидения, религиозно-философский взгляд, психологический подход.*

*Annotation: This article describes the process of dreaming, which is interesting and thoughtful for everyone today, and its direct and indirect influence on the personality, as well as some things related to dreaming today, problem situations and the basis for their analysis, mutual research describes psychological and religious philosophical approaches. In particular, commentaries on dreams of the present and past centuries explain the physiological basis of the dream process, its passage and consequences. In addition, a theoretical analysis of the physiological, psychological and religious-philosophical views on dreams, the psychological side of the interpretation of dreams in modern psychology, and a theoretical analysis of the interpretation of dreams from a religious-philosophical point of view are described. Also view, the significance of their influence on the personality, in particular, a critical analysis of the influence of good and bad dreams on human health and their elimination is shown. This describes the dream states observed in individuals, their fears, the impossibility of exiting the dream state, the method of controlling dreams, recommendations and some*

*instructions that should be followed.*

*Keywords: Dreaming, physiology, interpretation of dreams, personal fears, prophecy, psychoanalysis, personality, personal experience, dream problems, religious and philosophical view, psychological approach.*

Kirish. Ma'lumki, tush ko'rish ixtiyorsiz xayolning bir ko'rinishidir. Inson uxlagan vaqtida tush ko'radi. Agar bosh miyada biror markaz qo'zg'alib qolsa, shu markazga ta'sir etgan voqea hodisalar xira bo'lsa ham miyada tiklanadi va odam tush ko'radi. Bugungi ilm-fan inson ko'zi hamma narsani ko'rish qobiliyatiga ega emasligini aniqlagan. Quloq esa barcha tovushlarni eshitishga qodir emas. Tush ko'rish - uyquda sodir bo'ladigan subyektiv psixik hodisa. Fiziologik jihatdan tush bosh miya katta yarim sharlarining tormozlanmagan hujayralari faoliyati natijasidir. Chuqur uyqu paytida bosh miya po'stloq qismining hujayralari butunlay tormozlanadi va bunda tush ko'rilmaydi. Bosh miya po'stloq qismining ayrim bo'laklari tormozlanmaganda shu joylar kuchsiz ta'sirotlarga sezgir bo'ladi. Shunda odam tush ko'radi. Tushda uyqudagi kishi aniq va tasvirli kechinmalarning shohidi bo'ladi. Tushdagi voqealar bir-biriga bog'liq, bir oz noaniq, hayajonli, afsonaviy tus oladi. Tush asosan, tez kechadigan uyqu fazasidan uyg'onish vaqtida yoki undan so'nggi bir necha minut davomida ro'y beradi, kishi uni uzoq vaqt yodiga saqlay olmaydi. Kishi sokin kechadigan uyqu fazasida ham tush ko'rishi mumkin. Ertalabki uyg'onish davrida tush, odatda, uzoq davom etadi (chunki bunda «tez kechadigan» uyqu vaqti uzoqroq bo'ladi).

Asosiy qism. Tush inson hayotining ajralmas qismi ekanligi hammaga ma'lum, shu bilan birgalikda tush insonni xursand qilishi, tug'yonga ketishiga, masrur bo'lishi, qo'rquvga solishi ham mumkin. Turli millatda tush xususida turli xil aqida, tushuncha, tush tabirlari bor. Tushning xususiyati har bir shaxsning nerv sistemasi tipiga, uning salomatligiga, ma'lum davrdagi o'y - kechinmalariga bog'liq. Uyqu faoliyatida ma'lum taassurot va obrazlarni idrok etish holati ko'p uchrab turadi.

Ogning o'ziga xos bu xolati tush ko'rish deyiladi. Tush ko'rish uyquning tez davrida sodir bo'lishi uning po'stloq hujayralari faolligi natijasida ekanini ko'rsatadi. Bu faollikni doimo mavjud bo'lgan kuchsiz ta'sirotlar (xona haroratini doimiy o'zgarib turishi, turli xil tovushlar, kaslliklar) kuchaytiradi. Ular turli tuyg'ularni keltirib chiqaradi, bu tuyg'ular ko'rilayotgan tushga aralashib ketadi. Ba'zan televizor tovushi tushga qo'shilib ketadi. Tush ongda birin ketin namoyon bo'ladigan ko'ruv, eshituv, teri-taktill obrazlaridan iborat. I.P.Pavlovning fikricha tush ko'rishning asosi avval kechirgan qo'zg'alishlarning uyqu vaqtida o'ziga xos faollikdan bo'lgan po'stloq hujayralari qayta tiklanishidir. Ma'lumki, ko'rgan eshitganimiz po'stloq hujayralarida qayd qilinadi, nerv tizimida iz qoldiradi. Bedorlik holatida bu

izlar paydo qiladigan ko'zg'alishlar ko'pincha tormozlangan bo'lib, faqat eslaganda tormozlanishidan chiqishi mumkin.

Tushimizda bo'lib o'tgan voqealarni bevosita ko'rayotgandek bo'lamiz. Tush ko'rish boshdan kechirgan voqealar izlarining miyada qayta tiklanishini asosi bo'lishini ba'zi dalillar isbotlaydi. Masalan, ko'r bo'lib tug'ilgan bola tushida hech qachon ko'ruv obrazlarini ko'rmaydi. es-xushini tanib olgandan keyin ko'r bo'lgan odamning tushida ko'ruv obrazlari namoyon bo'ladi, tushda avval boshdan kechirilmagan, ko'rilmagan, eshitmagan hodisalar uchramaydi. (Ba'zan tushda ko'rilmagan, eshitilmagan voqea-hodisalar ham bo'lishi mumkin) Bo'lib o'tgan xodisalar izining markaziy nerv sistemasida tiklanishi turli xarakterga ega bo'lishi mumkin. Ba'zan tushda o'tgan xodisalarning vaqtdagi va fazodagi tartibi saqlanib qoladi. Ko'pincha tushda ancha ilgari sodir bo'lgan hodisalar kecha-bugungi hodisalarga aralash-quralash bo'lib ketadi. Tushda umuman ko'rilmagan odam yoki tabiatda uchramaydigan hayvon qiyofasini, boshdan o'tmagan hodisalarni ham ko'rish mumkin. Ba'zida serial ko'rinishidagi tushlar ham bo'lib turadi. Bunday holatlar ko'pincha psixologik jarohlarda (travma) (oilaviy mojarolar, yaqin insonini yo'qotish, nohaqliklar,) uchrab turadi.

Uyquning ultra paradoksal, paradoksal va tormozlanish fazalari farq qilinadi. Odam ko'pincha tushning ultra paradoksal fazasida tush ko'radi. Bu chuqur uyquga ketish yoki odam uxlashdan uygonishga o'tayotgan vaqtga to'g'ri keladi. Uygonishdan va uxlashdan biroz oldin ko'rilgan tushlar esda qoladi. Chuqur uyqu davrida ko'rilgan tushlar ko'pincha esda qolmaydi. Ba'zi odamlar butun umri mobaynida tush ko'rmasligi mumkin. Ba'zi odamlar juda ko'p tush ko'radi. Hayvonlar ham tush ko'radi. Chaqaloq ham tush ko'radi. Yuqoridagi mulohazalar psixologik hamda fiziologik asoslarning o'zaro birikuvidan iborat fikr va mulohazalar hisoblanadi.

Muhokama va natijalar. Tush va unga bog'liq bo'lgan masalalar psixologiyada juda ko'p marotaba murojaat etiladigan mavzulardan hisoblanadi. Chunki aksar shaxslar tush va unga bog'liq bo'lgan hodisalarni o'zlaricha talqin etishlari ortidan turli ko'ngilsiz hodisalarga duchor bo'lishadi yoki tushning ta'biri va haqiqatini bilishmaydi. Albatta tush ko'rish va tush ta'biri har bir shaxsda e'tiqod nuqtai nazaridan tafovutlanadi. Chunki shaxslar qaysi muhitda ko'proq faoliyat yuritishsa, shu faoliyatga bog'liq bo'lgan hodisalar tushga ko'riladi. Zamonaviy g'arb psixologiyasida ham tush ko'rish masalasida taniqli sanalgan Zigmund Freyding ba'zi bir mulohazalari asosida turli xil yondashuvlar bor. Asr boshida yozilgan ikki muhim asarida Z.Freyd barcha individlarda ongsiz mental jarayonlar mavjudligi haqida gapiradi va psixoanaliz kundalik hayotning ongsiz sabablarini aniqlab berishga qodir ekanligini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida inson ruhining yangi va har tomonlama nazariyasini ishlab chiqishga olib keladi. Tushlar ta'birida



(1900) tushlar mazmunga ega ekani va anglanmagan mayllarning onga buzilgan va o'zga shaklda bostirib kirishlari natijasi ekanligi qayd qilinadi. (Islom ideologiyasida! Tushning ta'biri ) Tushlarga yashiringan ongsizlik mazmunini faqat murakkab talqin jarayoni yordamidagina aniqlash mumkin. Kundalik hayot psixopatologiyasi asarida kundalik hayotdagi nutqdagi adashishlar va xotiradan ko'tarilib qolishlar kabi xatoliklar tadqiq qilinadi. Z.Freydning fikricha, bunday fenomenlar tasodifiy va ma'nosiz emas, balki ongsizlik va niyatlarni ifodalaydi. Masalan: biz o'zimizga yoqmay qolgan kimsadan olingan tassurotni yo'qotamiz yoki esdan chiqarib qoyamiz. Mana shu yerning o'zidayoq aytish mumkinki, psixoanaliz insonni yangicha tushunishni taklif qiladi, bizning tushlarimiz, noadekvat reaksiyalarimiz, hazillarimiz ortida aksariyat hollarda ongsiz motivlar bo'lishini ta'kidlaydi. Boshqacha qilib aytganda, Z.Freyd mulohazalariga amal qilsak, sub'ektning ongli motivlari va niyatlari asnosida tushunarli bo'lgan narsalar ongsizlikni psixoanalitik tadqiq qilish natijasida yangi ma'no kasb etishi mumkin. Bir qarashda tushunarsiz va ma'nosiz bo'lgan alomatlar, ularga ongsiz motivlar va niyatlar ifodasi sifatida qaralsa ma'no kasb etadi. Demak, biz Z.Freyd shubha germenevtikasini asoslayapti deb aytishimiz mumkin. Nerv jarayonlari xastalikka uchragan bemorlar bilan muloqot qilar ekan, Z.Freyd ular o'zlarining ichki holati bo'lgan ongsizligini anglamayotganliklarini aniqladi. Shu bilan birga bemor psixoanalitikni o'zidagi nervozlik alomatlari deb tushunishga olib kelishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, alomatlar mazmunga ega, biroq bu alomatlarning egasi ham, doktor ham bu mazmun haqida bevosita bilimga ega emas. Shu o'rinda talqin zarur bo'lib qoladi. Z. Freyd aytishicha, (yashirin yoki xavotirli) seksual mayllar ma'nisiz ko'rinadigan simptomlari yoki tushga aylanishi mumkin. (Islom ideologiyasida! ) Xo'sh nima uchun bunday mayllar ong ostiga siqib chiqariladi? Z.Freyd fikricha, emotsional kechinmalarni psixikaning xotira etib bora olmaydigan qismlariga siqib chiqarish mexanizmlari mavjud. Namoyon bo'lishi jihatidan almashtirilgan kechinmalar travma bo'ladi (travma o'zbek tilida jarohat ma'nosini bildiradi). Travmaning kelib chiqishi oxir oqibat ilk bolalikkacha tekshirilishi mumkin. Muhokamaning o'ziga xos (erkin assotsiatsiyalar) usulidan foydalanib, 95 bemor va psixoanalitik travmaning ildizlarini aniqlashadi. Demak, psixoanalizning terapevtik maqsadi ong osti va siqib chiqarilgan axborotni qayta tiklash va uni ego tassarufiga uzatishdan iborat. Ongosti (podsoznanie)ni turli usullar bilan o'rganish mumkin. Jumladan, ana shunday usullardan biri erkin assotsiatsiyalar bo'lsa, ikkinchisi tush va yanglish harakat (ibora)larni chuqur germenevtik talqin qilishdir. Z.Freydning o'zi tushlarning ta'biriga markaziy o'rinni ajratgan edi. Tushlarni ta'birlash ongsizlikning bilishga (podshoh qasriga yo'l) bo'lib, psixoanalizning eng

asosi va har qanday tadqiqotchi ishonch va ma'lumot oladigan sohadir. (Islom ideologiyasida! Tush ta'бири sha'riy nuqtai nazardan kelib chiqib tahlil etiladi. Ishga, oilaviy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan hodisalarning tahlili oddiy tush hisoblanib, ta'bir etishga zarurat bo'lmaydi.) Mendan, qanday qilib psixoanalitik bo'lish mumkin, deb so'rashsa, men doimo o'z tushlaringizni o'rganish orqali, deb javob beraman. (Islom ideologiyasida! Har doim tush bilan inson hayotiga baho berilmaydi. Tush biror bir ishga bashorat emas, balki biror ishning alomati tarzida bo'ladi.) Tushlar ta'бири asarida tushlar psixozlar bilan tashqi o'xshashlik va ichki o'zaro aloqadorlikka ega, deyiladi. Biroq ular sog'lom va normal holat bilan to'la mos kelishi mumkin. Umuman, tush alomat sifatida talqin qilinishi mumkin, biroq nimaning alomati sifatida? Z.Freyd yosh bolalar o'zlarida bir kun oldin (kunduzgi fantaziya) paydo bo'lmagan lekin qondirilmagan istaklar va mayllar haqida tush ko'rishlarini aytib o'tadi. Tush, shunday qilib, ular istaklarining royobga chiqishidir. (Islom ideologiyasida! Albatta kunduzi nimagadir insonning havasi yoki ehtiyoji sezilsa, ammo uni amalga oshirish imkoni bo'lmasa, tushda shuni ko'rish ehtimoli bor. Ammo bu insonda qandaydir kasalliklarni keltirib chiqarishi aniq emas.) Kattalarning tushi ham kunduzgi fantaziyaning muayyan qismiga ega, biroq bu yerda vaziyat murakkabroq. Kattalarning tushlari ko'pincha tushunarsiz va kunduzgi mayllarni qondirishdan juda uzoq (dahshatli tushlar va vahimalar). (Tushlarning vahimali va qo'rqinchli bo'lishiga sabablardan: yotish joyining noqulayligi, yotishdan oldin qattiq, sho'r, og'ir taomlarni, gazli ichimliklarni tanovul qilish, doimiy stresslar, depressiyalar, nevrozlar.) Z.Freyd fikricha, bunday tushlar ong ostiga siqib chiqarilish ob'ekti bo'ladilar. Tushlar qo'rqinch bilan birga bo'lsa, bu ularning siqib chiqarilgan, ega ma'qullamaydigan va ma'n qilingan istaklarini qondirish maqsadida vujudga keladi. Tushni tushunish uchun uning ochiq mazmunini va yashirin ongsiz mazmuni (tushdagi yashirin fikrlar)ni farqlashimiz kerak. Birinchisi, biz uyqudan uyg'ongandan keyin ozmi-ko'pmi eslashimiz mumkin bo'lgan narsalar. Ikkinchisi, ong osti sathida yoki boshqa qavatda tushning ochiq mazmuni uning siqib chiqarilgan va anglanmagan mazmunining o'rniga vujudga keladi. Siqib chiqarish bizning mental murvatlarimiz ta'siri natijasidir. Uyg'oqligimizda bu murvatlar bizning ongimizga ong ostidagi va siqib chiqarilgan mayllarning kirib kelishiga yo'l qo'ymaydi. Biroq uxlaganimizda, ular bizning psixikamizga niqoblangan holda kirib keladilar. Demak uxlayotgan odam tushlarning ma'nosini xuddi nevroitik o'zidagi alomatlar ma'nosini tushuna olmaganiday tushunmaydi. Biz eslaydigan (ochiq mazmunli) tushlar siqib chiqarilgan mayllarning buzilgan holda royobga chiqishidir. Tushdagi yashirin ong osti fikrlarini buzib ko'rsatuvchi jarayonni Z.Freyd —tushning ishi deb ataydi. Ko'p jihatdan u siqib

chiqarilayotgan komplekslarni nevrotik alomatlarga aylantiradigan muvaffaqiyatsiz siqib chiqarish jarayoni bilan bir xil kechadi. Tush ishining murvatli tushlarni bo'rttirish, o'rnini almashtirish, dramatiklashtirish va timsollashtirishdir. Bundan tashqari tushning ikkilamchi ishi ham mavjud. Ong osti shunday qilib, artistik vositalardan foydalanishga harakat qiladi. Shu ma'noda biz barchamiz tushlarimizda ham aktyorlarmiz. Bo'rttirish masalan: tushdagi voqea (esda qolgan) bir necha turli xil istaklardan iborat bo'lishi mumkin. O'rin almashtirish shunday jarayonki, tushimizda biz uchun juda zarur bo'lgan hodisa yoki shaxs juda kichik ishora yoki bizga notanish narsa sifatida namoyon bo'ladi. Xuddi shunday, hodisa mazmun jihatdan juda oddiy hodisa ifodalangan tushimiz qo'rqinch yoki kuchli hissiyotlar bilan bog'lanishi mumkin. Bo'rttirish yoki o'rin almashtirish o'z ishini qilib bo'lgandan keyin, psixoanalitik anglanmagan mazmunni aniqlash va tadqiq etish uchun erkin assotsiatsiyalar usulidan foydalanadi. Shunga o'xshash timsollashtirish buzishning bir varianti bo'lib chiqadi. Masalan: erkaklarning genitaliysi unga shakl jihatdan o'xshash bo'lgan ob'ektlar. Masalan, konserva bankasi, zontik, pichoq va revolver kabi narsalar bilan almashtirilishi mumkin. Ayollarning genitaliysi bo'sh joyni o'rab turgan ob'ektlar (g'or, quti, xona, bino va boshqalar) yordamida timsolan taqdim qilinishi mumkin. (Aflotun tomonidan taklif qilingan g'orga qiyoslash psixoanalitiklar tomonidan qanday talqin qilinishi mumkin edi.) Tushning ikkilamchi ishi tushni mantiqiy qarama qarshiliksiz, og'zaki ifodalashga harakat qilishimizdan kelib chiqadi. Freyd fikriga ko'ra, tushning ochiq mazmuni juda ko'p turli va qarama qarshi elementlarni qamrab oladi. Aytish mumkinki bu o'ta aniq. Shunga o'xshash tarzda turli sabablar zanjiri va omillar psixologik alomatlarni o'ta aniqlab beradi. Z.Freyd aytishicha, tushning yashirin fikrlari senzurdan o'tkaziladi. Sodaroq qilib aytsak, siqib chiqarilgan va ma'n qilingan mayllar ongda namoyon bo'lish uchun senzurdan o'tishlari kerak. Senzurani chetlab o'tish uchun tushning ishi tushdagi yashirin fikrlarni tushning ochiq mazmuniga aylantiradi. Biz eslaydigan tushimiz maxfiy, kodlashtirilgan axborotga ega bo'lib, u ongimizga kontrabanda yo'li bilan olib kiriladi. Biz tushimizning ochiq mazmuniga yechish lozim bo'lgan rebusga qaraganday qarashimiz mumkin. Psixoanalitik kodni ravshanlashtirgandan keyingina tushning yangi mazmuni paydo bo'ladi. Maxfiy ma'no nima? Z.Freyd aytishicha, kattalarning tushlari ko'pincha seksual tomonga yo'naltirilgan va erotik mayllarini ifodalaydi. (Bu kabi shahvoniy tushlarni kimgadir aytish islom ideologiyasiga mutlaqo zid. Agarda tushida ehtilom bo'layotgan bo'lsa, bu tabiiy hol!) Bu xulosa Z.Freyd keyinchalik agressiya yoki o'lim unikal instinkti haqidagi tushunchani kiritgandan keyin muammoli bo'lib qoldi.

Islom ta'limotining muqaddas sanalmish Qur'on va Hadislarda kelgan manbalar tushning xususiyatini, uning ijobiy hamda salbiy tomonini ochib

beradi. Qur'oni Karimda tush asosan Yusuf surasida zikr qilingan bo'lib, bu sura boshi ham, oxiri ham, o'rtasi ham tush bilan bog'liq hodisalar bayon etilgan. Aynan Yusuf bizga tush va unga bog'liq bo'lgan masalalarga yechim bo'la oladi. Bundan tashqari Hadisi shariflarda: Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda:

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam:

“Albatta, risolat va nubuvvat kesildi. Mendan keyin rasul ham, nabiy ham bo'lmaydi”, dedilar.

Bu gap odamlarga og'ir keldi. Shunda u zot:

”Lekin mubashshirotlar bordir”, dedilar.

”Yo Rasululloh! Mubashshirotlar nedir?” deyishdi.

“Musulmonning tushidir. U nubuvvatning juzlaridan bir juzdir”, dedilar. Termiziy va Buxoriy rivoyati.

Sharh: Bu hadisi sharifdan mo'min kishining tushi unga bashoratlar berib turuvchi omil ekanligini bilib olamiz. Tush yaxshilikning bashoratini ham, ko'ngilsizlikning tanbehini ham, yomonlikning ogohlantirishi ham bo'lishi mumkin. (Bundan ma'lum bo'ladiki, tush inson uchun ham ijobiy tus, ham salbiy, ham hech qanday ahamiyat kasb etmasligi mumkin.)

Abu Sa'id roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam:

qachon biringiz o'zi uchun yaxshi tush ko'rsa, shubhasiz u Alloh dandir. Bas, u Allohga hamd aytsin va uni (tushni) birovlarga aytsin. Qachon boshqacha, yoqmaydigan tush ko'rsa, shubhasiz u shayton dandir. Bas, uning sharridan panoh tilasin va uni (tushni) zikr qilmasin. Shunday qilsa, unga zarar keltirmaydi”. dedilar”. Buxoriy rivoyat qilgan.

Sharh: Bu hadisi sharifda tushlar ikki xilga – yaxshi tushga va yoqmaydigan tushga bo'linishi ta'kidlangan.

Birinchi xil tush.

Tush ta'biri borasidagi musulmon bilimdonlarning fikrlariga ko'ra, odam tushida ibodat qilayotganini ko'rsa, eng yaxshi tush ko'rgan bo'ladi. Namoz o'qish, ro'za tutish, taholat olish va shunga o'xshash ibodatlarni tushida ko'rgan odam avvalo Alloh taolaga shukrlar aytib, keyin uni boshqalarga, xususan, olim kishilarga aytgani yaxshidir. Musulmon odam o'ziga yaxshilik yetganda, albatta, Alloh taolaga hamd aytmog'i lozim. Jumladan, yaxshi tush ko'rganda ham. Shu bilan birga, bu yaxshilikni boshqalarga aytish ham yaxshilikdir.

Ikkinchi xili – yoqmaydigan tush.

Kim tushida o'tga tushganini, baland joydan qulab tushganini yoki boshimi, biror a'zosimi, uzilganini ko'rsa, yomon tush ko'rgan bo'ladi.

Bunga o'xshagan tushlarni ko'rgan odamlarga Payg'ambar alayhissalom quyidagi nasihatni qilmoqdalar:

“Qachon boshqacha, yoqmaydigan tush ko’rsa, shubhasiz u shaytondandir. Bas, uning sharridan panoh tilasin va uni (tushni) zikr qilmasin. Shunday qilsa, unga zarar keltirmaydi”. dedilar. Ana shunday tushni ko’rgan odam darhol Alloh taolodan panoh tilashi va bu tushni hech kimga aytmaligi kerak bo’ladi. Shunda ko’rgan tushi unga zarar ishorasi bo’lmaydi. Lekin har doim ham yaxshi tushlar ko’rib, undan xursand yurish, masrur bo’lib, hech qanday faoliyatni qilmaslik, bu o’sha faoliyat yaxshi natija beradi degan tushunchadan yiroq bo’lmoq lozim. Yoki yomon, salbiy bir tush ko’rishning ortidan insonda kuzatiladigan ruhiy tushkunlikla unga yanada ham kuchli ta’sir etishi aniq. Bu o’sha salbiy o’ylarni chaqirishga olib keladi.

Abu hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam:

“qachon zamon yaqin bo’lsa, mo’minning tushi yolg’on bo’lmay qoladi. Sizlarning tushi roostingiz gapi roostingizdir. Musulmonning tushi nubuvvatning qirq besh juzidan bir juzdir.

Tush uch xildir: Solih tush Allohdan sevinch bashoratidir. Mahzun tush shaytondandir. Kishi o’ziga o’zi gapirgan narsani tushida ko’radi.

Agar biringiz o’ziga yoqmagan narsani tush ko’rsa, turib namoz o’qisin. Uni odamlarga aytmasin”, dedilar.

Sharh: “Qachon zamon yaqin bo’lsa, mo’minning tushi yolg’on bo’lmay qoladi” bu jumladagi “zamon yaqin bo’lishi” tun bilan kunning uzunligi bir-biriga yaqinlashib qolishidir. Bu holat bahorda kuzda bir marta o’zining eng yuqori cho’qqisiga chiqib, kun bilan tunning uzunligi teng bo’ladi. Ungacha ulardan biri uzayib, ikkinchisi qisqarib boradi va undan keyin aksincha bo’adi.

Ana shu kun va tun teng bo’lgan nuqta va uning ikki tarafidagi vaqtlarda ko’rilgan tushlarning ko’pchiligi yolg’on bo’lmay qoladi.

Bundan tushning qanday ekanligi uning ko’rilgan vaqtiga ham bog’liqligi kelib chiqadi. Islom ta’limotida tushning xosiyati musulmon shaxsiga bevosita bog’liq. Chunki musulmon shaxsi islom e’tiqodiga binoan ish tutadi. Alloh amrlari o’z vaqtida og’ishmay qilishga baholi qudrat harakat qiladi. Musulmon e’tiqodiga binoan, biror kishi yotishdan oldin tahorat olib, o’ziga sunnatga muvofiq Qur’onda kelgan oyatlardan o’ziga dam solishi va Sunnatda kelgan duolarni qilib, o’ng tomonga yonboshlagan holda yotsa, kun bilab tun almashadigan vaqtda tush ko’rsa va saharga yaqin tush ko’rsa biror ishning alomati sifatida ko’riladi. Musulmon shaxsi agar qaysidir ishni qilishga qasd qilsa, sunnatga muvofiq ikki rakat namoz o’qishi va duosi o’qishi va o’zi istayotgan ehtiyojini tilga olib duo qiladi. Shundan so’ng tushida qandaydir ishora (xoh ijobiy, xoh salbiy) ko’rsa, shunga qarab ish tutishi nazarda tutilgan. Lekin bu tush bo’lmasligi ham mumkin. Tasavvuf ulamolarida ham, tush bilan bog’liq juda ajoyib holatlar bo’lgan. Naqshbandiya tariqati asoschisi

Bahouddin Naqshband haqlarida Salohiddin Muborakning “Anis ut-tolibin va uddat us solikin” asarida shunday voqea bayon etiladi: Hazrat Bahouddin Naqshbandning to’rtinchi xalifasi, keyinchalik olamga naqshbandiylikni mashhur etgan Xo’ja Ahrori Valiyning ustoz bo’lgan zot Mavlono Ya’qubi Charxiy Hazrat Bahouddin Naqshband bilan uchrashib, u kishi tariqatlariga kirmoqchi ekanligini aytganda, hazrat undan bu ishning sababini so’raydilar. U kishi shunday deydi:

-Sahih hadisda aytilganki, qachonkim Haq taolo bir bandani o’ziga do’st tutsa, uning do’stligini bandalarini diliga soladi.

Hazrat Bahouddin Naqshband tabassum qilib dedilar:

-Biz Azizon muridimiz.

Bu so’zdan Mavlono Ya’qubi Charxiyning holi o’zgaradi, chunki bir oy avval tush ko’rgandiki, unga shunday degan edilar: “Sen Azizon muridiga farzand bo’l”

Oradan bir oz muddat o’tgach, Bahouddin Naqshband aytadilar:

-Bugun tushda kutamiz, ko’ramiz qani Azizonning ruhidan qanday ishorat bo’ladi. Shunga qarab amal qilamiz. Biz bajaruvchimiz, bajaruvchi esa uzrlidir.

Tun o’tdi. Bomdod namozi ado qilingandan so’ng, iltifot qilib dedilar.

-Seni qabul qildilar. Muborak bo’lsin.

Keyin yana dedilar:

-Biz odamlarni faqat ishorat bilan qabul qilamiz.

Xulosa. Bu kabi hodisalar islom ta’limotida juda ham ko’p hisoblandi. Hozirda yangi yo’nalish sifatida kirib kelayotgan Islom psixologiyasida ham tush masalalari alohida yoritilib kelinmoqda. G’arb psixologiyasining ideologiyasi asosan biogenetik nazariyaga tayangan holda amal qiladi. Ya’ni inson bilan hayvonni bir turga kiritib, ular ustida turli tajribalar o’tkazib, ularning xulosalari insonlarga nisbatan qo’llaniladi. Bu kabi tajriba va sinovlar islom ideologiyasiga mutlaqo zid hisoblanadi. Chunki Qur’oni Karimning Isro surasi 70 - oyatida ... Darhaqiqat, (Biz) Odam farzandlarini (aziz va) mukarram qildik va ularni quruqlik va dengizga (ot-ulov va kemalarga) mindirib qo’ydik hamda ularga pok narsalardan rizq berdik va ularni O’zimiz yaratgan ko’p jonzotlardan afzal qilib qo’ydik...” hamda Tiyn surasi 4- oyatda ...Batahqiq, Biz odamni eng yaxshi suvratda yaratdik. Xulosa qilib aytamizki, tush ta’biriga alohida ahamiyat berish lo

Foydalanilgan adabiyotlar ro’uxati.

Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Иймон. – Т.: << Hilol-Nashr>> 2020. – 368 б

U.A.Butayeva. Shaxs psixologiyasi. – Samarqand 2021. – 304 b.

Г. Н. Наврўзова. Нақшбандия камолот йўли – Т.: “Фан” 2007.192 б.

Bobirovich, N. M. . (2022). ILK O’SPIRINLIK DAVRIDA SHAXS SHAKLLANISHINING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSLARI

VA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 68–71. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5047>

Muhrodbek Bobirovich Nabiyev (2021). ILK O'SPIRINLIK DAVRIDA SHASXLARARO MUNOSABATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI. *Scientific progress*, 2 (6), 1146-1149.

Nigmatovna, N. G., & Erkinovna, U. V. (2020). Pharaoh of the weavers of bahauddin naqshband. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 922-926.

Наврўзова, Г. (2005). Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. Тошкент: "Фан, 233.

Наврўзова, Г., & Зоиров, Э. (2018). Бухорои Шарифнинг етти пири. Тошкент: Мухаррир, 80.

Nigmatovna, N. G. (2021). Khojagon education and the specifics of this way. *Academicia: An international multidisciplinary research journal*, 11(1), 1331-1337.

Navruzova, G. (2020). Bahauddin Naqshband-the seventh pir of Bukharai Sharif (Noble Bukhara). *Islamic thinking. Scientific-educational, religious-cultural, information publication magazine. Tashkent. Special issue*, 5-8.

Nematovna, N. G. (2021, February). The essence of Abu Ali Ali Sina's treatise on birds and the influence of mystical ideas on its development. In *Archive of Conferences (Vol. 16, No. 1, pp. 19-23)*.

Muzafarovna, Y. M. (2022). TIBBIY PEDAGOGIK YO 'NALISH TALABALARIDA MILLIY AN'ANALAR ASOSIDA BAG 'RIKENGLIKNI RIVOJLANTIRISHGA OID TARIXIY TAJRIBALAR. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 80-84.

Yuldasheva, M. M. (2022). Development of Tolerance in Students of Medical Pedagogical Direction on the Basis of National Traditions. *Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT ISSN*, 2792-1883.

Inoyatovna, M. D. . (2022). THE MAIN PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF EDUCATION AND DEVELOPMENT OF GIFTED STUDENTS. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 64–67. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5046>

Холикова, М. К. К. (2021). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ШКОЛЬНИКОВ В ДУХЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ. *European research*, (1 (38)), 73-75.

Holikova, M. K. IMPORTANT ASPECTS OF AESTHETIC EDUCATION OF SCHOOL CHILDREN IN THE SPIRIT OF NATIONAL VALUES.

Sodiqova A.H., «Didactic opportunities for development of special competencies in students of technological education» // Finland, Helsinki

international scientific online conference «SUSTAINABILITY OF EDUCATION SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY» October 7 th 2022. Finland, Helsinki -P. 175-180.

1)Akramov, A. (2021). Psychological mechanisms and determinants of maintaining human health. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 8(8).

2)Akramov, A. (2021). ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЕ С НАСЕЛЕНИЕМ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 8(8).

3)Akramov, A. (2021). SHARQ ALLOMALARINING MILLIY SPORT O‘YINLARI TO‘G‘RISIDAGI ILMIY FIKR VA QARASHLARI. EDAGOGIK AHORAT, 250.

4)Shavkatovich, A. A. (2020, December). MORAL EDUCATION IN THE MIND OF THE YOUNG GENERATION PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF FORMATION. In Конференции.

Madina, X. (2023). RANGLARNING INSON RUHIYATIGA TA’SIRI VA ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI. TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(1), 296-299.

ХОЛИКОВА, М. ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ШКОЛЬНИКОВ В ДУХЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ. EUROPEAN RESEARCH Учредители: Олимп, (1), 73-75.



---

## **OILADAGI FARZANDLARNING TUG'ILISH KETMA-KETLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Maxmudova Dilorom Inoyatovna*

*Turon Zarmed Universitetining boshlang'ich ta'lim, pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

---

Понимание психического здоровья в контексте понятия «Я» приводит к выделению относительно самостоятельных «вкладов» в здоровье пяти психических аспектов Я: 1) образов личных качеств и атрибутов, 2) чувства собственной ценности (самооценки), 3) восприятия собственной эффективности, 4) метакогнитивного знания стратегий самоконтроля, 5) стандартов для оценки собственного поведения [2]. Здоровый человек, создавая образы личных качеств и атрибутов, видит разницу между воображаемым и реальным. Поэтому его представления о себе реалистичны и не являются неоправданно позитивными. Для упорядочения информации о своих качествах он использует абстрактные понятия (категории личностных черт). Эти категории, как правило, не образуют резко противопоставленные оппозиционные пары, а организуют континуумы с мно-жеством переходных самохарактеристик. Самооценки такого человека точны и реалистичны, так как он тонко осознает различия между реальным и идеальным Я. У него сформировано общее чувство самооценности, которое он не сводит к частным самооценкам, т.е. переживаниям ценности своих отдельных личностных атрибутов. Социальные объективные детерминанты (социальный статус, уровень доходов и т.п.) на самооценку такого человека непосредственно и напрямую не влияют; более влиятельным

является фактор субъективного социального сравнения. Дифференцированное представление о самооэффективности у психически здорового человека основано на хорошем осознании им связи между своими действиями и их результатами во внешней среде и внутреннем мире. Он располагает опытом поведенческого достижения, т.е. воспринимаемой эффективностью - разветвленной системой взаимосвязанных представлений о своей способности совершать действия и добиваться результатов в каких либо областях деятельности. Психическое здоровье поддерживается метакогнитивными знаниями (знаниями о своих собственных когнитивных и регулятивных процессах). Метакогнитивные процессы и стратегии определяют атрибутивные характеристики субъекта (его активность, самоорганизованность, целостность и т.п.). Они лежат в основе саморегуляции, определения пути и перспектив собственного развития, сознательной компенсации ограничений, вызванных, в частности, болезнью. Благодаря им человек становится творцом собственной жизни, иницирующим началом своих взаимодействий с миром; он сам создает условия для своего развития и преодоления болезненных личностных деформаций.

Психическое здоровье обусловлено также применением реалистичных и обоснованных стандартов для оценки собственного поведения. Оценка своих действий основана на интеграции множества возможностей самосознания, осознания мыслей и чувств других людей, способности размышлять о совершенных поступках, задумываться над альтернативами, применять к себе оценочные категории, применять к оценкам поступков нравственные категории, эмоционально реагировать на собственные действия и т.п. Многие стандарты являются результатом успешной и последовательной интериоризации социальных оценок.

Анализ основных объяснительных категорий показывает, что здоровье - это многомерный феномен, имеющий геротогенную структуру, отражающий фундаментальные аспекты человеческого бытия и включающий в себя качественно различные компоненты. Попытки позитивного определения психологического здоровья концентрируют внимание исследователей не столько на недугах и внутренних конфликтах, сколько на способности человека сохранять душевное благополучие и хорошее самочувствие благодаря активизации культурных, социальных и внутриличностных механизмов поддержания здоровья.

Стремление раскрыть механизмы обретения, поддержания и

укрепления здоровья, а также полисистемность самого здоровья, его многоуровневость, многокачественность, а также приверженность того, или иного исследователя определенной объяснительной парадигме, привели к появлению и разработке множества понятий, которые в настоящее время используются для раскрытия сущности психологического здоровья и его механизмов. Это - выживание, устойчивость личности, ее гармония, субъективное благополучие, забота о себе, психологические защиты, стратегии и стили совладания со стрессом, адаптационный и личностный потенциал, ресурсы, восприятие социальной поддержки, атрибутивный стиль, саногенные аспекты Я, здоровьесберегающие личностные качества, внутренняя картина здоровья.

#### Литература

Ананьев В.А. Психология здоровья. Книга 1. Концептуальные основы психологии здоровья. В.А.Ананьев. - СПб.: Речь, 2006. - 384 с.

Каган В.Е. Внутренняя картина здоровья - термин или концепция? - В.Е.Каган. Вопросы психологии. - 1993. - № 1. - С. 86-88.

Маклаков А.Г. Личностный адаптационный потенциал: его мобилизация и прогнозирование в экстремальных условиях. А.Г.Маклаков. Психологический журнал. - 2001. - Т. 22. - № 1. - С. 16-24.

Фернхем А. Личность и социальное поведение. А. Фернхем, П.Хейвен.; пер. с англ. - СПб.: Питер, 2001. - 368 с.

Фуко М. Герменевтика субъекта (выдержки из лекций в Коллеж де Франс 1981– 1982 гг.); пер. с англ., нем., франц. Социологос, Вып. 1. Под ред. Винокурова, А.Ф. Филиппова. - М.: Прогресс, 1991. - 480 с.

Акромов, А. (2021). Psychological mechanisms and determinants of maintaining human health. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).

Акромов, а. (2021). Физическая культура в системе социальной психологической защите с населением. Центр научных публикаций (buxdu. Uz), 8(8).

Akromov, a. (2021). Sharq allomalarining milliy sport o'yinlari to'g'risidagi ilmiy fikr va qarashlari. Edagogik ahorat, 250.

Shavkatovich, a. A. (2020, december). Moral education in the mind of the young generation psychological mechanisms of formation. In конференции.

Bobirovich, N. M. . (2022). ILK O'SPIRINLIK DAVRIDA



SHAXS SHAKLLANISHINING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSLARI VA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMY JURNALI, 2(12), 68–71. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/5047>

Muhrodbek Bobirovich Nabiyev (2021). ILK O'SPIRINLIK DAVRIDA SHASXLARARO MUNOSABATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Scientific progress, 2 (6), 1146-1149.

Холикова, М. К. К. (2021). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ШКОЛЬНИКОВ В ДУХЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ. European research, (1 (38)), 73-75.

Inoyatovna, M. D. . (2022). THE MAIN PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF EDUCATION AND DEVELOPMENT OF GIFTED STUDENTS. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMY JURNALI, 2(12), 64–67. Retrieved from



## **QIZLARNI MUSTAQIL OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHGA YO'NALTIRILGAN PSIXOLOGIK FAOLIYAT MAZMUNI**

*Axmedova Maqsuda Lochinovna  
Turon Zarmed universiteti o'qituvchisi*

*Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek oilalarida qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari hamda ushbu jarayonda jamoatchilik, ota-onalar, ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyat mazmuni yoritilgan. Yosh oilalarni shakllantirilishi hamda ularning mustahkamligini ta'minlash, ularda sog'lom psixologik muhitni qaror toptirish, oilaviy ajrimlarning oldini olish muammolarining pedagogic-psixologik jihatlari tadqiq etilgan.*

*Kalit so'zlar: oila, jamiyat, ma'naviyat, meros, an'ana, qadriyat, shart-sharoit, ruhiyat, tarbiya, fazilat, jarayon, targ'ibot, маъсулият, барқарорлик, муҳим*

## **СОДЕРЖАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ ПО ПОДГОТОВКЕ ДЕВУШЕК К САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ**

*Ахмедова Максуда Лочиновна  
Преподаватель Университета Турон Зармед*

*Аннотация: в данной статье описаны педагогическо-психологические условия подготовки девушек к самостоятельной семейной жизни в узбекских семьях, а также содержание взаимного сотрудничества общественности, родителей и образовательных учреждений в этом процессе. Исследованы педагогическо-психологические аспекты формирования молодых семей и обеспечения их стабильности, создания в них здоровой психологической среды, предупреждения семейных разводов.*

*Ключевые слова: семья, общество, духовность, наследие, традиция, ценность, условия, воспитание, свойства, процесс, продвижение. ответственность, стабильность, среда.*

## CONTENT OF PSYCHOLOGICAL ACTIONS TO PREPARE GIRLS FOR INDEPENDENT FAMILY LIFE

*Akhmedova Maksuda Lochinovna*  
*Lecturer at the University of Turon Zarmed*

*Abstract: this article describes the pedagogical and psychological conditions for preparing girls for independent family life in Uzbek families, as well as the content of mutual cooperation between the public, parents and educational institutions in this process. The pedagogical and psychological aspects of the formation of young families and ensuring their stability, creating a healthy psychological environment in them, and preventing family divorces have been studied.*

*Key words: family, society, spirituality, heritage, tradition, value, conditions, upbringing, properties, process, promotion, responsibility, stability, environment.*

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy siyosiy mustaqillikni qo‘lga kiritgan dastlabki yillardanoq sobiq Ittifoq davrida oila tarbiyasini samarali tashkil etish borasidagi unutilgan an‘analarni tiklash, oila tarbiyasini tashkil etish yuzasidan to‘plangan asriy tajriba mazmunini o‘rganish, namunali oilalar faoliyati mohiyatini targ‘ib etish, oilada bolalarni tarbiyalash yo‘nalishida chet ellarda qo‘lga kiritilgan ilg‘or yutuqlar xususidagi axborotlarni ota-onalar, shuningdek, oilalarga pedagogik va psixologik jihatdan yordam ko‘rsatuvchi muassasalarga yetkazish ishini tashkil etishga jiddiy e‘tibor berila boshlandi.

Tarixdan bizga ma‘lumki, Sharqda bir necha asrlar oldin ham oila va uni tashkil etish, oilaviy munosabatlar, uning shaxs kamolotidagi o‘rni va roli xususidagi fikrlar bayon etib kelingan. Xususan, Kaykovusning “Qobusnoma”, Jaloliddin Davoniyning “Axloqi Jaloliy”, Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning “Odob as-solihin” asarlaridan oilalarning shakllanishi jarayonida amal qilinishi lozim bo‘lgan muayyan qoidalar xususida so‘z yuritiladi. Chunonchi, Kaykovus o‘z asarida qiz bolalarni tarbiyalash ularni mastura doyalar, keyinchalik esa muallimalar qo‘liga topshirib ularga oila xo‘jaligini yuritish, bolalarni parvarishlash, muomala odobini o‘rgatish lozimligi,

Jaloliddin Davoniy esa onaning farzand tarbiyasidagi o‘rnini ko‘rsatib o‘tar ekan, mazkur jarayonda asosiy qiyinchiliklarni boshdan kechiruvchi shaxs deya ta‘riflaydi, shuningdek, bolaga oddiy axloqiy qoidalar mazmunini tushuntirish, yurish-turish, ovqatlanish tartibi va qoidasiga rioya etishni o‘rgatishi lozimligini ta‘kidlaydi. Ulug‘ alloma Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy esa uylanish jarayoni inson hayotidagi mas‘uliyatli davr ekanligiga urg‘u berish bilan birga mazkur jarayonda

xalqning asriy tajribasida sinovdan o'tgan quyidagi qoidalarga qat'iy rioya etish kerakligini alohida uqtiradi: uylanadigan yigit o'z nikohiga olmoqchi bo'lgan qizni avvaldan ko'rmog'i kerak. Kelin bo'lmish qiz to'rt narsada, ya'ni, umrda, qomatda, molda va nasabda kuyov bo'lmish yigitdan past va to'rt narsada, ya'ni, husnda, jamolda, hulqda, odobu-iffatda undan yuqori bo'lishi lozimligini uqtirib o'tadi.

Alloma o'z asarida er va xotinning oilaviy hayotni tashkil etishdagi mas'uliyatlari borasida ham to'xtalib o'tar ekan quyidagilarni bayon etadi: er kishi o'z ahli ayoliga yaxshi muomala qilishi, uni ruhiy jihatdan osoyishta bo'lishini ta'minlashi, ya'ni, g'azablantirmasligi, unga nisbatan oliyanob bo'lishi, muruvvat ko'rsatishini aytadi. Agarda ayol kishi takabbur bo'lsa yoki biror bir jafo ko'rsatsa, avval unga nasihat qilish asosida odobni o'rgatishi, ayol yaxshilik tomonga yuz bursa, uni avf etishi maqsadga muvofiq deb biladi. Ayol kishi ham o'z navbatida muayyan qoidalarga amal qilishiga urg'u beradi, xususan, ayol kishi turmush o'rtog'ining ruxsatisiz hech joyga bormasligi, hech kimni uyiga kiritmasligi, erning mol-dunyosini sarf etmasligi, o'z zimmasidagi mas'uliyatlarini bajarishi lozim.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy asarida qayd etilgan ayolning erning xursandlik chog'ida xursand, g'amgin chog'larida g'amgin bo'lishi kerakligi borasidagi fikrlari bugungi kun psixologlari tomonidan ham oilaning mustahkamligini ta'minlovchi omillardan biri ekanligi ifoda etilmoqda. Alloma ayol kishining erning topish - tutishiga qanoat qilishi, imkoniyat darajasida bo'lsagina, unga bu borada yordam berishi mumkinligini ta'kidlaydi.

O'tgan asrning boshlarida professor Abdurauf Fitrat tomonidan yaratilgan "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asari o'z mazmuniga ko'ra oilaviy hayot va munosabatlar mohiyatini chuqur tahlil etib bera olgan asarlardan biridir. Mazkur asarda uylanish va uylanmaslik holatlari, bo'lajak kuyov yoki kelinni tanlashda nimalarga ahamiyat berilishi lozimligi, oilaning maishati (moddiy daromadi) idorasi (moddiy daromaddan o'rinli foydalanish), er-xotin o'rtasidagi intim munosabatlar, uni to'g'ri yo'lga qo'yish, homiladorlik davrining o'ziga xos xususiyatlari, farzand tarbiyasi hamda uning asosiy yo'nalishlari, ota-onalarning haq huquqlari, qiz bolalarga ilm o'rgatish kabi muhim masalalar borasida so'z yuritiladi. Asarning nazariy va amaliy qiymati shundaki, unda bayon etilayotgan har bir fikr yoki mulohazalar islom dinining muqaddas manbalari - Qur'onu Karim va Hadisu Sharifda qayd etib o'tilgan fikrlar bilan dalillanish asosida ochib beriladi.

Muallif qiz bolalarning bilim olishlari oila mustahkamligini ta'minlash garovigina bo'lib qolmay, balki bolalar tarbiyasini tashkil

etishdagi muvaffaqiyat, oiladagi tartib-intizom, oila osoyishtaligining garovi ham ekanligini ta'kidlab o'tadi. Agarda ona sog'liqni saqlash va bolalar tarbiyasini tashkil etish qoidalaridan xabardor bo'lmasa, bolalarning aksariyati jismoniy jihatdan nosog'lom bo'ladi, qolganlari esa yomon axloq yoki ishyoqmaslik sifatlariga ega bo'ladilar, degan fikrni ilgari suradi Abdurauf Fitrat .

So'nggi yillarda yosh oilalarni shakllantirilishi hamda ularning mustahkamligini ta'minlash, ularda sog'lom psixologik muhitni qaror toptirish, oilaviy ajrimlarning oldini olish muammolarining tadqiq etilishiga alohida diqqat-e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishlarda bir qator ilmiy tadqiqot ishlarining olib borilishi bu borada mavjud bo'lgan muammolarning oldini olish, oilalarga psixologik, pedagogik va tibbiy jihatdan samarali amaliy yordam ko'rsatishning mazmun va mohiyati, shuningdek, imkoniyatlar darajasini belgilab berdi.

Oila va oilaviy munosabatlar, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning mazmunini o'rganish, ularda ilgari surilgan g'oyalar mohiyatini tahlil etish oilada qiz bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning yo'nalishlarini belgilab olish imkonini berdi.

Qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik o'rtasidagi ijodiy hamkorlikni qaror toptirish va ushbu hamkorlik asosida faoliyatni tashkil etish so'z yuritilayotgan muammoning ijobiy yechimga ega bo'lishini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridayoq Respublika hukumati tomonidan oilalar mustahkamligini ta'minlash, farovonligini oshirish, oila muhitida har jihatdan yetuk, komil insonni tarbiyalash masalalarining davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanishi bu borada qator ijobiy ishlarni amalga oshirishga imkon beradi. Xususan, "Oila" ilmiy-amaliy Markazi, "Sog'lom avlod" nodavlat jamg'armasi tashkil etildi. Mazkur muassasalarda yo'lga qo'yilayotgan faoliyatning bosh maqsadi oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga nazariy va amaliy yordam ko'rsatishdan iboratdir. Jamoatchilik imkoniyatlari, shuningdek, nomlari yuqorida qayd etib o'tilgan muassasalarning faoliyat yo'nalishlari mazmuni bilan tanishib chiqish asosida qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik o'rtasidagi ijodiy hamkorlik samarali natijalarni beradi degan xulosaga keldik.

Xo'sh, qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik o'rtasida qaror toptirilgan hamkorlikning mazmuni nimalardan iborat bo'lishi lozim? Ushbu hamkorlikka tayanib faoliyat yuritish qanday natijalarni beradi?

Qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash borasida oila va jamoatchilik

o'rtasida ijodiy hamkorlikni qaror toptirishdan ko'zlangan maqsad - qizlarga oilaviy hayotni tashkil etish, oilada sog'lom muhitni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari haqida ma'lumotlar berish, ularda oilaviy munosabatlarni tashkil etish hamda oila xo'jaligini yuritish borasida muayyan amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish, bu yo'lda oilaga nazariy va amaliy jihatdan yordam ko'rsatish, oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Bizning nazarimizda, qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash borasidagi oila va jamoatchilik hamkorligini qo'yidagi yo'nalishlarda olib borish so'z yuritilayotgan muammoning ijobiy yechimga ega bo'lishini ta'minlaydi:

1. Oilada qizlar tarbiyasini tashkil etish, ularda ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, estetik, gigienik hamda sog'liqni saqlash borasidagi nazariy bilimlarni oshirish, shuningdek, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish imkonini beruvchi manbalar bilan ta'minlash, uslubiy yordam ko'rsatish.

2. Muayyan masalalarda mutaxassis maslahati hamda amaliy yordami (masalan, huquqshunos, psixolog, pedagog, iqtisodchi hamda tibbiyot xodimlari tomonidan ko'rsatiladigan ko'mak)ni uyushtirish.

3. Ota-onalar ishtirokida qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash muammolariga bag'ishlangan suhbat, uchrashuv, seminar, ma'ruza va bahs-munozaralarni tashkil etish.

4. Qizlarda zukkolik, donolik, chaqqonlik, uddaburonlik, tashabbuskorlik kabi xislatlar, shuningdek, nafosat his tuyg'ularini tarbiyalashga yordam beruvchi turli tanlovlarni o'tkazish.

5. Qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash borasidagi ilg'or tajribalarni ommalashtirish.

Oila va jamoatchilik o'rtasida yuzaga kelgan hamkorlikning aniq maqsadga yo'naltirilganligi, mavzu doirasida yuzaga kelgan muammolarni o'z vaqtida ko'ra olish, ularni o'z vaqtida hal etishga intilish, muayyan muammolarni hal etishda hamjihatlik ko'rsatish, mukammal ishlab chiqilgan dastur asosida faoliyat yuritish, ilg'or tajribalarni aniqlash va ularni ommalashtirishning tezkor amalga oshirilishi kabi holatlar qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda borasida bir qator ijobiy ishlarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi.

Demak, qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik o'rtasida ijodiy hamkorlikni yuzaga keltirish davr talabi sanaladi. Zero, qizlarning barkamol, yetuk inson bo'lib yetishishlari, ularning tafakkur va dunyoqarashining kengayishi samarali, maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan ijtimoiy tarbiya natijasi sanaladi. Oilada tarbiyalanayotgan bolalarning ma'naviy-axloqiy kamoloti ota-

onalarning hayotiy tajribasi, ma'naviy axloqiy qiyofasi, bilim hamda pedagogik mahoratga egalik darajasi ta'sirida yuzaga kelsada, mazkur jarayonda oilalar va ularda olib borilayotgan tarbiya mazmunining jamiyat tomonidan qo'llab quvvatlanayotganligiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Shu bois oila va jamoatchilik o'rtasida qaror topgan ijtimoiy hamkorlik oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish, oila muhitida kamol topayotgan farzandlarning ijtimoiylashuvi, ya'ni, davlat, jamiyat, shuningdek, yuridik hamda jismoniy shaxslarning o'zaro aloqalari asosida tashkil etiluvchi ijtimoiy munosabatlar mazmunini chuqur anglab yetish, fuqarolik burchlari va haq huquqlarini bilish imkoniyatini yaratadi.

Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida oila hamda jamoatchilik hamkorligi asosida tashkil etiladigan faoliyat sub'ektlari sifatida oila, mahalla fuqarolar Kengashi, ta'lim muassasalari (umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb hunar kollejlari, akademik litseylar, qo'shimcha ta'lim muassasalari, oliy o'quv yurtlari), mahalla (tuman, shahar, viloyat, Respublika) xotin qizlar Qo'mitasi, turli kasbiy yo'nalishlarda muayyan ixtisosliklar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni berishni yo'lga qo'yayotgan o'quv markaz (kurs)lari (xususan, "Mashhura", "Halima", "Zukko" hamda turli madaniyat saroylari qoshida faoliyat yurituvchi o'quv markaz (kurs)lari, davlat (chunonchi, "Oila" ilmiy - amaliy markazi, joylardagi "Ona va bola skrining" Markazlari, Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat Markazi") va nodavlat (xususan, "Sog'lom avlod" jamg'armasi) tashkilotlari, turli bosqichdagi o'quv muassasalari (shu jumladan, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari yoki ular tarkibidagi fakultetlar) qoshida faoliyat olib borayotgan xotin qizlar qo'mitalari, mazkur qo'mita tarkibida bo'lgan "Qizlar klublari" (chunonchi, Farg'ona davlat universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti, Namangan Davlat universiteti, Toshkent pedagogika kolleji, Y.Oxunboboev nomidagi Toshkent tibbiyot kolleji, Toshkent xotin-qizlar kolleji kabi o'quv muassasalari qoshida doimiy faoliyat yurituvchi klublar), Respublika "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, shuningdek, ommaviy axborot nashrlari (xususan, "Saodat", "Mashhura", "Sanam", "Yosh kuch" kabi jurnallar, "Turkiston", "Oila va jamiyat" kabi gazetalar) ishtirok etadilar.

Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni sub'ektlarining faoliyatlari quyidagi mazmunda namoyon bo'ladi:

1. Nikoh va oila munosabatlari, oilaviy hayotni tashkil etish, uy xo'jaligini boshqarish, oila a'zolari o'rtasidagi muomala (qaynota-kelin, qaynona-kelin, qaynsingil-kelin, qayni-kelin, turmush o'rtog'i va

ayol, ona va bolalar) ni tashkil etish, turli taom va pishiriqlar pishirish, mehmon kutish, tikish bichish ishlarini bajara olish, oila a'zolari salomatligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish, shaxsiy gigienani saqlash qoidalarini xususida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lish, shaxsiy gigienani saqlash (xususan, hayz sikli davrida o'zini tutish qoidalariga amal qilish), biologik qovushishning mohiyatini tushunish, tartibsiz intim munosabatlarining inson organizmiga salbiy ta'siri, turli xil tanosil (venerologik) kasalliklar zaxm (sifilis), so'zak, shankr, trixomonoz, granulema, SPID, shuningdek, bepushtlik kabi kasalliklarning keltirib chiqaruvchi omillar, ushbu kasalliklar kelib chiqishining oldini olish chora tadbirlari (xususan, nikohdan oldin kelin hamda kuyovlarning maxsus tibbiy ko'rikdan o'tishlarini ta'minlash), ixtiyorsiz homiladorlikning oldini olish, farzandlar tarbiyasini yo'lga qo'yish, oila budjetini yaratish, undan oqilona, maqsadga muvofiq foydalanish kabi masalalar yuzasidan nazariy va amaliy bilimlarni berishga qaratilgan ma'ruza, seminar, trening, suhbat, uchrashuv, ko'rik tanlov, bahs, munozara va davra suhbatlarini tashkil etish, qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi mavzular yuzasidan esa ota-onalar hamda qizlar o'rtasida tushuntirish, targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish.

2. Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasida oilalarga amaliy metodik yordam ko'rsatish, ya'ni, ta'lim hamda tibbiy muassasalari, davlat ("Oila" ilmiy - amaliy markazi, Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" Markazi, turli yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi nashriyotlar, chunonchi, Abu Ali ibn Sino nomidagi, Fan, o'qituvchi va Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyotlari) hamda nodavlat tashkilotlar ("Sog'lom avlod" jamg'armasi, "Ona va bola skrining" Markazlari), Respublika "Kamolot" ijtimoiy harakati kabi sub'ektlar, shuningdek, tadqiqot etilayotgan yoki turdosh muammolar yuzasidan tadqiqotchilar tomonidan olib borilayotgan izlanishlar mohiyati, yakunlari to'g'risidagi ilmiy, ilmiy ommabop, ommabop hamda metodik asarlarning yaratilishiga erishish, mavjud muammolar bo'yicha mutaxassis psixolog, pedagog, huquqshunos, fiziolog va tibbiyot xodimlarining yordamlarini uyushtirish.

3. Oila muhitida qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida ko'zga tashlangan muammolarni barataraf etishga qaratilgan davolash (profilaktik) yoki tiklash (reabilitatsiya) ishlarini yo'lga qo'yish (qizlarda balog'at yoshi davrida yuzaga kelgan ayrim ginekologik kasalliklarning oldini olish, davolash (profilaktika) ishlarini tashkil etish, oilalarni bu borada moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab quvvatlash.



### Adabiyotlar ro'yxati

Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. -T: O'qituvchi, 1994. -112 b.

Musurmonova O. Oila ma'naviyati: milliy g'urur: / O'quv qo'llanma. -T.: O'qituvchi, 1999. - 200 b.

Oila psixologiyasi. /B.Shoumarov tahr. ost. -T.: Sharq, 2001.- 272 b.

Oila etikasi va psixologiyasi. T. Maqsudov tahr. T.: O'qituvchi, 1991. - 292 b.

Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. – T.: Ma'naviyat, 1998. - 160 b.

Fitrat, Abdurauf. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. -T.: Ma'naviyat, 1998. - 112 b.

Xolmatova M. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash omillari. -T.: 1998.- 21 b.

Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. -T.: O'zbekiston, 2000. - 216 b.

Sharipova D.J., Sodiqova K. Oilaviy hayot bo'sag'asida. - T.: 1999. -27 b.



## СУИЦИДАЛ ХУЛҚ-АТВОР ТИЗИМИДАГИ ШАХС РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ

Қаршибоева Гулноза Абдуқодировна, психол.ф.ф.д.  
Жиззах давлат педагогика университети

*Аннотация:* Мақолада суицидал хулқ-атвор тизимидаги шахс детерминантларини (шахсинг ривожланишига боғлиқ бўлган шартлар, сабаблар ва омиллар) ўрганиш муаммосига бағишланган. Ўз жонига қасд қилишни шахсий феномен сифатида қараб, муайян индивидни уни ўраб турган олам билан ўзаро алоқаси деб ҳисоблайди. У суицид турларини (эгоистик, аномистик, альтруистик) фарқлаб ўтар экан, уларда индивидуализмнинг нисбатан кўпроқ кузатилишини таъкидлайди.

*Калит сўзлар:* суицид, шахсий феномен, муайян индивид, ўзаро алоқа, суицид турлари, эгоистик, аномистик, альтруистик, индивидуализм, суицидент, руҳий ҳолат, ҳатти-ҳаракатлар, алкоголь ва гиёҳванд моддалар, ўқитувчи-ўқувчи муносабатлари.

## PERSONALITY DEVELOPMENT FACTORS IN THE SUICIDAL BEHAVIOR SYSTEM

Qarshiboeva Gulnoza Abduqodirovna,  
Candidate of psychological sciences, Jizzakh State Pedagogical  
University

*Abstract:* The article deals with the problem of studying personal determinants (conditions, causes and factors associated with personality development) in the system of suicidal behavior. Suicide as a personal phenomenon, considers a particular individual as an interaction with the outside world. Highlighting the types of suicide (egoistic, anomistic, altruistic) and emphasizes that individualism is relatively more observed in them.

*Keywords:* suicide, personal phenomenon, specific individual, interaction, types of suicide, selfish, anomistic, altruistic, individualism, suicide, mental state, behavior, alcohol and drugs, teacher-student relationship.

## ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ В СИСТЕМЕ СУИЦИДАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ

Қаршибоева Гулноза Абдуқодировна  
Кандидат психологических наук  
Джиззакский государственный педагогический университет

*Аннотация:* В статье рассматривается проблема изучения личностных детерминант (условий, причин и факторов, связанных с развитием личности) в системе суицидального

поведения. Суицид как личное явление, рассматривает конкретного индивида как взаимодействие с окружающим миром. Выделяя виды самоубийства (эгоистическое, анонимистическое, альтруистическое) и подчеркивает, что в них относительно больше наблюдается индивидуализм.

*Ключевые слова:* суицид, личностный феномен, конкретный индивид, взаимодействие, виды суицида, эгоистический, анонимистический, альтруистический, индивидуализм, суицид, психическое состояние, поведение, алкоголь и наркотики, отношения учитель-ученик.

Кириш. Жаҳонда амалга оширилаётган илмий тадқиқотларда суицид юзага келишининг асосий хавф туғдирувчи омилли - ўз жонига қасд қилишга бўлган ҳаракатни илмий ўрганишда мазкур ҳодисанинг сабабини, аввало, шу ҳодисаларни содир этаётган шахсни ўздан, унинг руҳий оламидан қидириш, баргараф этиш учун эса шундай ҳолатларга тушиб қолиши мумкин бўлган одамларнинг ички дунёсини, кадриятлари тизимини, у яшаётган оиладаги ва хизмат қилаётган жамоадаги психологик муҳитни ўрганиш ҳамда ўзгартириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Суицид муаммосини илмий ўрганишда энг аввало, суицидентлар ёки суицид ҳақида ўйлайдиган одамлар тўғрисида маълумот тўплаш, уларнинг руҳий ҳолати ва ҳатти-ҳаракатларини кузатиш, аҳоли орасида алкоголь ва гиёҳванд моддаларни истеъмол қилишни камайтириш, соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш, таълим муассасаларида ўқитувчи-ўқувчи муносабатларида юзага келадиган низоларнинг ёшга боғлиқ психологик муаммоларни аниқлаш асосида баргараф этиш, ўсмирлар билан ишлайдиган психолог-мутахассислар фаолиятини такомиллаштириш масалаларига аҳамият бериш зарурати кўринмоқда.

Республикамизда сўнгги йилларда ўсмирлар орасидаги ўз жонига қасд қилишнинг сабабларини ўрганиш, аҳоли руҳий саломатлигини сақлаш, норматив-ҳуқуқий жиҳатдан муҳофаза қилишга оид вазифаларни бажариш учун зарур асослар яратилмоқда: «Ўтган вақт мобайнида аҳолининг руҳий саломатлигини муҳофаза қилиш миллий хизматини такомиллаштириш, руҳий ҳолати бузилишидан азият чекувчи шахсларни аниқлаш, даволаш ва реабилитация қилиш бўйича соғлиқни сақлаш тизимининг барча даражаларида муайян ишлар амалга оширилди». Суицид муаммосида кўпроқ психологик омиллар - инсонларнинг шахсий хусусиятлари, кадриятлари, уларнинг дунёқараши, эътиқоди, улар учун ҳаётнинг

мазмуни, ўз-ўзини баҳолаш хусусиятларини шакллантириш зарур бўлиб, ўсмирлардаги суицид муаммосининг бартараф этилиши психологик хизмат сифатини ошириш ҳамда такомиллаштириш юзасидан илмий тадқиқотларни чуқурлаштиришга қаратилган янгича назарий ечимларни топиш имкониятлари яратилди.

Ҳозирги вақтда яна бир илмий суицидология йўналиши ривожланган бўлиб, социология, психология, демография, медицина (тиббиёт), психиатрия билан боғлиқ ҳолда инсонларнинг шу ишни қилишга бўлган қизиқиш сабабларини, унинг шахсий хусусиятларини ва уларда ҳаёт кечиришга, яъни яшашга тўсқинлик қилаётган омилларини ўрганади. Суицидал ҳаракат инсоннинг онгли равишда ўзини қурбон қилиш истаги билан характерланади.

Ижтимоий, иқтисодий ҳаётда рўй бераётган жадал ўзгаришлар, ишлаб чиқариш муносабатларининг ривожланиши, фан-техника тараққиёти, ундаги илғор ютуқларнинг кундалик ҳаётимизга, одамлар турмуш тарзига чуқур кириб бориши, урбанизация – буларнинг барчаси бугунги кун шахсида ҳар қачонгига қараганда кўпроқ ҳам жисмоний, ҳам эмоционал зўриқишларни келтириб чиқармоқда. Одамларнинг эмоционал зўриқишлар олиши, узоқ вақт рухий сиқилиши, асабийлик ҳолатида бўлиши уларнинг ҳар хил стрессларга берилувчанлигининг ошишига сабаб бўлади. Шунинг учун ҳам бугунги кунда эришаётган оламшумул ютуқларимиз билан бир қаторда, одамлар ўртасида асабий толиқиш ҳолатларининг ортиши, ўз жонига қасд қилиш (суицид) каби нохуш ҳолатлар ҳам кузатилмоқда.

Бундай ҳолатни турмуш шароитининг оғирлиги, экологик вазиятларнинг бузилиши каби ҳолатлар натижаси сифатида ҳам изоҳлаш мумкин. Албатта, бу омилларнинг ҳам инсон руҳиятига, организмига ўзига хос таъсири мавжуд. Лекин улар муаммонинг асоси бўла олмайди. Агар турмуш тарзининг мураккаблиги, яшаш шароитининг оғирлиги, хизмат машаққати юқорида келтириб ўтилган нохушликларга сабаб бўлса, унда, тарихий манбаларда қайд этилишича, иккинчи жаҳон уруши йиллари жанг майдонларидаги, фронт ортидаги вазият бундан ҳам оғир бўлган. Бироқ шу сингари оғир кунларни бошидан кечирган фуқаролар ўз жонларига қасд қилмаганлар, уларда ҳозиргидек суицид ҳолатлари кузатилмаган [16].

Бу муаммоларнинг асосида ижтимоий-иқтисодий, ҳуқуқий, тиббий омиллардан кўра, кўпроқ психологик омиллар, яъни одамларнинг шахсий хусусиятлари, қадриятлари, уларнинг дунёқараши, эътиқоди, ҳаётга бўлган муносабати, улар учун

хаётнинг мазмуни, ўз-ўзини баҳолаш, ўзига ва атрофидагиларга бўлган муносабат характери ётади.

Шунинг учун суицид каби нохуш ҳодисаларнинг сабабини, аввало, шу ҳодисаларни содир этаётган шахснинг ўзидан, унинг рухий оламидан қидириш лозим. Уларни олдини олиш, бартараф этиш учун эса шундай ҳолатларга тушиб қолиши мумкин бўлган одамларнинг ички дунёсини, кадриятлари тизимини, у яшаётган оиладаги ва хизмат қилаётган жамоадаги психологик муҳитни ўрганиш ҳамда ўзгартириш зарур [16].

Адабиётлар таҳлили. Суицидал хулқ-атвор тизимидаги шахс детерминантларини (шахснинг ривожланишига боғлиқ бўлган шартлар, сабаблар ва омиллар) ўрганиш муаммосига бағишланган қатор тадқиқотларни, жумладан А.Г.Амбрумова, В.Ф.Бойцех, Е.М.Вроно, Э.Гроллман, Э.Дюркгейм, К.Меннингер, С.Рязанцев, В.А.Тихоненко, Н.Фаберроу, Э.Шнейдман, З.Фрейд кабиларни алоҳида қайд этиш мумкин.

XIX асрнинг иккинчи ярмида, инсон кучли стресс ҳолатида ўз жонига қасд қилиши мумкин, деган фикр ҳукм сураб эди. Француз психиатри Эскироль шу борада, психик касаллик ва ўз жонига қасд қилиш ўртасида муайян алоқадорлик борлиги ҳақидаги фикрни илгари сурган. Ушбу концепция тарафдорлари қаторида таниқли рус психиатрлари И.Ю.Белякова, Г.И.Гордон, А.О.Прохоров ва бошқалар номини қайд этиш лозим.

Бинобарин суицидал хулқ-атвор ва суицидал хавф омиллари бир қатор мамлакатимиз ва чет эл олимлари томонидан тадқиқ қилинган бўлиб, А.Г.Амбрумова, В.Ф.Бойцех, Э.Дюркгейм, Ю.Г.Касперович, К.Меннингер, З.Фрейд, А.В.Боева, Д.И.Шустов, Н.В.Верешагина, А.Р.Коршунова, ўзбек олимларидан М.Г.Давлетшин, Ғ.Б.Шоумаров, Н.А.Соғинов, Б.М.Умаров, У.Д.Қодиров, С.А.Ахунджанова, Н.М.Ходжаева, Т.Г.Сулеймановаларнинг тадқиқотлари билан боғлиқ шахс, хулқ, девиант хулқ, суицидал хулқ-атвор намоён бўлишининг психологик хусусиятлари кўриб чиқилган.

Э.Дюркгейм ўз жонига қасд қилишни шахсий феномен сифатида қараб, муайян индивидни уни ўраб турган олам билан ўзаро алоқаси деб ҳисоблайди. У суицид турларини (эгоистик, аномистик, альтруистик) фарқлаб ўтар экан, уларда индивидуализмнинг нисбатан кўпроқ кузатилишини таъкидлайди [4].

К. Меннингер ўзининг «Инсон ўз-ўзига қарши» китобида ўз жонига қасд қилишни бошқа одамга ғазаб қўзғаган қотиллик деб билади, чунки у ўлдириш ва ўлдирилган бўлиш истагида бўлади [7].

А.В.Фариновичнинг фикрига кўра, ўз жонига қасд қилиш, шунингдек, одам ўзини кўрқув, кураш ёки низолардан ҳимоя қилишга ҳаракат қилганда ўзини ҳимоя қилиш сифатида психологик жазодан қочишга уриниб, одам ўз жонига қасд қилишга қарор қилади [19].

Психоанализ асосчиси, психиатр З.Фрейднинг суицид борасидаги тасаввурлари одамдаги мавжуд иккита асосий майл концепциясига асосланади: Эрос – ҳаёт инстинкти ва Танатос – ўлим инстинкти. Инсон ҳаёти улар ўртасидаги жанг майдони ҳисобланади. Инсон нафақат яшашни, суюкли бўлишни ва ўзининг давомини фарзандларида кўришни истайди – шундай даврлар ёки руҳий ҳолатлар бўладики, бунда у ўлимни истаб қолади. Ёш ўтиши билан Эрос ўлиб боради, Танатос кучли, қатъиятли бўлиб боради ва одамни ўлимга олиб бориб, ўзини тўлиқ рўёбга чиқаради. Фрейднинг фикрига кўра, суицид ва ўлдириш Танатоснинг бузғунчи таъсирининг намоён бўлишидир, яъни агрессиянинг ифодаланишидир.

Натижалар. Ўсмирларда суицидал хулқ хавфининг юзага келишида бир қанча муаммоларнинг таъсири мавжудлигини ўтказилган тадқиқот натижалари ҳам тасдиқлаб турибди (1-жадвалга қаранг). Ўсмирлар ўртасида суицидал хулқ хавфини юзага келтирадиган ҳолатларга назар ташлайдиган бўлсак, муаммолардан бири «Ота-онани йўқотиш» ҳолати юқори натижани кўрсатмоқда. Бу натижалар Пахтакор (30,0 балл), Ғаллаорол ва Бахмал (40,0 баллдан), Ш.Рашидов (60,0 балл) туманларида ва Жиззах шаҳрида (62,0 балл) юқори натижани кўрсатди.

Тадқиқот натижалари шундан далолат берадики, бу ҳолат ўсмирларнинг ички дунёсига салбий таъсир кўрсатиб, ота-онани йўқотиш, руҳий тушкунлик, ҳеч кимга керак бўлмаслик, депрессив ва ёлғизлик ҳиссининг юзага чиқишига олиб келади.

1-жадвал

**Ўсмирларда суицид хавфининг прогностик жадвал сўровномаси бўйича тадқиқот натижалари**

№	Муаммо	Натижалар				
		Пахтакор тумани	Жиззах шаҳри	Ш.Рашидов тумани	Ғаллаорол тумани	Бахмал тумани
1	Ота-онани йўқотиш	30	62	60	40	40
2	Ота-онадан биттасини йўқотиш ёки оиланинг ажралиши	36	58	60	36	36
3	Оилада оғир психологик муҳит	28	42	40	44	32
4	Ўсмирлар жамоасида яккалик	16	26	28	32	48
5	Тарбиянинг адолатсиз услублари, тушқунлик	20	30	36	36	52
6	Оғир соматик касалликлар, ногиронлик	9	14	11	10	8
7	Севимли инсонидан таянч йўқлиги	27	24	27	21	48
8	Ўқишдаги омадсизликлар, мактабдаги омадсизликлар	36	30	39	42	45
9	Шахсга урғу бериш	20	24	26	23	24
10	Алькогол ва наркотик истеъмоли	14	18	20	20	32
11	Назоратнинг бузилиши, импульсивлик	16	26	20	20	30
12	Ўзига паст баҳо бериш	7	9	7	16	21
13	Оғир кечувчи пубертат	5	6	4	12	11
14	Пассивлик, журъатсизлик, тобелик	11	14	11	18	18

Ўсмирларда суицид хулқ хавфини ўрганишда олинган тадқиқот натижалари бўйича кўрсаткичларининг статистик аҳамиятли

тафовутлари ифодаланишининг умумий натижаси қуйидаги 2-жадвалда келтирилган.

Ушбу жадвалда келтирилган натижалар асосида айтиш мумкинки, ўсмирлардаги суицидал хулқ хавфини шаклланиши умумий ҳолдаги кўрсаткич (27,676 балл) уларда суицидал хулқ хавфи мавжудлигидан далолат бермоқда

2.2-жадвал

Ўсмирларда суицид хавфи бўйича кўрсаткичлар

Кўрсаткичлар	Туманлар				Краскел–Уоллис мезони	Аҳамиятлилик даражаси (p)
	Ш.Рашидов N=56	Пахтакор N=24	Ғаллаорол N=28	Бахмал N=32		
Суицидал хавф	32,38	56,54	23,31	27,80	27,676	0,001 *

Изоҳ: \*  $p \leq 0,05$

Лекин, тадқиқот объектлари бўйича энг юқори кўрсаткич Пахтакор тумани ўсмирларида намоён бўлди, бу кўрсаткич бўйича Ш.Рашидов, Бахмал туманларида (32,38 ва 27,80 балл) ўртача натижани кўрсатган бўлса, Ғаллаорол туманида эса (23,31 балл) юқорида келтирилган туманларга нисбатан паст натижа аниқланди. Бу ҳолат расмий статистик маълумотларда келтирилган кўрсаткичлар билан таққосланганда, ўтказилган тадқиқот натижаларининг ҳаққонийлигини кўрсатиб, мактаб психологлари ва ижтимоий психологларга ўсмирлардаги суицидал хулқ хавфининг шаклланишини олдини олиш борасида қуйидаги ҳолатларга эътибор қаратишлари муҳим аҳамиятга эга эканлигини таъкидлаш лозим:

- «Оила» илмий-амалий маркази, вояга етмаганлар билан ишлаш комиссиялари ходимлари, педагог ва тарбиячилар, ота-оналар билан ўсмирлар ўртасида ўз жонига қасд қилиш ҳолатларини келтириб чиқарувчи сабаблар ва ушбу ҳолатларнинг олдини олишнинг педагогик-психологик масалалари бўйича ўқув курслари, семинар-тренинглар ташкил этиш, ушбу ўқув курсларига нотинч, нотўлиқ оила вакиллариининг фаол иштирокини таъминлаш;

- ўсмирлар ўртасида суицидал ҳаракатларнинг олдини олиш ва бартараф этиш бўйича психопрофилактик тадбирларни амалга оширишда миллий одатларимиз, анъаналаримиз, қадриятларимиздан кенг фойдаланиш;

- оммавий ахборот воситалари, интернет сайтлари орқали соғлом турмуш тарзи, ўзаро хурмат, тушуниш, ҳамдардлик

руҳини шакллантирувчи, ўсмирлар руҳиятига хос эшиттиришлар, мунозаралар, фильмлар намоишларини ташкил этиш;

- умумий ўрта таълим мактабларида таълим сифатини ошириш, ҳар бир ёш даврга хос бўлган маънавий-маърифий тадбирларни мазмунли ташкил этиш;

- оила, маҳалла ва мактаб ҳамкорлигини янада мазмунли ривожлантириш;

- маҳалла билан ҳамкорликда оиладаги турмуш тарзи билан мунтазам танишиб, ижтимоий таъсир кўрсатиб бориш;

- маҳаллада оила паспортини ташкил этиш ва шу паспорт орқали ҳар бир оиланинг ижтимоий психологик турмуш тарзига баҳо бериб бориш;

- маҳалла томонидан оилавий паспорт орқали оилаларни табақалаштириш, яъни маҳалла билан ҳамкорликда оиланинг ҳар бир аъзосини ўрганиб бориш;

- ҳудудларда психологик марказларни ташкил қилиб, аҳолига ижтимоий – психологик хизмат кўрсатиб бориш;

- мактабгача ва умумий ўрта таълим мактаб психологлари билан ҳамкорликда оиладаги иқлимни мукамал ўрганиб, маҳалла кўмагида ижтимоий психологик кўмак бериб бориш.

Статистик маълумотларга қараганда жаҳонда ёшлар орасида ўз жонига қасд қилиш ўтган йигирма йил давомида икки баробарга ошган. 14-24 ёшда бўлган ёшларнинг 16 фоиз бу ҳолатни бошидан кечиради, 6 фоизни ўғил болалар, 10 фоизни қиз болалар ташкил этади. Бу ҳолат асосан катта ўсмирлик ёки илк ўспиринлик даври – 15 ёшдан 16 ёшгача бўлган ўғил-қизларда қайд этилмоқда. Шу сабабли биз тадқиқотимиз жараёнида ўсмирларнинг суицидал хулқ атворини юзага чиқишида ижтимоий психологик детерменантларнинг аҳамиятини ўрганишга ҳаракат қилдик. Ўтказилган ижтимоий психологик сўровнома натижалари қуйидаги жадвалда келтирилган.

3.-жадвал

Ўсмирларнинг суицидал хулқ атворини юзага чиқишида ижтимоий психологик детерменантлар асосида сўровнома натижалари

№	Детерменантлар	Ўғил болаларда натижалари (74 нафар) %	Қиз болаларда (96 нафар) %
1	Шахслараро муносабатлар	18%	19%
2	Севги-муҳаббат	22%	24%
3	Оилавий низолар	16%	17%
4	Кўркув ва ёлғизлик ҳисси	24%	18%
5	Интернет тармоғи	20%	22%



Куйида ўтказилган ижтимоий психологик сўровнома натижаларига қисқача изоҳ бериб ўтамиз.

1. Шахслараро муносабатлар. Ижтимоий психологик сўровнома натижасига кўра ўсмирларнинг суицидал хулқ атворини юзага чиқишида шахслараро муносабатларнинг аҳамияти таҳлил қилиниб, ўғил болаларда 18 %, қиз болаларда 19% ни ташкил қилди. Шахслараро муносабатлар детерменантида ўғил болаларга нисбатан қиз болаларда юқори натижани кўрсатмоқда. Тадқиқот натижаларига асосланган ҳолда, айтиш жоизки, ўсмирлар ўртасида шахслараро муносабатларда ўсмирлардаги низоли хатти-ҳаракатларнинг белгилари ўсмирлардаги салбий эмоционал ҳолат, ёқтирмаслик, нафрат, душманлик каби негатив ҳиссиётларнинг юзага чиқиши натижасида психик зўриқиш, таранглик даражасини ўсиши ўсмир қизларда ўғил болаларга нисбатан юқори ҳисобланади. Бу ҳолат ўсмирларда суицидал хулқни шаклланишига сабаб бўлади.

2. Севги-муҳаббат. Ижтимоий психологик сўровнома асосида ўсмир ёшлардаги севги-муҳаббат ҳолати тадқиқи натижаларига кўра қизларда (24%) ўғил болаларга (22%) нисбатан юқори кўрсаткични кўрсатмоқда. Ўсмирлик ёши даврида физиологик ва гормонал ўзгаришларнинг юз бериши, қизиққонлик, таъсирчанлик хусусиятларининг намоён бўлиши ўсмирларда хулқ-атворига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Афсуски, ота-оналар кўпинча фарзанди қалбидаги туйғуларни ўлдиришга уринишади. «Севги, бу — хато!», «У билан гаплашсанг, ёмон бўлади!» «Шарманда бўласан!» каби кўрқитишлар билан ўсмир қалбида уйғонган яхши ҳисларни яқсон қилишга ҳаракат қилишади ва таъқиқлаш, чегаралаш масаланинг энг осон ечими деб ҳисоблашади. Бироқ ўсмирлик ёшида чегараларни бузишга, чекланган нарсаларни синаб кўришга мойиллик кучли бўлади. Юқорида айтганимиздек, қасдма-қасд иш қилиши эҳтимоли юқори бўлиши улардаги суицидал хулқ атворни юзага чиқишига сабаб бўлиши мумкин.

3. Оилавий низолар. Тадқиқотимизда ўтказилган ижтимоий психологик сўровномада оилавий низолар детерменанти ўсмир ўғил болалар (24%) билан қиз болаларнинг (24%) кўрсаткичи тенг натижани кўрсатмоқда. Айнан ўсмирлик ва болалик даврида тарбияда йўл қўйилган кўпол хатолар, болалар билан изчил мулоқот ўрнатмасдан анъанавий тарбия усулларида кўр-кўрона фойдаланиш оқибатида уларнинг шахсиятига салбий таъсир кўрсатиши натижасида бир-бирини тингламаслик, яъни бир-бирининг истакларини эшитмаслик, ҳаётга бўлган қарашларнинг

фарқланиши, ўта қаттиқ назорат, эътиборни етишмаслиги туфайли ўсмирларда суицидал хулқни шаклланиши юзага келиши мумкин.

Қўрқув ва ёлғизлик ҳисси. Навбатдаги инқирозли детерменант қўрқув ва ёлғизлик бўлиб, ижтимоий психологик сўровнома натижасига кўра ўғил болаларда (24%) қизларга (18%) нисбатан юқори кўрсаткични ташкил қилди. Ўсмирлар кўпинча жавобсиз муҳаббат, ота-она ёки тенгқурлари билан келишмовчиликлар, келажак олдида қўрқув ҳамда ёлғизликдан азият чекишади. Тўғри, ўсмирлик даврида ҳамма болаларда ҳам бу каби муаммолар кузатилмайди, бироқ организмдаги ўзгаришлар вақти-вақти билан ўзини намоён этади. Ота-оналар бундай муҳим дамда, фарзанди қалбидаги бундай салбий хусусиятларни бартараф этиш чораларини кўришлари муҳим аҳамиятга эга бўлади.

Интернет тармоғи. Ижтимоий психологик сўровномамизда интернет ва телефон тармоқларининг таъсири ўғил болаларга (20%) нисбатан қизларда (22%) юқори натижани кўрсатмоқда. Интернет ва телефонга қарамлик оддий касалликларга ўхшаб ўз белгиларига эга: булар вақт тушунчасига эга бўлмаслик ва табиий эҳтиёжларни қондирмаслик ҳисобланади. Интернетга шўнғиган ўсмир узоқ вақт таом емаслиги, кам ухлаши мумкин. Бундай ҳолатлар суицидал ўсмирларда жиддий психатрик касалликларни келтириб чиқишига, ижтимоий ҳаётдан воз кечишига ҳамда хулқ-атворида суицидал ҳаракатларни амалга ошириш эҳтимоли пайдо бўлиши мумкин. Ачинарлиси, ахборот тарқатиш воситаларида берилаётган ахборот ва маълумотлар оқими ёшлар томонидан тўғридан-тўғри «филтрлашсиз» қабул қилинмоқда, бу эса улар онгини заҳарлаб, маънавий-ахлоқий дунёсини заифлаштиргани олиб келмоқда.

Адабиётлар рўйхати

Амбрумова А. Г., Бородин С. В., Михлин А. С. Предупреждение самоубийств. — М., 1980. -105 с.

Амбрумова А. Г. Роль личности в проблеме суицида. Тр. Моск. НИИ психиатрии МЗ РСФСР. - М., 1981. -89 с.

Гилинский Я. И. Самоубийство как социальное явление. Проблемы борьбы с девиантным поведением. — М., 1989. -114с.

Дюркгейм Э. Самоубийство. // СПб.: «Союз», 1998.-496 с.

Ефремов В.С. Основы суицидологии. —СПб., 2004.-479 с

Конангук Н. В. О психологическом смысле суицидов// Психологический журнал. - 1989. - Т. 10. - № 5

Ponti G. Criminologia dei reati omicidiari e del suicidio. // Trattato di criminologia, medicina criminologica e psichiatria forense.1988.

Vol.7, №.7.P. 149.

Qarshiboyeva G.Ozligingni angla. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-52.

Каршибаева Г.А., & Эшмуратов, О.Э. (2018). Факторы суицидального поведения, влияющие на формирование подросткового поведения. Молодой ученый, (49), 235-237.

Qarshiboyeva G. Психологик маслаҳат. Архив Научных Публикаций JSPI.

Каршибаева Г. А.Особенности суицидального поведения в подростковом возрасте. Молодой ученый, (7), 663-665.

Каршибаева Г.А. Психопрофилактические меры по предотвращению самоубийств у подростков. Молодой ученый, (49), 233-235.

Каршибаева Г.А.Теоретическая основа проблемы психологических особенностей подростков с суицидальным поведением. Молодой ученый, (49), 230-233.

Каршибаева Г.А., Норбекова, Б.Ш., & Туракулов, Л.Т. Суицид-это не просто способ обратить на себя внимание. European journal of education and applied psychology, (2).

Каршибаева Г.А. Самоубийство в ряду других социальных явлений. Молодой ученый, (5), 581-584.

Karshiboeva G. Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением. EurasianUnionScientists, 1(10 (79), 48-49.

Шоумаров Ғ.Б., Соғинов Н.А., Қодиров У.Д., Палуанова З.Д. Суицид ҳолатларини тадқиқ этиш: муаммо ва ечимлар. Услубий қўлланма. (Суицидал хулқнинг олдини олиш бўйича ишловчи ишчи гуруҳ аъзолари учун). // Масъул муҳаррир. -Т., 2020. -138 б.

Фаринович В.В. Психологические аспекты суицида и возможности их интерпретации. // Современная зарубежная психология.2013. №3.122-126 с.

## **ANOMAL BOLALARNI SOG‘LOM TENGDOSHLARI ORASIDA INKLYUZIV TA‘LIM BERISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI**

*Ochilov Chingiz Qaxramonovich  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Umumiy psixologiya kafedrası o‘qituvchisi*

---

*Annotatsiya: Maqolada anomal bolalar sog‘lom tengdoshlari orasida inklyuziv ta‘limda yoki maxsus ta‘lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi Yordamga muhtojlik, himoyasizlik bilan bir qatorda imkoniyati cheklangan bolalarda qalb, ruhning oliy darajada rivojlanganligi, jismoniy kamchilik o‘rnini to‘ldirish masalalariga qaratilgan. Bolalarning sog‘lom tug‘ilishini ta‘minlash, anomaliyalarning oldini olish hamda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda kamchiliklari bo‘lgan bolalarni ertaroq aniqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida fikrlar bildirilgan.*

*Kalit so‘zlar: Anomal bolalar, taraqqiyot, inklyuziv ta‘lim, imkoniyati cheklanga, nuqson, ta‘lim, tarbiya, rivojlanish, kasbiy mahorat, shaxs, texnologiya.*

## **PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INCLUSIVE EDUCATION OF ANOMALOUS CHILDREN AMONG HEALTHY PEERS**

*Ochilov Chingiz Kakhramonovich  
Jizzakh State Pedagogical University  
Lecturer in the Department of general psychology*

---

*Annotation: The article deals with the issues of raising abnormal children among healthy peers in an inclusive education or in special educational institutions. In addition to the need for help, defenselessness, a high level of development of the soul and spirit in children with disabilities, compensation for physical disabilities. Opinions were expressed on measures to ensure the healthy birth of children, the prevention of anomalies and the early detection of children with defects in physical or mental development.*

*Key words: Abnormal children, development, inclusive education, disabled person, defect, education, upbringing, development, professional qualities, personality, technology.*

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ АНОМАЛЬНЫХ ДЕТЕЙ СРЕДИ ЗДОРОВЫХ СВЕРСТНИКОВ

*Ачилов Чингиз Кахраманович*

*Джизакский государственный педагогический университет  
Преподаватель кафедры общей психологии*

*Аннотация: В статье рассматриваются вопросы воспитания аномальных детей среди здоровых сверстников в условиях инклюзивного образования или в специальных образовательных учреждениях. Помимо потребности в помощи, беззащитности, высокого уровня развития души и духа у детей с ограниченными возможностями здоровья, компенсация физических недостатков. Высказаны мнения о мерах по обеспечению здорового рождения детей, профилактике аномалий и раннему выявлению детей с дефектами физического или психического развития.*

*Ключевые слова: Аномальные дети, развитие, инклюзивное образование, инвалид, дефект, образование, воспитание, развитие, профессиональные качества, личность, технология.*

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan mamlakatimizda so'nggi yillarda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilib, ular uchun har tomonlama imkoniyat yaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Jahonda imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'lim tarbiyasini rivojlantirishda o'qituvchining kasbiy mahoratiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu boradagi olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar qatorida nogironligi bor shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha yangi bir huquqiy tizim yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda 2021 yil 23 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengash faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorlarning amaliy ahamiyati shundaki, Unga ko'ra, nogironligi bor shaxslarning huquq va manfaatlari belgilandi. Nogironligi bo'lgan shaxslar ijtimoiy

himoyasi bu tibbiyot muammosi deb emas, balki, birinchi navbatda, inson huquqlari masalasi sifatida ta'riflandi. Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan gaplari qariyb bir asrki o'zining axamiyatini yo'qotgani yo'q. Shaxsning ruhiy rivojlanishi hammada ham bir zaylda kechmaydi. Ayrim sabablarga ko'ra jamiyatda imkoniyati cheklanganlar ham uchraydi. Ularning ta'lim-tarbiyasi alohida e'tibor talab qiladi. Bunday shaxslarga oilaviy yoki pedagogik tarbiyada jiddiy e'tibor berish kerak bo'lgan, ularning ijtimoiy moslashishi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishning asosi bo'lgan muhim jihatlar bor. Imkoniyati cheklangan (nogiron) - bu shaxsiy ehtiyojlarini va ijtimoiy hayot yetishmovchiliklarini qisman yoki to'liq o'zi mustaqil ta'minlay olmaydigan istalgan shaxs. Nogironlik qabul qilingan tasnifnomaga ko'ra organizmdagi domiy buzilishlarga olib keluvchi, hayot faoliyatining cheklanishiga sabab bo'luvchi, alohida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj tug'diruvchi ijtimoiy zaiflik sifatida talqin etiladi. Har bir bola o'ziga xos ijtimoiy muhitda o'sadi, tabiiyki unga ijobiy hamda salbiy ta'sirlar turlicha bo'ladi. Bolani voyaga yetgunicha oq choyshabga o'rab katta qilishning iloji yo'q va doim ham bolaga yetarlicha e'tibor qila olmaymiz. Qaysidir vaziyatda kimningdir e'tiborsizligi, kimningdir aybi bilan bolada ayrim muammolar shakllanadi. Bu muammolarni xal etish uchun imkoniyati cheklangan bolalarning maktablarga kelishi uchun to'siqsiz muhit yaratish, yangi quriladigan maktablarni huddi shunday sharoitlar bilan qurish, pedagog kadrlar tayyorlash, o'quv bazasini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan. Anomal bolalar sog'lom tengdoshlari orasida inklyuziv ta'limda yoki maxsus ta'lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi va o'qitilishi kerak. Bolaning umumiy rivojlanishiga har tomonlama kuchli ta'sir etgan nuqsonlargina uni anomal bola deb hisoblashga asos bo'lishi mumkin. Bolalar va o'smirlarning rivojlanishi o'z ichiga ham jismoniy holatlarni, ham ruhiy jarayonlarni oladi. Inson biologik mavjudot bo'lganligi sababli tabiatning qonunlari unga ham taalluqlidir. Ammo bu qonunlar boshqa jonli mavjudotlardan ko'ra insonga boshqacharoq ta'sir etadi. Boshqa jonli mavjudotlar tashqi muhitga moslashib, o'zlarining hayot kechirishlari uchun tayyor narsalardan foydalansa, inson jamiyatda yashar ekan, kerakli narsalarni o'zi ishlab chiqaradi. Shaxsning rivojlanishi, kamolot darajasiga yetishi masalasiga turli asrlarda, turli g'oyalar bilan qurollangan olimlar, faylasuflar, psixologlar turlicha yondashganlar. Ingliz faylasufi Djon Lokk fikricha, jamiyatda kishilarning rivojlanishida yetakchi omil — muhitdir. Amerikalik psixolog E. Torndayk fikricha, bola genlarning maxsus zaryadlangan

batareyasidir, bu batareya o'zgarimas bo'lib, bolaning faqat jismoniy rivojlanish holatinigina belgilab qolmasdan, balki aqliy sifatlarini ham belgilaydi.

Maxsus maktab-internatlarda esa nogironlik jihatidan bir-biriga o'xshash bo'lgan bolalar Ta'lim va tarbiya olishi jarayonida atrofidagi tengdoshlari ham o'ziga o'xshashligi, u kabi kasallik bilan og'rigani uchun ham ortiqcha ruhiy bosimlar kuzatilmaydi va ular o'zlarini atrofda gilardan zaif va kuchsizday his etishmaydi.

Insonning ijtimoiylashuvi uzluksiz rivojlanish jarayoni sifatida va shaxsning o'zini o'zi rivojlantirishi ijtimoiy moslashuv bilan uzviy bog'liqdir. Aslida, ijtimoiy moslashuv eng muhimi mexanizmi, inson sotsializatsiyasining o'ziga xos shaklidir. Ijtimoiy moslashuvni tushunish uchun uning tuzilishini ko'rib chiqish kerak. Psixologiya fanidan ma'lumki, shaxsning faoliyati uning rivojlanishida asos hisoblanadi. Bu fikr faoliyatning rolga ham tegishlidir. Turli-tuman, faol faoliyat jarayonida insonlarning barcha imkoniyatlari rivojlanib va ijobiy hayot tajribalari to'planib boradi. O'sib kelayotgan kishi dunyoni chuqurroq, tolaroq bilib boradi. Ikkinchi tomondan, inson o'z faoliyati bilan atrof-muhitga ta'sir etadi. Muayyan shaxs boshqa odamlarga, narsalarga, voqealarga o'z munosabatini bildirib, rivojlanib boradi. Rivojlanishiga ta'sir etmaydigan, u umumiy maktab sog'lom tengdoshlari qatori uzlashtiradigan bo'lsa, u anomal bolalar toifasiga kirmaydi. Katta yoshdagi kishilarda ma'lum sabablarga ko'ra paydo bo'lgan nuqsonlar ham ularning umumiy rivojlanishiga ta'sir etmasa, bu kishini anomal deb hisoblash mumkin emas. Maxsus yordamga muhtoj anomal bolalarning jismoniy ruhiy rivojlanishida kuzatiladigan og'ir, keskin o'zgarishlar bola shaxsining tarkib topishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bunday bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish uchun maxsus sharoit yaratalishi kerak, ya'ni ular maxsus bog'cha va maktablarda, maxsus dastur va darsliklar asosida o'qitilishi va tarbiyalanishi zarur, ular maxsus yordamga muhtoj. Har qanday anomal rivojlanish markaziy yoki periferik nerv sistemasidagi organik yoki funktsional o'zgarishlarga aloqador bo'lishi mumkin. Bola rivojlanishidagi turli xil kamchiliklar noqulay muhit, notug'ri tarbiya, ta'lim natijasida ham paydo bulishi mumkin. Masalan, noqulay oilaviy sharoit, pedagogik qarovsizlik, o'qituvchining bolaga noto'g'ri munosabati va boshqa ko'pgina sabablar bola rivojlanishiga salbiy ta'sir kursatib, uning dastur materiallarini yaxshi o'zlashtira olmasligiga, ulgurmovchi o'quvchilar orasiga qo'shilib qolishiga sabab buladi. Shunday bo'lsada, biz bunday bolani anomal bolalar toifasiga kiritmaymiz, chunki uning rivojlanishidagi kamchiliklar organizmdagi qanday bo'lmasin biror organik yoki

funktsional patologik o'zgarishlarga bog'liq bo'lmay, balki boshqa sabablardan kelib chiqqan. Mamlakatimizda bolalar anomaliyasining oldini olish yuzasidan ko'pgina choralar ko'rilmogda, bu sohada anchagina yutuqlarga ham erishildi. O'zbekistonda aholini davolash profilaktikasi kengaygani hamda meditsina sohasidagi katta yutuqlar munosabati bilan anomal bolalr soni nisbatan kamaydi. Bolalarning chechak, o'lat, tif, vabo, traxoma, qizamiq va bolalarga xos boshqa yuqumli kasalliklar orqasida anomal bo'lib qolish hodisalari uchrab turadi. Irsiy omillar hamda intoksikatsiya va organizm shakllanayotgan paytda bosh miya, analizatorlarning zararlanishiga olib boradigan boshqa sabablar tufayli bolaning anomal bo'lib qolish hollari hali ham uchrab turadi. Bu masalani tez va samarali hal bo'lishini ta'minlash maqsadida onaning xomiladorlik davridan boshlab to bola voyaga etgunga qadar uning rivojlanishi tibbiyot xodimlari, o'qituvchi va tarbiyachilar, psixolog, psixologlar tomonidan nazorat qilinib,» Sog'lom avlod» dasturini to'g'ri amalga oshirilishini ta'minlash chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda, tashkil etilmoqda. Natijada, harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar ham aniqlanib, ularga maxsus yordam ko'rsatilmoqda. Ixtisoslashtirilgan maktablarning o'zida nogironligi bor shaxslarning harakatlanishi uchun sharoit yaratilganiga ko'p bo'lmadi, darsliklarda muammolar bor. «O'zbekistonda ham xuddi chet eldagi kabi imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumta'lim maktablarida sharoit yaratilsa, juda zo'r bo'ladi. Lekin bizda ba'zi muammolar bor. Masalan, kadrlar masalasi. Ko'rish qobiliyatida muammosi bor bolalar toifasi bilan tiflopedagog alohida ishlashi kerak. Bizda hali hatto oliy ta'limda tiflopedagogikani o'qitadigan kadrlar yetishmaydi. 13 Bundan tashqari, o'qituvchilarni ham ruhan tayyorlab olish kerak. Maktablarda o'qituvchilar ko'pincha lider o'quvchilar bilan ishlashga o'rgangan. Ular o'qituvchini tez ilg'aydi, tushunadi va yaxshi natijalar ko'rsata oladi. Sog'lom bolalar bilan bir maktabga boradigan imkoniyati cheklangan bolaning esa lider bo'la olish ehtimoli kam, sababi ular eshitishga, ko'rishga va tushunishga boshqalardan ko'ra ko'proq kuch sarflashi kerak bo'ladi. Shu narsalarni o'qituvchilar to'g'ri qabul qila olishi va ular bilan yaxshi munosabatni yo'lga qo'ya olishi zarur. Buning uchun esa avvalo ularning o'zi tayyor bo'lishi kerak.

Agar umuman imkoniyati cheklangan bolaga dars o'tmagan o'qituvchining sinfiga shunday bolalar borsa, u dastlab bola tilini tushunmasligi, uning qiyin o'zlashtirishini qabul qila olmasligi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilarni imkoniyati cheklangan bolalar bilan ham ishlashga o'rgatish lozim». Bolaning inklyuziv muhitda boshqalardan o'zini kam his qilmasligi, jismoniy imkoniyati cheklanganidan



siqilmasligi uchun sharoit yaratish muhim. Umumta'lim maktabiga boradigan imkoniyati cheklangan bolalarga o'qituvchi alohida yondashishi kerak bo'ladi. Kichik sinf o'quvchilari nogironligi bor bolalar haqida hech qanday tasavvurga ega bo'lmaydi. Ularning ustidan kulmaslik kerakligini, ular ham boshqalar qatori oddiy odam ekanini, faqat sal kuchsizroq ekanini tushunishmaydi.

Inklyuziv ta'limda o'qituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. Avvalo o'qituvchi inklyuziv tafakkurga ega bo'lishi va ta'lim sifati mas'uliyatini o'z zimmasiga olishi shart. Inklyuziv ta'lim berish o'qituvchilar ishi sifatining asosiy mezonlari – o'qituvchi o'quvchilarning turli toifada ekanligiga qaramay barcha bolalarning huquqini himoya va hurmat qilishi. Yana bir sifat – hamkorlikni yo'lga qo'yish. Chunki o'qituvchilar uchun hamkorlik va o'zaro fikr almashish muhimdir. O'qituvchi o'z faoliyatini tizimli baholab borishi, muntazam malakasini oshirishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarning intizomli va muassasalararo guruhlar bilan samarali ishlashi uchun liderlik hamda boshqaruv malakalarini qo'llash, muammolarni birgalikda hal qilish, keng qamrovli maktab hamkorligini yo'lga qo'yish kabi xislatlarga ega bo'lish kerak. Ma'lumki, inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maxsus ta'lim aqliy, jismoniy tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi. Maxsus ta'lim o'qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o'qitilsa, inklyuziv ta'lim bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi.. Inklyuziv ta'limning o'ziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o'qituvchi bir birlaridan o'rganishadi hamda muammolarni birgalikda hal etishadi. Bu ta'lim bir tomonlama bo'lmasligi kerak. Bu maqsad va vazifalarning hal etilishi o'qituvchilar va tarbiyachilari zamon bilan hamnafas bo'lishga, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko'ra olishga o'rgatadi

Har bir o'qituvchi shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o'z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga o'rgatadi hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo'lishni tarbiyalaydi. Zamonaviy pedagogik jarayon eshitish qobiliyati cheklangan bolalar uchun Ijtimoiylashuv yo'nalishi, o'zini o'zi rivojlantirish va eshitish qobiliyati cheklangan bola shaxsini anglashiga asoslangan yangi Ta'lim muhitini yaratishni talab qiladi. Shu sababli, maktabgacha Ta'lim va tarbiya tizimiga, ayniqsa eshitish

qobiliyati cheklangan bolalar uchun axborot texnologiyalarini joriy etish zarur.

Bolalar kompyuter bilan nisbatan erta tanishishadi. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, darslarga qiziqish sezilarli darajada oshadi, bilim qobiliyatlari darajasini oshiradi. Mavzuni tushuntirishda yangi nostandart usullaridan foydalanish, ayniqsa o'yin uslubida, beixtiyor e'tiborni kuchaytiradi, ixtiyoriy e'tiborni rivojlantirishga yordam beradi. Bunday holda, turli xil idrok kanallari ishtirok etadi, bu nafaqat faktlarda, balki bolalar xotirasida, ayniqsa kar va eshitish qobiliyati cheklangan bolalar xotirasida ma'lumotlarni joylashtirishga imkon beradi. Multimediya taqdimoti shaklida materialni taqdim etish o'quv vaqtini qisqartiradi va bolalar salomatligi resurslarini bo'shatadi. Bundan tashqari, o'quv jarayonida taqdimotlardan foydalanish sizga quyidagilarga imkon beradi: bolalarni qiziqtirish, tarbiyaviy effektlarni oshirish, materialni o'rganish sifatini oshirish, tayyorgarligi har xil darajadagi bolalarga differentsial yondashuvni amalga oshirish, bir vaqtning o'zida turli xil qobiliyat va qobiliyatlarga ega bolalarni tashkil etish. Zamonaviy maxsus maktablar doimo o'qitish va tuzatish jarayonini yanada samarali, rivojlanib va qiziqarli qilishga yordam beradigan yangi usullarni izlaydi. Ushbu oqibatlar trener tomonidan ishtirokchilarga etkaziladi hamda ularning fikrlari ham tinglanadi. Va trener ishtirokchilardan salbiy emotsiya va hissiyotlarning oqibatlari bo'yicha shaxsiy fikr va mulohazalarini eshitishi kerak hamda ularni ratsional va konstruktiv muhokama qilishi lozim. "Mening hayotdagi shiorim" trening mashg'ulot tavsiya etiladigan holatlar: guruhiy psixokorreksion faoliyatda hamda individual psixokorreksion faoliyatda qo'llanilishi mumkin bo'lib \*emotsional-hissiy sohadagi buzilishlarni, \*qadriyatlar tizimida yuzaga kelgan buzilishlarni, \*xarakter aktsentuatsiyasini psixokorreksiya qilishda, shuningdek motivatsion sohani rivojlantirishda va psixologik resurslarni shakllantirishda. Ishtirokchilarga hayotda unga doimo olg'a intilishga, kuch va g'ayrat topa olishga, kelajakka ishonchini kuchaytirishga har vaqt yordam bera oladigan hayotiy motivatsion (ilhomlantiruvchi) shior o'ylab topish topshirig'i beriladi. Shunga e'tibor berish so'raladiki, o'sha shiorni siz doimo ko'rinib turadigan joylarga yozib qo'ya oladigan bo'ling va uni ko'rganda sizda beixtiyor hayotga nisbatan motivatsiya (qiziqish va intilish) paydo bo'lsin. O'ylab ko'rish uchun 5-10 daqiqa vaqt berilish mumkin. Ijodiy, o'ziga xos yondoshish so'raladi. Shundan so'ng hamma o'zining shiorini o'qib eshittiradi.

Ishtirokchilardan ushbu shiorlarini yozib olishlari, doimo yodda tutishlari tavsiya etiladi. Chunki ushbu shior bevosita mazkur trening bilan bog'liq barcha bilim-ko'nikmalarni yodga tushishini

va saqlanishini ta'minlaydi. Trener ishtirokchilarning shiorlarini diqqat bilan tahlil qilishi hamda o'rni kelsa ularni psixologik tahlil qilib ushbu shior uning o'ziga yoki boshqalarga qanday ijobiy va salbiy ta'sir qilishi mumkinligini aytib o'tishi lozim. Chunki, gohida o'quvchilarda destruktiv printsiplar hayotiy shiorga aylanib qolishi kuzatiladi, psixologning vazifasi o'quvchilardagi shunday destruktiv, shaxs shakllanishiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni bartaraf qilishdan iborat. Bu mashg'ulot orqali o'quvchining dunyoqarashi va tafakkur tarzini ham o'ziga xos ravishda diagnostika va korrektsiya qilish imkoni yuzaga keladi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlaydigan mutaxassislarning kasbiy malakalarini oshib boradi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan psixologik diagnostika va psixokorreksion ishlarni olib borish asosida imkoniyati cheklangan bolaning dunyoqarashi shakllanishiga erishiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.X.S,Shokirova. Ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan shaxslarni o'qitishning odatiy muammolari va ularni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash zarurati *Международный научный журнал №5 (100), часть2 «Научный импульс» Декабрь, 2022 2160 б.*

2.G. A . Nabiyeva. «Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiya olishlari» *scientific progress, vol. 1, no. 5, 2021, pp. 368-372.*

3.Qaxarova. D.S. *Inklyuziv Ta'lim texnologiyasi. T. 2014.*

4.Kamolova, Sh. (2021). *Talim jarayonida interfaol usullardan foydalanishning afzaliklari. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (2).*

## **PROFESSIONAL FUTBOL JAMOALARIDA MURABBIY VA SPORCHI MUNOSABATLARINING O‘ZIGA XOSLIGI**

*Majidov Jasur Baxtiyarovich  
Jizzax davlat pedagogika universiteti,  
Umumiy psixologiya kafedrası katta o‘qituvchisi*

---

*Annotatsiya: Ushbu maqolada professional futbol jamoalarida “Murabbiy-sportchi” tizimidagi munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, murabbiy shaxsining faoliyat uslubidagi gnostik, emotsional hamda xulq-atvorga oid pozitsion yondashuvning sportchilar faoliyatiga va jamoadagi ijtimoiy munosabatlarga ta’siri masalalari empirik tahlil qilingan.*

*Kalit so‘zlar: “Murabbiy-sportchi” tizimi, futbol, o‘zaro munosabatlar, gnostik, emotsional, xulq-atvor, kasbiy etuklik, jamoa, perseptual baholash.*

## **ОСОБЕННОСТИ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ТРЕНЕРА И СПОРТСМЕНА В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ФУТБОЛЬНЫХ КОМАНДАХ**

*Маджидов Жасур Бахтиярович  
Джизакский государственный педагогический университет,  
старший преподаватель кафедры Общей психологии*

---

*Аннотация: В данной статье эмпирически анализируются особенности взаимоотношений в системе «Тренер-спортсмен» в профессиональных футбольных командах, влияние гностического, эмоционального и поведенческого позиционного подхода тренера на деятельность спортсменов и на социальные отношения в команде.*

*Ключевые слова: система “Тренер-спортсмен”, футбол, взаимоотношения, гностический, эмоциональный, нравственное поведение, профессиональная зрелость, команда, перцептуальная оценка.*

## **PECULIARITIES OF THE RELATIONSHIPS OF COACHES AND SPORTSMEN IN PROFESSIONAL FOOTBALL TEAMS**

*Majidov Jasur Bakhtiyarovich  
Jizzakh State Pedagogical University,  
senior teacher of the Department of General Psychology*

*Abstract: This article presents an empirical analysis of the specific features of the relationships in the “coach-sportsman” system in professional football teams, the impact of the coach’s gnostic, emotional and behavioral position during his working process on sportsmen activity and social relationships in the team.*

*Key words: “Coach-sportsman” system, football, relationships, gnostic, emotional, behavior, professional maturity, team, perceptual assessment.*

**KIRISH.** Bugungi kunda butun dunyoda sport inson faoliyatining eng ommalashgan turlaridan biri hisoblanadi. Ayni paytlarda sport faqatgina sog‘lomlashtirish funksiyasini bajarib qolmasdan, kuchli ijtimoiy hodisaga ham aylanib ulgurdi.

Mamlakatimizda jamiyat hayotida sportning rolini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Hukumatimiz tomonidan «Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish to'g'risida»gi Qarori, 1993-yil 7-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan birinchi orden - birinchi va ikkinchi darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni ta'sis etilishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida»gi Farmoni [1], Madaniyat va sport sohasidagi boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida Prezidentimiz Farmoni (2017-yil 15- fevral) Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida (2017 yil 3-iyun) va 2019- yil 4-dekabrda PF-5887 –sonli “O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida” gi Farmoni [2] doirasida mamlakatimizda 2030 yilgacha futbolni rivojlantirish konsepsiyasining tasdiqlanishi mamlakatimizda ommaviy sport turi bo'lgan futbolni rivojlantirish, mazkur sohada futbol klublari, sport ta'lim muassasalari uchun sport shifokori, sport psixologi, sport farmakologi, sport huquqshunosi va sport dietologi yo'nalishlari bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil qilish. SHuningdek, zamonaviy ilmiy yutuqlar va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda murabbiy, seleksioner (skaut), tahlilchi, hakam, marketolog va futbol menejeri yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali futbol mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida mahalliy hamda xorijiy mutaxassislarni keng jalb qilish orqali O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi huzurida futbol mutaxassislarini tayyorlash markazini tashkil etish vazifalari belgilab berildi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun ilm-fan yutuqlaridan foydalanish ushbu sohada keng ko'lamlı tadqiqotlar o'tkazilishini

taqazo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Sport psixologiyasida sportchilarning psixologik tayyorgarligi va psixik holatlarini boshqarish, sport jamoalaridagi o‘zaro munosabatlar mavzusi juda dolzarb bo‘lib, u A.S. Puni, E.P. Ilin, A.B. Alekseev, YU.YA. Kiselev, G.D. Gorbunov, I.P. Volkov, A.N. Nikolaev, P.A. Rudik, A.B. Rodionov, Yu.L.Xanin, A. Stambulov, Kolomeyev Yu., V.F. Sopov va mamlakatimiz olimlarida R.A.Abdurasulov, Z.E.Gazievalar o‘zlarining tadqiqot ishlarida ilmiy asoslab berishga harakat qilganlar [3, 244]. Lekin millionlar o‘yini va ko‘pchilikning sevimli sport turi bo‘lishiga qaramay sportning futbol turi psixologik tadqiqotlarning keng ko‘lamli ob‘ekti bo‘lib ulgurmagan. Sport faoliyatining shaxs shakllanishiga ta’siri masalalari ko‘proq individual ishtirokli sport turlarida va ayrim jamoaviy sport turlari doirasida ko‘rib chiqilgan. Yurtimizda ham bu boradagi ishlarni etarlicha deya olmaymiz.

Zamonaviy sportda sportchilarning murabbiylar, pedagoglar va jamoadoshlari bilan o‘zaro munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish, samarali muloqot ko‘nikmalaridan foydalana bilish, hamkorlikka asoslangan faoliyatni samarali tashkil etish muhim masalalardan hisoblanadi.

Munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olish birinchi navbatda jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitning sog‘lom bo‘lishida, birdamlik sifatlarining tarkib topishida, jamoaviy ruhiyat ustuvor bo‘lishida hal qiluvchi rolni o‘ynaydi. Mazkur jarayonda sportchilarda samarali muloqot ko‘nikmalarini tarkib toptirishni rag‘batlantirish eng avvalo murabbiy bilan sportchilar va sportchilarning bir –birin to‘g‘ri tushuna olishini ta’minlab beradi.

Mazkur masalalarning ba’zilariga javob topish uchun sportda o‘zaro munosabatlarning tizimli usullarini ishlab chiqish zaruriyati tug‘iladi. Bu borada esa olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari juda ham kamchilikni tashkil qiladi. SHu bois professional futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish va sportchilarning jamoaga moslashishiga (adaptatsiya) ijobiy muhitni yaratish, futbolchilar ijtimoiy–psixologik bilimlarini rivojlantirish, muvafaqqiyatga erishishda jamoaviylik va birdamlikning muhim ekanligini asoslash, jamoaviy muloqotning samarali usullarini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb masalalardan biridir.

Futbol millionlar o‘yini sifatida hammaning dilidan joy olgan ommaviy sport turi hisoblanadi. Mazkur sport turida shaxsning individual muvafaqqiyati jamoa muvafaqqiyati bilan bog‘liq tarzda kechib, sportchining nafaqat idividual shakllanishiga, balki jamoa sharoitida guruh doirasida ijtimoiy tajribalarni, sportning jismoniy va

ma'naviy yutuqlari o'zlashtirishiga olib keladi.

Jamoaviy o'yin sifatida futbol nafaqat shaxsning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari takomillashuviga, balki individual qobiliyatlarning rivojlanishiga, irodaviy sifatlarning tarkib topishiga, jamoa a'zolari bilan munosabatlari asosida muhim ijtimoiy tajribalarni egallashida, ijtimoiy ong taraqqiy etishida, boshqalar oldida mas'uliyat hissini tarkib topishiga, bir so'z bilan aytganda shaxs shakllanishi va tarkib topishida muhim rol o'ynaydi.

Jamoaviy sport turlarida o'zaro munosabatlarning kechishi ko'p jihatdan murabbiy shaxsining kasbiy etukligi va uning ijtimoiy-psixologik bilimdonligiga bog'liq bo'ladi. Aynan murabbiyning shaxsiy va ijtimoiy sifatlari jamoaviy muhitning va shu muhitdagi ustivor ruxiyatning asosini belgilab beradi. Bu ruhiyat samarali-istiqbolli natijador faoliyatga yo'l ochishi yoki ziddiyatli-samarasiz natijadorlikning past ko'rsatkichi bilan ifodalanishi mumkin.

Murabbiy qo'l ostidagilarda kuchli iroda va yuqori axloqiy me'yorlarga ega bo'lgan jasur ritsar imijidagi shaxs sifatlarini namoyon eta olsa, sportchilarda ham shunday motivatsiya uyg'otib bir-birini to'g'ri idrok etish va ijtimoiy perseptivlikning unumdor uslubi yaratiladi. Bu esa murabbiy va sportchi munosabatlari (vertikal) kechishida ijtimoiy-psixologik va pedagogik unumdorlikning oshishida muhim omil bo'lib hisoblanadi [4, s.124-126].

Murabbiy va sportchi munosabatlarini o'rganishda - Yu.L.Xanin, va A. Stambulov tomonidan ishlab chiqilgan diagnostik usul ko'plab tadqiqotchilar va sport psixologlari, pedagoglari, murabbiylari tomonidan keng miqiyosda qo'llanilib kelinmoqda va bu o'z navbatida jamoaviy sport turlarida murabbiy va sportchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda, murabbiy faoliyatini baholashda va murabbiy qo'l ostidagi sportchilarning jamoada xukm surgan ijtimoiy muhitdan qoniqishi va ijtimoiy adaptatsiyasi masalalarida ma'lum bir xulosalar qilishda foydalanish imkoniyatini tug'diradi.

Musobaqaning turli bosqichlarida sportchining psixologik xatti-harakati va faoliyatini ta'minlashda asosiy rolni uning murabbiyi bajaradi. Murabbiyning vazifasi nafaqat sportchining sport yutuqlari bilan, balki har tomonlama rivojlangan, bilimli va o'z-o'zini rivojlantirishga qodir bo'lgan shaxsni tarbiyalash hamdir. Shunday ekan jamoadagi o'zaro munosabatlarning kechishi murabbiyning ijtimoiy-psixologik va kasbiy etukligi bilan bevosita bog'liqdir.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Biz tadqiqotimizda "Murabbiy- sportchi" tizimidagi munosabatlarni o'rganish uchun Yu.L.Xanin, A. Stambulov tomonidan ishlab chiqilgan "Murabbiyning

shaxsiy faoliyati xususiyatlarini ijtimoiy –perseptual baholash” uslubidan foydalanib uchta futbol jamoalarida murabbiy va sportchi munosabatlarini o‘rgandik. Ushbu uslub 24 savoldan iborat bo‘lib, murabbiy shaxsiyatining gnostik, emotsional va xulq-atvor xususiyatlarini perseptual baholash imkonini beradi va har bir hususiyat 8 tadan savol asosida aniqlanadi.

Gnostik xususiyatlar - murabbiyning sportchilar nuqtai nazaridan mutaxassis sifatida malakasi darajasini ochib beradi.

Emotsional hususiyatlar-murabbiyning shaxs sifatida sportchilar uchun qanchalik jozibadorligini aniqlaydi va o‘zaro munosabatlarga kirishishdagi faolligini ko‘rsatib beradi.

Xulq-atvor xususiyatlari - bu murabbiy va sportchilarning o‘zaro munosabatlari kelajakda qanday rivojlanib borishini ko‘rsatib beradi.

Tadqiqotda ishtirok etgan sportchilar 17-29 yoshlar oralig‘ida, jami 66 nafar.

Olingan natijalarga ko‘ra “Zomin ” professional futbol jamoasida sportchilar tomonidan berilgan bahoga ko‘ra murabbiyning gnostik xususiyatlari o‘rtacha 7,3 ni tashkil etib, murabbiy sportchilar tomonidan mutaxassis sifatida yuqori bilim va malakalarga ega kasbiy etuk inson sifatida baholandi. Gnostik jihatlariga e‘tibor qaratuvchi murabbiy shogirdlari bilan o‘zaro munosabatlarida ularga ko‘roq bilim berishga, faoliyat sohasi bo‘yicha savodxonligini oshirishga, ko‘proq ma‘lumotlar bilan qurollantirishga harakat qiladi.

Yu.L.Xaninning ta‘kidlashicha gnostik jihatlariga e‘tibor qaratuvchi murabbiyning birinchi navbatdagi vazifasi o‘z shogirdlarini bilimlar bilan qurollantirish muhim degan ustanovkalar mavjud bo‘ladi.

Emotsional jihatlar bo‘yicha natijalarning o‘rtacha ko‘rsatkichi 6,4 ni tashkil etib, murabbiyning shaxs sifatida sportchilar uchun jozibadorligi yuqori baholangan. Sportchilar murabbiyni ijtimoiy etuk va o‘zaro munosabatlarda samimiy inson sifatida bilishadi.

Yu.L.Xaninning ta‘kidlashicha emotsional jihatlariga e‘tibor qaratuvchi murabbiy o‘z shogirdlarida atrofdagilar bilan munosabat ko‘nikmalarini shakllantirish muhim degan fikrga ega bo‘lib, murabbiyning vazifasi sportchilarni musobaqa va hayotiy vaziyatlarga tayyorlash, shaxslararo munosabatlarga kirishishga o‘rgatish, ularda o‘zaro ishonch va xurmat tuyg‘ularini shakllantirish lozim degan ustanovkalar bilan sug‘orilgan. Murabbiy faoliyatida mazkur xususiyatning ustuvor bo‘lishi sport jamoasida o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish asosida jamoada bir-birini tushinish, o‘zaro xurmat muhitining yuzaga chiqishida muhim omil hisoblanadi.

Xulq-atvor xususiyatlari - bu murabbiy va sportchilarning o‘zaro




munosabatlari qanday rivojlanib borishini ko'rsatadi. Ushbu xususiyat bo'yicha Zomin futbol jamoasi sinalluvchilarining o'rtacha ko'rsatkichi 6,4 ni tashkil etib murabbiy va sportchilarning o'zaro munosabatlari rivojlanib borish tendensiyasiga ega ekanligini ifodalab berdi.

Xulq-atvor xususiyatlariga e'tibor qaratuvchi murabbiy o'z faoliyatida shogirdlariga nima to'g'riyu, nima notog'ri ekanligini anglatish, tartib-intizomga amal qilish, mas'uliyat va javobgarlik tuyg'ularini shakllantirish asosida o'zaro xurmat muhitini yaratishga intiladi (1 -rasm).

“Zomin” professional futbol jamoasida murabbiy-sportchi tizimidagi munosabatlarning ifodalanishi. Yu.L.Xanin, A. Stambulov uslubi bo'yicha

1-rasm



Jamoaning har uchala, ya'ni gnostik, emotsional va xulq-atvor xususiyatlari bo'yicha o'rtacha qo'rsatkichi 20,2 ni tashkil etdi. Bu esa jamoada o'zaro munosabatlar yuqori ijtimoiy normalarga tayanib olib borilishidan dalolat beradi. Olingan natijalar tahlidan ham ko'rishimiz mumkinki, Zomin futbol jamoasida murabbiy-sportchi tizimidagi o'zaro munosabatlar jamoada ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit mavjudligidan dalolat berib, murabbiy sportchilar tomonidan o'z kasbining ustasi sifatida idrok etiladi. Jamoaning 2019-2020 va 2021 yilgi Proligada erishilgan muvafaqqiyatlari ham buni tasdiqlaydi.

Ikkinchi tadqiqot ob'ektimiz So'g'diyona PFKning yosh futbolchilar jamoasida murabbiy-sportchi tizimidagi munosabatlarda gnostik jihatlarining o'rtacha ko'rsatkichi 6,4 ni tashkil etdi. Demak, mazkur jamoada ham murabbiy sportchilar tomonidan yuqori bilim va


malakalarga mutaxassis sifatida baholanadi.

Emotsional jihatlar bo'yicha natijalarning o'rtacha ko'rsatkichi 6,1 ni tashkil etib, murabbiyning shaxs sifatida sportchilar uchun jozibadorligi yuqori baholangan, yani murabbiyni xushmuomalali inson sifatida bilishadi.

Xulq-atvor xususiyatlari bo'yicha sinaluvchilarining o'tracha ko'rsatkichi 6,1 ni tashkil etib murabbiy va sportchilarning o'zaro munosabatlari rivojlanib borish tendensiyasiga ega ekanligini ifodalab berdi (rasm-2).

So'g'diyona futbol jamoasida murabbiy-sportchi tizimidagi munosabatlar ko'rsatkichi

2- rasm



So'g'diyona futbol jamoasida murabbiy shaxsi faoliyati va murabbiy-sportchi tizimidagi o'zaro munosabatlarning har uchala:gnostik, emotsional va xulq-atvor xususiyatlari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichi 18,8 ni tashkil etdi.

Uchinchi tadqiqot ob'ektimiz hisoblangan Nasaf futbol jamoasida murabbiy shaxsi faoliyati va murabbiy-sportchi tizimidagi munosabatlarda gnostik jihatlarining o'rtacha ko'rsatkichi 6,4 ni tashkil etdi. Demak, mazkur jamoada ham murabbiy sportchilar tomonidan yuqori bilim va malakalarga mutaxassis sifatida baholanadi.

Emotsional jihatlar bo'yicha natijalarning o'rtacha ko'rsatkichi 5,4 ni tashkil etib, murabbiyning shaxs sifatida sportchilar uchun jozibadorligi va boshqalar bilan munosabat o'rnatishdagi faolligi o'rtacha ko'rsatkichda baholangan.


Xulq-atvor xususiyatlari bo'yicha sinaluvchilarining o'tracha ko'rsatkichi 5,3 ni tashkil etib murabbiy va sportchilarning o'zaro

munosabatlari ayrim qiyinchiliklarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Har uchala xususiyatlar:gnostik,emotsional,xulq-atvor xususiyatlarining o'rtacha ko'rsatkichi 17,2 ni tashkil etib, sportchilarda murabbiy faoliyatiga va faoliyat uslubiga nisbatan tanqidiy munosabatini sezishimiz mumkin. Bu o'z navbatida murabbiyning faoliyat uslubida sportchilar bilan individual va jamoaviy munosabatlar o'rnatishda ba'zi qiyinchiliklar uchrab turishidan dalolat beradi (3-rasm).

Nasaf futbol jamoasida murabbiy shaxsi faoliyati va murabbiy-sportchi tizimidagi munosabatlar ko'rsatkichi


3 –rasm.



Tadqiqot ishidagi natijalarni umumlashtirib har uchala jamoada YU.L.Xanin, A. Stambulov tomonidan ishlab chiqilgan “Murabbiyning shaxsiy faoliyati xususiyatlarini ijtimoiy –perseptual baholash” uslubi asosida olingan natijalarning tizimlashgan ko‘rinishi quyidagicha mazmunga ega bo‘ldi. Bunda murabbiylar faoliyati uslubining har uchala xususiyatlar:gnostik,emotsional,xulq-atvor xususiyatlari ko'rsatkichlari 24 ballik baholash tizimida asosida ifodalangan(diogramma-1).

Murabbiylar faoliyatini ijtimoiy –perseptual baholash ko'rsatkichlari

Diagramma-1



Diagrammadagi ko'rsatkichlardan ko'rish mumkinki, Zomin futbol jamoasidagi sportchilar murabbiy faoliyatiga baho berishda murabbiyning gnostik, emotsional va xulqiy xususiyatlarini yuqori baholab murabbiyning faoliyatidan, uning ish uslubidan va o'zaro munosabatlarda o'rnatgan munosabatlar taktikasidan bir muncha qoniqishga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Biz futbol jamoalarida o'zaro munosabatlar kechishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblangan jamoada "Murabbiy-sportchi" tizimidagi munosabatlari tahlil qilishga harakat qilib, jamoadagi o'zaro munosabatlarda murabbiyning ustuvor munosabat ustanovkalarini baholash va sportchilarning murabbiy faoliyatini ijtimoiy perseptual baholashi orqali jamoadagi umumiy psixologik iqlimning o'ziga hos xususiyatlarini o'rganishga harakat qildik. Buning uchun biz Yu.L.Xanin so'rovnomasining dispersion tahlili amalga oshirdik (1-jadval). Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, sportchilar tomonidan murabbiy faoliyati va o'zaro munosabatlardagi asosiy ko'rsatkichlardan biri Xulqiylik shkalasida sezilarli farqlar mavjudligi ma'lum bo'ldi. Xulq-atvor xususiyatlari yoki xulqiy yondashuv - bu murabbiy va sportchilarning o'zaro munosabatlari kelajakda qanday rivojlanib borishini ko'rsatib beradigan ko'rsatkich sifatida murabbiy tomonidan asosiy e'tiborga olinadigan va har bir sportchining asosan xulq-atvoridagi jamoaga va unda o'rnatilgan tartib-intizomga amal qilib borishi hamda sportchilarning axloqiy sifatlariga urg'u beriladigan murabbiyning sportchi bilan munosabatlar tizimini belgilovchi ustanovkalardan iborat yondashuv uslubidir.

Suunga muvofiq Zomin futbol jamoasida mazkur uslub murabbiylar tomonidan ko'proq urg'u beriladigan va sportchilarning xulq-atvoriga va axloqiy jihatlariga, mas'uliyatiga asosiy e'tibor qaratiladigan va o'zaro munosabatlarning keyingi istiqboli shu yo'sinda rivojlanishiga sharoit yaratadigan munosabatlar tizimidir. Buni quyidagi jadval va rasmda yanada aniqroq ko'rishingiz mumkin.

Yu.L.Xanin so'rovnomasining dispersion tahlili

1 -jadval

1 -jadval		N	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	F	Ishonch darajasi
Gnostik	Zomin	25	7,3600	,75719	2,772	,070
	So'g'diyona	24	6,4167	1,86307		
	Nasaf	17	6,4118	2,00184		
	Jami	66	6,7727	1,62476		
Emotsional	Zomin	25	6,4800	1,15902	2,857	,065
	So'g'diyona	24	6,0417	1,51741		
	Nasaf	17	5,4118	1,62245		
	Jami	66	6,0455	1,46163		
Xulqiy	Zomin	25	6,4000	,95743	5,609	,006**
	So'g'diyona	24	6,2917	,80645		
	Nasaf	17	5,3529	1,45521		
	Jami	66	6,0909	1,13310		

Tadqiqotimizda sport jamoalarida o'zaro munosabatlarning kechishini o'rganish jarayonini davom ettirar ekanmiz ushbu jarayonda jamoadagi o'zaro munosabatlar va muhitga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillardan biri bu sportchi va murabbiy munosabatlaridir. Biz ushbu jarayonda murabbiy va sportchi munosabatlarini o'rganishda - Yu.L.Xanin, va A. Stambulov tomonidan ishlab chiqilgan diagnostik usulda o'zaro munosabatlarning korrelyatsion aloqalarni tekshirishga harakat qildik va quyidagicha natijalar oldik.

Zomin futbol jamoasida murabbiy va sportchi tizimidagi munosabatlarda korrelyatsion aloqalar ko'rsatkichlari

2-jadval

2-jadval

2-jadval	Gnostik	Emotsional	Xulqiy
Gnostik	1	,080	-,034
Emotsional		1	,045
Xulqiy			

2-jadvalning ko'rsatishicha Zomin futbol jamoasida murabbiy va sportchi tizimidagi munosabatlarda korrelyatsion aloqalar ko'zga tashlanmadi. Lekin, Gnostik va Emotsional ,080 va Emotsional va Xulqiy ,045 jihatlarda ijobiy ko'rsatkichlar namoyon bo'ldi. Shu bilan birgalikda Gnostik va Xulqiy shkalalarda salbiy -,034 aloqadorlik kuzatildi. Shunga binoan aytishimiz mumkinki, ushbu jamoada murabbiy va sportchi tizimidagi munosabatlarda murabbiyning shaxs sifatida sportchilar uchun qanchalik jozibadorligi va va o'zaro munosabatlarga kirishishdagi faolligi muhim ahamiyat kasb etadi. Xulqiy sifatlar esa murabbiy va sportchilarning o'zaro munosabatlarining kelajakda qanday rivojlanib borishiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni murabbiy uchun sportchilarning xulq-atvori e'tiborda turadi va o'z navbatida sportchilar tomonidan murabbiyning ijtimoiy-perseptual idrokida murabbiyning kasbiy bilim va mahoratidan ko'ra uning xulq-atvori muhimroq sanaladi. Gnostik va Xulqiy shkalalarda salbiy -,034 ko'rsatkichdan anglash mumkinki, sportchining kasbiy bilim, malakasidan ko'ra uning xulq-atvori va axloqiy sifatlari muhimroq sanaladi.

Keyingi tadqiqot ob'ektimiz So'g'diyona futbol jamoasida mazkur ko'rsatkichlar quyidagi 3-jadvalda namoyon bo'ldi.

So'g'diyona futbol jamoasida murabbiy va sportchi tizimidagi munosabatlarda korrelyatsion aloqalar ko'rsatkichlari

Jadvalning ko'rsatishicha Gnostik shkalasi va Emotsional shkalasi ,763(\*\*) o'rtasida hamda Gnostik shkalasi va Xulqiy ,436(\*) shkalalari o'rtasida ijobiy korrelyatsion aloqalar kuzatildi. Suunga binoan aytish mumkinki, sportchilar nazarida murabbiyning shaxs sifatida jozibadorligi va o'zaro munosabatlarga kirishishdagi faolligi hamda uning xulq-atvor xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi va shu asosda keyingi munosabatlar rivoji belgilanadi.

Keyingi tadqiqot ob'ektimiz Nasaf futbol jamoasida murabbiy va sportchi tizimidagi munosabatlar mazmuni quyidagi jadvalda (4-jadval) aks etgan ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi.

Nasaf futbol jamoasida murabbiy va sportchi tizimidagi munosabatlarda korrelyatsion aloqalar ko'rsatkichlari

4-jadval	Gnostik	Emotsional	Xulqiy
<b>Gnostik</b>	<b>1</b>	<b>,676(**)</b>	<b>,698(**)</b>
<b>Emotsional</b>		<b>1</b>	<b>,835(**)</b>
<b>Xulqiy</b>			<b>1</b>

4- jadvalning ko'rsatishicha Gnostik shkalasi va Emotsional shkalasi ,676(\*\*) o'rtasida hamda Gnostik shkalasi va Xulqiy ,698(\*\*)

shkalalari o'rtasida kuchli ijobiy korrelyatsion aloqalar kuzatildi. Shunga binoan aytish mumkinki, So'g'diyona futbol jamoasidagi sportchilar nazarida murabbiyning kasbiy bilim va mahorati va shaxs sifatidagi jozibadorligi, o'zaro munosabatlarga kirishishdagi faolligi muhim sanaladi. Suu bilan birgalikda Emotsional shkalasi va Xulqiy shkalalari ,835(\*\*) o'rtasida ham ijobiy korrelyatsion aloqalar kuzatildi. Bu esa, sportchilar tomonidan shaxs sifatidagi jozibadorligi, o'zaro munosabatlarga kirishishdagi faolligi va xulq atvor xususiyatlari muhim sifatlar sifatida baholanishidan dalolat beradi. Umuman olganda aytish mumkinki, ushbu jamoa sportchilari tomonidan murabbiydagi har uchala jihatlar: gnostik (kasbiy bilim va mahorati), emotsional (shaxs sifatidagi jozibadorligi, o'zaro munosabatlarga kirishishdagi faolligi) va xulq-atvor xususiyatlari o'zaro munosabatlarning keyingi istiqboliga ta'sir ko'rsatishini namoyon etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Olingan natijalar asosida quyidagicha hulosalar qilish mumkin:

Murabbiylik ishida muvaffaqiyat ko'p jihatdan, murabbiyning bilimiga va sportchilar va jamoa bilan munosabatlarini to'g'ri o'rnatishiga hamda o'z bilimlarini shogirdlariga uzata olishdagi mahoratiga bog'liq bo'ladi;

Murabbiyning sportchilar va sportchilarning murabbiy haqida etarlicha ma'lumotlarga ega bo'lishi o'zaro tushunish va ishonchga, maqsadlar birligini anglashga olib keladi;

"Murabbiy-sportchi" tizimidagi o'zaro munosabatlarning kechishi murabbiyning sportchilar kutadigan rolni qay darajada bajara olishi bilan ham belgilanadi. Agarda, murabbiy o'z kasbiy rolini muvafaqqiyatli bajara olsa, sportchilar tomonidan yuqori perseptual baholash yuzaga kelishiga asos bo'lishi mumkin. Bu esa sportchilarda tanlangan faoliyatdan qoniqish hosil qilishi va muvafaqqiyatga intilish motivatsiyalarining tarkib topishiga zamin yaratadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR/ REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida»gi Farmoni (2002 yil, 24 oktyabr) . Ma'rifat gazetasi, 2002 yil, 31 oktyabr 2 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni. 4-dekabr 2019- yil- <http://lex.uz/m/acts/4631208>

3. Falsafa: ta'lim va innovatsiya. Yosh olimlar ilmiy –amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. O'zMU 2012 –yil, 244-bet

4. Ханин Ю.Л. Психология общения в спорте. М. 1980.- 124-126 с



5.Ильин Е.П. Факторы, обуславливающие эффективность педагогического общения / Психология физического воспитания. - СПб: Изд. - во РГПУ им. А.И. Герцена, 2000. - 486 с.

6. Деркач А.А., А.А. Исаев. Творчество тренера. - М.: ФиС, 1982 -236 с

7.Коломейцев Ю.А. Взаимоотношения в спортивной команде. - М.: 1984, с



## ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI DOLZARB MASALALAR.

Abdusamatov Javlonbek Qahramon o'g'li  
"Maktab menejmenti" yo'nalishi talabasi.

*ANNOTATSIYA. Ta'lim muassasalari o'quv jarayonini tashkil etishda etarlicha mustaqillikka ega emas, ular mehnat bozorining o'zgaruvchan sharoitlariga yaxshi moslashmagan. Ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish tashkilotlarining malakali kadrlarni tayyorlash, ish bilan ta'minlash jarayonidagi hamkorligi qoniqarli deb bo'lmaydi. Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish ishlari ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish tashkilotlari, ish beruvchilar bilan birgalikda keng muhokama qilinmaydi.*

*Kaliti so'zlar: Tashqi baholash, Ta'limdagi muammolar, tizimlilik, bozor raqobati, vaqt bombasi.*

*АННОТАЦИЯ. Образовательные учреждения не обладают достаточной самостоятельностью в организации учебного процесса, недостаточно адаптированы к изменяющимся условиям рынка труда. Взаимодействие образовательных учреждений и производственных организаций в процессе подготовки и трудоустройства квалифицированных кадров нельзя признать удовлетворительным. Разработка и внедрение государственных образовательных стандартов широко не обсуждаются с образовательными учреждениями, производственными организациями и работодателями.*

*Ключевые слова: Внешняя оценка, проблемы в образовании, системность, рыночная конкуренция, бомба замедленного действия.*

*Abstract: Educational institutions do not have sufficient independence in the organization of the educational process, they are not well adapted to the changing conditions of the labor market. The cooperation of educational institutions and production organizations in the process of training qualified personnel, employment cannot be considered satisfactory. The work on the development and implementation of state educational standards is not widely discussed together with educational institutions and production organizations, employers.*

*Key words: External assessment, problems in education, systemativeness, market competition, time bomb.*

Xalq ta'limi O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Aynan maktab ta'limining sifati va qulayligi davlatning rivojlanish istiqbollari aks ettirib, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun

zamin yaratadi. Ta'lim uchun mablag'larni tejash mumkin emas, degan fikrga qo'shilmasdan boshqa ilojimiz yo'q. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida maktab ishlari davlat nazoratida ekanligi bejizga ta'kidlangan emas.

Abdulla Avloniy aytganidek «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir»

Ma'lumki, mamlakatimizdan iqtidorli bolalarni aniqlash, o'qitish va tarbiyalash, ularni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'naviy boy va rivojlangan avlodni shakllantirish maqsadida 2019 yili xorijiy ta'lim tashkilotlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan o'quv rejaları va dasturlariga muvofiq ta'lim jarayoni ingliz tilida olib boruvchi Prezident maktablarini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan, bu esa ta'lim sifatining ilg'or andozalari qo'llanilayotganidan dalolat bermoqda. Maktab ta'limi, ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xorijiy tillarni chuqur o'rganish imkoniyatlarini yaratish sohasida muhim voqealardan biri bu ijodiy va ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil etilishi bo'ldi.

Umuman ta'lim sohasida mavjud yutuqlarga qaramasdan xalq ta'limida bir qator muammolar mavjud. Ayniqsa, hozirgi axborot asrida deyarli muntazam ravishda ijtimoiy tarmoqlarda maktablardagi ta'lim muammolari haqida xabarlar yoki materiallarni uchratish mumkin. Ular orasida vaqtinchalik tusga ega (masofaviy ta'limga o'tish, qonunchilikdagi o'zgarishlar) hamda tizimli (jamiyatda o'qituvchilarga munosabat, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar) muammolar mavjud.

Ta'limdagi muammolar davlatning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu munosabat bilan joriy yilning 28 yanvar kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda Davlatimiz rahbari darajasida maktab ta'limi sohasidagi muammolar va dolzarb masalalar qayd etildi, qator takliflar ilgari surildi. Albatta, bunday g'amxo'rlik maktab ta'limining ustuvorligidan dalolat beradi. Biroq, maktab ta'limi muammolari tizimli va mustaqil tarzda hal qilinishi kerak. Muammolar chetdan turib hal qilinadi, deb o'ylash xatodir, shuning uchun xalq ta'limi sohasidagi davlat siyosatida ishtirok etadigan barcha davlat organlaridan tashabbuskorlik talab etiladi.

Ta'limning asosiy muammolari va uning sifati tushib ketishining sabablari:

- O'qituvchilar va jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlardagi muammolar. Hech kimga sir emaski, yaqin vaqtgacha o'qituvchilar faoliyatida darslarni yuqori sifatda o'tkazishga va pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga to'sqinlik qiladigan bir qator ob'ektiv muammolar mavjud bo'lgan.

- O'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini bunday kamsitish maktabda nosog'lom muhitni yaratadi. Oqibatda o'qituvchilar barcha

muammolar va muvaffaqiyatsizliklar uchun malomat qilinadi, bu esa adolatdan emas. Bunday munosabat yoshlarning o'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqishini oshirishi dargumon. Shuning uchun o'qituvchilarga nisbatan hurmatsizlik va qo'pollik "vaqt bombasi" kabi taraqqiyotni orqaga surib, uning oqibatlari davlatning kelajakdagi rivojlanishida aks etadi.

- Jamiyat va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlardagi muammo – bu ota-onalarning o'qituvchilarga nisbatan munosabati. Bugun ota-onalar barcha qiyinchiliklarda o'qituvchilarning o'zlarini ayblashga, noto'g'ri bo'lsa ham bolalarini himoya qilishga ko'proq moyilligi kuzatilmoqda.

- Albatta, ba'zi o'qituvchilar tomonidan nojo'ya xatti-harakatlar sodir etilishi holatlari ham mavjud. Ruhiy muvozanatning yoki pedagogik mahoratning etarli emasligi tufayli o'qituvchilar sha'nini haqoratlash yoki kamsitish holatlari yuzaga kelishi mumkin. Pedagogika har doim tarbiyalanuvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olishi kerak, aks holda o'qitish samaradorligi past bo'ladi.

- Umuman olganda, Internetda o'qituvchi va o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi materiallarning tarqatilishi axborot xavfsizligiga tahdididir. Shu munosabat bilan jamiyatning axborot muhitida o'qituvchilarga nisbatan munosib hurmat va ehtirom madaniyatini shakllantirish choralarini ko'rish zarur. Bolalar bog'chasi va oiladan boshlab bolalarni ustozlarga hurmat ruhida tarbiyalash lozim.

- Maktab o'qituvchisi kasbining obro'si unchalik yuqori emasligi. Afsuski, maktab o'qituvchisi talab yuqori bo'lgan kasblardan biri emas. Birinchidan, bu o'qituvchilarning ish haqi bilan bog'liq. Xorijiy mamlakatlarda o'qituvchilar uchun munosib maosh to'lashga katta e'tibor qaratilgan. Masalan, Shvetsariyada o'qituvchilarning maoshi oyiga 6240 dollargacha, Germaniyada – 5500 evrogacha, Yaponiyada – 3900 dollargacha, AQShda – 3900 dollargachini tashkil etadi. Ish haqining pastligi o'qituvchilarni yangi daromad manbalarini izlashga undaydi. Ba'zida o'qituvchilar qo'shimcha ish qidirishlari kerak. Ayrim o'qituvchilar dars soatlari sonini ko'paytirishga harakat qilishadi, bu o'qitish sifatini pasaytiradi va bir vaqtning o'zida boshqa o'qituvchilarni ish vaqtidan mahrum qilishi mumkin. Kimdir 1,5 stavkada va boshqasi esa yarim stavkada ishlayotgan vaziyat vujudga kelishi mumkin.

- Maktablarning moddiy-texnik ta'minot bilan bog'liq muammolar. Zamonaviy maktab talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlar uchun qulay platforma sanaladi. Bu qulaylik maktabning zamonaviy texnologiyalar (smart-doskalar, kompyuter jihozlari) bilan ta'minlanishini talab qiladi. Bularsiz maktab ta'limi zamonaviy voqelikdan orqada qoladi, bu esa ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, lozim darajadagi moddiy-texnik ta'minot ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Moddiy-texnik muammolar maktablarni raqamlashtirish jarayonini yanada sekinlashtiradi.

Maktab tizimida hali ham xar xil turdagi hisobotlar mavjud bo‘lib, odatda ular qog‘oz shaklida tuziladi. O‘qituvchi kasbining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda bunday ovoragarchilik o‘qituvchilarga ta‘lim metodikasini takomillashtirishga va darslarga puxta tayyorgarlik ko‘rishga imkon bermaydi. Bunday sharoitda qanday sifat haqida gapirish mumkin? Hech shubhasiz, zarur shart-sharoitlarni yaratmasdan, o‘qituvchilardan ijobiy natijalarni talab qilish adolatdan emas. Ba’zida o‘qituvchilar moddiy-texnik muammolar uchun “javob berishlari”ga to‘g‘ri kelmoqda.

- Maktabdagi o‘quv dasturlari muammolari. Ta‘lim jarayonini zamonaviy talablarga javob bermaydigan eskirgan o‘quv dasturlari asosida tashkil etish yana bir muammoldan biri sanaladi. O‘quv adabiyotlaridagi matn tushunish uchun “murakkabligi” va o‘qitishning asosan nazariy jihatdan yo‘naltirilganligi o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon bermaydi, o‘qituvchilarning ijodiy yondashuvini cheklaydi. Ba’zi hollarda, tizimlilik etishmaydi va shuning uchun boshlang‘ich sinflarda olingan bilimlar yuqori sinflarda to‘ldirilmaydi.

- Shu o‘rinda Prezident, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari tajribasini qo‘llash maqsadga muvofiq. Bugungi kunda 790 ta ixtisoslashtirilgan maktablarda aniq fanlar va xorijiy tillar ilg‘or xorijiy tajriba asosida chuqur o‘rganilmoqda. Prezident va ijodiy maktablarda ta‘limga yondashuv iqtidorli bolalarni aniqlash, tanlash va tarbiyalashga, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan. Mazkur maktablar o‘quvchilarning qiziqishlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda, ayrim fanlar va ularni o‘rganish darajasini tanlab olish orqali o‘quv jarayonini individuallashtirish usullaridan foydalanadilar. Shuning uchun ko‘pgina ota-onalar farzandlarini ushbu maktablarda ta‘lim olishini nsti ko‘rishadi. Bizning fikrimizcha, ushbu maktablarning yutuqlari 2025 yilda milliy o‘quv dasturiga o‘tish bo‘yicha rejalashtirilayotgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda hisobga olinishi kerak.

- Joylarda umumiy o‘rta va maktabdan tashqari talim sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, umumtalim muassasalari rahbarlarini tanlash va joy-joyiga qo‘yish masalalarini hal etish, idoraviy mansub tashkilotlarning mulkidan samarali foydalanishda xalq talimi boshqaruv organlari rolining etarli darajada emasligi;

- Umumtalim muassasalari rahbarlari zimmasiga ularga xos bo‘lmagan vazifalar va funksiyalarni yuklash, muassasa direktori va uning o‘rinbosarlari o‘rtasida vakolatlarning aniq taqsimlanmaganligi, ular faoliyati samaradorligini baholashning aniq mezonlari va parametrlari mavjud emasligi;

- Umumiy o‘rta talimning dolzarb masalalari va ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha chuqur ilmiy tadqiqotlarning mavjud

emasligi, o'quv-tarbiya jarayonini uslubiy taminlash masalalarida xalq talimi bo'limlari va umumtalim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlik darajasining pastligi;

- Rahbarlar, o'qituvchilar va umumtalim muassasalari boshqa xodimlarining kasbiy faoliyatiga asossiz ravishda aralashuvdan himoya qilish mexanizmlarining samarasizligi, nazorat qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan maktablarni tekshirish haddan ziyod ko'payib ketganligi; talim sifatini taminlash, o'qituvchilarning bilim darajasini va pedagogik mahoratini oshirish masalalarida umumtalim muassasalari faoliyatidagi ochiqlik va shaffoflik darajasining etarli darajada emasligi, o'quv-tarbiya jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining mavjud emasligi;

- Xalq talimi tizimi muassasalarini moliyalashtirish va moddiy-texnik taminlash mexanizmining mukammal emasligi, ularning faoliyatiga zamonaviy me'moriy echimlar, innovatsion ishlanmalarni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasining pastligi;

- Ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlik to'liq yo'lga qo'yilmaganligi;

- O'quv mashg'ulotida ta'lim oluvchilarga bahslashish, o'zining fikrini bayon etishga imkon juda kam berilishi, ayrim mashg'ulotlarda pedagoglar eski ma'lumotlarni takrorlash bilan cheklanib qolayotganligi, ularning talab darajasida tayyorgarlik ko'rmaganligi, bilim va kasb saviyasining pastligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, kompetentliklari esa etarli darajada emasligi sezilmoqda.

- Maktablarda o'qituvchilar o'z ustida ishlamay qo'ygan. Ko'p miqdordagi iqtidorli insonlar yo maktabni tark etadi yo iqtidori ochilmay qolib ketadi. Amaldagi ta'lim tizimimizda o'qituvchining darsi qanchalik sifatli ekanligini baholashning samarali mezonlari yaratilmagan. O'qituvchilar tashkiliy masalalar bilan o'ralashib qolgan. Qanchalik xunuk eshitilmasin, tan olishga majburmiz: dars ikkinchi darajali narsaga aylanib qolgan. Sir emas, ayrim hollarda (doim emas) komissiya a'zolari joyida hammaga tanbeh berib, obro' orttirishga intiladi. Maqsad kamchilikni bartaraf etish emas, aybdorlarni jazolash bo'lib qoladi. Ba'zida mutlaqo mantiqqa zid gaplar ham bo'ladi.

- Bolalar maktab hamda kollejga majburligidan boradi. Talabalarning universitetga borishdan maqsadi faqat diplomli bo'lish. Iloji bo'lsa, umuman o'qishga bormay, baho olib yursa. O'quvchilarda o'rganishga qiziqish yo'q. Borlarida ham katta sinfga o'tgan sari qiziqish kamayib boraveradi. Bu endi iqtisodiyot darajasi bilan bog'liq. Yuqori malakali kadrga bizda yaxshi haq to'lanmaydi. Ba'zida hatto u ishga olinmaydi, ham.

- Umuman ish beruvchi, hoh u davlat bo'lsin, hoh xususiy tashkilot, eng sara kadrlarni ishga olishga intilmaydi. Bozor raqobati muhiti to'la

shakllanmagan. Shu bois ham, ishning sifatini oshirishga, demakki, eng zo'r kadrlarni jalb qilishga harakat qilinmaydi. O'z-o'zidan ota-onalar farzandining bilimli, saviyasi baland bo'lishiga ko'pam intilishavermaydi. Ta'limdagi eng katta muammo aynan mana shu. Agar aholida ta'limga ehtiyoj yuqori darajada bo'lganida, ular bilimni izlab topishardi. Ular bilimli o'qituvchilarni qadrlagan bo'lishardi. Ular baho olishga emas, bilim olishga qiziqqan bo'lishardi. Ular o'qituvchidan yaxshi darsni talab qilib olgan va shunga yarasha haq ham to'lashga tayyor bo'lishardi.

- Ustoz dars mahal bekor o'tirmaydilar. Davomat bo'lsa bor, o'quvchilar jim o'tiribdi, mavzu nomi doskada yozilgan. Ularga dars o'tganing bilan ham, hech qaysinisiga fan qiziq emas. Undan ko'ra, o'quvchilar jim telefonini o'ynasin, o'qituvchi opa paypog'ini to'qisin. Asosiysi, hamma sinfxonada o'tirsa, bas. Qarabsizki, 3 ta darsda 1 juft paypoq tayyor. Siz bo'lsa o'qituvchining kitob o'qishga vaqti yo'q deysiz. Vaqt tiqilib yotibdi. Motivatsiya yo'q.

- Motivatsiya masalasiga alohida to'xtalib o'tsam. Shu erida juda katta kamchiliklarimiz ko'zga tashlanadi. Maktabdanoq o'quvchilarni faqat tanbeh yoki maqtov yordamida tarbiyalaymiz. "Qamchi va pryanik" uslubidan boshqasiga yo erinamiz, yo aqlimiz etmaydi. Vaholanki, bolaning o'zidagi ishtiyoqni kuchaytira olish zarur. Farzandlarimiz ustozdan dakki eshitmaslik uchun yoki maqtov eshitish uchun o'qiydi. Fanning o'ziga bo'lgan qiziqish so'nib qoladi. Shu usulda tarbiya olgan kadrlar keyinchalik qaysi sohada ishlasa ham "qullik falsafasi"ga tayanib yashovchi, o'zidan yuqori odamga o'ylamay-netmay bo'ysunuvchi, oz'idan quyidagini esa bir tiyinga olmaydigan manqurtga aylanadi-qoladi. Bu masalalarni bartaraf etish pedagoglarning malakasini muntazam oshirishini, bunda alternativ usullarni qo'llash hamda tinimsiz izlanishlarini yo'lga qo'yish kabi vazifalarni amalga oshirishni taqazo etadi. Bu o'z navbatida pedagoglarga katta mas'uliyat yuklaydi.

Hozirda o'quv dasturi mazmuni va strukturasi qayta ko'rib chiqish juda muhim. U pedagog uchun "ko'zgu" vazifasini bajarilishi lozim. Chunki, inson ko'zgu (oyna)ga qarab o'zining butun bir vujudini ko'radi. Shuning uchun ham pedagog o'z fani bo'yicha o'quv dasturiga qarab, butun bir faoliyatini, o'quv mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarga etkazishi lozim bo'lgan jarayon borishini, unda amalga oshirishi zarur bo'lgan vazifalarni eslaydi. Lekin, amaldagi fan dasturlarida o'ziga yarasha kamchiliklari ham mavjud. Hozirgi kunda shunga o'xshash dolzarb muammo va masalalar umumiy o'rta ta'lim yoki zamonaviy ta'lim tizimini sifatini rivojlanishini keskin ortga tortmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Musurmonov, r., Khimmataliev, D. O., Sultanova, D. A., Tursunbaeva,

Y. R., Khakimova, i. K., & Musurmonova, M. (2023). In the conditions of new uzbekistan the main issues of science and modern education. *Telematique*, 7686-7694.

2. Rasulov, a. N., & Narimonov, J. M. (2022). Pedagogik ta'lim innovatsion klactepi shapoitida "iqticodiy bilim acoclapi" fanini o'qitishning tashkiliy va pedagogik shapoitlapi. *Academic research in educational sciences*, 3(12), 76-79.

3. Joldasovna, b. Z. (2023). Maktab menejmenti yo'nalishining ta'lim sohasida tutgan o'rni. *Pedagog*, 6(4), 104-109.

## **SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE DEVELOPMENT OF IDEAS ABOUT TOURISM AMONG YOUNG PEOPLE**

*Nilufar Kodirova Abdusattor qizi  
student of Amity University in Tashkent.*

---

*Annotation. This article is given to the issues of looking over the potential and prospects for the upgrade of the tourism industry among youthful individuals in Uzbekistan, which is based on Uzbek neighborliness and the tall quality of tourism organizations in conjunction with state back for this expand.*

*Key words: acknowledgment, social, history, tourism, development, travel, environment, essential.*

The advancement of contemplations roughly tourism among energetic people is influenced by diverse socio-psychological factors. determinants. Here are a number of key components that can shape their acknowledgment and motivation:

### 1. Social influence.

Young people are earnestly influenced by their social environment, checking family, companions and peers. The state of intellect and behavior of others can shape their acknowledgments of tourism. For outline, on the off chance that their companions or family people have positive experiences and express enthusiasm for traveling, this may make a need and motivation to explore unused objectives.

### 2. Media and displaying.

The media, tallying tv, motion pictures, social media and travel websites, play an basic portion in shaping the acknowledgment of tourism among young people.

Locks in and apparently locks in travel, encounter and social contrasts substance can energize young people and affect their acknowledgments of travel objectives and works out.

### 3. Educator inclusion.

Formal instruction, such as topography, history, and social considers approximately, can give energetic people data nearly particular countries, social orders, and travel objectives. Teacher trips and exchange programs can besides display young people to cutting edge experiences and social orders, invigorating their charmed in tourism.

### 4. Budgetary components.

Budgetary conditions, checking nonessential compensation, work prospects, and budgetary strength, can impact young people's discernments



of tourism. Within the occasion that they see tourism as an sensible and sensible elective, this may energize them to examine travel openings.

#### 5. Person interface and leisure activities:

The person interface and relaxation exercises of energetic people can shape their discernments of tourism. For case, those with an intrigued in nature and endeavor can be interested by places that offer open discuss works out such as climbing or characteristic life examination. Moreover, individuals who are enthusiastic nearly history, craftsmanship, or food may hunt for out objectives that facilitate those interface.

#### 6. Environment and practicality

Mindfulness: Energetic people these days are dynamically concerned roughly the environment and temperate progression. They may prioritize objectives that development reliable tourism sharpens, such as ecotourism or community conservation and enhancement exercises.

#### 7. Social and social exchange

Energetic people as often as possible regard openings for social exchange and social affiliations when they think of tourism. They can seek for objectives that offer immersive experiences, interaction with neighborhood communities, and the opportunity to memorize nearly unmistakable social orders and viewpoints.

#### 8. Development and computerized affect:

The distant coming to utilize of advancement and social media has made it less complex for energetic people to induce to information nearly travel objectives, interface with person travelers and share experiences. Online stages and tourism influencers can play an crucial portion in shaping their tourism considerations and objectives.

It is basic to note that these determinants may move over people and social orders, which person experiences and slants in the long run shape young people's acknowledgments of tourism.

#### Literature Review

An crucial coordinate to action inside the advancement of tourism among youth and tourism system, the energetic progression of national tourism organizations to around the world tourism markets is the Announce of the Cabinet of Clerics of the Republic of Uzbekistan "On measures to help reinforce and create the tourism division inside the Republic of Uzbekistan" dated October 10, 2012. The center is on the assignments and prospects for the headway of inbound and private tourism (particularly among energetic people), expanding guest offers inside the field of open discuss works out in Uzbekistan, progressing the tourism brand of our country, pulling in wanders and making tourism establishment, as well as optimizing the system

of planning, retraining and advanced planning of workforce for the tourism section.

In progressing the brand of Uzbekistan, an imperative portion is given to the country's participation in several around the world introductions, fairs and conferences. In the midst of the a long time of independence, the transport and hotel system has been through and through advanced, unused examine, rail and road courses have been opened. To move forward the transport system in 2015, a contract was checked between Uzbekistan Temir Yollari JSC and the Spanish company Patentes Talgo for the supply of two high-speed trains of extended capacity. In organize to make and make strides the quality of tourism, unprecedented thought is paid to the taking after zones: - progression of existing tourism organizations. Guest organizations - organizations of subjects of guest works out for comfort, food, transport, information and publicizing organizations, as well as other organizations pointed at gathering wants of the guest. For the headway of tourism administrations, it is basic to amplify the cognitive, teacher, social and in vogue heading of these organizations, which induces the organization of authentic center compositions, introductions, celebrations of customary culture, etc. etc. For case, the Silk and Flavors Celebration is held each year in Bukhara at the conclusion of May, and it is as of presently getting to be the trademark of the city. In 2015, 200 artisans, masters, planners, national get-togethers and chefs from all over Uzbekistan came together to flabbergast and lock in celebration guests. For 3 days the celebration was gone by by 60,000 guests, among which 10,000 were inaccessible. 20 widespread organizations taken an intrigued inside the celebration. - creation of present day guest organizations, such as natural tourism, coupled with educator visits of point of interest cities;

Among the primary essential sorts of tourism are gastronomic, helpful, shopping tourism and, of course, ecotourism. Ecotourism these days is recognized all through the world as the primary valuable, in design and «green» sort of tourism. This truth is particularly satisfying to nations with astounding nature, scene, climate - our nation is fulfilled of all this. But the reality itself requires extra meanders, since the generally bundle of organizations is essential for the buyer: how and on what he will get there, where and in what conditions he will live, what and what quality increase of organizations for a comfortable remain is given to him. The think roughly of the existing potential from the point of see of the client, the creation of the basic foundation, the progression of guest courses for ecotourism are the preeminent errands for exchange visionaries organizing to carry out works out interior the field of ecotourism. - increasing the utilize of showing strategies, counting progressing inquire nearly to consider the state of tourism organizations;

Uzbekistan has encounter of a showing approach to taking care of the issue. At the conclusion of 2014, insides the system of the UNWTO extend “Silk Street Inheritance Corridors”, sociological inquire nearly was carried out and a scattering “Uzbekistan through the eyes of visitors. Comes roughly of a layout of far reaching guests to Uzbekistan on money related markers in 2014”. The think around was organized in back with NC «Uzbektourism» and UNESCO. The graph conducted at the Tashkent Around the world Talk about terminal, Gishtkuprik and Olot checkpoints, front working situations of motels in Tashkent. Tashkent, Samarkand, Bukhara and Khiva, actualized with the help of the Tashkent State College of Cash related things, Samarkand Set up of Budgetary things and Advantage, Urgench State College and Bukhara State College. Concurring to the diagram, there has been an increase in visits to Uzbekistan by blocked off citizens, the preeminent individuals entering Uzbekistan are citizens of Russia, Turkey, India, Germany and Korea, the preeminent lively travelers are individuals over the age of 50 with higher instruction. - wide thought of the adjoining community and stars interior the organizing and movement of tourism works out, guaranteeing its security; The Uzbektourism company chosen 93 settlements that might conceivably be included in traveler courses, and welcomed trade visionaries to make meanders for the enhancement of ecotourism. These are basically towns on the coast of the Amu Darya and common focuses of intrigued. - headway of joins between tourism organizers and regional masters in organize to achieve an understanding of needs of each of them and discover ways to meet them. Beneficial utilization of assignments in these zones will extend the scope of tourism organizations, which is able take its genuine blue put interior the economy of Uzbekistan.

Pulling in young tourists to Uzbekistan requires a crucial approach that takes beneath thought their slants, interface, and travel penchants. Here are many practical techniques to drag in energetic guests to Uzbekistan:

1. Progress Curiously Experiences:

Highlight the country’s affluent history, social bequest, and one of a kind attractions.

Emphasize off-the-beaten-path objectives, undertaking works out, neighborhood celebrations, and routine makes. Position Uzbekistan as a objective where energetic travelers can have bona fide and immersive experiences.

2. Computerized Advancing and Social Media:

Utilize social media stages like

Instagram, Facebook, and YouTube to show off the fabulousness of Uzbekistan.

Engage clients to share their claim experiences utilizing given hashtags.

Engage with influencers and substance creators who can create buzz and drag in more young bunches of spectators.

3. **Make Involvement Tourism:** Center on progressing involvement tourism openings such as climbing, trekking, mountain biking, and camping inside the stunning scenes of Uzbekistan.

Highlight the country's arranged common brilliance, tallying the Tian Shan Mountains, Kyzylkum Spurn, and Charvak Supply.

4. **Social Exchange Programs:**

Collaborate with colleges, understudy organizations, and travel workplaces to make social exchange programs.

Offer openings for energetic travelers to memorize around Uzbekistan's history, lingo, and traditions through workshops, homestays, and volunteer works out.

5. **Sensible Consolation and Transportation:** Permit sensible consolation choices such as lodgings, guesthouses, and budget lodgings that cater to lively travelers. Advance transportation framework and orchestrate, making it less asking for them to investigate unmistakable region of Uzbekistan.

6. **Nourishment and Nightlife:**

Highlight the shifting culinary scene in Uzbekistan, checking conventional dishes like plov, lagman, and manti. Advancement adjoining nourishment visits, cooking classes, and road nourishment encounters. Make lively nightlife with shrewd bars, clubs, and music settings in major cities like Tashkent and Samarkand.

7. **Common sense and Competent Tourism:**

Emphasize Uzbekistan's commitment to practical tourism hones and competent travel. Lively visitors are persistently cognizant of characteristic and social issues.

Advance eco-friendly works out, fortify neighborhood communities, and empower moral travel encounters.

8. **Social Occasions and Celebrations:**

Organize music celebrations, craftsmanship shows up, and social occasions that offer to youthful travelers. Show cutting edge Uzbek music, craftsmanship, and arrange.

Collaborate with neighborhood masters and entertainers to make immersive encounters that mix convention and progress.

9. **Give Computerized Assets:** Make a user-friendly and enlightening area with nitty messy travel guides, normally maps, and adjoining tips. Offer online booking choices for visits,

lodging, and transportation. Provide multilingual substance and jolt in with potential guests through social media and online get-togethers.

10. **Collaborate with Travel Influencers:**

Partner with travel influencers and bloggers who have a imperative taking after among youthful travelers. Welcome them to investigate Uzbekistan and share their encounters through blogs, vlogs, and social media posts. Their honest to goodness and relatable substance can induce their supporters to visit Uzbekistan.

Literature:

1. Law of the Republic of Uzbekistan «On Tourism». Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2006, N° 14, art. 113
2. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan «On measures to further support and develop the tourism sector in the Republic of Uzbekistan». Collection of legislation of the Republic of Uzbekistan, 2012, N° 41-42, art. 478
3. Report of the President of the Republic of Uzbekistan I. A. Karimov at a meeting of the Cabinet of Ministers dedicated to the results of the socio-economic
4. development of the country in 2015 and the most important priority areas of the economic program for 2016. [http://www.press-](http://www.press-service.uz/)
5. [service.uz/](http://www.press-service.uz/)
6. Statistical compendium on the main results of the economic and social development of the Republic of Uzbekistan in the years of independence and forecast indicators for 2011-2015. - T.: Uzbekistan.
7. Li D. M. Fundamentals of tourism. Textbook for university students - T: TSEU, 2011. - 160 p.
8. <http://uzbektourism.uz/>

## **08.00.00 - IQTISODIYOT**

### **JAHONDA ZAMONAVIY OLIY TA'LIM MUASSASALAR SHAKLLANISHIGA TA'SIR KO'RSATGAN ASOSIY SHART-SHAROITLAR VA OMILLAR**

**RAHMATOV SHUXRAT AXATOVICH**  
*Buxoro TURON ZARMED universiteti*  
*“Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri*

### **ОСНОВНЫЕ УСЛОВИЯ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ВУЗОВ В МИРЕ**

**РАХМАТОВ ШУХРАТ АХАТОВИЧ**  
*Бухарский университет TURON ZARMED*  
*Заведующий кафедрой “Экономика”*

### **MAIN CONDITIONS AND FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF MODERN INSTITUTIONS OF HIGHER EDUCATION IN THE WORLD**

**RAKHMATOV SHUKHRAT AKHATOVICH**  
*Bukhara TURON ZARMED University*  
*Head of the «Economics» department*

*Ushbu maqolada jahonda zamonaviy oliy ta'lim muassasalari faoliyatining umumlashtirilgan modeli ularning o'quv, ilmiy va iqtisodiy faoliyat olib borishini, shuningdek ularning tarkibida innovatsion infratuzilma ob'ektlari mavjudligi, asosiy shart sharoit va omillar borasidagi qarashlar o'rganilgan.*

*Kalit so'zlar: texnogen xususiyat, tadbirkorlik madaniyati, global iqtisodiyot, oltinchi texnologik tizim, innovatsion-tadbirkorlik.*

*В данной статье рассматривается обобщенная модель деятельности современных вузов мира, их образовательная, научная и экономическая деятельность, а также наличие инновационной инфраструктуры, основные условия и факторы.*

*Ключевые слова: техногенная характеристика, бизнес-культура, мировая экономика, шестая технологическая система, инновационно-предпринимательская деятельность.*

*This article discusses a generalized model of the activities of modern universities in the world, their educational, scientific and economic activities, as well as the availability of innovative infrastructure, basic conditions and factors*

*Key words: technogenic characteristic, business culture, world*

*economy, sixth technological system, innovative and entrepreneurial activity*

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish borasida, oliy ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasini rivojlantirish, ilmiy ishlanmalarni tijratlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, xalqaro ilmiy hamkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida bir qancha ishlar amalga oshirilayotganligini va bu borada hukumat tomonidan Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sifatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilganligini alohida ta'kidlash lozim.

Oxirgi o'n yillar bir qator yo'nalishlar bo'yicha iqtisodiy rivojlanishning sezilarli tuzilmaviy siljishlari bilan ifodalanadi. Birinchidan, ushbu davr mobaynida rivojlangan mamlakatlarda industrial iqtisoddan bilimlarga asoslangan, ya'ni yangi bilimlar generatsiyasi va ularni amaliyotda qo'llash iqtisodiy o'sish va rivojlanishga kuchli ta'sir ko'rsatadigan iqtisodga o'tish jarayoni kuzatilmoqda; ikkinchidan, dinamik o'zgarishlar, kooperatsiya, innovatsion faoliyat sub'ektlari o'zaro integratsion aloqalari bilan mustahkamlangan milliy va mintaqaviy innovatsion tizimlar shakllanmoqda; uchinchidan, ilm talab, yuqori texnologik, innovatsion ishlab chiqarishlar iqtisodiy o'sish va rivojlanishning asosiy omiliga aylanmoqda [1].

Dunyoda oliy ta'lim muassasalar post-klassik rivojlanishi shakllanishining boshlanish davri o'tgan asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Ushbu davr oliy ta'lim muassasalarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlardagi roli o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Eng ahamiyatli post-klassik oliy ta'lim muassasalar shakllanishining va ularga nisbatan jamiyatdagi munosabatlar o'zgarishining dastlabki shart-sharoitlari quyidagilardan iboratdir [4]:

- zamonaviy sivilizatsiyaning texnogen xususiyati;
- jamiyatda tadbirkorlik madaniyatini shakllanishi;
- bilimlarni yaratish jarayonining murakkablashishi;

talabalar va o'qituvchilar o'rtasida noananaviy fikrlashning hamda ta'lim qadriyatlarini tizimining yangi modeli shakllanishi, loyiha faoliyatining rivojlanishi;

oliy ta'lim muassasalarda innovatsion salohiyatni shakllantiradigan intellektual, ilmiy-tadqiqot, moliyaviy, ishlab chiqarish, texnologik, boshqaruv, axborot, tadbirkorlik va boshqa imkoniyatlarning rivojlanishi [2].

Mamlakatimiz iqtisodchi va pedagog olimlari ilmiy ishlarida bugungi kungi oliy ta'lim muassasalarining milliy innovatsion tizimning asosiy

elementi, mintaqaviy innovatsiyalar tashkilotchisi, g'oyalar generatori, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi ularni bog'lovchi asosiy bo'g'in, texnologiyalarni tijoratlash tirish markazi, bilim va texnologiyalar transferi tizimining asosiy elementi, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar o'sishi va rivojlanishining yetakchisi sifatidagi biz uchun nisbatan yangi rollarini o'rganishga yetarlicha ahamiyat berilmagan. Mamlakatimiz jahon ta'lim xizmatlari bozorida o'z o'rnini egallashi yo'lida oliy ta'lim muassasalarining innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish borasida bir qancha ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etadi [3].

Turli mualliflarning ilmiy ishlarini o'rganib chiqish bizga jahondagi zamonaviy oliy ta'lim muassasalarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy shart-sharoitlar va omillar ro'yxatini tizimlashtirish imkonini berdi.

Jahonda zamonaviy OTMLar shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy shart-sharoitlar va omillar

Jahonda zamonaviy OTMLar shakllanishi shart-sharoitlari

Jahonda zamonaviy OTMLar shakllanishi omillari

Global darajada

Global iqtisodiy, axborot va ilmiy maydonlarning shakllanishi

Axborot tizimi va informatsion jamiyatlar rolining tobora ortib borishi

OTMLarning xalqaro ilmiy-tadqiqot konsorsiumlari, bilimlar va texnologiyalar transferi tarmoqlari; innovatsion tarmoqlar bilan integratsiyasi [5]

Fan va texnologiyalar sohasining yuqori o'sish dinamikasi, ularning murakkablashuvi Fanlararo va tarmoqlararo aloqalar sonining ko'payishi, konvergent texnologiyalarning rivojlanishi

Oltinchi texnologik tizimning shakllanishi

Jamiyatda turli jarayonlarning raqamlashtirilishi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi

OTMLarning bilimlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyot sharoitida faoliyat ko'rsatishi Quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olgan innovatsiyalarni ishlab chiqarish tizimining shakllantirilishi: bilimlar generatsiyasi, bilimlar ni joriy qilish, innovatsion mahsulot va xizmatlar ko'rinishidagi bilimlarni sotish va tarqatish

Jahon mahsulot va xizmatlar bozorida raqobatning kuchayishi

Innovatsiyalarning tez tarqalishi va kirib borishi

Yirik yuqori texnologiyali biznesni yuritish, sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida dunyo bo'ylab innovatsion markazlarni yaratish, jahonning yetakchi OTMtlari ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari bilan hamkorlik qilish bilan tavsiflangan transmilliy korporatsiyalar sonining ko'payishi.



Intellektual mulk bozorining innovatsiya natijalarini amalga oshirish va joriy etish bosqichidagi yetakchi roli [6]

Makrodarajada (milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizim darajasida)

Mamlakatlar tomonidan innovatsion rivojlanish strategiyasining qo'llab-quvvatlanishi Mamlakatni innovatsion rivojlantirish sohasida strategik rejalashtirish va prognozlashtirish faoliyatini tashkil qilish

Davlat-xususiy sheriklik modelini rivojlantirish

OTMLar rivojlanish dasturlarini qo'llab-quvvatlovchi konkursli mexanizmlarni shakllantirish [4]

Innovatsion-tadbirkorlik muhitini shakllantirish T a s h k i l o t l a r innovatsion faolligini oshirish

Venchur bozorida xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalarni ko'paytirish

O'zaro hamkorlik tarmog'ini shakllantirish M u v o f i q innovatsion infratuzilmaga ega milliy innovatsion tarmoqlarni va innovatsion ekotizimni shakllantirish

Mintaqa (hudud) darajasida

Mintaqa (hudud) darajasida o'zaro hamkorlik tarmog'ini shakllantirish OTMlarning innovatsion faoliyati jarayonida talab etiladigan hamkorlik sohasiga muvofiq hududiy tarmoqlararo hamkorliklar sonining ko'paytirish

Mintaqaviy darajada nafaqat vertikal, balki gorizontaal aloqalarni o'z ichiga oladigan OTMLar va davlat muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tizimining murakkablashishi [7].

Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya (hududiy innovatsion klasterlarni shakllantirish)

OTM darajasida

Amaldagi bozor mexanizmlarining va tashqi innovatsion jarayonlarning OTMLar tashkiliy tuzilmasi va innovatsion infratuzilmasiga ta'siri OTMLar, shu jumladan ularning ichki ilmiy va o'quv bo'linmalari faoliyatini reyting asosida baholash

OTMlarda ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish va ularning natijalarini tijoratlashtirish vazifalarini bajarish zaruriyatini keltirib chiqaradigan, rivojlanishga turtki bo'ladigan raqobat muhitining ta'siri

Yuqoridagi shart-sharoit va omillar ta'sirida zamonaviy oliy ta'lim muassasalarining shakllanishi va rivojlanishi dunyoda fan, texnologiya va innovatsiya ko'rsatkichlarining o'sishi bilan bir vaqtda amalga oshirilgan.

Bir qator olimlarimiz tomonidan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini boshqarish va moliyalashtirish, rivojlantirish tajribalari tadqiq etilgan

va ilg‘or, samarali tajribalarni mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimiga joriy qilish borasidan takliflar ishlab chiqilgan. [5]

Iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish sohasida samarali ilmiy, texnik va innovatsion siyosatni amalga oshirish strategik vazifalardan biriga aylanmoqdi [7]. Bunday siyosatni amalga oshirishda oliy ta‘lim muassasalariga muhim rol ajratiladi. Oliy ta‘lim muassasalarining asosiy vazifasi jamiyatning global rivojlanish tendensiyalari bilan belgilanadigan bo‘lib, yaratilgan yangi bilim va texnologiyalarni uzatish orqali jamiyatning ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 08 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.;

Raxmatov Sh.A. Predprinimatelskie universitety i ix sovershenstvovanie // Uchenyy XXI veka. – № 11. – Rossiya, Yoshkar-Ola 2020. – S. 94.;

Raxmatov Sh.A. Principal components of implementation of “university-3.0” transformation in the development of innovative-entrepreneurial activities of modern higher educational institutions // Journal of Physics: Conference Series. – England, 2020. – R. 1-6.;

Kalmetov B.D. Obrazovatelnyy kompleks v rynochnoy ekonomike.- Toshkent: Adolat, 2003. ;

Raxmatov Sh.A. Oliy ta‘lim muassasasi menejeri innovatsion-tadbirkorlik xislatlarini baholash metodi // Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar. – № 4. – Buxoro, 2021. – B. 70.;

Rukovodstvo Oslo. Rekomendatsii po sboru i analizu dannykh po innovatsiyam / Trete izdanie. Perevod na russkiy yazyk. Gosudarstvennoe uchrejenie «Sentr issledovaniy i statistiki nauki» (SISN), 2010.

Rahmatov Sh.A., Alimova R.X. Oliy ta‘lim muassasalari innovatsion tadbirkorlik bo‘linmalari amalga oshiruvchi vazifalarining asosiy yo‘nalishlarini shakllantirish // Novosti obrazovaniya: issledovanie v XXI veke, 2022

## **YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISNING AHAMIYATI**

*Hamidov Rushan Erkinovich*

*TURON ZARMED universiteti iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi.*

*Annotatsiya. Bu maqolada inson kapitalini rivojlantirishning zamonaviy tizimini joriy etish va O'zbekiston sharoitida qo'llash, xorijiy va mahalliy olimlarning fikrlari o'rganilgan. Shu bilan birga inson kapitalining rivojlanish yondashuvlari va ularni O'zbekistonda qo'llashning muammolari yoritilgan va takliflar berilgan.*

*Kalit so'zlar. Raqamli iqtisodiyot, inson kapitali, inson resurslarini boshqarish tizimlari, HR, personalni boshqarish, personal.*

*Abstract. In this article, the introduction of the modern system of human capital development and its application in the conditions of Uzbekistan, the opinions of foreign and local scientists are studied. At the same time, human capital development approaches and the problems of their application in Uzbekistan were highlighted and suggestions were made.*

*Key words: Digital economy, human capital, human resource management systems, HR, personal management, personal*

Kirish. Yangi O'zbekistonda oxirgi yillaridan boshlab amalga oshirilayotgan islohotlar insonni rivojlantirish maqsadiga yo'naltirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev alohida ta'kidlab o'tganidek, bizning o'z oldimizga qo'ygan asosiy maqsadimiz - "barqaror rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga asoslangan ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so'zda emas, amalda oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan, jahon miqyosida obro'-e'tibor qozongan jamiyat barpo etish"dir. O'zbekistonda 2023-yil «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim» yili deb e'lon qilindi. Bu mamlakatda inson omiliga qaratilayotgan e'tibor dan dalolat beradi. Inson va uning bilimlari, istedodi, tajribasi istalgan jamiyat farovonligi va davlat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omiliga aylanmoqda.

Bugunda mamlakatimizda mavjud an'anaviy mehnat munosabatlari shakllari yetarli darajada moslashuvchanlikka ega emas hamda raqamli iqtisodiyotning talablariga, ichki bozorda va dunyo bozorida kuchayib borayotgan raqobatga to'liq javob bera olmaydi. Shu bilan bir qatorda inson resurslarini boshqarishda sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda lekin kadrlar salohiyati, kadrlarni o'qitish jarayonidagi oqsoqliklar

bevosida muammolarni to'liq barham topishiga qarshilik ko'rsatmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Inson kapitali, ya'ni shaxslarning bilim va ko'nikmalari bilan bog'liq resurslar -iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismidir. Inson kapitalining shakllanishini tushunish va kuzatish uchun global miqyosda mamlakatlar bilan taqqoslanadigan ko'rsatkichlarni o'rganish kerak. Xalqaro yutuq testlaridan foydalanishning ko'payishi bu yo'nalishdagi muhim qadamdir. Biroq, bunday testlar asosan rivojlangan mamlakatlarda o'tkaziladi, bu esa inson kapitalini shakllantirishdan eng ko'p foyda olishi mumkin bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlardagi ta'lim usullarini tahlil qilish qobiliyatimizni cheklaydi. Bu erda biz 2000 yildan 2017 yilgacha 164 ta davlatning global miqyosda taqqoslanadigan ma'lumotlar bazasini yaratish orqali bu bo'shliqni bartaraf qilamiz. Ma'lumotlar dunyo aholisining 98 foizini tashkil qiladi va rivojlanayotgan iqtisodiyotlar kiritilgan mamlakatlarning uchdan ikki qismini tashkil qiladi. Ushbu ma'lumotlar to'plamidan foydalanib, biz boshlang'ich va o'rta ta'limga qabul qilishning ko'payishiga qaramay, ta'lim sohasidagi global taraqqiyot - barqaror rivojlanishning ustuvor maqsadi - cheklanganligini ko'rsatamiz.

Inson kapitali Indeksning muhim xususiyati shundaki, u qat'iy mikro-ekonometrik tadqiqotlarga asoslangan holda sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarining shaxslar va mamlakatlar samaradorligiga qo'shgan hissasini o'lchaydi. Noam Angrist, Simeon Djankov, Pinelopi Koujianou Goldberg va Garri Patrinos tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida Inson kapitali indeksini o'lchash usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi va tahlil natijalari

Inson kapitali indeksi (ing. Human Capital Index (HCI) – sog'liqni saqlash va ta'limning keyingi avlod ishchilarining samaradorligiga qo'shgan hissasini miqdoriy jihatdan belgilaydi. Indeks ilk bor 2018-yil oktabr oyida e'lon qilingan va 157 mamlakatni o'z ichiga olgan. Inson kapitali indeksi bolaning kelajakda qay darajada samarali kadr bo'lib shakllanishini o'lchaydi. Indeks qiymati 0 dan 1 gacha intervalda bo'lib, qiymat 1 ga yaqinlashishi bugungi bolalarning kelajakda qay darajada yetuk inson bo'lib shakllanishini ko'rsatadi.

Inson kapitali indeksida 3 ta asosiy komponent bor:

1. Tirik qolish ehtimoli  
5 yoshdan oshgan bolalar ulushi - foizda (%)
2. Ta'lim  
Ta'lim miqdori (kutilayotgan ta'lim davomiyligi)  
Ta'lim sifati (uyg'unlashgan test natijalari)
3. Salomatlik holati

Katta yoshdagilarning umr davomiyligi (60 yoshgacha yashagan 15 yoshli o'smirlar ulushi, %)

Bolalar o'rtasida sog'lom o'sish (5 yoshgacha bo'lgan bolalarning rivojlanish sur'atlari, %)

Inson kapitali indeksi tirik qolish ehtimoli, ta'lim va sog'liqning mahsuldorlikka nisbiy hissasini quyidagi tarzda ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi:

$IKI = \text{Tirik qolish ehtimoli} * \text{Ta'lim} * \text{Salomatlik holati}$

Inson kapitali indeksi - 2020 bo'yicha mamlakatlar ro'yxati, eng yuqori 10 ta mamlakat keltirilgan.

Reyting	Mamlakatlar	Baholash (erishilgan potentsial foiz)
1	 Singapur	0.88
2	 Hong Kong	0.81
3	 Yaponiya	0.80
4	 Koreya Respublikasi	0.80
5	 Kanada	0.80
6	 Finlandiya	0.80
7	Makao	0.80
8	 Shvetsiya	0.80
9	 Irlandiya	0.79
10	 Niderlandiya	0.79

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan shuni ko'rish mumkinki inson kapitali borasida jahon iqtisodchi olimlari ko'plab tadqiqotlar olib bormoqda, jahonning rivojlangan mamlakatlarida inson kapitali indeksi nihoyatda yuqori, davlatning inson resurslaridan unumli foydalanishi jamiyat rivojini taminlashi xulosa qilinishi mumkin. Yangi O'zbekistonda davlatning siyosatidagi asosiy e'tibor qaratilayotgan soha bu tadbirkorlikni va inson kapitalini rivojlanishiga e'tibor qaratilmoqda shu orqali jamiyat rivojini taminlashga uruniliyapti biroq ishlar yetarli darajada natija bermayotgani jamiyat sekin rivojlanayotgani bu faqat qonun yoki jamiyatdagi byurakrarak to'siqlar sababli emas. Shu o'rinda quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

- Birinchi navbatda sog'lom ota-onalarni sog'lim farzandlar dunyoga keltirishiga e'tibor qaratish, sog'liqni saqlash sohasidagi bolalar salomatligiga e'tibor berish.

- Ta'lim davomiyligi va talim sifati yo'nalishlarini qayta o'rganib shu yo'nalishda islohotlarni amalga oshirish, ayniqsa maktab talimi davomiyligini qayta ko'tib chiqish.



- Katta yoshdagilar orasida salomatlik etikasini rivojlantirish maqsadida bolalarni yoshlikdan o'z sog'ligiga e'tibor qaratishi kerakligi borasida maktab ta'limidan boshlab maxsus fanlar o'qitilishi bo'yicha ma'lum yo'nalishlarni belgilash kerak.

Bizningcha yuqoridagilarni jamiyat hayotiga tadbiiq qilinishi inson kapitali indeksiga bevosita ijobiiy tasir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiiyotlar ro'yhati

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2022.

<https://uzreport.news/politics/Ozbekistonda-2023-yil-nomi-e-lon-qilindi>

[https://uz.wikipedia.org/wiki/Inson\\_kapitali\\_indeksi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Inson_kapitali_indeksi)

<https://www.nature.com/articles/s41586-021-03323-7>

Jahon banki malumotlari. The World Bank. doi:10.1596/1813-9450-8593